

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

TAHRIRIYAT HAY’ATI

Bosh muharrir: prof. Nabiye D.H.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.

Mas’ul kotib: dots. Ne’matova Y.O.

Tahririyat hay’ati a’zolari:

prof. Bahriddinova B.M.

prof. Bo‘riyev O.B.

prof. Yoziyev L.Y.

prof. Jabborov A.M.

prof. Jabborov X.J.

f.-m.f.d. Imomov A.A.

k.f.d. Kamolov L.S.

prof. Kuchboyev A.E.

prof. Mengliyev B.R.

prof. Normurodov M.T.

prof. Nurillayeva Sh.N.

prof. Nurmanov S.E.

p.f.d. Oripova N.X.

prof. Ochilov A.O.

prof. Tojiyeva G.N.

prof. To‘rayev D.T.

prof. Umirzakov B.Ye.

prof. Xayriddinov B.X.

prof. Xolmurodov A.E.

prof. Choriyev S.A.

prof. Shodiyev R.D.

prof. Shodmonov N.N.

prof. Erkeyev A.P.

prof. Ernazarova G.X.

prof. Eshov B.J.

prof. Qurbonov Sh.Q.

prof. Qo‘yliyev B.T.

prof. Bekmurodova G.H.

prof. Imanova G.T.

prof. Bobonazarov G‘.Y.

prof. Shukurov O.M.

prof. Yusupova A.Sh

f.f.d. Imomova G.M.

dots. Ro‘ziyev B.X.

dots. Eshqorayeva N.G‘.

dots. Xolmirzayev N.S.

dots. Hamrayeva Y.N.

dots. Rizayev B.X.

dots. Nashirova Sh.B.

f.f.f.d. Musayeva D.T.

2025
4(1)

QarDU xabarlar
Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Muassis: Qarshi davlat universiteti

Jurnal Qashqadaryo viloyati

Matbuot va axborot boshqarmasi

tomonidan 2010.17.09 da

**№ 14–061 raqamli guvohnoma
bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.**

Musahhihlar:

Shodmonova D.E.

Tursunboyev B.N.

Pardayeva D.R.

Sahifalovchi:

Yuldoshev D.N.

Texnik muharrir:

Raxmatov M.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining qarorlari bilan fizika-
matematika, kimyo, biologiya, tarix,
falsafa, siyosatshunoslik, filologiya,
pedagogika-psixologiya va iqtisod
fanlari bo‘yicha doktorlik
dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**Jurnal 2009-yilda
tashkil etilgan.**

**Yiliga 4 marta
chop etiladi.**

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili: 180003, Qarshi,
Ko‘chabog‘, 17. Qarshi davlat universiteti,
Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.

Telefon: 97-222-10-80

TelegramID:

https://t.me/Qardu_Xabarlar2024

Elektron pochta: qardu_xabarlar@mail.ru

Veb-sayt:

<https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW>

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlar**

Jurnaldan olingan materiallarga “QarDU
xabarlari” jurnalidan olindi”, degan havola
berilishi shart. Mualliflardan kelgan
materiallar egalariga qaytarilmaydi.

MUNDARIJA

TARIX

Berdiyev A.A. Qo'ng'irotlar sulolasi davrida Xiva xonligining tashqi siyosiy strategiyasi va xalqaro savdo diplomatiyasi (XVIII–XIX asrlar).....	4
Melikov N.A. Samarqand viloyati sug'orish tizimida Darg'om kanalining tutgan o'rni	10
Telyayev M.B. Qo'shinning tayyorgarlik va jihozlanish darajasi (aslahasi, jangovarligi, kiyim-kechagi, otlari va boshqalar).....	15
Ernazarov A.X. G'uzor bekligi - istilochilarga qarshi ozodlik kurashining dastlabki tayanchi.....	19
Mamajanov A.A. O'zbekistonda sug'orish tizimlari hamda yer melioratsiyasi jarayonlari: tarixiy jarayon va tajribalar.....	25
Abdiyeva S.I. Qashqadaryo ziyolilari tarixi: XX asr 50–80-yillaridagi tarixchi olimlar faoliyati misolida.....	31
Худойбердиев Д. Факторы, формирующие потребительское поведение личности.....	35
Oromov Sh.N. Mustahkam ildizlar, mushtarak ma'naviyat: o'zbek-turkman adabiy aloqalari tahlili.....	42

FALSAFA

Xudoyqulov Y.A. Harbiy ilmiy tadqiqot asosida buzg'unchi texnologiyalarga qarshi kurashda zamonaviy ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarning o'rni.....	48
Turayeva A.P. Farosat ilmi falsafiy tafakkur ko'zgusida.....	52
Eshpulatov I.S. Faxriddin Roziyning mantiq maktabi: namoyandalar va ularning asarlari.....	58

FILOLOGIYA

Abdurakhmonov M.O. Main features of the use of english and uzbek ergonymic units and their translation strategies.....	65
Jo'rayeva M.N. O'zbek tilida tarz-holat semali til birliklari lingvistik maydon ko'zgusida.....	68
Tursunova Y.Y. Abdulla Qahhor asarlari ayrim toponimlarining lingvopoetikasi.....	74
Bobojonov Sh.X. So'zlarni sememaga birlashtirishda nutqiy va leksikografik omillarning o'rni	78
Jabborov X.J. Maktab ta'limiga oid terminlarni o'rganilishi va uni tadqiq etishga doir.....	82
Bazarova D.B. O'zbek tilida leksik variantdosh birliklarning lingvistik xususiyatlari va funksional roli.....	86
Kamalova D.E. Kompozitsiyaning badiiy asardagi roli.....	90
Xasanova D.A. O'zbek adabiyotshunosligining zukko bilimdoni.....	97
Duysenbayev O.I. Romanda tasvir va talqin uyg'unligi.....	105
Aminov F.K. Multimodality in social media communication: interaction of verbal and visual modes.....	110
Muxitdinova N. Muhammad G'oziy devonida irfoniy mazmun poetikasi.....	115
Toshtemirov B.O. Ijtimoiy-siyosiy leksikaning o'rganilish tarixi.....	120
Nuriddinov Sh.B. Furqat muvashshahlari to'g'risida ayrim qaydlar.....	125

PEDAGOGIKA

Musayeva F.M., Kadirbekova D.H. Enhancing the role of foreign language in professional practice through specialized corpora	131
Turakulova B.N. A reflective case study on developing an understanding of critical reading.....	134

Bakhronova M.A. Challenges and opportunities of teaching english for specific purposes (esp) in Uzbekistan.....	141
Suyunov O.O. Shaxs irodaviy fazilatlarini rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	148
Tuxtabayev M.A. Muhandislik kadrlarini tayyorlashda sanoat va ta’lim hamkorligida innovatsion yondashuvlar.....	152
Muxamedjanova S.Dj. Madaniyatlararo kompetensiya – tibbiyotda muvaffaqiyatli kasbiy muloqotning asosi.....	156
Nekboyev X.X., Xaydarov T.Z. Zamonaviy axborot texnologiyalari va mediata’limda ularning ta’limiy hamda tarbiyaviy imkoniyatlari.....	161
Dusyorova K.N., Meyliyeva M.M. Globallashuv va raqamli axborot muhitida yoshlar ongiga ta’sir etuvchi omillar hamda ota-onalarning ijtimoiy-pedagogik mas’uliyati.....	166
Jalilova H.T. Kasbiy terminlarni o’rgatishda ko’p tilli lug’atlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati.....	171

SIYOSATSHUNOSLIK

Safarov N.A. Jinoyat va jinoyatchilik: mazmun va mohiyati, talhil va talqin.....	176
Djurayev N.A. Davlat va jamiyat boshqaruvi integratsiyasining barqaror taraqqiyotdagi konseptual o’rni va amaliy samaradorligi.....	181
Ro’ziqulov A Birlashgan Millatlar Tashkilotining Afg’onistondagi faoliyati: tashkiliy-huquqiy va siyosiy jihatlari	185

**QO'NG'IROTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI
SIYOSIY STRATEGIYASI VA XALQARO SAVDO DIPLOMATIYASI
(XVIII–XIX ASRLAR)**

Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası dotsenti

abduvali4111104@gmail.com

ORCID 0009-0003-6958-0605

UDK 94(575.1)"17/18":327

Annotatsiya. Ushbu maqola Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davrida (XVIII–XIX asrlar) tashqi siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda tarixiy manbalar, xususan rus elchilari, sharqshunos olimlar va o'rta asr tarixchilari (A. Chuloshnikov, N. Muravyev, G. I. Danilevskiy va boshqalar) ning asarlari hamda diplomatik hujjatlar tahlil etilgan. Shuningdek, Xiva xonligining Rossiya, Buxoro, Eron, Hindiston va boshqa davlatlar bilan olib borgan siyosiy-diplomatik munosabatlari, elchilik missiyalari, savdo yo'llari hamda iqtisodiy manfaatlar tizimi yoritiladi.

Xususan, Rossiya bilan aloqalarning shakllanishi va jadallashuvi, savdo karvonlari yo'nalishlari, bojxona tizimi, vositachilik faoliyatlari hamda savdogarlarga yaratilgan sharoitlar aniq tarixiy dalillar asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalari Xiva xonligining o'z davrida nafaqat mintaqaviy siyosiy markaz, balki xalqaro savdo tizimida ham muhim vositachi sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

Maqola O'rta Osiyodagi xonliklararo va xalqaro diplomatik munosabatlar tarixini, xususan, Xiva xonligining tashqi siyosiy strategiyasi va iqtisodiy integratsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Qo'ng'irotlar sulolasi, Rossiya, Eron, Hindiston, diplomatik aloqalar, elchilik, savdo yo'llari, tashqi siyosat, iqtisodiy munosabatlar.

**THE FOREIGN POLICY STRATEGY AND INTERNATIONAL TRADE
DIPLOMACY OF THE KHIVA KHANATE DURING THE QONGIRAT
DYNASTY (18TH–19TH CENTURIES)**

Abstract. This article examines the formation and development of the foreign policy and trade-economic relations of the Khiva Khanate during the Qongirat dynasty (18th–19th centuries), as well as their significance in regional and international contexts. The study analyzes historical sources, including the works of Russian envoys, Orientalists, and medieval historians (A. Chuloshnikov, N. Muravyov, G. I. Danilevsky, and others), along with diplomatic documents.

Particular attention is given to the political and diplomatic relations of the Khiva Khanate with Russia, Bukhara, Iran, India, and other states, as well as to the missions of envoys, trade routes, and economic interests. The research highlights the establishment and intensification of ties with Russia, the organization of caravan trade, customs systems, intermediary activities, and the conditions created for merchants.

The findings demonstrate that during this period, the Khiva Khanate functioned not only as a regional political center but also as a key intermediary in the system of international trade. The article contributes to the scholarly understanding of inter-khanate and international diplomatic relations in Central Asia, particularly the foreign policy strategy and economic integration of the Khiva Khanate.

Keywords: Khiva Khanate, Qongirat dynasty, Russia, Iran, India, diplomatic relations, embassies, trade routes, foreign policy, economic relations.

Kirish. Xiva xonligi Markaziy Osiyo siyosiy tarixida muhim o'rin tutgan davlatlardan biri bo'lib, XVIII–XIX asrlarda Qo'ng'irotlar sulolasi o'zining faoliyati va savdo-iqtisodiy aloqalari bilan ajralib turadi. Bu davr Xiva xonligining milliy ichki siyosati, balki xalqaro maydondagi mavqeyi mustahkamlangan davr sifatida ham e'tiborga loyiqdir. Bu jarayonda xonlikning Rossiya, Eron, Buxoro, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan olib borgan diplomatik munosabatlari va savdo aloqalari o'ziga xos siyosiy va iqtisodiy mazmun kasb etgan.

XVIII asrning yarmidan keyin Xiva xonligi bilan savdo yo'llari kesishgan hudud sifatida G'arb va Sharq o'rtasida bajarilgan vositachilik rolini olgan. Bu hol xonlik iqtisodiyotining rivojlanishiga, xalqaro tizimiga faol qo'shilishiga va yangi diplomatik yo'nalishlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Rossiya imperiyasi bilan o'zaro munosabatlar va savdo aloqalar, ayniqsa, muhim strategik ahamiyat kasb etdi, chunki ular O'rta Osiyoning geosiyosiy manzarasida yangi jarayonlarni beradi.

Xiva xonligining siyosati va iqtisodiy aloqalari xalqaro diplomatiyada tarixiy ahamiyatga ega. Qo'ng'irotlar sulolasi hozirgi siyosiy strategiyalar, elchilik missiyalari, bojxona tizimi va karvon yo'llari orqali shakllangan savdo diplomatiyasi O'rta Osiyo davlatlari munosabatlarining rivojlanishida muhim omil bo'lgan.

Qo'ng'irotlar sulolasi davridagi Xiva xonligining siyosiy strategiyasi va xalqaro savdo siyosatini va tarixiy manbalar asosidagi tahlil qilish, iqtisodiy tajribalar va tarixiy xalqaro tizimdagi ahamiyatini aniqlashdan iboratdir.

Ushbu tadqiqot Xiva xonligining XVIII-XIX asrlardagi tashkilot yo'nalishlarini yangi ilmiy tadqiqotlar asosida o'rganishga, O'rta Osiyo xonlarning xalqaro maydondagi o'rnini va roli haqidagi tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiy-komparativ (taqqoslama) tahlil, manbashunoslik yondashuvi, tizimli-hududiy yondashuv hamda statistik-ma'lumotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Asosiy e'tibor rus elchilari, sharqshunos olimlar va o'rta asr tarixchilari (A. Chuloshnikov, N. Muravyev, G.I. Danilevskiy va boshqalar) ning asarlari hamda diplomatik hujjatlar tahliliga qaratilgan. Maqolada Xiva xonligining Rossiya, Buxoro, Eron, Hindiston va boshqa davlatlar bilan olib borgan siyosiy-diplomatik munosabatlari, elchilik missiyalari, savdo yo'llari hamda iqtisodiy manfaatlar ahamiyatini tizimli aniqlashga qaratildi.

Tahlil davomida Xiva xonligi va Rossiya o'rtasidagi karvon yo'llarining shakllanishi, savdo tovarlarining turlari, tranzit hajmi va ularning mintaqaviy iqtisodiyotga ta'siri tarixiy holatlar kontekstida o'rganildi. Maqolani yozish jarayonida tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Qo'ng'irotlar sulolasi hozirgi Xiva xonligi o'zining siyosatini ikki asosiy yo'nalishda olib borgan: birinchisi – Diplomatik **munosabatlarni** iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, **Sharq davlatlari (Eron, Hindiston, Buxoro)** bilan an'anaviy savdolari saqlab qolish orqali.

XIX asr tarix hujjatlarida, rus elchilari (N. Muravyov, G.I. Danilevskiy) va o'rta asr asarlarining tahlili Xiva xonligining xalqaro savdodagi faol ishtiroki bilan bog'liq iqtisodiy markaz sifatidagi mavqeyini aniq tasdiqlaydi. Bunda karvon yo'llarining rivoji bojxona tizimi, vositachilik faoliyatining takomillashuvi va elchilik missiyalari xonlikning qudratini kuchaytirgan.

Tadqiqot Xiva xonligining iqtisodiy siyosati tashkilotga moslashganligini ko'rsatadi. Xonlik Rossiya orqali G'arb mamlakatlarga chiqishga ega bo'lib, shu orqali o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilgan. Shu bilan birga, diplomatik aloqalarda xonlik savdoni siyosiy boshqaruv bilan uyg'unlashtirishga intilgan.

Xiva xonligi XVIII-XIX asrlarda kundalik ijtimoiy markaz, balki xalqaro savdo tizimida faol vositachi davlat sifatida shakllandi. Undagi siyosiy strategiyasi O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasida xavfsizlikni ta'minlashda tarixiy tajriba sifatida e'tirof etiladi.

Xiva xonligining tashkil topish jarayoni bevosita Xorazmdagi yuqori tabaqa vakillarining Eron safaviylari, Buxoro shayboniylari va Dashti Qipchoqdagi arabshohiyalar xonadoni bilan olib borgan o'zaro aloqalariga chambarchas bog'liq ravishda kechgan. Ayniqsa, bu jarayonda Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchi o'zbek urug'lari faol ishtirok etgan va ularning 1511-yilda Xorazmga kirib kelishi istilochilik harakati emas, balki mahalliy amaldorlar va aholi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy tadbir

bo'lgan edi.

XVI asrdan boshlab O'rta Osiyo tarixida muhim iz qoldirgan xonliklardan biri Xiva xonligi Buxoro xonligi kabi o'zining geografik jihatdan qulay joyda joylashgani va suv yo'li bilan ta'minlangani bilan ham ajralib turadi. Muhimi, Xiva xonligi karvon yo'llari kesishgan joyda joylashgan. Ayniqsa, u Rossiyaning Buxoro bilan savdo aloqalarida muhim o'rin egallagan. Xiva xonligi G'arb bilan Sharq o'rtasidagi savdoda faol qatnashgan. Xususan, xonlikning tashqi savdo aloqalaridagi keng ishtiroki uning hunarmandchilik taraqqiyoti bilan ham bog'liq edi. Aynan xonlik poytaxti bo'lgan Xiva shahri hunarmandchiligining o'zi uzoq tarixiy an'analarga ega. Shahar hunarmandchiligi ixtisoslashtirilgan bo'lib, jumladan, gilam to'qish, yog'och o'ymakorligi, to'quvchilik va boshqa hunarmandchilik tarmoqlari mavjud edi [3].

Xiva xonligi XVI asrdanoq Rossiya, Hindiston, Eron, Buxoro xonligi kabi davlatlar bilan savdo aloqalarida bo'lgan. Xivaning tashqi iqtisodiy aloqalarini Xivaga kelgan rossiyalik va boshqa xorijlik elchilarning, shuningdek, Rossiyaga borgan xivalik elchilarning keltirgan ma'lumotlar asosida tahlil qilish mumkin.

Xususan, Rossiyaning O'rta Osiyo bilan davlat munosabatlarining boshlanishi XVI asrlarga to'g'ri keladi. Jumladan, yuqorida eslatilganidek, 1558-yilda Ivan IV hukumati Xiva va Buxoroga A. Jenkinson diplomatik missiyasini Xiva va Buxoroning Rossiya bilan erkin savdosini yo'lga qo'yish taklifi bilan yuborgan. Bu missiya natijasida Buxoro va Xiva xonliklaridan javob elchiligi yuborilgan bo'lsa-da, biroq aloqalarning doimiyligiga erishilmaydi [11].

Shunday bo'lsa-da, 1585-yil 11-noyabrda xivalik elchi Xo'ja Muhammad Rossiyaga tashrif buyuradi. Tashrif chog'ida u ikki davlat o'rtasida savdo aloqalarini mustahkamlashga harakat qilgan. Shuningdek, Rossiya podshosi Fedor Ivanovichga ramziy ma'noda tillo zari yuritilgan, har xil ranglar bilan bo'yalgan qimmatbaho Mashhad kamonini tortiq qilgan [12].

Tadqiqotchi A.Chuloshnikov XVI asr o'rtalarida Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini yoritish jarayonida rus hukumatining Hindistonni bilishga intilishini ham e'tibordan chetda qoldirmagan. XVI asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Rossiya Hindistonga boradigan karvon yo'llarini qidirib O'rta Osiyo va Eronga maxsus elchiliklar jo'natib turadi. Bu vaqtlarda Rossiya bilan Hindiston o'rtasida bevosita iqtisodiy munosabatlar yo'lga qo'yilmagan bo'lsa ham, hind mahsulotlari O'rta Osiyo savdogarlari orqali Rus yerlariga kirib kelgan [22].

XVII asrda ham Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasida elchilik va savdo aloqalari davom etgan. Elchilar Xiva xoni nomidan rus podshosiga tortiqlar olib borganlar. Hadyalar tarkibida hind mahsulotlari ham bo'lgan. Masalan, 1641-yil noyabrda Xiva elchisi Muhammad Amin Bahodir tomonidan 100 ta hind matosi olib kelinganligi, elchining o'zida boshqa mahsulotlar qatorida 100 bo'lak hind chiti, 4 idishda nil bo'yog'i bo'lganligi ma'lum [12].

1646-yil 1-sentabrda xivalik elchi Nazar Nodirqulov Astrobodda yo'lda kelayotgan vaqtida o'g'irlangan mahsulotlari ro'yxatida boshqalar qatori 6 ta hind dokasi, 5 ta hind tillo izufrey, 9 ta hind matosi, qo'y terisidan ishlangan 10 ta hind bosh kiyimi bo'lgan [12].

Rus elchisi Ivan Fedotov o'z esdaliklarida 1669-yil 13-iyunda Xiva xoni Anushaxon huzurida bo'lgani va Rossiyaga qaytib kelgach, o'z axborotida buxoroliklar va xivaliklar bir-birlari bilan o'zaro savdo qilishi, bozorlarda uchratgan mahsulotlari, ularning narx-navosi haqida ma'lumot qoldirgan. U urganchlik savdogarlar Buxorodan mato, ip gazlama va rang-barang ipak matolar keltirishini, lekin buxorolik savdogarlarning Xiva va Urganchga kam kelishini e'tirof etadi. Shu bilan birga I. Fedotov hindlar va balxliklar Xivaga kelishmaydi hamda Xivada hind omborlari ham yo'q, deb xabar bergan. Qizig'i shundaki, elchi Xiva bozorlarida sotilayotgan mahsulotlar narxini Astraxanda sotilish

narxi bilan taqqoslab, bu mahsulotlarni Rossiyada sotishdan foyda chiqmaydi, deb hisoblagan [20].

Shuningdek, I. Fedotov ko'rsatmalaridagi hindlar va balxliklarning Xiva bilan savdo qilmasliklari haqidagi ba'zi ma'lumotlar ikki yil avval, ya'ni 1667-yildagi Xiva elchisi Po'lat Muhammadning bergan ma'lumotlariga zid keladi. Aftidan, I. Fedotov Sharq davlatlarida savdoning o'ziga xos tomonlaridan bexabar bo'lgan. Ko'p holatlarda O'rta Osiyo xonlari bilan Hindiston shohlari o'rtasidagi savdo A.Chuloshnikov eslatib o'tgan savdo usullari orqali amalga oshirilgan.

Rus podshosi Pyotr I ham xonlik bilan munosabatlarni yaxshilashga harakat qiladi. U nafaqat O'rta Osiyo bilan, balki Eron hamda Shimoliy Hindiston bilan ham savdo aloqalarini o'rnatishga o'ringan. Biroq O'rta Osiyo xonliklaridagi Rossiya elchiligi ko'pincha fojia bilan yakunlangan.

1728-yilda Xivaga jo'natilgan ushbu karvon boshlig'i Yodgor Alimovga Rossiya savdo aloqalari uchun nafaqat Xiva haqida, balki Buxoro, Samarqand, Balx, Koshg'ar, Toshkent, hatto Boburiylar Hindistonining Kobul va Lahor shaharlarigacha qanday imkoniyatlar borligini o'rganish vazifasi topshiriladi. Ushbu savdo karvonini himoya qilish uchun Yoyiq kazaklaridan tuzilgan otliq askarlar ajratilgan. Yuqoridagi Oliy maxfiy kengash qarorida Astraxanda va Rossiyaning boshqa shaharlarida Xiva va Buxorodan keltirilgan mollar bilan savdo qilishga ruxsat berilgan edi.

XVIII asrning 40-yillari oxirlaridan Erondagi ichki vaziyatning og'irligi va g'alayonlar hind savdosiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Eronda xonavayron bo'lgan hind savdogarlari endilikda e'tiborlarini O'rta Osiyo savdosiga qaratishga majbur bo'lganlar. Avvallari unchalik rivojlanmagan hind savdosi XVIII asrning ikkinchi yarmida muntazam davom etadigan va keng miqyosda olib boriladigan bo'ldi. Bu holat Xiva xonligining Eron bilan savdo aloqalarini o'rnatishi, Xiva mahsulotlari hind savdogarlari qo'li bilan Rossiyaga olib borilishi va hindlar Eron orqali Xiva-Rossiya savdosida vositachi rolini bajarishiga sabab bo'lgan.

Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi o'zaro savdo va diplomatik aloqalarni o'rganishda 1819–1820-yillar Kavkaz armiyasining bosh qo'mondoni A. P. Yermolov tomonidan mayyor Ponomarev va kapitan Muravyevning Xiva xonligiga va Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'ida yashovchi turkman qabilalariga elchi qilib yuborilishi natijasida aniqlik kiritiladi. N. Muravyev o'zining “Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах, гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравева, посланного всю страну для переговоров” nomli qaydnomasida XIX asrning 20-yillarida Rossiya bilan Xiva xonligi va Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'ida yashovchi turkman qabilalari to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi [7:103-b].

Keyinchalik N. Muravyevning uch qismdan iborat hajmi 300 betdan ortiqroq bu qaydnoma asari 1822-yilda Moskvada nashr etiladi. Muallif qisqa so'z boshidan so'ng, kitobning birinchi qismida Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'iga va Xiva xonligiga kelishi, turkman qabilalarining boshliqlari va Xiva xoni bilan olib borgan muzokaralari, bosib o'tgan yo'llari, turkman qabilalarining hayoti va ularning urf-odatları haqida juda ko'p va qiziq ma'lumotlar beradi.

Asarning ikkinchi qismida muallif Xiva xonligining chegaralari, tog'lari, foydali qazilmalari, o'simlik va hayvonot dunyosi, xonlikda yashaydigan xalqlarning urf-odatları, undagi qullar, shahar va qishloqlar, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Xiva xonligidagi o'zaro urushlar, qo'ng'iroq sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi, Xiva xonligida davlatni idora qilish usuli, qo'shni davlatlar bilan olib borgan aloqalari, ichki va tashqi savdosi haqida ma'lumot beradi [1].

N. Muravyev asarining alohida qiymati shundaki, unda ko'rsatilgan davr ichida Xiva xonligining ichki va tashqi tarixi, shuningdek, Rossiya bilan olib borgan savdo va diplomatik aloqalari, savdo yo'llari, savdo buyumlari haqida qimmatli ma'lumotlar

berilgan.

Xiva Angliyaga xuddi Rossiya kabi o'zida ishlab chiqargan ko'plab to'qimachilik mollari o'tkazish uchun tayyor bozor kabi havodek zarur edi. Inglizlar O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatish uchun hammadan avval bir tomondan, bu hududlar bilan iqtisodiy aloqalar bog'lab, O'rta Osiyo bozorlarini Angliya ta'siriga olish, ikkinchi tomondan, diplomatik munosabatlar bilan siqib u yerda o'z hukmronligini o'rnatishni ko'zda tutuvchi siyosat yuritdi. Manbalarda keltirilishicha, Angliyaning sanoat mollari O'rta Osiyo bozorlarida birinchi marta 1825-yilda paydo bo'lgan edi [15].

Buxoro va Xiva hukumatlari o'zaro ixtilofda ekanliklari va o'sha davrda deyarli urush holatigacha kelib qolganliklarini e'tiborga olib, 1830-yilda Orenburgga kelgan Buxoro vakili Boltaqulibek Buxoro amiri Nasrulloning xivaliklarning beadabliklariga birgalikda chek qo'yishda Rossiya imperatoridan yordam so'rash to'g'risida maxsus topshirig'i borligini bildiradi. Rus hukumati muzokara yo'li bilan xivaliklar, ayniqsa, rus asirlari muammosini hal etishga harakat qiladi. Muzokaralardan natija chiqmaganidan so'ng 1834-yilda Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'idagi O'lik qo'ltiq (Myortviy Kultik) ko'rfazida Novo-Aleksandrovsk istehkomini qurishga kirishladi. Lekin tez orada qurilish uchun o'ta noqulay joy tanlanganligi ma'lum bo'lib qoladi. Ayniqsa, istehkomning turkmanlar uchun hech qanday ta'siri sezilmas edi.

Rus hukumati Xivaga qarshi tobora keskin choralar ko'rish uchun Buxoro hukumati bilan yaqinlashish tadbirlarini ko'radi. Shu maqsadda hukumat 1834- yilda Buxoroga Orenburg bilim yurtining tatar tili o'qituvchisi yosh sharqshunos baron Demezonn elchi qilib yo'llaydi. Garchi Buxoro hukumati Demezonnning tashrifiga o'ta shubha bilan qarab, dushmanona qabul qilgan bo'lsa-da, Buxoro xoni Rossiya va Xiva to'qnashgudek bo'lsa, betaraf qolishlikka kelishib olishadi [7].

Rus hukumati 1836-yilda Rossiyaning janubi-sharqiy hududlaridagi barcha Xiva fuqarolarini qo'qqisdan qamoqqa olish va ularga tegishli mollarni musodara etish to'g'risida Oliy farmoyish beradi. Shu vaqtning o'zida Orenburg harbiy gubernatori general-adyutant Perovskiy hukmdor nomidan Xiva xoni Olloquliga noma yo'llab "... agar o'z vaqtida, hali fursat borligida es-hushingizni yig'ishtirib olay desangiz, barcha rus asirlarini ozod eting. Kelajakda o'zingizni osoyishta va do'stona tutishga so'z bering. Talonchi va bosqinchilarni rag'batlantirmang. Qozoq xalqining boshqaruviga aralashmang. Butun Rossiya imperatori sizning fuqarolaringizga o'zida qanday sharoit yaratib qo'ygan bo'lsa, uning fuqarolariga siz ham o'zingizda shunday sharoit yaratib bering, barcha eski ginalar unitilajak" [7], deb yozadi.

O'sha davr rus manbalarida keltirilishicha, Xiva xonligi hududida tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'lgan xorijlik fuqarolarni xonlik har tomonlama muhofaza qilish choralari ko'rgan. Xususan, Xiva zakotchilarining mollari baholashlari va boj to'lovlarini undirib olishlaridagi xolisliklariga tan bermay bo'lmaydi, chunki ular savdogarlarga rus yoki xivalik ekanliklaridan qat'i nazar bir xil qaraganlar [2].

Rus savdogarlari Xiva hukumatining ruslardan qarz olib qaytarib bermagan xivaliklarga nisbatan tutgan tez va odilona choralari to'g'risida iliq gaplar aytganlar. Bunda hech qanday bahona yoki iltimos e'tiborga olinmagan va qarzlari, albatta, undirib olingan" [2].

Xiva xonligi haqidagi ma'lumotlardan biri 1843-yili "Мануфактур и торговля" jurnalida nashr qilingan maqola hisoblanadi. Unda yozilishicha, Rossiya Eron, Qo'qon va Buxorodan metall buyumlar: qo'rg'oshin, mis, temir, cho'yan oladi. Xiva mahsulotlari tuya va kemalarda suv yo'li orqali Rossiya, Eron va Buxoroga olib borilgan. Mazkur maqolada Xiva orqali Rossiya Eron va Buxoro bilan savdo qilishi va Xivadan ketadigan tuyadan bir tillodan, Xivaga kirib keladigan mahsulotlardan esa 1/40 miqdorda soliq olinishi xabar qilingan. Bozorlarda va savdo bo'ladigan joylarda boj solig'i olingan. Sotilgan tuya uchun xazinaga 3 rubl, ot, ho'kiz va qoramol uchun 1 rubl, qo'ydan 50

kopeek soliq olingan [17].

Xivaga kirib kelgan xorijiy savdogarlar uchun ma'lum sharoitlar ham yaratilgan. Ular odatda karvonsaroylarga joylashtirilgan. Karvonsaroyga tushirilgan mollarni tartibga keltirish bilan band bo'lgan savdogarlar uchinchi kuni mahalliy bojxona boshlig'iga kelib, undan mollarni ko'ruvdan o'tkazib berishni iltimos qilgan. Bosh zakotchi, ya'ni shu masalalar bo'yicha mas'ul bo'lgan amaldor, har bir do'konga bosh suqib, tuzukroq material yoki qiziqtirishi mumkin bo'lgan yangiliklarni ko'rib, xonga yetkazish uchun namunalar berishlarini so'ragan, yo'liga ikki-uch sandiqni ochib ko'rgan, karvon hujjatlarini o'zbek tiliga tarjima qilishni buyurib, uning har bir satrini diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqqan. Har bir molga narx qo'yib, egasi qancha boj to'lashi lozimligini belgilagan. Zakotchi o'z hisob-kitobini xonga hisobot berish uchun qog'ozga tushirgan [8].

Xiva xonligida xorijlik savdogarlardan boj undirib olish ishlari shariat qonunlariga asoslangan. Hisob 1/40 olingan bo'lib, mol qayerdan keltirilganidan qat'i nazar, uning egasi musulmon-sunniy bo'lsa, xonlik xazinasiga qirqdan biri, egasi musulmon-shia bo'lsa yoki musulmon bo'lmasa, qirqdan ikki qismi undirib olingan. Xivada boj pul bilan olingan[8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligining cho'l hududlari orqali amalga oshirilgan savdo asrlar osha davom etib kelmaganda edi, XIX asrning 70- yillarida bu darajada rivojlanmagan bo'lar edi. Xiva va turkmanlar yurti o'rtasidagi savdo o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganki, buni sotiladigan mahsulotlar ro'yxati ham tasdiqlaydi.

Xivaning Astrobod bilan savdosi esa yovmud qabilalari orqali amalga oshirilgan bo'lib, yovmud turkmanlari 100–150 tuyada taroq uchun ishlatiladigan qoraqayin daraxti va unchalik ko'p bo'lmagan neft keltirishgan. Eronga chegaradosh turkmanlar ot, tuya, qo'y, gilam, tuz, neft chiqargan, uning o'rniga Erondan qurol, yog'och, porox, tamaki, bo'yoq va mevalar keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.Р.Мухаммаджонов, Т. Неъматов. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент: Fan, 1957. – Б.141.
2. Абросимов. Рассказ торговца Абрасимова о поездке его в Хиву// – СПб. Ежегодник. 1873. – С. 224.
3. Алимова Р. Ўрта Осиё хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари. – Toshkent, 2017. – Б.72.
4. В.Н. Витевский, кўрсатилган асар. – Б.801.
5. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. – ЗИРГО, 1851. Кн.: 5. – С. 136.
6. Бунаков Е. В. К истории сношений России со Среднеазиатскими ханствами в XIX в.// Советское Востоковедение. №2. 1941.б.8-9.
7. Жуковский С. Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – Петроград: 1915. – С.103.
8. Записки Императорского Русского географического общества. – С. ПБ.1855. – С.150.
9. Зелькина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. – М.: 1930. – С. 20.
- 10.Зияев Х.З. Развитие экономических, политических и культурных связей Узбекистана с Россией: Конец XVI - начало XIX вв.//Общественные науки в Узбекистане. 1984. № 1. – С.45.
11. Зияев Х.З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI-XIX вв. – Указ. изд. – С.153.
12. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. Л-1932. – С.99.
- 13.Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. – Т.: 1977. – С.24-25

14. Небольсин П. Очерки торговли России с странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Кокандом. – СПб., 1856. – С.62.
15. Рожкова М.К. Экономическая политика царского правительства на Среднем Востоке во второй четверти XIX века и русская буржуазия. – М.Л., 1949. – С. 219.
16. Русско-индийские отношения в XVII веке. Сборник документов. М., ИВЛ., 1958. – С.162.
17. Сведения о Хивинском ханстве. Выр. из жур. “Мануфактур и торговля”. 1843. Хмыр. кол. Т. 9. – С. 105, 129, 130, 149.
18. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX в.). М., – 1974.
19. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С.119.
20. Ханыков Я.В. Пояснительная записка к карте Аральского моря и Хивинского ханства, с их окрестностями. СПб., 1851. – С. 39-40.
21. Хива, или географическое и статистическое описание Хивинского ханства, состоящего теперь в войне с Россией, заимствованное из разных отечественных и иностранных писателей, с изображениями костюмов и вида города Хивы.–М.: 1840. – С. 79.

SAMARQAND VILOYATI SUG‘ORISH TIZIMIDA DARG‘OM KANALINING TUTGAN O‘RNI

Melikov Nodirjon Axtamovich

SamDU tadqiqotchisi

ORCID- 0009-0001-3092-2159

tayloq08@umail.uz

UDK 626.8(575.1)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatidagi irrigatsiya tizimi va sug‘orish inshootlarining shakllanishi hamda faoliyati arxiv materiallari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Darg‘om kanalining Zarafshon vohasini sug‘orishdagi o‘rni va Yangi Darg‘om kanalining yangi loyihasi bilan bog‘liq ma‘lumotlar yoritib berilgan. Yangi Darg‘om irrigatsiya tizimi Rahmatobod, Yangi, Qozon, Darg‘om kanallari va Zarafshon daryosidan Darg‘om bosh qismi va temir yo‘l ko‘prigi (Bog‘izog‘on) oralig‘ida boshlanuvchi Uzum, Yarimto‘q, Gerkuma, Kunduzak kabi kichik ariqlar faoliyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Suv xo‘jaligi boshqarmasi, Ravotxo‘ja to‘g‘oni, O‘rta Osiyo irrigatsiya boshqarmasi, Yangi Darg‘om kanali, Yangi Ariq kanali, Siyob arig‘i.

THE ROLE OF THE DARGOM CANAL IN THE IRRIGATION SYSTEM OF THE SAMARKAND REGION

Abstract. This article analyzes the formation and operation of the irrigation system and irrigation facilities in the Samarkand region based on archival materials. It also discusses the role of the Dargam Canal in the irrigation of the Zarafshan oasis and information related to the new project of the Yangi Dargam Canal. The Yangi-Dargham irrigation system is operated by the Rakhmatabad, Yangi, Kazan, Dargham canals and small canals such as Uzum, Yarimtok, Gerkuma, and Kunduzak, which originate from the Zarafshan River between the Dargham headwaters and the railway bridge (Boghizaghon).

Keywords: Water Resources Department, Ravotxoja Dam, Central Asian Irrigation Department, Yangi Dargam Canal, Yangi-Arik Canal, Siyob Canal.

Kirish. Zarafshon vohasida sug‘orish sohasi qadimgi davrlardan boshlab muammo bo‘lib kelgan. Vohaning markaziy shahri Samarqand va uning atrofidagi tumanlar uchun, ularning taraqqiyoti va barqaror bo‘lishiga suv asosiy manba hisoblangan. Suv muammosi muhim hayotiy masala bo‘lib, Zarafshon daryosi chap qirg‘og‘idagi baland-pastliklarda joylashgan Samarqand shahrining normal hayot kechirishi uchun sun‘iy suv kanali ehtiyoji zarur bo‘lgan. Zarafshon daryosi chap qirg‘og‘idagi tekisliklar (Samarqand shahri bilan birgalikda) Samarqand shahridan 42 kilometr janubi-sharqda joylashgan Ravotxo‘jadan boshlanadigan Darg‘om irrigatsiya kanali orqali sug‘orilib kelingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Taniqli sharqshunos olim V.V. Bartold

Darg'om atrofidagi hududlarni o'rganib, bu kanal Zarafshon vohasining sug'orilish tarixida muhim rol o'ynaganligini izohlagan. Qadimiy Darg'om kanali Varganza nomli to'g'ondan suv olgan [1:185]. Bu sug'orish inshooti arab geograflarining asarlarida "Varqsar", ya'ni "To'g'on boshi" nomi bilan tilga olinadi[2:24].

Qadimgi Darg'om kanali haqida dastlabki tadqiqot ishlari XX asrning 30–40-yillarida arxeolog Grigoryev tomonidan olib borilgan. U tadqiqotlari natijasida tog'dan tushib kelayotgan Yomonjar soyi Darg'om kanalini kesib o'tganligi ko'rib, Darg'om kanali sun'iy kanal bo'lishi mumkin degan xulosaga kelgan.[3:24]

Darg'om kanalining yoshini aniqlash maqsadida XX asrning 70-yillarida akademik Y.G'. G'ulomov rahbarligidagi ilmiy-arxeologik ekspeditsiya tashkil qilinib, uning ikkala qirg'og'i o'rganilib chiqildi. Tadqiqotlar natijasida Darg'om kanalining yoshi 2000-yildan ortiqroq degan xulosaga kelindi.

XX asrning 90-yillarida M.X. Isomiddinovning Samarqand vohasida olib borgan keng qamrovli izlanishlari tufayli Darg'om kanalini dastlabki qazib ishga tushirilgan davri bo'yicha yangi xulosalar olinib, kanal bundan 2700-yil oldingi davrga to'g'ri kelishi aniqlandi[4:30].

Tadqiqot metodologiyasi. mazkur tadqiqotni yoritishda xolislik, tarixiy-xronologik tahlil, tizimlilik tamoyili asosida ish ko'rib, qiyosiy tahlil usullaridan bevosita foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. XX asrning 20-yillarida Samarqand viloyatida amalga oshirilgan yirik sug'orish ishlaridan biri Darg'om irrigatsiya tizimining qayta tashkil etilishi bo'lib, u Zarafshon daryosining chap qirg'og'idagi yerlarni suv bilan ta'minlashni yaxshilashda juda muhim ahamiyat kasb etgan. Darg'om irrigatsiya tizimining yuqori qismida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar hamda tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra miloddan avvalgi V-IV asrlarga to'g'ri keladi. Klavdiy Ptolemey tomonidan yaratilgan dunyo xaritasida "Dargomaniy" nomi bilan qayd qilingan[5:27].

Manbalarga ko'ra, milodiy asr boshlarida Darg'omda suv oluvchi to'g'on qurilgan bo'lib, Varksar hududida kanalning bosh inshootiga mas'ul qadimgi nazoratchilar yashagan kichik mustahkamlanmagan qishloq mavjud bo'lgan.

Darg'om kanali boshlanadigan chap sohil 15 metr dan yuqori bo'lgan baland aralash tog' jinslari qatlami (konglomerat qatlamdan)dan iborat. Shubhasizki, Zarafshon daryosining qattiq va baland konglomerat jar yoqasidan kanalning bosh qismini o'tkazish imkoni bo'lmagan. Shu sababli, daryodan suv olish uchun mazkur konglomerat qatlamni teshib o'tish zarur bo'lgan. Qadimgi irrigatorlar Darg'omning magistral kanalini qurish jarayonida uning bosh qismini maxsus tunnel orqali o'tkazgan bo'lib, u bir nechta suv oluvchi yoriqlar va havo ventilyatsiya quduqlari bilan jihozlangan edi. Ushbu tunnel teshiklaridan biri "Birinchiy may" gidrouzelidan biroz yuqorida joylashgan. Uning diametri taxminan bir yarim metrni tashkil qilgan[6:40].

Qadimiy Darg'omning tunnel ko'rinishidagi bosh qismi taxminan daryo sohiliga parallel holda o'tgan. Keyinchalik doimiy suv oqimi natijasida u yer shikastlangan va Darg'omning bosh qismi Zarafshon daryosining tekisligiga tutashgan. "Birinchiy may" nomli Ravotxo'ja suv inshooti qurilguniga qadar, Zarafshondan suv olish vaqtincha to'g'onlar orqali amalga oshirilgan. Bu to'g'onlar daryo qirg'og'ida tosh, shox-shabba, somon va g'o'lalardan iborat 5-7 km uzunlikdagi to'siqlardan tashkil topgan bo'lib, har yili bahor va yozdagi toshqinlar vaqtida yiqilib, bir necha marta to'liq vayron bo'lib ketgan. Har gal ularni qayta tiklashga to'g'ri kelgan va ayrim paytlarda ekish mavsumi davomida dalalar bir necha oylar davomida sug'orilmasdan qolgan.

Ta'kidlash kerak, Ravotxo'ja hududida joylashgan Darg'om to'g'oni hukmdorlar va mahalliy aholi uchun har doim muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ushbu gidrotexnik inshootni ta'mirlash ishlarini amalga oshirish maqsadida har yili bahor mavsumida Darg'om irrigatsiya tizimidagi suv foydalanuvchilari har 48-50 gektar yerdan ikki nafar

ishchi ajratishgan. Ular 15 kunlik muddatga zaruriy transport vositalari va qurilish materiallari bilan ta'minlangan holda ishga jalb etilgan. Arxiv manbalaridagi ma'lumotlariga qaraganda, 1914-yilda Darg'om to'g'onini ta'mirlash ishlari davrida kuniga 12 896 nafar ishchi mehnat qilib, qurilishga 1 436 arava ham jalb qilingan. Ta'mirlash davomida 53 837 dona shox-shabbalar va 13 837 bog' somon ishlatilgan[7:25].

Bunday ishlar odatda har yili kamida bir marotaba tashkil qilinib, ekin maydonlarining to'la suv bilan ta'minlanishi shu ishlarga ko'p tomondan bog'liq edi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bunday ishlar juda ko'p vaqt va katta ishchi kuchini talab qilgan.

Sovet hokimiyati O'zbekistonda paxta ekishni ko'paytirish hamda yangi yerlarni o'zlashtirish siyosatini olib borar ekan, viloyatning muhim suv tarmoqlari va to'g'onlarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. Shu sababli, kanal bosh qismini mustahkam gidrotexnik inshoot bilan ta'minlash bilan birga, Darg'om tizimining yuqori qismini qayta qurish masalasi ham eng muhim vazifalardan biri sifatida ko'rilgan. XX asr 20-yillarining o'rtalarida qurilish ishlari va muhandislik izlanishlarini boshqaruvchi idora tomonidan Zarafshon vodiysida Yangi Darg'om kanalini loyihalashtirish bilan bog'liq ishlar amalga oshirila boshlandi.

1922–1924-yillarda olib borilgan geologik-qidiruv va injenerlik ishlari natijasida Yangi Darg'om kanali qurilishi loyihasining ikkita varianti tayyorlandi. Birinchi variantga ko'ra, Yangi Darg'om kanalining bosh qismida tunnel qurish rejalashtirilgan bo'lib, ikkinchi variant esa Zarafshon daryosining chap sohilida mavjud bo'lgan 15 metr balandlikdagi konglomerat qatlamini ochiq usulda kesib o'tish orqali kanal qurilishini nazarda tutgan. Birinchi loyihaning smeta qiymati o'sha davr pul birligida 1 457 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi, ya'ni tunnelsiz, ochiq konglomerat kovlash orqali kanal qurilish ishlari esa 1 544,5 ming so'm qiymatida baholangan.

Texnikaviy jihatdan eng maqbul va iqtisodiy jihatdan arzon deb topilgan tunnel qurilishi loyihasi "Suv xo'jaligi boshqarmasi" (UVX)ning Texnik kengashi tomonidan ma'qullangan [8:184]. Shundan keyin muhandis V.A. Livanov tomonidan Darg'om irrigatsiya tizimi kanallari tarmog'ini qurish bo'yicha yakuniy loyiha ishlab chiqildi va u 1924-yil avgust oyida professor G.K. Rizenkamf raisligidagi komissiya tomonidan ko'rib chiqilib, tasdiqlangan [9:131].

Shu tariqa "O'rta Osiyo irrigatsiya boshqarmasi" tomonidan ishlab chiqilgan Yangi Darg'om kanali loyihasi Zarafshonning chap qirg'og'idagi yerlarni suv bilan ta'minlash xarajatlarini qisqartirish hamda Yangi, Qozon va Darg'om kanallari o'rtasida suvni oqilona taqsimlashni ta'minlash maqsadlarni ko'zda tutdi.

1925-yilning 24-martidan Yangi Darg'om kanali qurilish ishlari boshlab yuborildi[10:132]. Davriy matbuot sahifalarida qurilish jarayoni avjida bo'lgan davrda to'g'on va kanal qurilishida 3 mingdan ortiq ishchi ishtirok etganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan[11:2].

Yangi Darg'om tunnelining qazilishi O'zbekiston irrigatsiyasi tarixida katta qiyinchiliklar bilan amalga oshirilgan ishlardan biri bo'ldi. Qattiq tog' jinslari mexanik asboblardan yordamida juda qiyinchilik bilan ko'chirilgan. Shuning uchun tunnelni ikki tomondan ikkita qiyaroq kavlangan o'yiqlar hamda maxsus qazilgan vertikal shaxtalar orqali yuqoridan dinamit qutilari yordamida portlatish orqali ochishga to'g'ri kelgan. Ishlar uch smenada olib borilgan.

Avvalo kanalning bosh qismi bo'ylab tor va pastki yo'llar qazilgan. So'ngra, yuqoridan pastga quduqlar qazilib, o'rta qismi dinamit bilan portlatilgan. Portlash natijasida parchalangan konglomerat toshlar quduqlar orqali pastga, yuk tashishga mo'ljallangan usti ochiq vagonchalarga to'g'ri tushgan. Bu vagonchalar traktorlar yordamida tashib ketilgan. Yorilgan tog' jinslari ishchilar tomonidan vagonchalarga

yuklanib, relslar bo'ylab chiqish tomon surilgan. Keyin traktorlar ularni tortib, yuzaga olib chiqqan.

Ta'kidlash kerak, kanal qurilishi texnik jihatdan yetarlicha jihozlanmagan bo'lib, minglab ishchilar kirka, bel, lom, ketmon kabi oddiy mehnat qurollari bilan tog' jinslarini parchalab, tunnel qazish ishlarini amalga oshirishgan.

1929-yil aprel oyida tunnelning har ikki tomonida portlash ishlari bilan shug'ullangan ishchilar yarim kilometr masofani bosib o'tib, o'zaro uchrashganlar. Tunnel 7 metr balandlik va 6 metr kenglikka ega edi. Qisqa muddat ichida bu yerda 20 ming kub metrdan ziyod tog' jinsi olib tashlangan. Qattiq tog' jinslari ichida qazilgan ushbu tunnelning umumiy uzunligi 511 metrni tashkil etgan va u sekundiga 125 kub metr suvni o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan[12:9].

Kanal qurilishi davrida, 10 kilometr masofada olib borilgan ochiq kovlama usulidagi ishlar jarayonida traktorlar va boshqa tuproq ishlarini bajarishga mo'ljallangan mashinalarning jalb qilinishi ish jarayonining tezlashishiga sabab bo'ldi. Barcha turdagi ishlar bir vaqtning o'zida bajarilgan. Bir traktor kanal tubida yerni yumshatgan bo'lsa, boshqasi yuqori qismda dambani zichlash ishlarini olib borgan. Kanalning har ikki tomonida damba qurish ishlari boshlab yuborilgan. Tuproq dambani hosil qilish uchun u zich holatga keltirilishi, ya'ni monolit massaga aylantirilishi zarur edi. Buning uchun damba quriladigan asosiy maydon avval suv bilan namlanib, keyin tuproq to'kilib, traktor yordamida katok bilan zichlangan. Ushbu jarayon bir necha bor takrorlanib, damba belgilangan balandlikka yetgunicha davom ettirilgan. Shundan so'ng u beton qoplama bilan mustahkamlangan. Bu ishlar har birida 8-15 nafar ishchi bo'lgan qurilish brigadalari tomonidan amalga oshirilgan. Kanal 10 kilometr masofada qazilgan va butunlay betonlangan[13:2].

Betonlash ishlari natijasida kanalning suv o'tkazish qobiliyati ikki baravar oshgan. Kanalning o'n birinchi kilometrda u eski Darg'om magistral kanali bilan bog'langan.

“Pravda Vostoka” gazetasi sahifalarida kanal qurilishi bilan bog'liq tavsilotlarni uchratish mumkin. Unda keltirilishicha, betonlash ishlari Germaniyadan olib kelingan sement pushkasi yordamida amalga oshirilgan. U siqilgan havo bosimi orqali sementni chiqarib, uni mayda toshlar orasiga singdirib borgan. Bu ishlarga Volxovstroydan kelgan malakali mutaxassis ustalar jalb etilgan[14:2]. Ta'kidlash kerak, ushbu betonlash usuli avval qo'llangan usullarga nisbatan ham arzon, ham samarador bo'lgan.

Shu tariqa, butunlay betonlangan kanal barpo etildi. Tunnel va Yangi Darg'om kanali qurilishiga jami sakkiz million so'm mablag' sarflanganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Shunday qilib, Yangi Darg'om kanali 1930-yilning 2-may kundan rasmiy foydalanishga topshirildi.

Kanal qurilishidan oldin Kattaqo'rg'on uyezdining katta qismi suvsiz cho'ldan iborat edi. Darg'omdan oz miqdorda suv oluvchi Yangiariq kanali suv yetarli bo'lmaganligi sababli o'z manbasidan ancha uzoqda yo'qolib ketar edi. Kanalning Kattaqo'rg'on uyezdi cho'li bo'ylab necha kilometrga cho'zilgan quruq o'zani ko'rinib turardi. Faqatgina Yangi Darg'om kanali qurilgandan so'ng Yangiariq kanali orqali sug'oriladigan maydonlar doimiy ravishda Zarafshon suvi bilan ta'minlanishni boshladi.

Yangi Darg'om kanali qurilishi natijasida Ravotxo'ja hududida joylashgan kanallarning bosh inshootlari, ularning suv ta'minot tizimlariga turli xil tabiiy ofatlar va vayronagarchiliklarning ta'siri kamaydi.

Yangi Darg'om irrigatsiya tizimi Rahmatobod, Yangi, Qozon, Darg'om va Zarafshon daryosidan Darg'om bosh qismi va temir yo'l ko'prigi (Bog'izog'on) oralig'ida boshlanuvchi Uzum, Yarimto'q, Gerkuma, Kunduzak kabi kichik kanallarni suv bilan ta'minlay boshladi. Bundan tashqari, asosiy ta'minot manbayi buloq va oqova suvlari bo'lgan Siyob arig'iga bog'liq maydonlar ham Yangi Darg'om kanallari tizimi orqali sug'orila boshlandi.

Ta'kidlash kerak, Yuqori Zarafshon gidrouzelineining chap qirg'oq magistral kanali atrofida sug'orishga yaroqli yer maydoni 142945 gektarni tashkil qilib, shundan 73162 gektar yer sug'orilar edi [15:2]. Bu esa, tabiiyki, yangi suv tarmoqlarini yaratishni taqozo qilgan.

Yangi Darg'om kanali qurilgandan so'ng sug'oriladigan 73162 gektar maydondan tashqari qo'shimcha 15497 gektar yangi yerlar o'zlashtirildi. Ularning 9997 gektari mavjud sug'orish tizimlari doirasida, qolgan 5500 gektari esa Yangiariqning quyi qismida joylashgan Darg'om atrofida joylashgan edi. Masalan, Yangi Darg'om kanali qurilgandan keyin Samarqand shahrida joylashgan "O'zvodstroy" davlat qurilish-irrigatsiya trestining Zarafshon vodiysidagi irrigatsiya qurilishi boshqarmasi "Zerdolstroy" tomonidan Urgut tumanidagi Yangi va Qozon kanallarini qayta qurish bo'yicha qidiruv va tadqiqot ishlarini olib bordi.

Ushbu kanallarni qayta qurish loyihasi ishlab chiqilganidan so'ng, "Zerdolstroy" tomonidan bu qurilishlarning vazifa va maqsadlari bo'yicha keng ko'lamli tashviqot-targ'ibot ishlari o'tkazildi. Natijada Yangi va Qozon kanallaridagi melioratsiya ishlari uchun ishchi kuchi to'liq ta'minlandi. Tuproq ishlariga 1200 nafardan ortiq ishchi jalb qilindi. Yangi kanalidagi irrigatsion tizimni qayta qurish natijasida 5000 gektar qishloq xo'jaligi yerlarini qo'shimcha ravishda sug'orish, Qozon kanalidagi yangi irrigatsion tarmog'i esa 1200 gektar yer maydonini o'zlashtirish imkonini berdi. Shu tariqa, Darg'om tizimida umumiy sug'oriladigan yer maydoni 88659 gektarni tashkil qildi [16:126].

Yangi Darg'om kanali va uning tarkibidagi tunnelli inshootlar qurilishi Darg'om irrigatsion tizimini qayta qurishdagi birinchi bosqich hisoblanadi. Bu tizimni yanada takomillashtirish ishlari Darg'om atrofidagi qo'riq yerlarni o'zlashtirish va Zarafshon daryosi suvini Eski Angor kanali orqali Qashqadaryo viloyatiga o'tkazish bilan bog'liq edi.

Umuman olganda, 1932-yilda keng ko'lamli irrigatsiya qurilishi natijasida 112 000 gektar yangi o'zlashtirilmagan yerlar o'zlashtirildi va bu yerlarda paxtachilikka ixtisoslashgan sovxozlar tashkil etildi [17:14].

Xulosa va takliflar. Xullas, Yangi Darg'om kanali XX asr 20-yillarida Samarqand viloyatidagi irrigatsiya va melioratsiya ishlarini jadallashtirishda muhim rol o'ynagan. Bu kanalning barpo etilishi faqatgina irrigatsiya masalasini hal etmagan, balki o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, xususan, kolxozlashtirish va yer islohotlari bilan ham uzviy bog'liq edi.

Yangi Darg'om kanalining qurilishi viloyatdagi yangi yerlarni o'zlashtirish, ekin maydonlarini kengaytirish, suv ta'minotida yuzaga kelgan muammolar, kanalni ta'mirlash masalalarini hal qilgan bo'lsa-da, Markaz bu gidroteknika inshootni qurishda ham birinchi navbatda o'z manfaatlarini hisobga oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана Т.-1965. С. 185-204
2. Мухаммаджанов А.Р. Қўйи Зарафшон водийсининг суғорилиши тарихи. – Т., 1972. – Б.24
3. Тошкенбоев Н.Х, Исомиддинов М.Х. Самарқанд қадимий даврдан бошлаб то XIII аср бошларигача (Афросиёб материаллари асосида) –Самарқанд, 1995. – Б.24.
4. Исомиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпохи раннее железного века и в период античности) - Т., 2002.-С.30
5. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Даргом_\(канал\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Даргом_(канал)). (Мурожаат қилинган сана 27.03.2025.).
6. Самарқанд тарихи. 2 томлик. Масъул муҳаррир И.М. Мўминов. 1-том. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 40.
7. Ўз МА, Р.20-фонд, 1-рўйхат, 630-иш, 25-27-варақлар.

8. Самарқанд вилоят давлат архиви (Самарқанд ВДА), 50-фонд, 1-рўйхат, 156-иш, 184-варақ.
9. Ўз МА, Р.218-фонд, 1-рўйхат, 90-иш, 131-варақ.
10. Ўз МА, Р.218-фонд, 1-рўйхат, 90-иш, 132-варақ.
11. Правда Востока. 1 мая, 1930 г.
12. Ўз МА, Р.218-фонд, 2-рўйхат, 195-иш, 9-варақ.
13. Правда Востока. 31 июля, 1925 г.
14. Правда Востока. 31 июля, 1925 г.
15. Правда Востока. 29 июня, 1929 г.
16. Самарқанд ВДА, 99-фонд, 1-рўйхат, 79-иш, 126-варақ.
17. Ирригация и дренаж в Республике Узбекистан история и современное состояние. К 70-летию Международной комиссии по ирригации и дренажу. – Ташкент, 2020. – С. 14.

QO‘SHINNING TAYYORGARLIK VA JIHOZLANISH DARAJASI (aslahasi, jangovarligi, kiyim-kechagi, otlari va boshqalar)

Telyayev Mexrojiddin Baxromkulovich

QarDU mustaqil tadqiqotchisi

mexrojmexroj055@gmail.com

ORCID 0009-0004-7973-859

UDK 910.3

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif Buxoro xonligi va amirligi davrida olib borilgan harbiy siyosat, ularning zamonaviy tarzda olib borgan islohotlari, davlat himoyasi uchun qo‘shinning shay holatga keltirilishi hamda ularning qurol-aslahalar, kiyim kechaklar, jangovar otlar va jangovarlik holatlarining tubdan isloh etilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ilmiy jihatdan dalillangan. Jumladan, xonlik va amirlikda erkin sarbozlar guruhining shakllanish jarayonlari jiddiy tus olgan bo‘lib, XIX asr 2- yarmidan boshlab doimiy ravishda armiya ko‘rinishiga o‘tganligi ilmiy ma‘lumotlar asosida keltirib o‘tilgan.

Shuningdek, tahlil jarayonida har tomonlama olib borilgan tadqiqotning o‘rganilishi, tadqiqot natijasida erishilgan ma‘lumotlar o‘sha davr mobaynida Buxoro xonligi va amirligi davridagi islohotlarning keng ko‘lamli olib borilgan ishlari, jumladan, qo‘shinning strategik jihatdan zamonaviylikka xos uslublar bilan jihozlantirish orqali erishilgan natijalar ham batafsil tadqiq etilgan.

Tayabch so‘zlar: muntazam armiya, davlatchilik tarixi, muayyan tizim, harbiy qudrat, qurol-yarog‘, siyosiy parokandalik, hunarmandchilik markazlari, savdo rastalari, pilta miltiqlar, harbiy taktika, harbiy sarkarda, piyoda askarlar, harbiy nizom, jangovarlik holati, kiyim-kechaklar, harbiylar otlari.

THE LEVEL OF TRAINING AND EQUIPMENT OF THE ARMY (weaponry, combat readiness, uniforms, horses, etc.)

Abstract. In this article, the author scientifically substantiates information about the military policy pursued during the Bukhara khanate and Emirate, their modern reforms, the preparation of the army for state defense, and the radical reform of their weapons, uniforms, war horses, and combat conditions. In particular, it is stated on the basis of scientific data that the formation of free soldier groups in the khanate and emirate took a serious turn, and from the second half of the 19th century onwards, they steadily transformed into an army.

Also, the analysis process included a comprehensive study of the research conducted, and the information obtained as a result of the research was used to examine in detail the results achieved by the large-scale reforms carried out during the Bukhara Khanate and Emirate during that period, including the strategic equipping of the army with modern methods.

Keywords: regular army, history of statehood, specific system, military power, weapons, political chaos, craft centers, trading posts, rifles, military tactics, military commander, infantry, military regulations, combat status, uniforms, military horses.

Kirish. Markaziy Osiyo tarixida ham harbiy soha doim hukmdorlar diqqat markazida bo‘lgan edi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlatchilik tarixi nuqtayi

nazaridan yondashilsa, harbiy ish davlatning ajralmas bo'g'ini hisoblanib kelingan. Xususan, davlat hukmdorlari o'zlarining ichki va tashqi siyosatlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblangan strategik harbiy kuch, ya'ni qo'shinlariga tayanib ish ko'rishganlar. Ushbu omil bugun yoki kecha paydo bo'lib qolmasdan, asrlar davomida shakllangan. Shuningdek, kuchlarni boshqarishning muayyan tizimi yo'lga qo'yilgan va uning turli bo'g'inlari shakllanib borgan. Hattoki, ularga mos ravishda davlat harbiy qudratini saqlash uchun mas'ul etilgan shaxslarga beriladigan mansab va lavozimlar ko'lami ham aniqlanib borilgan. Asrlar davomida shakllangan va o'zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan ushbu tizim amirlik davrida (XVIII – XX asr birinchi yarmida) ham kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Buxoro xonligi va amirligining siyosiy-ma'muriy boshqaruvida qo'shin va armiya masalasiga bag'ishlangan bir qator ilmiy nashrlar mavjud. Dastlab V.V. Bartold tomonidan boshlab berilgan izlanishlar keyinchalik bir qator nashrlarda o'z aksini topdi. O.A. Suxareva, B.X. Karmisheva kabi tadqiqotchilar o'rganish jarayonida Qushbegi hujjatlariga to'xtalib o'tishgan.

Shuningdek, Buxoro amirligining XIX–XX asr boshlaridagi jarayonlariga oid ayrim ma'lumotlar Rossiya imperiyasi ma'muriyati vakillari bo'lgan N.V. Xanikov, A.D. Grebenkin, A.P. Xoroshxin, Y. Skayler va boshqalarning asarlarida o'z aksini topgan.

Buxoro xonligi va amirligining siyosiy-ma'muriy boshqaruvida qo'shin va armiya masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarni aniqlashtirishda Qushbegi arxivining P-3 fondidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi jarayonlar haqidagi ma'lumotlar muomalaga kiritilganligi bilan chuqur ahamiyat kasb etadi.

XX asrning dastlabki yillarida olimlar Buxoro amirligi va yana bir qator shaharlarni o'rgangan O.A.Suxareva o'z tadqiqotlarida asosiy diqqat-e'tiborni xonlik va amirlikdagi harbiy jarayonlar biln bog'liq jihatlariga ancha keng to'xtalganini aytib o'tish zarur. Tadqiqotchi Buxoro mahallalarining soni, aholi soni va ijtimoiy-etnik tarkibi masalalariga to'xtalgan. Shuningdek, u xonlik va amirlikdagi Qarshi, Shahrisabz, Samarqand shaharlarini ham shu tartibda o'rganib, ular bo'yicha alohida tadqiqotlar chop etgan.

E'tibor berilsa, XVI–XVII asrlar Markaziy Osiyo davlatlarida harbiy ish va qurol-yarog'lar holatida Amir Temur davridagi an'analar saqlab qolingani sezilib turadi. Albatta vaqt o'tishi bilan harbiy taktikada ham muhim o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, mahalliy harbiylar Markaziy Osiyo hududlariga Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan ko'chmanchilarning o'ziga xos harbiy taktikalarini o'zlashtira boshlashadi. Shu va shu kabi omillar ayrim yangi qurol turlarining paydo bo'lishiga ham olib kelgan. Qurol-aslaha yasash ustaxonalari takomillashib, to'p, zambaraklar ishlab chiqara boshlanadi. Ammo markazlashgan davlat siyosatidagi ba'zi holatlar, ya'ni siyosiy parokandaliklar mamlakatda izchil harbiy islohotlarning amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Natijalar va muhokama. Buxoro xonligi hamda Buxoro amirligida ham qo'shinni tutish va harbiy taktika deyarli shayboniylar davridagi tuzulmani esga soladi. Qo'shinda otliq askarlar faoliyatida ko'chmanchilarga xos unsur yetakchilik qilgan. Odatda lashkarlikka kelgan harbiy askar o'zi bilan qurol-aslahasini olib kelishi shart bo'lgan. Tarixchi olim A.Zamonov tomonidan shayboniylar davlatining harbiy holati bo'yicha amalga oshirgan maqolalari va monografiyalarida, "... qurolsoz ustalar asosan bir turdagi qurollar yasashga ixtisoslashgan. Ularning ustaxonalari ko'pincha savdo rastalari qatorida o'rin olgan. Buxoro va Samarqandda sovutsozlar, o'qchilar, kamonsozlar va boshqa ustalarning maxsus savdo rastalari va yopiq bozorlari bo'lgan", deyiladi[1:108]. Ushbu ma'lumotlar asosida mang'itlar sulolasi davri mamlakat qo'shinining harbiy holatini tahlil qiladigan bo'lsak, hunarmandchilik markazlari bo'lmish amirlikdagi markazlashgan shaharlarida an'anaga ko'ra o'tmishda janglarda qo'llanilib kelingan gurzi, oybolta va boshqa sovuq qurollari ishlab chiqishni davom ettirgan. Ushbu qurollar mang'it

hukmdorlarining jang quroli bilan birgalikda harbiy amaldorlarning ramzi sifatida ham ishlatilgan. Qilich bilan birgalikda xanjar ham amirlik askarlarining an'anaviy quroli hisoblangan. XIX asr oxirlarida Buxoroda ishlab chiqarilgan pilta multiqalar uchiga ham yevropa multiqalari singari xanjarlar (штык нож) ilib qo'yilgan. Shuningdek, tarixchi olim Y. Shukrullayevning fikricha, amirlikda hunarmandlar shayboniylar davridagidek qurol-yarog' ishlab chiqarish bilan xulosalanib qolmagan. Podsho Rossiyasi vassaliga aylangan Buxoro amirligida ko'plab "asoi safari", "asoi jihodi" deb nom olgan qurollar ishlab chiqarilganki, ular ham hassa, ham qilich vazifasini bajargan va undagi hassa g'ilofida aslida qilich bo'lib, mavhum tarzda joylashtirilgan zumrad va kumushlar bilan bezab ishlangan. Bu tarzdagi qurollar, sovuq qurollar yasash san'atining yorqin namunasidir[2:118].

Sulola hukmdorlaridan Amir Haydar davriga (1801-1826) kelib dastlabki tub o'zgarishlar ro'y beradi. Ya'ni (istisno tarzda) muntazam armiya tashkil etiladi[3:136]. Lekin amirlikda muntazam armiyaning tuzilishi haqida bir-biriga zid ba'zi ma'lumotlar ham uchraydi. Xususan, tarixchi olim B. Ismoilova Buxoro amirligida armiya va harbiy ishlarni tashkillashtirishni ikki bosqichga bo'ladi. Birinchi bosqichni XIX asr boshlaridan XIX asrning 30-yillarigacha, ya'ni Amir Haydar davridan deb hisoblab, muntazam armiyaning tuzilishidagi debocha deb hisoblaydi. Lekin amirlikda muntazam armiyaning tashkil etilganligi (II bosqichda) Amir Nasrullohxon davriga (1826 – 1860 yy) to'g'ri keladi deb hisoblab, to 1837-yilning oxiriga qadar davom etgan deb hisoblaydi[4:36].

Ba'zi tadqiqotlarda Amir Haydarning muntazam qo'shin tuzish borasidagi harakatlarini Buxoro amiri Nasrullo (1827-1860) davom ettiradi. Bu hukmdorning sa'y-harakatlari bilan piyoda askarlardan iborat sarbozlar va to'pchilarning muntazam qo'shini tuziladi. Yozma manbalarda qayd etilishicha, by tadbir 1837-yilda amalga oshirilgan edi. XIX asr ortalaridagi ma'lumotlarning ko'rsatishicha, dastlab muntazam qo'shin asosini Buxoro amirligidagi asirlar tashkil etgan edi. Voqealar guvohlarining yozishicha, 1837-yildayoq 1000 dan ortiq asirlardan 800 kishi muntazam piyoda askarlik – sarbozlikka, 250 dan ortiq kishi esa artilleriya qo'shinlari – to'pchilar safiga qabul qilingan edi. Buxoro harbiy kuchlarining asosini tashkil etgan sarbozlar tarkibiy jihatdan bir qancha qismlardan tashkil topgan edi. XIX asr o'rtalariga oid tarixiy ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, jami 700 kishidan iborat "sarbozlar har biri 100 talik 7 ta dastaga bo'lingan edi. O'z navbatida har bir dasta "2 ta nim dastaga, 4 ta rassadga va 8 ta baraga bo'lingan. Yuz kishidan iborat harbiy dastani yuzboshi boshqargan. Ushbu boshqaruvda yuzboshiga uning yordamchisi qorovulbegi yordam bergan. "Rassad"larni panjaboshi boshqargan. Harbiy qismni boshqarishda bu mansab egasiga uning muovini – panshajaboshi-xurd yordam bergan. Sarbozlarning o'n kishidan iborat qismiga "dahboshi" boshchilik qilgan"[5:127].

Amirlikda erkin sarbozlar guruhi ham shakllangan bo'lib, XIX asr II yarmidan boshlab doimiy armiya ko'rinishiga o'tishadi. Ularga tinchlik vaqtlarida shahar tozaligini saqlash obodonchilik va hatto dehqonchilik ishlari bilan ham shug'ullanishlariga ijozat berilgan. E'tiborlisi shundaki, bunday turdagi sarbozlar harbiy mashq va jangovarlik holatidagina harbiy kiyim hamda qurol-yarog'lar bilan ta'minlangan. Bu turdagi sarbozlar amir Muzaffarxon hukmronligi davriga qadar osoyishtalik vaqtlaridagina qurol-yarog'larini o'z uylariga olib kelishgan. Qo'shin sarbozlarining harbiy kiyimlarida ham amir Muzaffar davridan boshlab ma'lum o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Xususan, sarbozlarning harbiy kiyimi sifatida boshlarida qora uzun qalpoq, oq bo'zdan shim, qishda harbiy mundir (kulucha) belgilab berilgan. Sarbozlarning (formasi) shim va mundirlari odatda har ikki yilda bir bor almashtirilgan. Bu juda ham uzoq muddat bo'lib, shu vaqt mobaynida ust-bosh kiyimlarning sifati ham yomonlashib ketgan. Oyoq kiyim sarbozning o'zi bilan birga olib kelishi majbur hisoblangan. Faqatgina amir Abdulahadxon davriga kelib, harbiy sarbozlarga ikki yilda bir marotaba bir juft etik berilgan[6:2].

Amirlikdagi barcha nizomiy guruhlarining harbiy dala mashqlari deyarli bir xil ko‘rinish olganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, Shanbegi sarbozlari haftaning shanba, yakshanba, dushanba kunlarida; Seshanbegi sarbozlari seshanba, chorshanba, payshanba kunlari; terskiy, shefskiy, otliq kazaklar haftada to‘rt kun mashqlarda qatnashgan. Amirlik chegaralarida qorovullik xizmatlarini o‘tovchi Elnavkarlari guruhi mahalliy qurol-aslahalari bilan qurollangan bo‘lib, ularning harbiy dala mashqlari o‘tkazishganliklari xususida biror manbalarda ma‘lumotlar keltirilmaydi[2:134].

XIX asr boshlarida Markaziy Osiyo xonliklarida, xususan, Buxoro amirligida qo‘shin muntazam va nomuntazam qismlardan tashkil topgan harbiy kuchga aylanadi[5:126]. Endi amirlikda ayrim davlat rahbarlari o‘z qo‘shinlarini yaxshilash, uning tarkibida muntazam qismlarni tarkib toptirish borasida qator islohotlarni amalga oshira boshlaydi. Shunday davlat rahbarlaridan biri Amir Haydar (1800-1826) bo‘lib, u mamlakat harbiy kuchlarini ikki qismga: muntazam qo‘shin – “navkariya” va nomuntazam qo‘shin – “qora cherik”ka bo‘lib boshqargan. Bundan tashqari amirlikning “lashkar”, “cherik”, “qo‘shin” deb nomlangan harbiy kuchlari ham bo‘lib, uning nomuntazam qismi (“qora-cherik”) oliy hukmdorning amriga binoan harbiy harakatlar davrida mahalliy aholidan to‘plangan. Aholiga harbiy yurishlar haqidagi xabarlar amir jarchilari tomonidan odam gavjum bo‘lgan bozorlarda e‘lon qilinib, shu yerda “qora-cherik” ro‘yxati osib qo‘yilgan. Ko‘pincha “qora-cherik”lardan harbiy harakatlar davomida, qal‘alarni himoya qilishda unumli foydalanilgan. Navkarlar amirlikda muntazam qo‘shinning asosini tashkil etib, ularga bir qancha imtiyozlar berilgan edi. Xususan, ularning mansabiga qarab, masalan, navkarlarga oziq-ovqat, pul va kiyim-bosh, otlari uchun yem-xashak tortiq etilgan. Navkarlar boshqa o‘zbek xonliklarining muntazam qo‘shinlari kabi turli soliq va majburiyatlardan ozod etilgan.

Amir Haydarning muntazam qo‘shin tuzish borasidagi harakatlarini Amir Nasrullo (1826-1860) davom ettirar ekan, bu hukmdorning sa‘y-harakatlari bilan 1837-yilda piyoda askarlardan iborat sarbozlar va to‘pchilarning muntazam qo‘shini tuzildi[5:127]. Amir Nasrullo davrida muntazam piyoda qo‘shinning soni 40 ming kishidan iborat bo‘lgan (har biri 800 kishidan 50 ta sarbozlar bo‘laklari). Amir Nasrullo askarlarga harbiy ta‘lim berish maqsadida chetdan mutaxassislarni taklif etgan. Jumladan, eronlik Abdusamad Tabriziy askarlarga yevropacha usulda ta‘lim bergan[7:1211].

Amirlik qo‘shini haqidagi ba‘zi ma‘lumotlarda XIX asr 30-yillarida Buxoro amirligi qo‘shinida 19000 askar bo‘lgan. Ular Buxoro viloyatidan 1000 ackap, Samarqanddan – 2500, Qarshidan – 2500, Maymanadan – 1000, Qorako‘ldan – 1000 ta askarlar jamlamasidan iborat edi. Bu qo‘shinlar asosan amirlik hududidagi turli qishloqlarda yashovchi oddiy dehqon, chorvador aholidan yig‘ilgan. Bundan tashqari amirlikning ko‘chmanchi turkman qabilalaridan ham 18000 ga yaqin zaxira askari bo‘lgan. Shunday qilib bu davrda butun amirlik qo‘shinlari 36000 atrofida bo‘lgan. Askarlar umuman harbiy sohadan bexabar bo‘lishgan. Hatto ba‘zi askarlar qo‘shin boshliqlarini ham tanishmagan. Amir va qoushbegi tomonidan qo‘shinlarni ko‘rikdan o‘tkazish tadbiri o‘tkazilgan. Ko‘rikdan o‘tgan har bir askarga 10 tanga (taxminan 8 rubl) pul berilgan. Askarlar faqat shu pul uchungina harbiy ko‘riklarda ishtirok etishgan. Bundan tashqari Buxoro qo‘shinining rahbariyati quyidagi miqdorda maosh bilan ta‘minlangan. Jumladan, yuzboshi oyiga 6 tilla, qorovulbegi 4,5 tilla panjaboshi 85 tanga panjaboshi-xurd esa 50 tanga miqdorida maosh olganlar. Maoshning bir qismi mahsulotlar bilan to‘langan[7:1211]. Qo‘shin askarlariga bir yilda rus rubli bilan hisoblaganda 150 rubl ajratilib, u qisman bug‘doy, jo‘xori, pichan bilan to‘langan[5:127].

Arxiv manbalarida yana shunday ma‘lumotlar ham qayd etilib o‘tganki, unda Rossiya fuqarolarining o‘zi boylik evaziga Buxoro amirligi hududida qurol-yarog‘ savdosi bilan shug‘ullanishgan. Jumladan, Rossiya siyosiy agentligi ma‘murlaridan biri I. Reshetovning 1911-yil 6-fevralda amirlikka yozgan maktubida Kojuxovskiy, Abarji

Vakulov, Vetoxinlar (rus fuqarolari) amirlik hududida maxfiy ravishda qurol-yarog' savdosi shug'ullanayotganligi sabab ularni tutishda yordam berishni so'ragan[8:10].

Amirlik hududida ingliz qurollari savdosi ham ancha qizg'in bo'lgan. Bu holat ayniqsa, 1917-yil oktyabr revolyutsiyasidan keyin, ma'lum ma'noda mustaqillikka erishgan Buxoro amirligiga Sho'rolar tuzumi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi amalga oshiriladi. "Smitta" va "Vessona" markali ingliz revolverlarini amirlikka ko'plab kiritila boshlanishi haqidagi ba'zi ma'lumotlar arxiv hujjatlarida ham saqlanib qolgan[9:36].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Buxoro amirligi qo'shinlari harbiy jihatdan jiddiy muammolarga duch kelgan edi. Jumladan, amirlik armiyasi harbiy texnika va qurollanish sohasida tuban darajada qolgan, tashkilotchilik, harbiy tayyorgarlik va tartib-intizom nuqtayi nazaridan zamonaviy talablarga javob bermagan. Bu holatga asosiy sabab sifatida amirlar hukmronligidagi harbiy islohotlarga bo'lgan befarqlik, zamonaviy harbiy bilimlardan bexabarlik hamda ma'nan o'zgarishga qarshilik kabi omillarni ko'rsatish mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi bilan yuz bergan harbiy to'qnashuvlarda mag'lubiyatga uchradi va amirlikning katta qismi bosib olindi. Harbiy sohada olib borilgan qisman islohotlar ma'lum ijobiy natijalar bergan bo'lsa-da, ular umumiy harbiy salohiyatni tubdan o'zgartirishga qodir bo'lmadi[10:36]. Bu esa Buxoro amirligining harbiy tizimi XVII–XIX asrlar davomida yetarli darajada rivojlanmaganini va global geosiyosiy jarayonlarga moslashishda ortda qolganini yaqqol namoyon etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zamonov A. Buxoro xonligida qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruv. (shayboniylar boshqaruvi davri). Toshkent.: Bayoz, 2018. – B. 108.
2. Shukrullayev Y. Buxoro amirligida qo'shin va harbiy is" (1753-1920 yy.): tarix fan. nom ... diss. – Toshkent, 2007. – B. 118.
3. Андреев М. С., Чехович О.Д. Арк Бухары. – Душанбе, 1972. –136 с.
4. Исмоилова Б. Бухарский эмират при эмире Хайдаре. Хужанд. 2000. – Б.36.
5. Ziyoyeva D. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha) / O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi./ – T.: Sharq. 2012. – B. 127.
6. Samarqand shahridagi Respublika madaniyati tarixi davlat muzeyi arxivi. Hujjat. № 814. 2 bet.
7. Yakobjanov J. O'zbek davlatchiligida harbiy ishlar tarixidan (Buxoro amirligi misolida) International scientific journal. "MODERN SCIENCE AND RESEARCH", 2023. – B. 1211
8. O'z MA, 3-jamg'arma.2-ro'yxat. 171-ish. 10-varaq.
9. O'z MA. 3-jamg'arma. 2-ro'yxat. 976-ish. 36 varaq.
10. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 36

G'UZOR BEKLIIGI - ISTILOCHILARGA QARSHI OZODLIK KURASHINING DASTLABKI TAYANCHI

Ernazarov Azim Xudoyqulovich

Osiyo texnologiyalar universiteti

Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrası dotsenti v.b., t.f.f.d (PhD)

ORCID-0009-0001-2825-8068

ernazarov.85@bk.ru

UDK 94(575.1):323.269

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif G'uzor bekligining Buxoro amirligida eng yirik savdo-sotiq markazi bo'lganligi izohlanadi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv tizimida alohida ahamiyatga ega ekanligi bilan amirlikda G'uzor bekligining mavqeyi yana ham oshishiga olib kelganligini ilmiy asoslangan ma'lumotlar hamda arxiv materiallari asosida yoritib bergan.

Shuningdek, G'uzor bekligidagi olib borilgan boshqaruv tizimiga qarshi xalq noroziliklari, ommaviy harakatlari, jumladan, Abdumalik to'ra boshchiligidagi xalq ozodlik harakatining dastlabki markazi ham G'uzor bekligi bo'ldi. Qo'zg'olon G'uzor bekligidan boshlanib, unga Hisor va Sherobodda yashovchi qo'ng'irotlar, Qarshi viloyati o'zbeklari qo'shilib G'uzorga to'planadi, Hisor, Sherobod, Denov, Ko'lob hokimliklari ham kelib qo'shiladilar. Shunga qaramay Abdumalik to'raning imperiya qo'shini tomonidan mag'lubiyatga uchraganligi ilmiy asosda dalillangan.

Tayanch so'zlar: G'uzor bekligi, Abdumalik to'ra, xalq noroziligi, ommaviy harakatlar, soliq oshishi, dastlabki markaz.

THE GUZAR PRINCIPALITY - THE ORIGINAL BASE OF THE FREEDOM STRUGGLE AGAINST THE INVADERS

Abstract. In this article, the author explains the position of the Guzar principality in the Bukhara Emirate as the largest trading center in the emirate. He also explains, based on scientifically based data and archival materials, that the special importance of the Guzar principality in the emirate led to its further increase in status.

The Guzar principality was also the initial center of popular protests and mass movements against the administrative system in the Guzar principality, including the people's liberation movement led by Abdumalik Tora. The uprising began in the Guzar principality, and the Kungarots living in Hisar and Sherabad, Uzbeks from the Karshi region joined it and gathered in Guzar, and the khokimiyats of Hisar, Sherabad, Denov, and Kulob also joined. Despite this, it is scientifically proven that Abdumalik Tora was defeated by the imperial army.

Keywords: Guzar principality, Abdumalik Tora, popular discontent, mass movements, tax increase, initial center.

Kirish. Buxoro amirligi 1868-yili Rossiya harbiy bosqiniga dosh berolmay mang'itlar boshqargan qaramlikni bo'yninga olishga majbur bo'ldi, 1868 va 1873-yilda Rossiya va Buxoro o'rtasida imzolangan sulhga muvofiq, rus hukumati tomonidan belgilangan chegara asosida Buxoro amirligida 27 beklilik tashkil topgan. Qashqadaryo vohasidagi Qarshi, Chiroqchi, G'uzor, Yakkabog', Kitob, Shahrisabz bekliliklari shular jumlasidandir.

Urushning og'ir jarohatlari G'uzor bekligidagi aholining tinka-madorini quritdi. Soliqlarning kuchaytirilganligiga va amir zulmiga qarshi 1871-yilgi G'uzor bekligida qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon Qarshi bekligidagi aholi ham qo'shildi. Ushbu qo'zg'olonida amir Muzaffar tahlikaga tushadi, chunki qo'zg'olonchilarning soni 20 mingdan oshib ketgandi. Amir qo'zg'olonni bostirish maqsadida o'zining ishongan sarkardalaridan qo'shin yuboradi. Ochlikdan qiynalgan va harbiy mahoratga ega bo'lmagan qo'zg'olonchilar amir sarkardalari tomonidan o'ch olinadi, ular dorga osiladi[2:13].

Amir Muzaffar davlatni mustahkamlash uchun uchinchi o'g'li – 13 yoshli Said Akramxonni G'uzorga bek qilib jo'natadi. Said Akramxon G'uzorda uzoq vaqt to'ralik qilgan. O'zi Shahrisabz hokimligiga tayinlangach o'rniga o'g'li Sultonxonni qoldiradi. Sultonxon G'uzorda 1917-yilgacha hokimlik qildi. Sultonxon Chiroqchiga hokim bo'lib ketgach G'uzorga hokim bo'lib, uning ukasi Mubinxon saylangan. Mubinxon G'uzorning so'nggi hokimi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi yoritishda Qushbegi arxivining I-126 fondidagi G'uzor bekligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida G'uzor bekligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari haqidagi ma'lumotlar muomalaga kiritilganligi va keng foydalanilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi jarayonlarni yoritishda Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida maxsus topshiriqlar asosida o'lkani o'rgangan sayyoh, harbiylar Y.K. Meyyendorf, A.Byorns, N.Xanikov, harbiylardan G.A. Arandarenko, A. Galkin, D.N. Logofet, I.I. Geyyer, A. Mayev, B. Litvinovlar hisobot va esdaliklar yozib

qoldirishgan. Ushbu ma'lumotlar tadqiqot metodologiyasining asosini tashkil etadi. Bu asarlarda hududda o'zining siyosiy, iqtisodiy ta'sirini kengaytirishga harakat qilgan metropolianing strategik qiziqishlari asosida G'uzor bekligining geografik joylashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti haqidagi qayd etish darajasidagi dalil va ma'lumotlar keltirib o'tilgan[8:5].

Shuningdek, A.D. Grebenkin, N.P. Stremouxov, A.P. Xoroshxin, N. Enpi, R. Gurovskiy, A. Vamberi, Y. Skayler, G. Lansdellarning asarlarida ham G'uzor bekligining iqtisodiy taraqqiyoti, shaharning ma'muriy boshqaruv tizimi, amirlik xazinasiga keltiradigan daromadi, aholisi, ishlab chiqarish jarayonlari xususida ayrim ma'lumotlar mavjud[8:8].

XIX asrning 60-yillarida Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy voqealar to'liqini G'uzor bekligiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Sovetlar davrida Abdumalik to'ra boshchiligidagi xalq ozodlik harakati masalasi birinchi marotaba A.P. Savitskiy maqolasida keltirib o'tilgan. Biroq xulosada "antirus" harakati bo'lganligi bois xalq ommasi tomonidan ma'qullanadi deb izohlagan. Abdumalik (Katta to'ra) ning ozodlik harakati to'g'risida "Tuhfayi-shohiy" va "Tarixi salotin mang'itiya" asarlarida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan[2:9].

Mazkur adabiyotlarga xos xususiyat shundan iboratki, ular Rossiya imperiyasi manbalarini ifodalaydigan tavsifiy shakldangina iborat bo'lib, daliliy ma'lumotlar chuqur ilmiy tahlil qilinmagan. Biroq aynan shu davrda, bayon qilishda bir yoqlamalikka yo'l qo'yilganligiga qaramasdan, hududning ichki hayoti masalariga oid keng doiradagi ilmiy dalillar to'plash uchun dastlabki qadam qo'yilgan. Bulardan tanqidiy va xolis yondashuv asosida G'uzor tarixi haqida aniq ma'lumotlar olish imkoni mavjud.

Shuningdek, Qushbegi arxivining I-126 fondidagi G'uzor bekligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida G'uzor bekligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari haqidagi ma'lumotlar muomalaga kiritilganligi muhim ahamiyat kasb etadi[8:8].

Abdumalik to'ra boshchiligidagi xalq ozodlik harakatning dastlabki markazi G'uzor bekligi bo'ldi. Abdumalik (Katta to'ra) boshchiligidagi harakat, birinchi navbatda o'rta asr qoloqligi, o'zaro parokandalik, mahalliy hokimlarning va hukmdorlarning zulm-zo'ravonligi hamda Rossiya istilosiga qarshi kurashni o'z oldiga maqsad qilib olgan, davlat mustaqilligi va ozodligi uchun ko'tarilgan, turli tabaqa, qabila, elatlarni o'zida birlashtirgan, to'laqonli xalq-ozodligi kurashi atamasiga to'liq mos kelar edi.

Abdumalik (Katta to'ra) boshchiligidagi xalq harakatini 3 davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr: 1867- yil oxiri – 1868- yil boshlaridan to amir Muzaffar Rossiya bilan sulh tuzib, rus vassalligini qabul qilgungacha bo'lgan davr. Bu vaqtda Samarqanddan G'uzorga qaytib kelgan Katta to'ra atrofida vatanparvarlik kayfiyatidagi, amirdan norozi kuchlar birlasha boshlaydi.

Ikkinchi davr: Sulh imzolangan vaqtdan to Abdumalik to'raga qarshi general Abramov boshchiligidagi imperiya harbiy kuchlarining Buxoro ichki ishlariga qat'iy aralashuviga qadar bo'lgan davr. Bu vaqt ichida Abdumalik to'ra barcha vatanparvar, Rossiya istilosi va amir hukmronligiga qarshi turgan kuchlarning yagona tan olingan rahbariga aylanib, xonlikning 3/1 qismida o'z hukmronligini o'rnatishga erishadi, To'ra xalq hurmat-e'tiboriga sazovor yo'lboshchi va mustamlaka ma'muriyatining eng xavfli raqibiga aylanadi.

Uchinchi davr: Abdumalik to'raning imperiya qo'shini tomonidan mag'lubiyatga uchrashi[2:101].

Natijalar va muhokama. G'uzor bekligida to'ralar tez-tez almashib tursa-da, xalqning ijtimoiy ahvoli o'zgarmadi, aksincha xalq og'ir zulm ostida hayot kechirdi.

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmida butun amirlik hududida kuchaygan davlat inqirozi va xalq qashshoqligi, hukmron tizimning buzg'unchilik kuchi G'uzor

aholisining ijtimoiy-siyosiy hayotini og'ir ahvolga olib keldi.

Uzoq davom etgan qurg'oqchilik sababli soliqlar miqdorining tinimsiz ko'tarilishi beklik hududida qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Hatto Saidakramxon, Sultonxon, Mubinxonlar G'uzorda hokimlik qilgan yillarda ham amaldorlarning suiiste'molchiligi, mahalliy ruhoniylarning ochko'zligi, o'z xatti-harakatlarini oqlash uchun diniy qonun-qoidalaridan foydalanishi, xalqning qashshoq ahvoli Qashqadaryodagi boshqa bekliklardagi umumiy manzarani o'zida aks ettirardi.

XIX asrning 60–90-yillarida Buxoroda hukm surgan o'rta asr qoloqligi, bekliklardagi o'zaro parokandaliklar mahalliy hokimlar va hukmdorlarning zulmi zo'rovonligi, Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosati amirlik hududida milliy-ozodlik harakatini boshlab yubordi.

Abdulmalik (Katta to'ra) boshchiligidagi xalq ozodlik harakatining dastlabki markazi amirlikning janubiy mintaqasida joylashgan G'uzor bekligi bo'ldi. U otasi amir Muzaffar tomonidan 1864-yili G'uzorga hokim (bek) etib tayinlangandi[1:27].

Abdulmalik to'ra boshchiligidagi ozodlik harakati tarixi xususida tarixchi olim Mirzo Abdulazim Somiyning ikkita "Tuhfayi-shohiy" va "Tarixi-salotin mang'itiya" (Mang'it sulolalari tarixi) nomli asarlari bizga to'liq ma'lumot beradi[3:137].

Shuningdek, A.Odilovning "Buxoro amirligida milliy ozodlik harakatlari tarixi" mavzusidagi dissertatsiyasi ham G'uzor bekligida boshlangan Abdulmalik to'ra boshchiligidagi ozodlik harakati tarixini ochib beradi[2:11].

1866-yilga kelib Shahrisabz va Kitob to'liq bo'ysundirilishga muvaffaq bo'linadi. Amir tomonidan yuborilgan 20.000 kishilik qo'shin bu yerlarni qayta egallab, hamma yerda zo'ravonlik va talonchilik uyushtiriladi. Shuningdek, amirga qarshi bosh ko'targan xitoy, qipchoq qabilalari ustiga ham yurish qilinib, qirg'in natijasida qabila sardori dodxoh Hotam miroxo'r ruslar huzuriga 100 ta navkari bilan qochib o'tadi. Amirning moliyaviy ahvoli ham og'irlashadi. Nafaqat bekliklarda, balki poytaxt Buxoroda ham iqtisodiy ahvol ancha mushkullashadi.

Bu voqea taxminan 1866-yil oktyabr oyi oxirlariga to'g'ri keladi. Samarqandda Abdulmalik to'ra 1867-yilning o'rtalariga (yoki oxirlariga) qadar bo'lgan deyish mumkin. Abdulmalik to'ra Samarqandda uzoq tura olgani yo'q. Holbuki, u shahzoda hamda katta o'g'il sifatida amirlikning faxri hisoblanmish bu shaharda qolishi, chet el istilochilariga qarshi mudofaani ham tashkil etishga qo'shishi mumkin edi[4:128].

Abdulmalik to'ra Sherali inoq huzurida ish ko'rar edi. Inoq qattiqqo'l odam bo'lib Samarqand aholisiga zulm o'tkazgan edi. Shuning uchun xalq amirga shikoyat maktubi yo'llab, bu shikoyatda "agar amir Sherali inoqni lavozimidan olib, boshqa hokim tayin etsa, shunda barchamiz – ayollar, erkaklar, kattayu-kichik, to oxirgi kishimiz qolguncha kofirlarga qarshi turgaymiz, zero, Buxoro lashkari parokanda bo'lib, kofirlar bilan jang qilmoqqa biron-bir sa'y-harakat ko'rsatmaydurlar", deyilgan edi.

Amir xalq talabini inobatga olmadi. Amir Samarqanddan ketgach, inoq ustidan amirga arz qilgani uchun Samarqand aholisidan o'ch olishga kirishadi. Hatto bu ishda Abdulmalik to'raning qo'li borligini gumon qilib, Samarqanddan yo'qotishga harakat qiladi. U amirga xat yo'llab ko'tarilgan g'alayonda Abdulmalik to'raning qo'li borligini aytib, uni Samarqanddan uzoqlashtirishga farmon berish lozimligini iltimos qiladi. Chunki Sherali inoq shahzodani shahardan ketkazib yuborgandan keyingina o'z holicha ish tutishi mumkinligini yaxshi bilar edi, shu tariqa u shahar ahliga xayrixohlik kayfiyatida bo'lgan, Rossiya mustamlakachiligiga qarshi faol kurash olib borishi mumkin deb xavotirga tushgan edi[5:54]. O'z o'g'lining mustaqillik va ozodlik kayfiyatini toj-u taxt uchun kurash uchun deb yo'yanligi, Katta to'raning nafsoniyatiga qattiq tegdi va keyingi faoliyatida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Bu paytda Karmanada besabr, betoqat qoidabuzar tuhmatchi g'ulomlar o'zaro maslahatlashib, Abdulmalik to'ra tomonidan tayinlangan amir lashkarlarini yo'qotmoqchi

bo'ladilar. Chunki ular bu lashkarlar to'rani qo'lab-quvvatlab isyon ko'tarishlari mumkin, degan xayolga borishgan edi. Bu vazifani bajarish uchun G'uzorga Abdulkarim devonbegi mang'itni jo'natadi, unga amir lashkarlarini bir iloj qilib G'uzordan Qarshiga olib kelish tayinlangan edi [6:17]. Ya'ni Abdulkarim devonbegi qo'lga Xudoyor to'qsabo va ba'zi bir boshqa isyonkor kishilarni hibsga olib, Qarshiga jo'natish xususidagi amir farmoni topshirildi. Shuningdek, u Katta to'rani itoatgo'ylikka chaqirishi, unga tobelik xususida pand-u nasihat ham qilishi darkor edi. Devonbegi avval Qarshiga kelib, u yerda amirning boshqa bir o'g'li Qarshi hokimi Nuriddinxon to'ra (1851-1880) bilan uchrashadi. Undan keyin esa G'uzor tomon yo'l oladi[7:26-27].

Albatta, Buxoro amirining Rossiya istilochiligiga qarshi yetarli kurash olib bormayotganligi, uning siyosat borasidagi qator salbiy xatti-harakatlari o'z atrofida Vatan ozodligi uchun kurash tarafdorlarini jipslashtira olmayotganligi, loqayd hamda zaifligi Katta to'ra va vatanparvar kuchlarning, xalq noroziligiga sabab bo'lar edi. Ozodlik va mustaqillik tarafdorlarining o'z atrofida jipslashib borayotganligini to'ra ham yaxshi anglar va albatta, bu kurashga uning o'zi taxt vorisi sifatida rahbarlik qilishi lozimligini tushunayotgan edi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, toj-u taxt uchun kurash, bu harakatning avval boshidagi maqsadiga kirmagan, albatta, amirdan norozilik kayfiyatlari kuchli bo'lsa-da, undan taxtni tortib olish, hokimiyat uchun kurashish Abdulmalik to'ra maqsadlariga muvofiq emas edi. Katta to'ra shu sababli ham Xudoyor to'qsaboning gaplarini ma'qullab, devonbegiga ortiqcha so'z aytishni xohlamadi. Chunki to'qsabo ularning harakatlari mazmunini ochiq-oydin bayon qilgan edi.

Abdulkarim devonbegi ketganidan so'ng, G'uzorda o'q-dori tayyorlash va ozodlik kurashiga harbiy tayyorgarlik boshlanib ketdi, Turli tabaqa vakillari har tomondan G'uzor markaziga yo'l ola boshladilar. Har bir "muqaddas urush" tarafdori "Qur'oni Karim" ni qo'lga olib, ular "biz to'ra boshchiligida muqaddas urushda qatnashamiz va o'z hayotimizni shu kurashga tikamiz" deb qasamyod qila boshladilar[7:27]. Yon-atrofdagi viloyat va bekliklar – Hisor va Sherobodagi qo'ng'irotlarga, Qarshi ahidiga, turkmanlarning yersari qabilasi hamda boshqa atrofdagi aholiga xitobnomalar yo'llab, ularni Abdulmalik to'raga bo'ysunishga, u boshchiligida "muqaddas urush" olib borishga chaqira boshladilar. Qisqa muddat ichida yon-atrofdan barcha ozodlik va mustaqillik uchun din bayrog'i ostida kurashuvchi vatanparvar kayfiyatidagi to'ra tarafdorlari G'uzorga yig'ila boshladilar. Zambaraklar keltirildi, o'q-dorilar tayyorlanishi kuchaydi. Hisor, Sherobod, Denov, Kulobdagi hokimlarga xalq bo'ysunmay qo'ydi. Sherobodda esa amir tomonidan qo'yilgan inoq Karimqulbiyni qo'ng'irotlar lavozimidan olib tashlab, o'rniga Ostanaqulbiyni tayin etadilar.

Amirga teskari kayfiyatda bo'lgan Kitob hokimi Jo'rabek Shahrizabz hokimi Bobobek kabi lashkarboshilar Abdulmalik e'lon qilgan g'azot yo'lida barcha elparvar kuchlarni jamlashga urindilar. Qisqa muddat ichida G'uzorga behisob kuch yig'ildi.

Barcha tarafdorlarning maqsadi, Ona yerlarini g'ayridinlardan batamom tozalash edi. To'ra ularga boshchilik qilib ruslarga qarshi kurashish uchun 1868-yil may oyining oxirlarida G'uzordan chiqib Shahrizabz orqali Samarqandga yo'l oldilar. Shahrizabz va Kitob hokimlari to'raga peshvoz chiqib kenagaslardan tuzilgan g'oziyar bilan to'ra lashkariga qo'shildi[8:78].

Abdulmalik to'ra asosan xonlikning sharqiy va janubiy kismlarini o'z atrofida ittifoq qilib birlashtirishga muvaffaq bo'ldi va Samarqandni Rossiya imperiyasi domidan tortib olish kompaniyasiga rahbarlik qildi. Buxoro amirligi bilan Rossiya harbiy qo'shinlari o'rta-sidagi hal qiluvchi Zirabuloq jangi arafasida kelishuvga muvofiq 1868-yil 1-iyunda tarixga "Samarqand qo'zg'oloni" nomi bilan kirgan to'ra qo'shini hamkorligida shahar ahlining Rossiya imperiyasiga qarshi bir haftalik ozodlik qo'zg'oloni bo'lib o'tadi.

Amir sulh to'g'risidagi maktubini general-gubernator Kaufmanga yuboradi. Kaufman Zirabuloqda g'alabaga erishgan bo'lsa-da, Samarqandda Abdulmalik to'ra

tomonidan berilgan zarbadan esankirab u amirning sulh to'g'risidagi taklifini darhol qabul qiladi. Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasida 1868-yil 28-iyunda sulh imzolandi. Ammo Abdulmalik to'ra boshchiligidagi islom lashkarlari g'alabani boy berib Samarqanddan chiqarilishiga sabab bo'ladi.

Buxoro amiri Abdulmalik to'ra va uni qo'llab-quvvatlagan Qarshi, G'uzordan, ko'chmanchi qabilalardan o'ch olishni maqsad qilib qo'ydi. Sulhdan so'ng yaxshi qurollangan qo'shin bilan Qarshiga yo'l oldi. Hozirgi Muborakka yetgach, Yo'ldosh eshikog'aboshi, Tog'aymurod eshikog'aboshi hamda obro'li mang'it amirlariga to'rani qo'lga tushirishni buyuradi. Shuningdek, Qarshi hokimi Nuriddinxon to'raga xat yo'llab, G'uzorga hujum qilishni to'rani asir tushirib qo'zg'olonchilarni qattiq jazolashni tayinlaydi[9:56].

Abdulmalik to'ra Qarshini ham egalladi. Oldin katta lavozimlarda ishlagan Abdulhakimbiy inoq, Mirqosim parvonachi, Abdulazizbiy kabi qo'rg'on hokimlari, amirdan norozi bo'lgan mansabdor shaxslar ham to'ra xizmatiga kelishdi. Amir to'raga qarshi kurashga alohida e'tibor qaratdi va qo'zg'olonni bostirish uchun general gubernatordan yordam so'rab xat yozdi. General gubernator o'n ming kishilik qo'shinni jangga tayyorladi. Ikkinchi tomondan amir ham, To'xtamish inoq rahbarligida o'n ming askar bilan jangga kirishi kerak edi[10:89].

Rus qo'shinlari Qarshida amir lashkarlarini qoldirib, katta o'lja bilan shahardan chiqib ketdilar. Amir Shahrisabz va Kitob hokimlariga xat yozib to'rani tutib kelishlarini tayinladi va xatni Shukurbiy inoq yaqin birodari Usmonbek eshik og'aboshidan jo'natdi. Bu voqeadan xabardor bo'lgan to'ra ikki yuzga yaqin navkari bilan Kitob yo'lga chiqadi. Shahrisabz–Kitob yo'lida Usmonbek og'aboshi bilan uchrashadi va xatni olib o'qiydi. Amirning o'ziga bo'lgan munosabatini tushunadi. To'ra bekni va u bilan birga kelgan kishilarni o'ldirib Kattaqo'rg'on tomonga yo'l oladi.

Abdulmalikka benihoya muruvvat ko'rsatadi. To'raga har oyda 1500, hamrohlariga esa 500 tillo tanga miqdorida maosh belgilaydi. “Xon unga shunchalik ko'p iltifot ko'rsatadiki, – deb yozgan edi bu voqealarni guvohi bo'lgan Ogahiy, – biror bir o'g'il o'z otasidan buning mingdan birini ham ko'rmagan”.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, Abdulmalik to'ra boshchiligidagi xalq ozodlik harakati avval boshda G'uzor bekligida boshlanib amir Muzaffar podsho Rossiyasi bilan sulh tuzgunga qadar shu tariqa davom etgan edi. Ushbu harakat natijasida amirlikning janubi va sharqida, so'ngra hamma yerida xalq o'z erki va ozodligini himoya etish uchun qo'zg'aldi. Rossiya imperiyasi istilosi va mustamlakachiligi, amirning beburd va taslimchilik siyosati, zo'ravonligi va zulmiga qarshi kurash markazi G'uzor bekligida boshlangan ushbu ozodlik harakatida barcha tabaqa vakillari ishtirok etdilar.

G'uzor arkida ozodlik kurashining ilk daf'alarida yangragan bayonotda uqtirilganidek G'uzor begi Abdulmalik to'ra toj-u taxt uchun emas, balki vatan mustaqilligi va ozodligi uchun kurashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Shu maqsadning debochasi G'uzor bekligida boshlanadi. Bu harakat 1869–1870-yillarda Bobon to'qsabo boshchiligidagi Shahrisabz va Kitob bekliliklaridagi harakatlarga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amir Sayid Olimhon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -T.: “Fan”, 1991, -B. 27.
2. Odilov A. Buxoro amirligida milliy ozodlik harakatlari tarixi (Abdulmalik To'ra boshchiligidagi xalq ozodlik harakat misolida) Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. –T., 2003. -B.9.
3. Somiy M.A. Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi // “Sharq yulduzi”, -№7-8., T.: 1993. -B. 137.
4. O'z MA, I-126 fond, 1-ro'yxat, 37-ish, 128-varaq.
5. O'z MA. I-126 fond, 34-ro'yxat, 236-ish, 54-varaq.
6. O'z MA. I-126 fond, 34-ro'yxat, 109-ish, 17-varaq.

7. Fitrat A. Amir Olimxonning hukmronlik davri. Tojikchadan Xasan Qudratillayev tarjimasi. -T.: "Minhoj" 1992. -B. 26-27.
8. Ernazarov A. G'uzor bekligning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (1865-1920 yy) / Monografiya / Qarshi: "Big Makro World" nashriyoti, 2024. B.78.
9. Xoliqova R. Rossiya-Buxoro. Tarix chorrahasida. - T.: O'qituvchi, 2005.
10. Nuriddinov H. G'uzornoma. -T., 2011.

O'ZBEKISTONDA SUG'ORISH TIZIMLARI HAMDA YER MELIORATSIYASI JARAYONLARI: TARIXIY JARAYON VA TAJRIBALAR

Mamajanov Azizbek Alisher o'g'li

FarDU doktoranti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

mamajovvazizbek19911508@gmail.com

ORCID 0000-0003-3036-5863

UDK 626.8:631.6(575.1)

Annotatsiya. Maqolada arxiv materiallari va tarixiy adabiyotlar hamda birlamchi manbalar asosida O'zbekistonda markazning paxta yakkahokimligi amaliyoti va uni yanada mustahkamlash maqsadida respublikada yirik sug'orish kanallari, nasos stansiyalarini va irrigatsiya tizimlarini barpo etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar doirasida olib borilgan siyosati tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatda melioratsiya va yerlarni sug'orish jarayoni, shu hududlarda sovet hukumatining paxta yakkahokimligi siyosati tamoyillari asosida paxta yetishtirishga ixtisoslashgan rayon va sovxozlarning tashkil etilishi va paxta yetkazib berish va uning salbiy oqibatlari, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni keltirib chiqilganligi tahlil qilingan. Bundan tashqari, tadqiqotda O'zbekistondagi qo'riq va bo'z yerlarning meliorativ holati va melioratsiya qilingan yerlarda tashkil etilgan davlat xo'jaliklari tarixi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, paxta yakkahokimligi, irrigatsiya tizimi, melioratsiya, sovet hukumati, qayta qurish, sifon, O'zbekiston, qo'riq yerlar, suv ombori.

IRRIGATION SYSTEMS AND LAND RECLAMATION PROCESSES IN UZBEKISTAN: HISTORICAL PROCESSES AND EXPERIENCES.

Abstract. The article analyzes the policy implemented in Uzbekistan within the framework of measures aimed at strengthening the Soviet central government's cotton monoculture, based on archival materials, historical literature, and primary sources. In particular, it examines the construction of large irrigation canals, pumping stations, and irrigation systems in the republic. Furthermore, the study discusses the processes of land reclamation and irrigation, the establishment of districts and state farms specialized in cotton cultivation in accordance with the principles of the Soviet cotton monoculture policy, and the negative consequences of these measures, especially the socio-economic and ecological problems that ensued. In addition, the author investigates the reclamation status of virgin and fallow lands in Uzbekistan and the history of state farms established on reclaimed lands.

Keywords: Agriculture, cotton monopoly, irrigation system, land reclamation, soviet government, reconstruction, siphon, Uzbekistan, virgin lands, water reservoir.

Kirish. 1955-yildan boshlab Sovet davlati "Tabiatni inson manfaatlariga bo'ysundirish" shiori asosida faoliyat yuritib, suv resurslaridan cheksiz foydalanish mumkin degan doktrinani ilgari surdi. Bu yondashuv natijasida kichik va o'rta massivlar sug'orishga jalb qilindi, ammo ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, sanoatning intensiv o'sishi hamda aholining keskin ko'payishi suvga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Respublika agrar siyosatida paxta yakkahokimligi joriy etilishi oqibatida ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimi izdan chiqdi, paxta maydonlarining kengayishi va sug'orish jarayonlarining tartibsizligi suv tanqisligiga olib keldi. Natijada don, oziq-ovqat xomashyolari va chorvachilik mahsulotlarida markaz va boshqa respublikalarga qaramlik yuzaga kelib, aholining oziq-ovqat xavfsizligi izdan chiqdi. Paxta yakkahokimligi siyosati yerlarning meliorativ holatini yomonlashtirdi, unumdorlikni pasaytirdi va uzoq muddatli ekologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqot jarayonida taqqoslama tahlil, muammo-xronologik yondashuv, obyektivlik tamoyili, strukturaviy-tizimli tahlil hamda og‘zaki tarix metodlaridan foydalanildi. Ma‘lumki, Sovet davlati irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratib, bu borada qator qarorlarni qabul qilgan. Xususan, 1951-yil 8-fevralda SSSR Ministrlar Soveti “1951-yil bahoriga irrigatsiya tizimlarini tayyorlash to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Unda irrigatsiya tizimlarining bahorgi mavsumga tayyorgarlik darajasi hududlar kesimida batafsil yoritilgan. Jumladan, 1951-yil boshida irrigatsiya va drenaj tarmoqlarini tozalash ishlari mamlakat bo‘yicha 35 foiz darajasida bajarilgan. Bu ko‘rsatkich SSSR bo‘yicha o‘rtacha 21 foiz, Andijon viloyatida 23 foiz, Samarqand viloyatida esa 25 foizni tashkil etgan. Shuningdek, so‘nggi besh kun davomida butun mamlakat bo‘yicha o‘rtacha 136 ming kishi doimiy asosda ish olib borgan, aslida esa bu raqam 472 ming kishini tashkil etishi belgilangan edi [13, p. 45].

Natijalar va muhokamalar. 1951-yilda Farg‘ona viloyatida irrigatsiya tarmog‘ini tozalash ishlari 1 043,4 ming metr, kapital qurilish ishlari 1 302,1 ming metr, xo‘jaliklararo tozalash ishlari esa 2 201,5 ming metr hajmda amalga oshirildi [4]. 1952-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, viloyatda sug‘oriladigan yerlarni kengaytirish dastlab 73 ming gektar deb belgilangan bo‘lsa-da, amalda 31 823 gektar maydon o‘zlashtirildi, yer qazish ishlari esa 11 333 ming metr hajmda bajarildi.

Katta paxta maydonlarini sug‘orish maqsadida keng ko‘lamli irrigatsiya inshootlari barpo etildi. Xususan, 1951–1955-yillarda Sirdaryo, Qashqadaryo, Zarafshon daryolari havzalarida, Markaziy Farg‘ona yerlari, Surxondaryo va Amudaryo etaklarida yirik irrigatsiya inshootlari qurildi. Zarafshon daryosidan Qashqadaryo daryosiga suv chiqaradigan 183 km uzunlikdagi Eski Angor kanali qurib bitkazildi. Shuningdek, Surxondaryoda Uchqizil suv ombori va yirik daryo suv ombori, Ohangaron daryosida esa Tuyabo‘g‘iz suv ombori qurilish ishlari jadallashtirildi.

1950–1952-yillarda 650 ming gektardan ortiq maydonlarda yangi irrigatsiya tizimiga o‘tish amalga oshirildi. Biroq kutilgan natijalarga erishilmadi: vaqtinchalik irrigatsiya tizimlari tez-tez ishdan chiqdi, suv sarfi ortib ketdi, tuproq sho‘rlanishi kuchaydi. Shu davrda Sovet amaldorlari O‘zbekistonda irrigatsiya va yer melioratsiyasini rivojlantirishni targ‘ib qilish uchun turli texnik vositalarni joriy eta boshladilar. Jumladan, irrigatsiya tizimida zemlesos mashinalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Agar 1953-yilda 108 ta yer qazuvchi texnika ishlatilgan bo‘lsa, 1960-yilga kelib ularning soni 435 taga yetdi.

1954-yilda SSSR KPSS MK va Ministrlar Soveti tomonidan SSSR Qishloq xo‘jaligi vazirligiga 2 390 ta traktor, 193 ta ekskavator, 295 ta skreper, 130 ta buldozer, 120 ta greyder, 15 ta suzuvchi yer qazuvchi mashina va 600 ta yuk mashinasi ajratildi. Shuningdek, MTS va suv xo‘jaligi tashkilotlariga 270 ta avtomobil, 85 ta sisterna, 250 ta ko‘chma ustaxona va 180 ta yonilg‘i quyish stansiyasi biriktirildi. Shu yilning 9-noyabrida SSSR Ministrlar Soveti “1954-yilda SSSRda irrigatsiya tarmog‘ini mexanizatsiyalashgan tozalash rejasini oshirish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. 1955-yilda esa irrigatsiya tizimlarini tayyorlashda mavjud mexanizmlardan to‘liq foydalanish, irrigatsiya tarmoqlarini mexanizatsiyalashgan holda 4 906 000 m³ hajmda tozalash rejasini belgilandi.

SSSRning beshinchi besh yillik rejasida respublika hududida irrigatsiyani jadallashtirish, sug‘oriladigan yerlarda sho‘rlanishning oldini olish masalalari ustuvor vazifa sifatida qayd etildi. Xususan, 1951–1955-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha Besh yillik rejada, shuningdek, Partiyaning XIX syezdi direktivalarida Mirzacho‘l, Markaziy Farg‘ona, Buxoro, Xorazm, Janubiy Qoraqalpog‘iston va Bosh Turkman kanali hududlarida irrigatsiya ishlari uchun 80 mln rubl mablag‘ ajratilishi belgilandi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatida 10 ming gektar yangi yerlarni o‘zlashtirish hamda Uchqizil suv ombori qurilishini yakunlash vazifalari belgilandi [17].

1955-yil 18-iyunda SSSR Ministrlar Soveti va O'zbekiston Kommunistik partiyasi MK "SSSR suv xo'jaligi organlari ishini yaxshilash to'g'risida" qaror qabul qildi [17]. Ushbu qarorda sug'oriladigan yerlarda meliorativ holatni yaxshilash, kanallar va inshootlarni texnik rekonstruksiya qilish, suv taqsimotini reja asosida tashkil etish, yirik suv inshootlarini qurish vazifalari qayd etilgan.

1951-yilga nisbatan 1955-yilda O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar hajmi 227,8 ming gektarga ortdi, bunda paxta maydonlari sezilarli darajada kengaydi. Eng yuqori o'sish sur'atlari Toshkent, Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston ASSRida kuzatildi. Bu jarayon Sovet davlatining agrar siyosati bilan bevosita bog'liq edi.

Beshinchi besh yillik davrida (1951–1955) 133,7 ming gektar sug'oriladigan yerlar foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 1959–1965-yillarda bu ko'rsatkich 381,8 ming gektarni tashkil etdi. Sug'orish ishlarining jadallashuvi 1955–1959-yillarda respublikada qo'shimcha 160 ming gektar yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi. Xususan, 1965-yilda O'zbekistonda ekin maydonlari 350 ming gektarga kengaytirilib, shundan 200 ming gektar sug'oriladigan yerlar hissasiga to'g'ri keldi. Natijada 1953–1964-yillarda paxta hosili 2 525,5 ming tonnadan 3 671,4 ming tonnagacha ortdi. Biroq hosildorlik pasaydi: 1956-yilda o'rtacha hosil 1 gektardan 22,0 sentner bo'lgan bo'lsa, 1962-yilda bu ko'rsatkich 19,2 sentnerga tushib ketdi [14].

Shuningdek, KPSS XX syezdi direktivalarida belgilangan oltinchi besh yillik reja (1956–1960) asosida 325 ming gektar maydonda irrigatsiya tarmoqlarini qurish, 6,8 mln gektar cho'l va dasht yaylovlarini sug'orish, shuningdek, Tuyabo'g'iz, Chimqo'rg'on va Surxondaryo suv omborlarini qurish vazifalari qo'yildi.

1957–1960-yillar davomida kollektor qurilishi ham jadallashdi. Bu davrda jami 2,8 mln m³ hajmda qazish ishlari amalga oshirildi. Sardoba nasos stansiyasi qurildi va uning yordamida Markaziy Mirzacho'l kollektoriga (Голодностепстрой) 80 mln m³ suv chiqarildi. Natijada, 24 ming gektar yerning meliorativ holati sezilarli darajada yaxshilandi.

Sovet davri davomida sug'oriladigan yerlarning katta qismi paxta maydonlariga to'g'ri keldi va irrigatsiya ishlari asosan paxta yetishtirishni rivojlantirishga qaratildi. 1957–1961-yillarda respublikada sug'oriladigan yer maydonlarining 104,7 ming gektarga kengayishi kuzatildi. 1965-yilga kelib O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar hajmi 3 179,1 ming gektarni tashkil etdi.

1958-yil 13-yanvarda SSSR Ministrlar Soveti "Farg'ona va Andijon viloyatlarida hamda respublika bo'yicha irrigatsiya va melioratsiya ishlarining borishi to'g'risida" qaror qabul qildi [3]. Unda irrigatsiya tarmog'ini vegetatsiya sug'orishiga tayyorlash, yuvish va zaxira sug'orish ishlari ko'rib chiqildi. 1958-yil 5-yanvar holatiga ko'ra, irrigatsiya tarmog'ini tozalash ishlari mamlakat bo'yicha 58,5 % ga bajarildi. Shu bilan birga, rejani bajarishda 68,2 % mexanizmlar yordamida, 44,3 % esa qo'lda amalga oshirildi.

1951–1960-yillarda yangi sug'oriladigan yerlarning o'rtacha yillik hajmi 27,4 ming gektarni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi o'n yillikda bu ko'rsatkich 77 ming gektardan oshib ketdi. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning umumiy hajmi 1960-yildagi 2 474 ming gektardan, 1975-yilda 2 907,8 ming gektarga yetdi [2].

1-jadval.

O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning o'sish dinamikasi, ming gektar hisobida (1950–1986) [17].

Yillar	1950	1960	1965	1970	1975	1980	1985	1986
Ming gektar	2276	2964	2639	2696	3006	3476	3930	4020

Jadvaldagi ma'lumotlarni hududlar kesimida tahlil qilish foydali. Masalan, Andijon viloyatida 1950–1990-yillarda sug'oriladigan yerlar hajmi hamda ular iste'mol qilgan suv miqdori yildan yilga oshib borgan. 1950-yilda viloyatda sug'oriladigan maydon 217 ming gektar, 1960-yilda 245,1 ming gektar, 1970-yilda 265,5 ming gektar, 1980-yilda 282,1 ming gektar, 1990-yilda esa 289,4 ming gektarni tashkil etdi [6].

1967–1980-yillarda yangi sugʻoriladigan yerlar qishloq xoʻjaligiga jalb qilindi va qishloq xoʻjaligida foydalanilgan suv hajmi 10 mlrd m³ deb baholandi. Mamlakatda 1 gektar sugʻoriladigan yerga toʻgʻri keladigan suv hajmi oʻrtacha 3,6 ming m³ga koʻpaydi. Oʻninch besh yillik (1976–1980) davrida toʻrt yil toʻqqiz oy ichida respublikada 207,6 ming gektar yangi sugʻoriladigan yerlar oʻzlashtirildi, 454,7 ming gektar yerning meliorativ holati yaxshilandi. Shu bilan birga, 1960-yilda sugʻoriladigan yerlar maydoni 2,57 mln gektarni tashkil etgan boʻlsa, 1980-yillarning oxiriga kelib bu koʻrsatkich 4,22 mln gektarga yetdi [16].

Mazkur davrda irrigatsiya tizimida ishlatilgan nasos stansiyalari uchun ortiqcha energiya sarfi kuzatildi. Natijada bir qator muammolar yuzaga keldi. Ayniqsa, 1970-yillarda yuqori energiya talab qiladigan sugʻoriladigan yer maydonlarida bu tanglik yaqqol sezildi [7, 109-bet].

1970-yilda respublika xoʻjaliklarining barcha toifalaridagi sugʻoriladigan yer maydoni 2 732,7 ming gektar, 1980-yilda 3 517,7 ming gektar, 1985-yilda 3 976,6 ming gektar, 1986-yilda 4 067,5 ming gektar, 1987-yilda 4 160,1 ming gektar, 1988-yilda esa 4 205 ming gektarni tashkil etdi.

1976-yil 1-noyabr holatiga koʻra, Andijon viloyatining umumiy yer fondi 423,5 ming gektarni tashkil etib, shundan 263 526 gektari sugʻoriladigan, 263 492 gektari qishloq xoʻjaligi yerlari edi. Shu yil ekin ekishga tayyorgarlik doirasida 1975–1976-yillarning kuz-qish mavsumida viloyatda 45,9 ming gektar shoʻrlangan yerlar yuvib chiqarildi.

Samarqand viloyati Urgut tumanida soʻnggi oʻn besh yilda qariyb 11 mln rubl mablagʻ oʻzlashtirildi, 1 279 gektar yangi sugʻoriladigan yer qishloq xoʻjaligiga jalb qilindi, 2 145 gektar yerning meliorativ holati yaxshilandi. Buxoro viloyatida sugʻoriladigan yerlarning asosiy qismi Qarakoʻl vohasida joylashgan boʻlib, 1976–1981-yillarda ularning 26,3 %i melioratsiya qilindi, 10,2 %i esa tekislab chiqildi. Yerlarning 39,9 %ida irrigatsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilindi. Vohada ilk marotaba yopiq gorizontaal drenaj Alat tumanidagi “Lenin yoʻli” kolxozi hududida qurildi.

SSSR Melioratsiya va suv xoʻjaligi vazirligining maʼlumotiga koʻra, 1978-yilda sugʻorishga 45 mlrd m³ suv sarflandi. Bu qishloq xoʻjaligida isteʼmol qilingan suvning 95 %ini, milliy xoʻjalik boʻyicha isteʼmol qilingan suvning esa 87,9 %ini tashkil etdi. Ammo 1980-yilda sugʻorish suvi hajmi qariyb 25 %ga kamaydi, natijada barcha sugʻoriladigan hududlarda hosildorlik pasaydi va sugʻorish suvi bilan taʼminot ham qisqardi.

Sugʻorish inshootlari qurilishi va sugʻoriladigan yerlarning qishloq xoʻjaligiga jalb qilinishi Sovet davri davomida muntazam amalga oshirildi. Biroq 1970-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab sugʻoriladigan yerlar hajmi yildan-yilga kamayib bordi. Masalan, “1976–1980-yillarda 482,1 ming gektar yer sugʻorishga jalb etilgan boʻlsa, 1981–1985-yillarda bu koʻrsatkich 429,9 ming gektar, 1986–1990-yillarda esa atigi 159,4 ming gektarni tashkil etdi.” Shunga qaramay, sovet hukumatining mablagʻ ajratishiga qaramasdan, melioratsiya holati qoniqarli emas edi. Jumladan, “1986-yilgi maʼlumotlarga koʻra, mamlakatimizdagi 500 ming gektar yer yoki sugʻoriladigan maydonlarning 15 %i hech qanday meliorativ talablarga javob bermas edi.” Bu esa hosildorlikning keskin pasayishiga olib keldi.

SSSR KPSS Markaziy Qoʻmitasining XXVI syezdida 1981-yil 2-martda qabul qilingan “SSSRning 1981–1985-yillar hamda 1990-yilgacha boʻlgan davr uchun iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy yoʻnalishlari” rezolyutsiyasida irrigatsiya va melioratsiya masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Unda “melioratsiyaning yanada rivojlanishi taʼminlanishi lozim. Davlat kapitali hisobidan 3,4–3,6 mln gektar sugʻoriladigan yer va 3,7–3,9 mln gektar choʻl, yarim choʻl va togʻ hududlarida yaylovlarga suv chiqarilishi belgilandi”.

Qoraqalpogʻiston ASSRida ham sugʻoriladigan yer maydonlari markaziy

boshqaruv nazorati ostida yildan-yilga kengaydi. Xususan, 1975-yilda 250,1 ming gektar bo'lgan sug'oriladigan yerlar 1984-yilda 400,4 ming gektarga yetib, 150,3 ming gektarga ortdi [5]. Bu hududda 1981-yilgi rejaga ko'ra, umumiy qiymati 38,1 mln rubl bo'lgan 26 ta meliorativ inshoot qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, yil yakuniga qadar 30,4 mln rubllik ishlardan 6,7 mln rubli bajarilmay qoldi.

1981-yilda Respublika Suv xo'jaligi vazirligi irrigatsiya tizimini kompleks rekonstruksiya qilishni maqsad qilib qo'ydi. Bu maqsadda 14,2 mln rubl mablag' ajratilishi rejalashtirildi. Yanvar–avgust oylarida 4,1 mln rubl (29 %) o'zlashtirildi, 2 095 gektar yer (21 %) qishloq xo'jaligiga jalb qilindi [11]. 1985-yilga kelib mamlakatda umumiy hajmi 10 mlrd m³ suv saqlaydigan 23 ta suv ombori mavjud edi. 1970–1980-yillarda suv muvozanatining buzilishi natijasida yer, suv va hatto havo ham zaharlanishni boshladi [8].

XXVI syezdda qabul qilingan “1981–1985-yillarda va 1990-yilgacha bo'lgan davrda SSSRning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari”da irrigatsiya va melioratsiya jarayonlarini kengaytirish vazifalari belgilandi. 1985-yilda mamlakatda 900 ta irrigatsiya tarmoqlari va 92 mingta gidrotexnik inshoot mavjud edi. Irrigatsiya kanallari uzunligi 197 ming kmga ortdi [15]. Shu yili suv iste'moli 54,8 km³, 1989-yilda 50,4 km³, 1990-yilda esa 52,4 km³ni tashkil etdi. O'rtacha hisobda suv iste'molining 85 %i sug'orishga, ya'ni qishloq xo'jaligiga to'g'ri keldi. 1985-yilda sug'orishga 46,3 km³, 1989-yilda 42,3 km³, 1990-yilda esa 44,4 km³ suv sarflandi.

So'nggi o'n besh yillikda melioratsiya va irrigatsiya bo'yicha olib borilgan ishlarni umumlashtirganda, Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi so'nggi besh yilda 238,6 ming gektar yangi sug'oriladigan yerlarni o'zlashtirdi, 461 ming gektar yerning melioratsiyasini yaxshiladi, 300 ming gektar yerning sho'rini yuvdi. Bu ko'rsatkichlar rejalashtirilganidan yuqori bo'ldi. Shu bilan birga, 4 ta yangi suv ombori – jumladan, sig'imi 1 900 mln m³ bo'lgan Andijon suv ombori ishga tushirildi, Tuyamoyin GES hamda Hisorak, Zamin, Oqdaryo, Qorovultepa, Oqtepa suv omborlari qurib bitkazildi. Ammo kollektor oqovalari tufayli daryolar suvining minerallashuvi ortdi, natijada mamlakatda melioratsiya holati yomonlashib, sho'rlangan yerlar maydoni 566 ming gektarga yetdi. Bu esa irrigatsiya sohasidagi deformatsiya jarayonlarini yanada kuchaytirdi.

1986-yilda respublikada 25,8 ming km xo'jaliklararo irrigatsiya kanallari, 142 ming km ichki xo'jalik kanallari, 106 ming km kollektorlar, 28 ming km yopiq drenaj va 3,5 ming km dan ortiq vertikal drenaj tarmoqlari mavjud edi. Shu davrda O'zbekistonning suv xo'jaligi majmuasi 180 ming km dan ortiq irrigatsiya kanallari va 230 ta xo'jaliklararo irrigatsiya tarmoqlaridan iborat edi. Bularga qo'shimcha ravishda 120 ming km kollektor-drenaj tarmog'i ham mavjud edi. Ishlab chiqarish davrida suv hajmi 16 mlrd m³ bo'lgan 26 ta yirik suv ombori ishlatildi. Xuddi shu yilda Farg'ona viloyati Yazyovan tumanida sug'oriladigan yer maydoni 16 705 gektar bo'lib, shundan 3 182 gektari sho'rsiz, 11 732 gektari yengil sho'rlangan, 1 876 gektari esa kuchli va o'rtacha sho'rlangan edi.

Ta'kidlash joizki, 1960–1990-yillarda O'zbekistonda sug'oriladigan yer maydoni 2 mln gektarga ortdi. 1986-yilga kelib sug'oriladigan unumdor yerlar 85,8 % ni tashkil etdi, ammo shu yili don yetishtiriladigan yerlar ulushi 57 %dan 22 %ga tushdi (1940-yilda bu ko'rsatkich 35 % edi). Shu bilan birga, paxta monopoliyasi sababli O'zbekistonda majburiy mehnat va paxta yig'im-terimiga safarbarlik holatlari ham kuzatildi [9].

1990-yilda respublikadagi drenaj tarmoqlari maydoni 2,62 mln gektarni tashkil etib, shundan 600 ming gektari yopiq drenaj, 400 ming gektari esa nasos drenajlari edi. Shu yili O'rta Osiyo Irrigatsiya ilmiy-tadqiqot instituti (SANIIRI) va “Vodoprojekt” ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatdagi umumiy maydoni 4,18 mln gektar bo'lgan sug'oriladigan yerlarning 3,6 mln gektari sun'iy drenajga muhtoj edi. Ayrim hududlarda sug'oriladigan yerlar yerosti suvlarining ko'tarilishi tufayli yaroqsiz holga keldi. 1990-yillarda sug'oriladigan yerlarda yerosti suvlari sathi 3 mga ko'tarildi.

Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanidagi ayrim xo'jaliklarda esa u 1,5 mgacha ko'tarilgan [18].

1990-yillarning o'rtalariga kelib, mamlakatda 245 mingta irrigatsiya tizimi, 50 ta yirik suv taqsimlash inshooti, 47 ta suv ombori, 23,3 ming km xo'jaliklararo irrigatsiya stansiyalari, 120 ming km drenaj kollektorlar, 3 433 ta drenaj quduqlari faoliyat ko'rsatgan. Shundan 1,5 mln gektar yer mashinalar yordamida sug'orilgan.

Xulosa. Manba va tarixiy jarayonlarning umumiy tahlilidan ko'rinib turibdiki, Sovet davrida olib borilgan agrar siyosat, xususan, paxta yakkahokimligi va irrigatsiya tizimlarining rivojlantirilishi respublika uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Paxta yakkahokimligi siyosati O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini izdan chiqarib, aholining markazga qaramligini kuchaytirdi, ilmiy asoslangan ekin almashinuvi tizimini buzib, yer unumdorligi va sug'orish samaradorligini pasaytirdi. Irrigatsiya va melioratsiyadagi xatoliklar sho'rlanish, degradatsiya va ekologik muammolarni kuchaytirib, butun mintaqada ekologik falokatni yuzaga keltirdi. Haddan tashqari paxtachilikka ixtisoslashuv iqtisodiy beryoqlamalikka olib kelib, boshqa sohalarining rivojini sekinlashtirdi va aholining turmush darajasini pasaytirdi. Suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish esa Orol dengizi inqiroziga sabab bo'lib, Markaziy Osiyo miqyosida ekologik, iqlimiy, sog'liqni saqlash va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni yuzaga keltirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонова Т. Ўзбекистонда суғориш иши ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – Б.27.
2. Акрамов Э. Ерларни суғориш самарадорлигини ошириш масалалари. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.45.
3. O'zbekiston Milliy arxivi, R-619-fond, 1-ro'yxat, 101-yig'majild, 62-ish.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Arxivi, Farg'ona viloyati bo'limi, 1-fond, 1-ro'yxat, 173-yig'majild, 18-ish.
5. Komilov, O. K. (2021). Modernization History of the Irrigation System in Uzbekistan (In the Example of the Period of Independence). Design Engineering, 6111-6120.
6. Ведомственный архив Нарын-Карадарьинского бассейнового управления ирригационных систем Министерства водного хозяйства Республики Узбекистан, фонд 57, опись 1, ед.хран. 381, с.46.
7. Герман М. Реформа сельского хозяйства (на примере Узбекистана) // Центральная Азия 2010 - Перспективы человеческого развития. Региональное бюро по странам Европы и СНГ. Глава 9. -Алмати, 1999. – С.109.
8. История Узбекистана / Под редакцией Р.Х. Муртазаевой. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2003. – С.506
9. Kandiyoti D. Agrarian Reform, Gender and Land Rights in Uzbekistan. Programme on Social Policy and Development, Paper -№11, Geneva: UNRISD, 2002. – P.2-3.
10. Мамедов А.М. Развитие ирригации в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1967. – С.254.
11. Наманганский областной государственный архив, фонд 275, опись 1, ед.хран 3620, с.29.
12. Национальный архив Узбекистана, фонд Р.837, опись. 38, ед.хран. 20, - Л. 1979.
13. O'zbekiston Milliy arxivi, R-2676-fond, 1-ro'yxat, 1010-yig'majild, 70-varaq.
14. Новая история Узбекистана. Вторая книга. Узбекистан в период советского колониализма / Составители: М. Джураев, Р.Нуруллин, С.Камолов и другие. -Ташкент: Шарк, 2000. – С.54.
15. Обламуратов Н. Развитие аграрного производства Узбекистана в 1971-1990 гг. опыт, уроки и проблемы: Автореф...дисс.док.ист.наук. – Ташкент, 1994. – С.25.
16. Rakhmatullaev S., Huneau F., Celle-Jeanton H., Coustumer P., Motelica-Heino M., Bakiev M. Water reservoirs, irrigation and sedimentation in Central Asia: a first-cut assessment for Uzbekistan // Environmental Earth Sciences. Volume 68.-Springer Berlin Heidelberg, 2013. - P.991.
17. Farg'ona viloyati davlat arxivi, 1022-fond, 2-ro'yxat, 182-yig'majild, 127-varaq.

18. http://www.igpi.ru/bibl/igpi_publ/uzb_eco.html // Гаевая Т.Я., Писарева В.Н. Экологическая ситуация в Узбекистане. World bank, 2003.
19. Irrigation in Central Asia: social, economic and environmental considerations. – P.13. <http://www.worldbank.org/eca/environment>

QASHQADARYO ZIYOLILARI TARIXI: XX ASR 50–80-YILLARIDAGI TARIXCHI OLIMLAR FAOLIYATI MISOLIDA

Abdiyeva Setora Ilyos qizi

Qarshi davlat universiteti magistranti

setorailyosevna@gmail.com

ORCID 0009-0003-1613-0950

UDK 94:004(575.1)(045)

Annotasiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida tashkil etilgan dastlabki oliy ta'lim muassasasi – Qarshi davlat universitetining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari ilmiy tahlil qilinadi. Ayni paytda o'zining 80 yillik yubileyini nishonlayotgan ushbu oliy ta'lim dargohining ilk faoliyati 1945-yilda Buxoro birlashgan davlat pedagogika va o'qituvchilar institutining Qarshi filiali sifatida boshlangan bo'lib, uning tashkil topishida mamlakatdagi ta'lim tizimining mintaqaviy rivojlanish ehtiyojlari muhim omil bo'lgan. Maqolada ayniqsa tarix yo'nalishidagi kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilganligi, bu soha bo'yicha o'quv dasturlari, ilmiy-uslubiy ishlar va kadrlar salohiyatini shakllantirishdagi bosqichlar o'rganiladi. Shuningdek, maqolada Qarshi davlat universiteti negizida Qashqadaryo hududida tarix fani bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yo'lga qo'yilishi, mahalliy yoshlar orasidan ilmiy darajali mutaxassislar yetishtirilishi, tarixchi olimlar jamoasining shakllanishi va ularning O'zbekiston tarixshunosligiga qo'shgan hissasi tizimli tahlil etiladi. Bu jarayonlar orqali mintaqada ilmiy maktablarning yuzaga kelishi, ilmiy an'analar va istiqbolli yo'nalishlar belgilanishi kuzatilgan. Maqola Qarshi davlat universitetining nafaqat mintaqaviy, balki respublika miqyosidagi ilmiy-ma'rifiy salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar. Qarshi davlat universiteti, Qashqadaryo ziyolilari, tarix fanining rivoji, oliy ta'lim, tarixchi olimlar, mahalliy kadrlar, ilmiy tadqiqot, XX asr, pedagogik ta'lim, ilmiy maktablar.

HISTORY OF THE KASHKADARYA INTELLIGENTSIA: ON THE EXAMPLE OF THE ACTIVITIES OF HISTORICAL SCIENTISTS IN THE 50S AND 80S OF THE XX CENTURY.

Abstract. In this article, a scientific analysis of the stages of formation and development of the first higher educational institution established in the Kashkadarya region — Qarshi State University is carried out. The first activity of this higher education institution, which is currently celebrating its 80th anniversary, began in 1945 as a counter-branch of the Bukhara United State Pedagogical and Teachers Institute, the need for regional development of the educational system in the country was an important factor in its establishment. The article especially focuses on the training of personnel in the field of history, studies of educational programs in this field, scientific and methodological work and stages in the formation of Personnel potential are studied. The article also provides a systematic analysis of the establishment of scientific research in history on the basis of Qarshi State University in the territory of Kashkadarya, the cultivation of scientific-level specialists from among local youth, the formation of a team of historical scientists and their contribution to the historiography of Uzbekistan. Through these processes, the emergence of scientific schools in the region, the establishment of scientific traditions and promising directions has been observed. The article serves to reveal the scientific and educational potential of the Karshi State University not only regionally, but also on a Republican scale.

Keywords. Karshi State University, Kashkadarya intelligentsia, development of historical science, Higher Education, historical scientists, local personnel, scientific research, XX century, pedagogical education, scientific schools.

Kirish. Tarixiy jihatdan qaralganda, har bir jamiyatning ma'naviy va madaniy yuksalishida ziyolilar o'rni juda muhim hisoblanadi. Ziyolilar o'z jamiyatini bilim, ma'rifat va axloq qoidalari asosida tarbiyalashga harakat qiluvchi insonlar bo'lib,

o'zlarining ijodiy, ilmiy yoki ma'naviy faoliyati orqali jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladilar. "Ziyoli" so'zi o'zbek tilida ma'naviy, bilimli va jamiyatda nufuzga ega bo'lgan shaxsni ifodalaydi. Bu so'zning asl manbai fors tili bo'lib, "ziyo" – "nur", "yorug'lik" ma'nosini beradi. Shu sababli "ziyoli" – ma'naviy yorug'likka ega bo'lgan, bilim va ma'rifat manbai sanaladigan inson degan ma'noni anglatadi. Olimlar, faylasuflar, shoirlar, yozuvchilar, ustozlar va boshqa madaniy-ma'rifiy sohalarining faollari ziyolilar qatlamini tashkil etadi. Jumladan, XX asrning ikkinchi yarmida Qashqadaryo ilm-fani rivojida ziyolilarning qo'shgan hissalar alohida e'tirofga molikdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, xolislik tamoyili kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. 1945-yil 1-sentabrda Qashqadaryo hududida birinchi oliy ta'lim muassasasi Buxoro birlashgan davlat pedagogika va o'qituvchilar institutining Qarshi filiali tashkil etildi[1]. Ya'ni bugungi kunda faoliyat yuritib kelayotgan Qarshi davlat universiteti. Bu filialning tashkil etilishi, avvalo, mamlakatdagi pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish, jumladan, Qashqadaryo va uning atrofidagi hududlarda malakali o'qituvchilar tayyorlash zarurati bilan bog'liq edi. Urushdan keyingi davrda xalq ta'limi tizimini tiklash va rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasidagi muhim vazifalardan biri sifatida qaraldi. Shu jihatdan, Qarshi shahrida pedagogik yo'nalishdagi oliy dargohning tashkil etilishi, nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy miqyosda ham ta'lim sohasini mustahkamlashga xizmat qildi. Filialning tashkil etilishi Qashqadaryo viloyatidagi pedagogik ta'limning institutsional asoslarini shakllantirishda muhim bosqich bo'lib, keyinchalik mazkur filial mustaqil ta'lim muassasasi sifatida rivojlanib bordi.

Qashqadaryo vohasining pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olinib, O'zbekiston Ministrlar Sovetining 1949-yil 27-oktabrdagi 1966-sonli qarori bilan mustaqil Qarshi o'qituvchilar instituti tashkil etildi[2]. Bu o'zgarish mamlakatda pedagogik kadrlar yetishmasligi muammosini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida amalga oshirilgan bo'lib, uning orqali hududda o'rta ta'lim muassasalari uchun yetarlicha malakali o'qituvchilar tayyorlash imkoniyati yaratildi. 1956-yilga kelib, mazkur muassasa yanada kengaytirilib, to'liq besh yillik ta'limni qamrab oldi. Qarshi davlat pedagogika instituti sifatida faoliyatini davom ettirdi.[3] Institutning dastlabki faoliyati qator moddiy-ma'muriy qiyinchiliklar sharoitida boshlandi. Mavjud binolarning nochor holati va ta'lim olib borish uchun zarur infratuzilmaning yetarli emasligiga qaramasdan, ustoz va talabalarning hamkorligida hashar yo'li bilan institutning binosi qurildi. Bu jarayon, o'z navbatida, jamoatchilikning ta'lim sohasiga bo'lgan ijobiy munosabati va fidoyiligini ko'rsatib berdi. Filial sifatida faoliyat boshlagan dastlabki yilda tarix va til-adabiyot yo'nalishlari bo'yicha bitta aralash o'quv guruhi tashkil etilgan bo'lib, unga jami 32 nafar talaba qabul qilindi. Ularning 11 nafari rus millatiga mansub edi[4]. 1945–1946- o'quv yilida Tarix-filologiya bo'limi ochildi. 1946- yilda tarix ixtisosligi bo'yicha 21 nafar talaba o'qishga qabul qilindi[5].

1950-yilga kelib, institutdagi mavjud bo'lim asosida Tarix-filologiya fakulteti tashkil etildi. Ushbu fakultetning tashkil etilishi institutning ilmiy va ta'limiy salohiyatini yuksaltirishda muhim qadam bo'ldi. Fakultetni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida respublikaning markaziy ilmiy muassasalaridan bir qator fan nomzodlari jalb etildi. Bu esa o'quv jarayonini sifat jihatdan yaxshilash, talabalarning nazariy tayyorgarligini kuchaytirish va ilmiy izlanishlarni rivojlantirishga turtki berdi. Shu bilan birga, fakultet tarkibidagi iqtidorli yosh pedagoglar orasidan ilmiy izlanishlarga loyiq mutaxassislarni saralab olib, ularni aspiranturaga yo'llash orqali mahalliy ilmiy kadrlar salohiyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, fakultetda faoliyat yuritgan Tasliya Yadixanova Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahrida aspiranturada tahsil olib, 1955-yili o'zbek tili bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya

qildi.[6] U institut tarixida fan nomzodi ilmiy darajasini olgan birinchi xotin-qiz sifatida qayd etiladi. Bu voqea nafaqat fakultet, balki butun institut uchun muhim ilmiy-tarixiy ahamiyat kasb etdi. Bu davrda Tarix kafedrasida K.Mirzayev, Suyunov, Sagdiyev, Mirsalomov kabi o'qituvchilar faoliyat yuritdi. 1963-yilgacha Tarix-filologiya fakultetida tahsil olgan talabalar o'zbek tili va adabiyoti hamda tarix yo'nalishlari bo'yicha qo'sh ixtisoslikka ega mutaxassislar sifatida tayyorlandi. Bu amaliyot talabalarga keng qamrovli nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallash imkonini yaratdi, shu bilan birga o'qituvchilik va ilmiy tadqiqot sohalarida samarali faoliyat yuritishga zamin tayyorladi. Ushbu davr Tarix-filologiya fakultetining shakllanishi, kadrlar siyosati va ilmiy salohiyatning o'sishida muhim bosqich sifatida tarixga kirdi.

1968-1974-yillarda tarix-geografiya bo'limi sifatida faoliyat ko'rsatdi. 1977-yil sentabr oyida Tarix-filologiya fakulteti qayta tashkil etilib, undan mustaqil Tarix fakulteti ajralib chiqdi[7]. Mazkur tashkilotchilik islohoti ta'lim jarayonini mutaxassisliklar bo'yicha yanada samarali tashkil etish, tarixiy fanlar sohasida maxsuslashgan ilmiy-akademik muhitni rivojlantirish maqsadlarini ko'zlagan edi. Fakultet faoliyati davomida turli yillarda yurtimizning yetakchi tarixchi olimlari, professor-o'qituvchilar ushbu ta'lim muassasasida samarali mehnat qilishdi. Jumladan, professorlar Qurbon O'ljaboyev, Suren Zaxarov, Nortosh O'ljaboyeva, Abdusalom Mavlonov, Omonturdi Eshquvvatov, To'xtamet To'xtametov, Obod Jo'raqulov, Ahmadjon Choriyev kabi ilm-fan va ta'lim sohasida katta tajribaga ega mutaxassislar tarix fanidan dars berishdi hamda ilmiy izlanishlar olib borishdi. Shuningdek, dotsentlar Bozor Samadov, Mo'min Qodirov, Sattor Turdiyev, Xo'jam Egamberdiyev, Qosim Abdullayev, To'raxon Rashidova, Abduxalil Ravshanov, Eshqobil Abdurahmonov, Ismatilla Rahmatillayev, Ergash Shodmonov, I. Usmonov, Nurali Ismoilov, Qahramon Xoliqov, Qambar Nasriddinov, Ochil Bo'riyev, Bahrom Uzoqov kabi pedagoglar ham ta'lim sifati va ilmiy salohiyatning oshishiga munosib hissa qo'shishdi. Mazkur pedagoglar nafaqat ta'lim jarayonida, balki tarixiy ilmning rivoji, yosh mutaxassislarni tarbiyalash va ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynadilar. Tarix fakulteti tarix fanining viloyatdagi rivojiga, ilmiy maktablar va an'analarning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Tarix fakulteti tarkibidagi KPSS tarixi kafedrasiga tarix fanlari doktori, professor S.M. Zaxarov rahbarlik qilgan davrda kafedrada ilmiy muhitni shakllantirish va uni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Professor S.M. Zaxarov nafaqat tashkilotchi sifatida, balki yetuk olim sifatida ham faoliyat yuritib, turli tarixiy mavzularda monografiyalar nashr etdi. Uning rahbarligida kafedrada faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Shuningdek, kafedra a'zolaridan O. Jo'raqulov 1984-yilda "KPSS ning O'rta Osiyoda gaz va neft sanoatini rivojlantirish sohasidagi faoliyati" mavzusidagi ilmiy izlanishlarini muvaffaqiyatli yakunlab, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi.[8] Bu holat kafedraning ilmiy salohiyati oshganligidan dalolat beradi va uning mamlakat tarixi sohasidagi ilmiy maktab sifatida shakllanayotganligini ko'rsatadi.

Obod Jo'raqulov o'z xotiralarida 1964-yil iyun oyida Qarshi davlat pedagogika institutiga ishga kelganini va ta'lim faoliyatini tarix yo'nalishidagi sirtqi ta'lim birinchi kurs talabalariga "Qadimgi dunyo tarixi" fanidan dars berishdan boshlaganini ta'kidlaydi [9]. U institutda faoliyat yuritarkan, tarixning turli yo'nalishlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Jumladan, u "O'rta Osiyo neft va gaz sanoati tarixi" mavzusida izlanishlar amalga oshirdi. Shu bilan birga, kafedra tarkibidagi boshqa olimlar ham yo'naltirilgan ilmiy faoliyat bilan shug'ullanganlar. Abdusalom Mavlonov agrar soha tarixi, I. Rahmatullayev partiya tarixi, Ergash Shodmonov O'rta Osiyo respublikalarida komsomol tashkilotining tarixi, Akram Jumanov esa sovxozlar tarixi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar[10]. Bu izlanishlar nafaqat kafedraning, balki umumiy tarix fanining rivojiga ham xizmat qilgan.

1981–1983-yillar davomida kafedra aʼzolari tomonidan qator ilmiy-nazariy ishlar nashr etildi. Xususan, Q. Abdullayev va N.I. Smoilovning “KPSS tarixini oʻrganayotgan sirtqi talabalarga baʼzi maslahatlar” nomli qoʻllanmasi, O. Joʻraqulovning “Qudratli energiya manbai” nomli monografiyasi va S.M. Zaxarov tomonidan “Nishon” davlat rejalashtirish sovxosi faoliyati haqida yozilgan risola shular jumlasidandir.[11] Bu nashrlar taʼlim sifatini oshirish va talabalarni ilmiy faoliyatga keng jalb etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur davrda institut tarkibida SSSR va Oʻzbekiston tarixi kafedrasi faoliyat yuritdi. Ushbu kafedra aʼzolari “Oʻzbekiston SSR xalq deputatlari Sovetlari faoliyatini tashkil etish tizimi” hamda “Maktabda tarix fanini oʻqitish metodikasi” kabi dolzarb mavzularda tadqiqot ishlarini amalga oshirib, taʼlim va ilmiy tadqiqotlar uygʻunligini taʼminlashga hissa qoʻshganlar. Mazkur davrda kafedra aʼzolari tomonidan qator ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega boʻlgan ishlar yaratildi hamda “Oʻzbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi orqali nashr etildi. Jumladan, dotsent M.K. Qodirov tomonidan “Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligini intensiv rivojlantirish (1961–1980)” mavzusidagi monografiyasi, B.S. Samadov tomonidan “Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani XX partiya syezdi sovxosi tarixidan”, shuningdek, S.Turdiyev tomonidan “Qishloq maktabi tarixchi-pedagoglariga yordam” nomli amaliy qoʻllanmalari kitob holatida chop etildi. Ushbu nashrlar mamlakat tarixining turli sohalarini qamrab olgan boʻlib, ularda ilmiy tahlil, manba asosidagi tadqiqot va oʻquv jarayonida foydalanish mumkin boʻlgan metodik yondashuvlar oʻrin olgan. Shu bilan birga, kafedraning ilmiy faoliyati yil sayin yuqori surʼatda rivojlanib bordi. Xususan, 1981-yilda kafedra aʼzolari tomonidan 10 ta, 1982-yilda 12 ta va 1983-yilda 13 ta ilmiy maqola turli ilmiy jurnal va toʻplamlarda chop etildi. Bu koʻrsatkichlar kafedra ilmiy salohiyatining oʻsishi va uning respublikadagi tarixiy-tadqiqot maktabi sifatida shakllanib borganligidan dalolat beradi.

Institut tarkibidagi “Umumiy tarix” kafedrasi oʻqituvchilari ham muntazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirdi. Kafedra oʻqituvchilari “Sovet hokimiyati yillarida Oʻzbekiston janubini sotsialistik oʻzgartirish tarixi” hamda “Xorijiy Sharq xalqlari milliy-ozodlik harakatining sovet tarixshunosligi” kabi dolzarb mavzularda ilmiy izlanishlar olib bordilar. Bu yoʻnalishdagi tadqiqotlar mahalliy va jahon tarixshunosligidagi qarashlarni chuqur tahlil qilish hamda ularni oʻquv jarayoniga integratsiya qilishga qaratilgan edi. Kafedra aʼzolari tomonidan ushbu muammolar doirasida qator ilmiy maqolalar respublika miqyosidagi ilmiy jurnal va toʻplamlarda chop etildi. Jumladan, O.E. Eshquvvatov tomonidan quyidagi ilmiy maqolalar eʼlon qilindi: *“Oʻzbekiston SSR oliy oʻquv yurtlarida Osiyo va Afrika mamlakatlari tarixini oʻrganish tarixi”* – “Oʻzbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali, 1981-yil, 9-son; *“Oʻzbekistonda xorijiy Sharqning qoʻshni mamlakatlari tarixini oʻrganish masalalari”* – “Osiyo va Afrika xalqlari” jurnali, 1982-yil, 2-son; *“Mamlakat oliy oʻquv yurtlarida yangi va eng yangi tarix tarixshunosligini oʻqitishni takomillashtirish masalasi toʻgʻrisida”* – “Oʻzbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali, 1982-yil, 3-sonida nashr etildi. Ushbu maqolalarda sovet tarixshunosligida xorijiy mamlakatlar, ayniqsa, Osiyo va Afrika xalqlarining milliy-ozodlik harakatlariga nisbatan yondashuvlar, shuningdek, ushbu mavzularni oliy taʼlim muassasalarida oʻqitish masalalari atroflicha tahlil etilgan. Bundan tashqari, O.E. Eshquvvatov 1983-yili *“Osiyo va Afrika mamlakatlari sovet tarixnavisligi”* nomli monografiyasini nashr etgan boʻlib, u ushbu mavzudagi ilmiy-tadqiqot faoliyatining umumlashtiruvchi natijasi sifatida eʼtirof etiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, XX asrning ikkinchi yarmi, xususan 1950–1980- yillar davri Qashqadaryo viloyati uchun tarix fanini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega boʻlgan. Mazkur davrda tarixchi olimlar, mahalliy ziyolilar qatlami va ijtimoiy faollar tomonidan amalga oshirilgan ishlar viloyatda tarixiy ongni yuksaltirish, milliy merosni oʻrganish va uni kelajak avlodlarga yetkazishga xizmat qildi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, tarixchi ziyolilar oʻz faoliyatlarida nafaqat mahalliy

tarixiy manbalarni o'rganishga, balki yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham alohida e'tibor qaratildi. Ular milliy merosni asl holda tiklash, mahalliy tarixni umummilliy tarix bilan uzviy bog'lash va jamiyatda tarixiy tafakkurni shakllantirish borasida fidokorona mehnat qildilar.

Umuman olganda, 1950–1980-yillar Qashqadaryo ziyolilari va tarixchi olimlari faoliyatida qayta tiklanish, o'sish va mustahkamlanish davri bo'lib, ularning ilmiy va ma'naviy merosi bugungi kunda ham ahamiyatga ega. Ularning tarixshunoslikka qo'shgan hissasini yanada chuqur o'rganish, asarlarini qayta nashr qilish va ilmiy-ma'rifiy tadbirlar orqali ommaga yetkazish – bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қашқадарё ВДА, 1-фонд, 1-рўйхат, 417-иш, 89-варақ.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. -Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2005. – Б. 611.
3. Эгамов Н. Жануб жавоҳири. – Тошкент: Академнашр, 2016. – В.16.
4. Sodiqov T., Rasulov T., Begmatova N. Universitet tarixidan lavhalar 1 qism. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti nashriyoti, 2013. – В. 6.
5. Жўрақулов О. Қарши давлат университети. –Тошкент, Фан. 1999. – Б.11.
6. Жўрақулов О. Чандир туркманлари. –Тошкент. Фан. 1992. – Б. 4.
7. Жўрақулов О. Кўрганларим-англаганларим. –Тошкент, Yangi nashr, 2010. – Б.4
8. Shodiyeva D. Qashqadaryo vohasida oliy ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi //”XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va innovatsiyalarning tutgan o'rni” mavzusidagi Respublika 9-onlayin konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019-yil 30-noyabr. – В 27.
9. Қашқадарё ВДА, 463-фонд, 1-рўйхат, 702-иш, 33-варақ.
10. Qarshi davlat universiteti muzeyi materiallari.

ФАКТОРЫ, ФОРМИРУЮЩИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЛИЧНОСТИ

Худойбердиев Дилшод

Каршинский государственный университет

Декан факультета истории, доцент

Khudoyberdiyev.85@mail.ru

ORCID 0009-0008-1816-3197

УДК 154.3:152.32(045)X 98

Аннотация. В данной научной статье проводится комплексный анализ ключевых факторов, формирующих потребительское поведение личности в условиях современного общества. Исследование раскрывает сущность и специфические характеристики категории «потребительское поведение», определяя его как совокупность действий индивида, направленных на удовлетворение потребностей и реализацию предпочтений через потребление товаров и услуг, обусловленную адаптацией к социальным и экономическим условиям. В работе выделены и детально рассмотрены четыре основные группы факторов, оказывающих непосредственное воздействие на формирование потребительских моделей: культурные (включая влияние субкультур), социальные (референтные группы, семья, статус и роли), личностные (возраст, род занятий, экономическое положение, образ жизни) и психологические (мотивация, восприятие, убеждения и отношения). Особое внимание уделяется трансформации потребительского поведения в новом веке, связанной с глобализацией, развитием массовых коммуникаций и превращением духовных ценностей в объект коммерции.

Статья предназначена для исследователей в области экономики, социологии, маркетинга и психологии, а также для всех, кто интересуется закономерностями поведения потребителей в современном мире.

Ключевые слова: потребительское поведение, личность, факторы влияния, культура, социальные группы, психологические установки, модели потребления, современное общество.

FACTORS SHAPING INDIVIDUAL CONSUMER BEHAVIOR

Abstract. This scientific article provides a comprehensive analysis of the key factors shaping individual consumer behavior in modern society. The study reveals the essence and specific characteristics of the "consumer behavior" category, defining it as a set of individual actions aimed at satisfying needs and realizing preferences through the consumption of goods and services, driven by adaptation to social and economic conditions.

The paper identifies and examines in detail four main groups of factors that directly influence the formation of consumption patterns: cultural (including the influence of subcultures), social (reference groups, family, status and roles), personal (age, occupation, economic status, lifestyle) and psychological (motivation, perception, beliefs and attitudes). Particular attention is paid to the transformation of consumer behavior in the new century, associated with globalization, the development of mass communications, and the transformation of spiritual values into objects of commerce.

The article is intended for researchers in the fields of economics, sociology, marketing and psychology, as well as for anyone interested in the patterns of consumer behavior in the modern world.

Keywords: consumer behavior, individual, influencing factors, culture, social groups, psychological attitudes, consumption patterns, modern society.

Введение. Актуальность исследования потребительского поведения личности в современном мире не вызывает сомнений. В условиях глобализации и стремительного развития рыночных отношений потребление перестало быть исключительно утилитарным процессом удовлетворения базовых нужд, трансформировавшись в сложный социально-культурный феномен. Потребительское поведение стало своеобразным маркером, отражающим не только экономические возможности индивида, но и его ценностные ориентации, социальный статус и психологические особенности.

На современном этапе, характеризующемся интеграцией Узбекистана в мировое сообщество, экономическим ростом и цифровизацией общества, происходит фундаментальная трансформация моделей потребления, особенно среди молодежи. Этот процесс обусловлен комплексным воздействием множества факторов, изучение которых необходимо для понимания направлений развития общества в целом. Формирование рациональных, осознанных моделей потребительского поведения является не только индивидуальной задачей, но и важным условием для устойчивого социально-экономического развития государства.

Несмотря на возрастающий интерес к данной проблематике, комплексный анализ факторов, влияющих на потребительское поведение именно в контексте современных реалий Узбекистана, остается недостаточно изученным. Данное исследование призвано восполнить этот пробел.

Анализ литературы по теме исследования. Проблема потребительского поведения изучается в рамках экономики, социологии и психологии. Теоретическую основу исследования составили: **Экономические подходы** (А. Смит, П. Самуэльсон), рассматривающие потребление как рациональный процесс удовлетворения потребностей. **Маркетинговые концепции** (Ф. Котлер), систематизировавшие влияние культурных, социальных, личных и психологических факторов на поведение потребителей. **Социологические теории** (П. Бурдьё, Ж. Бодрийяр), анализирующие потребление как инструмент социальной стратификации и знаковый обмен в условиях глобализации. **Психологические модели** (А. Маслоу), исследующие мотивационные и когнитивные механизмы потребительского выбора.

Применительно к Узбекистану отмечается недостаточная изученность специфики местных потребительских практик в условиях социально-экономических

преобразований последних лет. Данное исследование направлено на восполнение этого пробела.

Методология исследования. В статье были использованы следующие методы исследования: принцип историзма, сравнительный анализ, комплексный подход анализ и синтез. Данные методы позволили всесторонне изучить факторы, влияющие на потребительское поведение, и выявить закономерности его формирования в современных условиях.

Результаты и обсуждение. Проведенное исследование позволило выявить и систематизировать ключевые детерминанты, формирующие потребительское поведение в современных условиях.

В новом веке изменение потребностей и предпочтений людей коренным образом изменило и их потребительское поведение. Современный человек превращается в индивида, поглощенного потребительским настроением, в «человека потребляющего». Эта тенденция, безусловно, относится к разряду социально-философских проблем, требующих основательного исследования. Однако, прежде чем приступить к решению данной задачи, необходимо определить содержание понятия «потребительское поведение» и факторы, способные повлиять на его формирование.

Для определения категории «потребительское поведение» и выявления его содержания необходимо, прежде всего, отдельно сосредоточить внимание на дефиниции двух понятий. Во-первых, без раскрытия содержания понятия «поведение» невозможно выразить специфические особенности потребительского поведения. Во-вторых, слово «потребительское» обозначает сферу принадлежности поведения – этот аспект проблемы также должен находиться в центре внимания.

Поведение – это совокупность усилий и действий человека, направленных на адаптацию и привыкание к естественным и социальным условиям. Обычно под поведением человека подразумевают его деятельность. На самом деле это не так. Если поведение человека проявляется в действиях, направленных на адаптацию к реальности, то его деятельность состоит из действий, направленных на изменение этой реальности. Поведение человека имеет свою классификацию. Поскольку данный объект исследования не входит в нашу задачу, мы не будем на нем подробно останавливаться. Необходимо лишь подчеркнуть, что одним из его основных проявлений являются действия, связанные с потреблением различных товаров и услуг.

Потребление – основной источник удовлетворения потребностей человека. Поскольку существует система потребностей, существует и потребление. Потребность порождает необходимость потребления различных товаров и услуг, для чего человек должен адаптироваться к существующим социальным условиям, согласовывать свои действия с нормами и принципами общества, объективными условиями и субъективными факторами. Таким образом, возникает специфическое проявление поведения в сфере потребления – потребительское поведение.

Под потребительским поведением мы понимаем совокупность усилий и действий потребителя, осуществляемых в целях удовлетворения потребности в различных товарах и услугах и реализации предпочтений в их потреблении, адаптируясь к естественным и социальным условиям.

Как и другие проявления поведения, потребительское поведение обладает рядом специфических особенностей. Эти особенности позволяют глубже понять сущность потребительского поведения, закономерности его формирования и развития. По нашему мнению, эти особенности заключаются в следующем:

– потребительское поведение носит конкретно-исторический характер, оно не имеет единой для всех времен цели и устойчивой выгоды; по мере изменения

социальных условий, факторов и средств, влияющих на потребителя, меняются цели и задачи потребительского поведения;

- в определенный период господствует не одна, а несколько моделей потребительского поведения, соответствующих иерархии общества, демографической ситуации, классовой структуре, культурному уровню и т.д.; данные модели состоят из совокупности элементов, общих и уникальных;

- потребительское поведение носит временный, быстроизменяемый характер; с возникновением спроса на какой-либо товар в потребительском поведении появляются усилия и действия, направленные на удовлетворение этой потребности, исчезновение спроса приводит к исчезновению соответствующих стремлений;

- потребительское поведение представляет собой синтез элементов рациональности и эмоциональности, однако в большинстве случаев оно направлено на удовлетворение эмоциональных потребностей потребителя.

- в структуре потребительского поведения первостепенное значение имеют действия по обладанию артефактами, признанными ценностями, ставшими продуктом массового потребления; настроение потребления оригинальных и неповторимых товаров и услуг имеет второстепенное значение в потребительском поведении;

- потребительское поведение развивается без принципа преемственности, так как отсутствует механизм трансляции потребительских ценностей от предков к потомкам; система потребностей и предпочтений, занимающая место в его структуре, актуальна и значима лишь в определенный период, а затем уступает место абсолютно новым потребностям и предпочтениям;

- элементы потребительского поведения, хотя и удовлетворяют жизненные и повседневные потребности потребителя, не способствуют его духовному возвышению, то есть не развивают убеждения, добродетели и черты характера, гражданскую и жизненную позицию личности.

Потребительское поведение, как мы подчеркивали, носит изменчивый характер. Естественно, эти изменения не происходят сами по себе. Существуют факторы, которые их стимулируют. В целом, в научных источниках, посвященных анализу потребительского поведения, нет единого теоретического подхода к вопросу о факторах, влияющих на формирование и изменение потребительского поведения. В зависимости от объекта исследования ученые выделяют те или иные группы факторов. Среди них особое значение имеет классификация факторов, предложенная профессором Высшей школы менеджмента Северо-Западного университета США Ф. Котлером.

По мнению ученого, решение потребителя о выборе того или иного товара или услуги не происходит само собой. Любая покупка совершается под влиянием множества культурных, социальных, личных и психологических факторов. На основе этого соображения можно выделить факторы, оказывающие существенное влияние на формирование потребительского поведения личности.

1. Культура – является одной из важнейших причин, определяющих специфические аспекты потребностей и поведения человека. Личность усваивает материальные и духовные ценности, мечты и стремления, действия и устремления, характерные сначала для своей семьи, а затем для общества, к которому он принадлежит. Потребность в различных товарах и услугах формируется соответственно этой системе ценностей, мечтам и надеждам.

Ф. Котлер демонстрирует эту взаимосвязь на примере условной Бетти Смит. Бетти любит фотоаппараты. Это стремление является результатом ее воспитания в современном обществе, где ценятся фотоаппараты и фототехника. В то время как

для жителя какой-либо глуши Австралии, оставшегося в стороне от научно-технического прогресса, фотоаппарат может не иметь никакой ценности, а следовательно, и потребность в нем может не возникнуть.

Как известно, любая культура состоит из различных компонентов, то есть субкультур. Субкультура позволяет личности найти похожих на себя людей, общаться с ними, быть похожим на них. Культура класса, малой группы, к которой принадлежит личность – национальная и расовая принадлежность, религиозные убеждения, система ценностей и т.д. – также серьезно влияют на круг и характер ее потребностей, а следовательно, и на потребительское поведение. Человек выбирает продукты питания, одежду, формы отдыха, даже профессию и жизненные цели именно под влиянием этой субкультуры. Товар, ценный для представителя одной субкультуры, может быть неценным для представителя другой субкультуры. Поэтому между потребительским поведением людей, принадлежащих к разным группам, существует определенная разница.

2. Социальные факторы также влияют на формирование потребительского поведения. К этой группе факторов можно отнести референтные группы, к которым принадлежит личность, социальное положение в ее семье, социальный статус личности, выполняемые ею социальные роли.

Под референтной группой Филипп Котлер имеет в виду группу, способную оказывать непосредственное влияние на сознание и деятельность личности. Обычно эту функцию выполняют семья, соседи, сообщество коллег. Неформальные сообщества, созданные на основе различных интересов, также могут считаться референтными группами. Большая часть жизни и деятельности личности в обществе происходит именно в составе этих групп. Такие группы влияют на личность тремя путями: во-первых, они знакомят личность с новыми для нее нормами поведения; во-вторых, они помогают формированию представлений личности о самой себе; в-третьих, они приучают личность к потреблению товаров и услуг, приемлемых для этой группы. Чем выше авторитет референтных групп, тем значительнее их влияние на потребительское поведение личности.

Социальное положение в семье и семейные ценности, особенно этапы семейной жизни, оказывают мощное влияние на изменение потребительского поведения. Действительно, потребности, покупательские привычки молодого человека или девушки, живущих с родителями, молодоженов, только что создавших семью, мужа и жены с маленьким ребенком, отца и матери, воспитывающих подростков, пожилых людей, продолжающих работать, старика и старухи пенсионного возраста – коренным образом отличаются друг от друга.

На потребительское поведение личности также большое влияние оказывают ее социальный статус и выполняемые социальные роли. Как известно, человек на протяжении своей жизни вынужден выполнять различные роли как член различных социальных групп. Например, по отношению к родителям он является ребенком, по отношению к семье – мужем или женой, по отношению к предприятию, где он работает, он может выполнять роль определенной должности. Все эти роли требуют от личности выполнения определенных действий. Каждая из этих ролей строго влияет на его потребительское поведение, на его действия как потребителя. Более того, каждая роль требует обладания соответствующим социальным статусом. Например, должность человека выше, чем его статус как ребенка. Эта должность, эта роль требует от него пользоваться товарами и услугами, соответствующими его статусу. По утверждению американских специалистов, президенты фирм в США ездят на «Мерседесах» или «Кадилаках», покупают дорогие костюмы, потребляют виски «Катти Сарк». Следует также отметить, что эти символы, свидетельствующие о социальном статусе человека, могут иметь различный вид в разных регионах.

Например, в Нью-Йорке в состав этих символов входят рыбалка и косметические операции для мужчин, в Чикаго – привычка покупать только товары, указанные в каталогах, в Хьюстоне – вечеринки и икра, в Сан-Франциско – рубашки, произведенные фирмой «Изод».

3. Личностные факторы – являются одним из важных факторов, формирующих потребительское поведение. К ним относятся возраст человека, его профессия, образ жизни, его представления о себе и т.д. Действительно, с возрастом состав потребляемых человеком товаров и услуг коренным образом меняется. На разных этапах жизни человека он испытывает потребность в разных продуктах питания. Его представления об одежде, предметах домашнего обихода, формах отдыха, его вкусы в этом отношении также приобретают иной характер.

На характер покупаемых человеком товаров и услуг определенное влияние оказывает и его профессия. Рабочий предпочитает потреблять не только товары, необходимые для его профессиональной деятельности, но и блага, ценимые в этой среде. Руководитель предприятия же отдает предпочтение совершенно иному набору товаров: он выбирает товары, демонстрирующие его статус, удобные услуги. Службы маркетинга развитых стран не оставляют без внимания этот аспект процесса потребления, поэтому в последние годы растет число магазинов, маркетов, ориентированных на представителей определенных профессий и социального статуса.

Среди личностных факторов, влияющих на потребительское поведение, особенно важное значение имеет экономическое положение человека. Нам известно, что экономическое положение человека складывается из его дохода, размера сбережений, ценных бумаг, которыми он владеет, и т.д. Эти факторы, с одной стороны, определяют покупательную способность человека, а с другой стороны, определяют качество и уровень товаров и услуг, которые он склонен покупать. Действия человека как потребителя со стабильным экономическим положением коренным образом отличаются от устремлений человека в нестабильной экономической ситуации.

Существует и другой аспект проблемы. В некоторых случаях действия двух людей, являющихся представителями одной субкультуры, выполняющих схожие роли и не имеющих существенной разницы в экономическом положении, как потребителей могут резко отличаться друг от друга. Например, один из двух чиновников, работающих на высокой должности, может быть гедонистом, а второй – аскетом. Следовательно, в группу личностных факторов, влияющих на формирование потребительского поведения, необходимо включить и образ жизни личности.

Филипп Котлер включает в личностные факторы, способные влиять на потребительское поведение, также некоторые черты, присущие человеку (решительность, волевые качества, уверенность в себе, тщеславие, осторожность, дисциплинированность, адаптивность и т.д.), а также представления человека о себе. По его мнению, определенная черта склоняет к выбору того или иного товара. Например, люди, склонные к общению с другими, любят пить пиво.

4. На потребительский выбор и усилия личности также влияют психологические факторы. Среди них особое место занимают склонности человека. Мы подчеркивали, что источником действий человека как потребителя являются его потребности. Однако, естественно, не всякая потребность может стать толчком к покупке того или иного товара. Как известно, одна категория потребностей человека связана с физиологическими, а другая – с духовными necessities. Большая часть из них не носит актуального и интенсивного характера, поэтому не побуждает к

какому-либо действию. Только потребность, приобретая актуальное и интенсивное значение, превращается в склонность.

Именно эти склонности формируют потребительское поведение, иными словами, побуждают человека к покупке тех или иных товаров и услуг. Но после покупки товара побудившая его склонность угасает, и ее место занимает другая склонность.

На потребительское поведение влияет и восприятие человека. Восприятие человека, связанное с потреблением, обладает специфическими особенностями. Например, человек, имеющий склонность купить какой-либо товар, зашел в магазин. Сначала он воспринимает только тот товар, который хочет купить. Например, потребитель, твердо решивший купить фотоаппарат, может не видеть другой техники, расположенной рядом.

Еще одним психологическим фактором, способным оказывать сильное влияние на потребительское поведение, является убеждение. Прочное убеждение определяет круг товаров и услуг, которые может потреблять человек. Например, мусульманин, строго исповедующий ислам, воздерживается от потребления таких продуктов, как свинина, спиртные напитки, и услуг, запрещенных шариатом. Подобные рекомендации и ограничения, связанные с потреблением, мы можем найти и в правилах других религий. Но этот фактор, влияющий на потребительское поведение личности, связан не только с религиозными убеждениями. Таким источником могут быть и убеждения, основанные на научных и философских знаниях, обычаях и традициях, представлениях и надеждах.

Наконец, последний из психологических факторов, способных влиять на потребительское поведение, – это личное отношение. Личное отношение – это положительная или отрицательная оценка, данная человеком какому-либо объекту или идее на основе определенной системы знаний. Эта оценка может служить логическим основанием для выбора круга товаров, предназначенных для потребления. Например, человек, положительно относящийся к экономике и культуре Японии, образу жизни ее населения, будет склонен потреблять товары, произведенные в этой стране. И наоборот, человек, имеющий негативное мнение о какой-либо стране, не будет считать целесообразным потреблять продукты этого государства.

Очевидно, что потребительское поведение личности формируется под влиянием разнообразных факторов. Необходимо также подчеркнуть, что по мере изменения социально-исторических условий некоторые из них могут приобретать первостепенное значение, а другие – уступать свое место. Научные представления об этих факторах позволяют не только понять закономерности формирования потребительского поведения, но и придать ему рациональный характер.

Заключение. Проведенный комплексный анализ позволяет сделать вывод о том, что потребительское поведение в современном обществе представляет собой сложный, многогранный и динамичный феномен. Оно формируется под воздействием разветвленной системы взаимосвязанных факторов, среди которых ключевую роль играют культурные, социальные, личностные и психологические детерминанты. Рассмотрение их в совокупности доказывает, что акт потребления давно перестал быть простой утилитарной транзакцией, превратившись в значимое социальное действие, посредством которого личность не только удовлетворяет базовые нужды, но и конструирует свою идентичность, демонстрирует принадлежность к определенным группам и реализует систему ценностей.

Особое значение в контексте данного исследования приобретает трансформация потребительских моделей в XXI веке. Такие глобальные тенденции, как цифровизация, развитие массовых коммуникаций и коммерциализация

духовной сферы, привели к парадоксальным последствиям. С одной стороны, они предоставили потребителю беспрецедентный выбор, доступ к информации и инструменты для выражения своих предпочтений. С другой — создали мощные механизмы целенаправленного формирования спроса, стирая границы между подлинными потребностями и навязанными желаниями. В этих условиях потребительское поведение становится полем постоянного напряжения между индивидуальным выбором и внешним манипулятивным воздействием.

Таким образом, закономерности потребительского поведения выступают своеобразным лакмусом социально-экономических и культурных процессов. Его изучение, носящее междисциплинарный характер, остается не только академически важной, но и практически значимой задачей. Для экономистов оно раскрывает механизмы функционирования рынка, для социологов — структуру социальных связей, для маркетологов — инструменты эффективной коммуникации, а для психологов — глубинные мотивы человеческих поступков. Дальнейшие исследования в этой области видятся перспективными в направлении изучения влияния новейших технологий (искусственного интеллекта, больших данных), а также этических и экологических императивов на эволюцию потребительских ценностей и практик в стремительно меняющемся мире.

Список использованной литературы:

1. Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс. -М.: Вильямс, 2007. - С. 141–143.
2. Flaunting Wealth: It's Back in Style. -US News & World Report, 1981, 21 September.- P. 61–64.
3. Ермаков Д. Исследование потребителей и потребительское поведение // Право и государство: теория и практика. — 2014. — № X. — С. 144–154.
4. Костина А. Массовая культура как феномен постиндустриального общества. — М.: Изд. ЛКИ, 2011. — С. 89–90.
5. Конен В. Третий пласт. Новые массовые жанры в музыке XX века. — М.: Музыка, 1994. — С. 51.
6. Воскок R. Consumption. — N.Y., 1993. — Pp. 27–28.
7. Болховитинов Н. Н. Американская цивилизация как исторический феномен // Американская цивилизация как исторический феномен: Восприятие США в американской, западноевропейской и русской общественной мысли / Отв. ред. Н. Н. Болховитинов. — М.: Наука, 2001. — С. 9–15.
8. Самуэльсон П., Нордхаус Д. Экономика.- М.:Вильямс, 2015. С. 115–118.
9. Гэлбрейт Дж. Новое индустриальное общество.- М.:АСТ, 2004. С. 151–153.
10. Маслоу А.Мотивация и личность.- СПб.: Евразия, 1999. С. 50–54.

MUSTAHKAM ILDIZLAR, MUSHTARAK MA'NAVIYAT: O'ZBEK-TURKMAN ADABIY ALOQALARI TAHLILI

Oromov Shaxzod Normo'min o'g'li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

oromovshaxzod01@gmail.com

ORCID 0009-0007-7701-5453

UDK 94(575.1)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari mustaqillikka erishganidan so'ng vujudga kelgan yangi siyosiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlar zahirida rivojlanayotgan o'zbek-turkman adabiy aloqalari har tomonlama tahlil etiladi. Ikki mamlakatning mustaqillikdan keyingi adabiy siyosatlarini, milliy o'zlikni qayta kashf etish jarayonlari va bu jarayonda ikki xalq yozuvchilari, shoirlari, adabiy uyushmalari o'rtasidagi hamkorlikning o'zini alohida qayd etiladi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida tashkil etilgan adabiy anjumanlar, xalqlar do'stligi va turkiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro forumlar, adabiy festivallar, konferensiyalar va qo'shma loyihalar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek va turkman adabiyotidagi

o‘zaro tarjimalar, adabiy nashrlar almashinuvi, mualliflar asarlarining ikki xalq o‘rtasida targ‘iboti, adabiy tanqid va adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy aloqalarga ham keng o‘rin beriladi.

Tayanch so‘zlar: Alisher Navoiy, Maxtumduli Firog‘iy, Mullanafas, TURKSOY xalqaro tashkiloti, “Kitobi Dada Qurkut”.

STRONG ROOTS, GENERAL SPIRITUALITY: AN ANALYSIS OF UZBEK-TURKMEN LITERARY TIES.

Abstract. This article comprehensively analyzes the Uzbek-Turkmen literary relations developing against the backdrop of new political, social and cultural conditions that emerged after the independence of Uzbekistan and Turkmenistan. The post-independence literary policies of the two countries, the processes of rediscovering national identity, and the role of cooperation between writers, poets, and literary associations of the two peoples in this process are highlighted. In particular, literary conferences organized during the years of independence, international forums aimed at strengthening peoples' friendship and Turkic cooperation, literary festivals, conferences, and joint projects are analyzed. Also, mutual translations in Uzbek and Turkmen literature, exchange of literary publications, promotion of authors' works between the two peoples, and scientific relations in the field of literary criticism and literary studies are given wide attention.

Keywords. Alisher Navoiy, Maqtumduli Firog‘iy, Mullanafas, TURKSOY international organization, “The Book of Dada Qurkut”.

Kirish. O‘zbek va turkman xalqlari o‘rtasidagi adabiy aloqalar turkiy dunyodagi umumiy ma‘naviy merosning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur munosabatlar o‘zaro madaniy ta‘sir, adabiy an‘analarning almashinuvi va umumiy g‘oyaviy-mafkuraviy yo‘nalishlarning shakllanishiga xizmat qilgan. O‘zbek va turkman adabiyotining mushtarakligi, eng avvalo, til yaqinligi, urf-odatlar, tarixiy tafakkur va dunyoqarashdagi o‘xshashliklar bilan izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, xolislik tamoyili kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. O‘zbek va turkman xalqlari o‘rtasidagi adabiy munosabatlar ildizlari chuqur tarixiy davrlarga borib taqaladi. Bu ikki xalq adabiy an‘analarining yaqinlashuvida Alisher Navoiy va Maxtumduli Firog‘iy kabi so‘z san‘ati namoyandalarining ijodi alohida o‘rin tutadi. Alisher Navoiy tomonidan shakllantirilgan adabiy maktab va uning badiiy-estetik tamoyillari Maxtumduli Firog‘iyning she‘riyatdagi ifoda vositalarida, obrazlar tizimida va g‘oyaviy yo‘nalishlarida o‘z aksini topgani kuzatiladi.

20-asrning ikkinchi yarmida o‘zbek va turkman adabiy muhitlari o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda har ikki xalqning taniqli shoir va yozuvchilari o‘rtasida uzviy adabiy aloqalar shakllandi. Xususan, G‘afur G‘ulom va Berdi Kerboboyev, Abdulla Qahhor va Beki Seytoqov, Zulfiya va Tovshan Yesanova, Asqad Muxtor va Qora Seytliyev kabi adiblar faoliyati o‘zaro madaniy almashinuv va tajriba o‘rtoqlashuviga xizmat qildi[1]. Jumladan, adabiyotshunos R. Ibrohimov ta‘kidlaganidek, “o‘zbek va turkman adiblari o‘rtasidagi ijodiy muloqot ikki xalq ruhiyatining yaqinligini yanada teranroq ochib berdi va adabiy taraqqiyotning umumiy manfaatlar asosida rivojlanishiga turtki bo‘ldi”[2].

Mustaqillik davri adabiy aloqalarga yangi mazmun va shakl baxsh etdi: ikki mamlakat yozuvchilar uyushmalari o‘rtasidagi rasmiy muloqotlar, adabiy anjumanlar, konferensiyalar va o‘zaro nashrlar soni ortib bordi. Shu bilan birga, o‘zbek va turkman adiblarining asarlari tarjima qilingan holda nashr etilib, har ikki xalq o‘rtasidagi ma‘naviy yaqinlik va o‘zaro tushunishga xizmat qildi. Mazkur davrdagi adabiy hamkorlik nafaqat ijodiy munosabatlarning tiklanishi, balki milliy o‘zlikni anglash, umumiy tarixiy va madaniy qadriyatlarni qayta kashf etishda ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. 1991–1992-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Turkmaniston Yozuvchilar uyushmasi o‘rtasida rasmiy adabiy delegatsiyalar almashinuvi amalga oshirildi. Bu jarayon mustaqillikdan so‘ng ikki mamlakat o‘rtasidagi adabiy hamkorlikni tiklash va

yanada mustahkamlash yoʻlidagi muhim qadamlardan biri sifatida baholanadi.

Maxtumquli Firogʻiy XVIII asr turkman adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri, oʻz davrining zabardast shoiri va mutafakkiri sifatida eʼtirof etiladi. Uning adabiy merosi faqatgina turkman xalqi maʼnaviy hayotining yuksak namoyon boʻlishi bilan cheklanib qolmay, balki keng qamrovli turkiy dunyo adabiyoti va jahon madaniyatining ham ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Adabiy manbalarga koʻra, Maxtumquli taxminan 1724-yilda[3] hozirgi Turkmaniston hududida joylashgan Balkan viloyatining Hajigʻovshan qishlogʻida tavallud topgan[4]. Maxtumquli Firogʻiyning maʼnaviy va ilmiy kamol topishida uning otasi — mashhur ulamolardan biri Dovletmammet Azadining oʻrni alohida ahamiyatga egadir. Ilk taʼlimni otasidan olgan Maxtumquli keyinchalik Xivadagi Shirgʻozi madrasasi va Buxorodagi Koʻkaldosh madrasasida tahsil olgan. U oʻz davrining yetakchi ilm markazlarida taʼlim olgan tufayli arab, fors va turk tillarini mukammal oʻzlashtirgan, ammo oʻz ijodini asosan turkman tilida yuritgan. Shoirning adabiy merosi mazmun va gʻoya jihatdan keng qamrovli boʻlib, unda vatanparvarlik, insonparvarlik, millat birligi, ijtimoiy adolat, maʼnaviy poklik kabi umuminsoniy qadriyatlar markaziy oʻrinni egallaydi. “Boʻlmasa”, “Kelgay”, “Bilan”, “Naylayin”, “Yetmas”, “Bular”, “Ketdi zamon” kabi sheʼrlarida Maxtumquli jamiyatni ezgulik, birdamlik va ilm-maʼrifat sari chorlaydi. Uning ijodida turkman xalqining urf-odatları, hayot tarzi, dunyoqarashi va orzu-intilishlari badiiy ifodada namoyon boʻladi[5]. Maxtumquli Firogʻiy turkman adabiyotida yozma anʼanalarning shakllanishi va rivojlanishiga bevosita hissa qoʻshgan ijodkor sifatida baholanadi.

1993–1995-yillarda Oʻzbekiston va Turkmaniston yozuvchilar uyushmalari oʻrtasidagi hamkorlik doirasida Ashxobod va Toshkent shaharlarida bir qator adabiy uchrashuvlar tashkil etildi. Mazkur ijodiy muloqotlar ikki mamlakatning yetakchi adabiy vakillari oʻrtasida tajriba almashinuvi, doʻstona ruhdagi hamkorlik va maʼnaviy yaqinlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Toshkentda boʻlib oʻtgan uchrashuvlarda oʻzbek adabiyotining taniqli namoyandalari — Muhammad Ali, Halima Xudoyberdiyeva, Erkin Vohidov singari adiblar faol ishtirok etgan boʻlsa, Turkmanistondan Annageldi Allayarov va Gurbandurdy Ayazov kabi taniqli shoir va yozuvchilar tashrif buyurganlar. Ushbu adabiy muloqotlar chogʻida yuzaga kelgan ruhiy va ijodiy yaqinlikka shoir Annageldi Allayarov alohida toʻxtalib, quyidagicha taʼkidlagan: “Toshkentdagi yozuvchilar bilan uchrashuvimizda oʻzaro til va ruhiy yaqinlikni his etdik. Ularning Navoiy haqida aytgan fikrlari bizning Maxtumquli haqida aytganlarimiz bilan ohangdosh edi”. Mazkur fikr ikki xalqning umumiy maʼnaviy mezonlarga tayangan adabiy qarashlari, qadriyatlari va tarixiy xotirasi yaqin ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xususan, 2010-yilning 31-mart kuni Oʻzbekistonda Turkmanistonning mashhur shoiri Mullanasav tavalludining 200 yilligi munosabati bilan ilmiy konferensiya tashkil etildi. Mullanasav (1810–1882) — turkman xalq adabiyotining yetuk vakillaridan biri, maʼrifatparvarlik gʻoyalarini targʻib etgan taniqli shoir sifatida turkman adabiy merosida alohida oʻrin tutadi. Uning ijodi nafaqat Turkmanistonda, balki Oʻzbekistonda ham keng kitobxonlar omması tomonidan hurmat va eʼtirofga sazovor boʻlgan. 2010-yilning 31-mart kuni shoir tavalludining 200 yilligi munosabati bilan Oʻzbekistonda oʻtkazilgan ilmiy konferensiya doirasida Mullanasavning “Zuhra va Tohir” dostoni hamda turli sheʼrlar toʻplami oʻzbek tilida kitob shaklida nashr etildi. Mazkur doston turkman xalq ogʻzaki ijodining keng tarqalgan, janr va mazmun jihatdan boy namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu doston asrlar davomida turli baxshilar va xalq shoirlari tomonidan qayta ishlab kelingan boʻlib, xalq orasida kuylanib, ogʻzaki anʼanalar orqali avloddan avlodga yetkazilgan[6]. Mullanasav mazkur dostonning sheʼriy tarzda qayta ishlangan variantlaridan birini yaratib, unga mustahkam adabiy shakl baxsh etgan va shu orqali uni turkman yozma adabiyoti anʼanasiga kiritgan ijodkor sifatida alohida eʼtirof etiladi.

2014-yilning 19-20-aprel kunlari Buxoro viloyat musiqali drama teatrida atoqli

turkman shoiri Maxtumsquli tavalludining 290-yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi[7]. Mazkur anjumanda, "O'zbekiston-Turkmaniston" do'stlik jamiyati, Respublika turkman madaniyat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi ishtirok etdi. Buxoro viloyati hokimligi tomonidan tashkil etilgan ushbu tadbir doirasida Maxtumsquli ijodi va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar, qiziqarli uchrashuvlar hamda shoirning yangi she'rlar to'plami taqdimoti bo'lib o'tdi. Yubiley tadbiriga Turkmanistonning O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi Sh. Shiriyev, Jahon turkmanlari gumanitar assotsiatsiyasi vitse-prezidenti va Turkmaniston Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi G. Muradov, Turkmaniston Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar Milliy instituti direktori, filologiya fanlari doktori A. Ashirov, shuningdek, turkman olimlari G. Guzichiyeva, A. Shixnepesov, O. Xojamuradova, A. Boymurodov, O. Orazov, G. Muhammedov, G. Yaylimov, M. Taganova, D. Yazkuliyeu, G. Komekova, Ch. Kulliyev hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti ilmiy xodimlari M. Jo'rayev, E. Ochilov, R. Barakayev, Nukus Davlat universiteti professori Q. Quronboyev, shuningdek, shoirlar G. Ibodullayeva va T. Ahmad ishtirok etdilar[8].

2017-yil 19-may kuni Toshkent shahrida buyuk turkman shoiri Maxtumsquli Firog'iy xotirasiga bag'ishlab haykal-barelef o'rnatildi. Shu munosabat bilan mazkur haykal joylashgan ko'chaga Maxtumsquli nomi berildi. Haykal-barelef muallifi – iqtidorli yosh haykaltarosh Jasvand Annazarovdir. Ushbu madaniy voqea O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi do'stona munosabatlarning yanada mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Turkmanistonga rasmiy safari doirasida Ashxobod shahridagi markaziy ko'chalardan biriga Alisher Navoiy nomi berildi va Ilhom xiyobonida ulug' o'zbek mutafakkiriga haykal o'rnatildi. Mazkur tashabbuslar ikki xalq o'rtasidagi madaniy aloqalarning muhim ifodasi sifatida baholanadi.

2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon Respublikasining Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalarini o'z ichiga olgan "Turkiy adabiyot durdonalari" nomli 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish taklifini ilgari surdi. Mazkur tashabbus turkiy xalqlar o'rtasida adabiy va ma'naviy hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim qadam sifatida baholandi. Mazkur tashabbus doirasida 2022-yili O'zbekistonda ilk bor umumturkiy adabiy merosga bag'ishlangan 100-jildidan iborat keng qamrovli va nufuzli to'plam nashr etildi. Ushbu majmuaga O'zbekiston, Turkmaniston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon va Vengriya kabi mamlakatlar adabiyotining yuksak badiiy va falsafiy qadriyatlarni mujassam etgan namunalari, shu jumladan taniqli shoirlar, yozuvchilar va mutafakkirlarning sara asarlari kiritilgan. Mazkur to'plamning 9-jildi bevosita turkman adabiyotiga bag'ishlangan bo'lib, unga turkman mumtoz adabiyotining ilk namunalaridan to zamonaviy davrda ijod qilayotgan shoir va yozuvchilarning asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan holda kiritilgan. Ta'kidlash joizki, bu haqda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid turli chiqishlarida alohida to'xtalib o'tgan. Turkmaniston adabiyotiga bag'ishlangan jildlar buyuk shoir Ozodiyning g'azallari bilan boshlanadi. To'plamga turkman mumtoz adabiyotining yetuk namoyandalari — Mullanafas, Maxtumsquli, Andalib, Zaliliy, Kamina va Oshiqiy kabi shoirlarning asarlari hamda XX asr turkman adabiyoti vakillari — Xidir Deryaev, Berdi Kerboboev, Qayum Tangriquliev, Oraz Yag'mur va Otajon Tog'onning roman va she'riy asarlari kiritilgan. Bu tanlov orqali turkman adabiyotining tarixiy davriyligini va janriy boyligini qamrab olishga intilingan. To'plamning 98-jildi turkman xalq og'zaki ijodiyotiga bag'ishlangan bo'lib, unda nafaqat turkman, balki barcha turkiy xalqlar adabiy merosida alohida o'rin tutadigan "Kitobi Dada Qurqut", "O'g'uzxon", "Go'ro'g'li", "Shohsanam va G'arib",

“Sayoot va Hamro”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayxo” kabi mashhur epik asarlarning turli variantlari o‘rin olgan[9]. Ushbu dostonlarning ayrim syujet va obrazlari turkman xalq og‘zaki ijodiyotida chuqur o‘rin egallab, har xil tarixiy davrlarda turkman shoirlari tomonidan qayta ishlangan va yangi she‘riy talqinlarda yozilgan.

2024-yil 19-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumdul Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ–76-sonli qarorni imzoladi[10]. Ushbu qarorda Maxtumdul Firog‘iyning boy adabiy va ma‘naviy merosini keng targ‘ib etish, uning 300 yillik yubileyini munosib va yuqori darajada tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Shuningdek, 2024 yil, TURKSOY xalqaro tashkiloti tomonidan “Maxtumdul yili” deb rasman e‘lon qilindi. Xiva shahrida “Maxtumdul ijodining o‘zbek adabiyoti va san‘atidagi o‘rni” mavzusida xalqaro ilmiy-konferensiya tashkil etilib, unda mutaxassislar tomonidan Maxtumdulning badiiy va madaniy merosi tahlil qilindi hamda uning adabiy-tarixiy ahamiyati keng qamrovda muhokama etildi.

2024-yil 11-oktabr kuni Maxtumdul Firog‘iy tavalludining 300 yilligi munosabati bilan Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida “Zamon va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar: tinchlik va taraqqiyotning asoslari” mavzusida xalqaro forum o‘tkazildi. Forumda Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov hamda O‘zbekiston, Armaniston, Eron, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Mo‘g‘uliston, Pokiston, Rossiya, Tojikiston prezidentlari, shuningdek, Turkiya Buyuk Milliy Majlisi Raisi kabi bir qator xorijiy davlat rahbarlari ham ishtirok etdi. Forum davomida ishtirok etgan liderlarga “Maxtumdul Firog‘iy 300 yilligi” (“Magtymguly Pyragynyň 300- ýyllygyna”) esdalik medali topshirildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham mazkur esdalik medali bilan mukofotlandi[11]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Xalq Maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga Maxtumdul Firog‘iyning o‘zbek tilida nashr etilgan tanlangan asarlari to‘plamini sovg‘a qildi. Ushbu to‘plamga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi va taniqli shoir Mirzo Kenjabek tomonidan tarjima qilingan asarlar kiritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid hamda adabiyotshunos olim, professor Bahodir Karim ham yuksak mukofot bilan taqdirlandi.

2025-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi, turkman xalqining Milliy lideri Gurbanguli Berdimuhamedovning o‘zbek tilida nashr etilgan “Tafakkur gavhari” nomli kitobi taqdim etildi [12]. Marosimda O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri o‘rinbosari Zulayho Mahkamova, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi siyosat masalalari bo‘yicha maxsus vakili Abdulaziz Komilov, Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori Adham Bekmurodov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi hamda Senat a‘zosi Sirojiddin Sayyid, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, professor Bahrom Abduhalimov, filologiya fanlari doktori Bahodir Karimov, Turkman madaniyat markazi rahbari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Guldana Avezdurdievva ishtirok etdi.

Xulosa va takliflar. Xulosada shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston – Turkmaniston respublikalari adabiy aloqalarini yaxshilash chora-tadbirlari amalga oshirildi. Adiblar, shoir va yozuvchilar o‘rtasida adabiy uchrashuvlar tashkil etildi. O‘zbek va turkman tillaridagi asarlar tarjimasiga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekistonda buyuk turkman shoiri va mutafakkirlari, Maxtumdul Firog‘iy, Mullanafas yubileylari nishonlandi. Maxtumdul asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. 100 jildidan iborat keng qamrovli va nufuzli to‘plam nashr etildi.

Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida Maxtumdul Firog‘iy tavalludining 300 yilligi munosabati bilan xalqaro forum o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid hamda adabiyotshunos

olim, professor Bahodir Karim “Maxtumquli Firog‘iy 300-yilligi” esdalik medali bilan taqdirlandi.

Turkman va o‘zbek adiblarining adabiy faoliyatiga bag‘ishlangan maqolalar, risolalar, monografiyalar nashr etishni qo‘llab-quvvatlash, ikki mamlakat yosh adiblari o‘rtasida ijodiy tanlovlar va mukofotlar joriy etish, universitetlarda o‘zbek va turkman adabiyotiga ixtisoslashgan adabiy to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. –Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2004. – Б. 668.
2. Иброҳимов Р. Туркий халқлар адабиётида муштараклик тамойиллари. – Тошкент: Фан, 2015. – Б. 122.
3. Танланган асарлар. [Матн] /Таржимон Мирза Кенжабек; Махтумқули. – Тошкент: Akademnashr, 2024. – Б. 8.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. –Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2003. – Б.561.
5. Курамбоев К. Ўзбек-туркман адабий алоқалари. –Тошкент: Фан, 1978. – Б. 16.
6. Муллонафас. «Зухра ва Тохир » достони, шеърлар. Туркман тилидан Музаффар Аҳмад таржимаси. Тошкент, Cho‘lpon, 2010.- Б. 208.
7. Daryo.uz. (2014.22.04). *Buxoroda Maxtumqulining 290 yilligiga bag‘ishlangan anjuman o‘tkazildi.* [https://daryo.uz/2014/04/22/buxoroda-maxtumqulining-290-yilligiga-bagishlangan-anjuman-otkazildi.](https://daryo.uz/2014/04/22/buxoroda-maxtumqulining-290-yilligiga-bagishlangan-anjuman-otkazildi)
8. Ўзбекистон Республикаси ёзувчилар уюшмаси жорий архиви материаллари.
9. Turkman mumtoz she‘riyati antalogiyasi. Turkiy adabiyot durdonalari. 98-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 3.
10. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 20.02.2024 й., 07/24/76/0138-сон.
- 11.Республика Ёзувчилар уюшмаси жорий архиви маълумотлари.
- 12.Республика Туркман миллий маданий маркази жорий архиви маълумотлари.

**HARBIY ILMIY TADQIQOT ASOSIDA BUZG'UNCHI
TEKNOLOGIYALARGA QARSHI KURASHDA ZAMONAVIY ILMIY-
NAZARIY VA AMALIY BILIMLARNING O'RNI****Xudoyqulov Yo'ldir Azamqulovich**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

yulchi.hudoykulov@mail.ru

ORCID-0009-0009-6666-4348

UDK 355.01:101.8

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kun globallashuv davrida harbiy sohada buzg'unchi texnologiyalarga qarshi harbiy-ilmiy tadqiqotlarning olib borilishi va bu borada qo'lga kiritilayotgan natijalar o'rganilgan. Bugungi kunda buzg'unchi texnologiyalar – sun'iy intellekt, axborot manipulyatsiyasi, kognitiv urushlar, virtual mafkuraviy bosimlar va raqamli kuzatuv tizimlari asosida shakllanuvchi tahdidlar bizning ongimiz va ruhiyatimizga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu tahdidlar insoniyat taraqqiyotining faqat texnologik emas, balki ontologik asoslariga, uning mavjudlik usullariga, ijtimoiy ongiga, identitetiga va madaniy xotirasiga ham bevosita xavf soladi. Global texnologik taraqqiyot sharoitida dronlar, sun'iy intellekt asosidagi avtonom qurollar, kiberqurollar va biotexnologik vositalarning rivojlanishi, mavjud harbiy doktrinalar va tahdidga javob strategiyalarining tubdan yangilanishini talab qilmoqda. Bunday sharoitda harbiy ilmiy tadqiqotlar zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holda buzg'unchi texnologiyalarni nafaqat texnik jihatdan, balki ularning sotsiomadaniy, axloqiy va strategik oqibatlarini kompleks tahlil etishga yo'naltirilmoqda. Shu sababli ushbu tadqiqotda ushbu buzg'unchi texnologiyalarga qarshi olib borilayotgan ilmiy-amaliy va nazariy tadqiqotlar falsafiy-epistemologik jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: harbiy fan, harbiy-ilmiy tadqiqot, buzg'unchi texnologiyalar, dezinformatsiya, sun'iy intellekt.

**THE ROLE OF MODERN SCIENTIFIC, THEORETICAL AND
PRACTICAL KNOWLEDGE IN THE FIGHT AGAINST DESTRUCTIVE
TECHNOLOGIES BASED ON MILITARY SCIENTIFIC RESEARCH**

Abstract. This article examines the conduct of military-scientific research aimed at countering disruptive technologies in the military sphere in the era of globalization and the results achieved in this direction. Today, threats based on disruptive technologies - artificial intelligence, information manipulation, cognitive warfare, virtual ideological pressure and digital surveillance systems - have a serious impact on our consciousness and psyche. These threats pose a direct threat not only to the technological but also to the ontological foundations of human development, its modes of existence, public consciousness, identity and cultural memory. In the context of global technological progress, the development of unmanned aerial vehicles, autonomous weapons based on artificial intelligence, cyber weapons and biotechnological means requires a fundamental update of existing military doctrines and threat response strategies. In these conditions, military-scientific research, combined with modern scientific and theoretical approaches, is aimed at a comprehensive analysis of disruptive technologies not only from a technical point of view, but also from the point of view of their socio-cultural, moral and strategic consequences. Therefore, this paper analyzes scientific, practical and theoretical research directed against these disruptive technologies from a philosophical and epistemological point of view.

Keywords: military science, military-scientific research, disruptive technologies, disinformation, artificial intelligence.

Kirish. Buzg'unchi texnologiyalar aksariyat hollarda informatsion maydon orqali singdiriladi: bu nafaqat qurollar, balki ideologiyalar, dezinformatsiya, madaniy buzilishlar orqali ham kechadi. Demak, buzg'unchilik — bu metafizik to'qnashuvdir. Shu sababli, unga qarshi kurashish — bu avvalo bilish, anglash, baholash, so'ngra esa ongli harakat qilish jarayonidir. Harbiy ilmiy tadqiqotlar ushbu ongli qaror qabul qilishni asoslaydigan tahliliy va prognostik salohiyatni shakllantiradi. Bu esa ilmiy bilimlarning amaliy kuchga aylanishida falsafaning asosiy vazifasini ko'rsatadi. Buzg'unchi texnologiyalarga qarshi

kurashdagi eng muhim vosita — bu yuksak falsafiy anglanilgan bilimdir. Bu bilimlar harbiy xizmatchining texnologiyaga nisbatan shunchaki foydalanuvchi emas, balki ularni anglab, tanqidiy baholay oluvchi subyektga aylanishini ta'minlaydi. Harbiy sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar texnologik ustunlikni emas, balki ma'naviy va intellektual ustunlikni ta'minlovchi vosita sifatida qabul qilinmog'i zarur. Shu tarzda, harbiy falsafa real xavf-xatarlarga qarshi intellektual qarshilikni shakllantiradi va strategik fikrlashning asosiy poydevoriga aylanadi.

Amaliy bilimlar esa buzg'unchi texnologiyalarni aniqlash, tahlil qilish, neytrallashtirish va ularga qarshi strategiyalar ishlab chiqishda vosita sifatida namoyon bo'ladi. Biroq bu amaliyotlar falsafiy asoslanmagan taqdirda, ular faqat reaktiv (javob qaytaruvchi) xarakterga ega bo'lib qoladi. Shu bois harbiy amaliyotni ongli, bashoratli va ehtiyotkorona faoliyatga aylantirish uchun ilmiy-nazariy bilimlar orqali uni falsafiy anglash zarur. Falsafa aynan shu yerda — jarayonlar orasidagi bog'liqlikni, sababiylikni, maqsadlilikni ochib beruvchi metodologik vosita sifatida vujudga chiqadi. Bu kontekstdagi harbiy ilmiy tadqiqotlar jamiyatda texnologiyaga bo'lgan ishonch va shubhani muvozanatlashtiruvchi falsafiy asoslarni izlab topishga xizmat qiladi. Har bir harbiy texnologik innovatsiya o'ziga xos ma'naviy, madaniy va ijtimoiy oqibatlariga ega. Masalan, sun'iy intellektning harbiy sohada qo'llanilishi dushmanni aniqlashni tezlashtirishi mumkin, lekin insoniy qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirib, ma'naviy mas'uliyatni texnik vositaga yuklaydi. Bunday vaziyatda bilim faqat texnologik emas, balki aksiologik — ya'ni qadriyatlar bilan bog'liq bilishga aylanishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot mavzusini o'rganishda tizimli tahlil, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik metodlaridan foydalanildi. Zamonaviy harbiy-ilmiy tadqiqotlar sohasida buzg'unchi texnologiyalar xavfi nafaqat texnikaviy-texnologik, balki g'oyaviy-epistemologik o'zgarishlarga ham sabab bo'lmoqda. Ular orqali nafaqat jangovar vositalar va operatsiyalar shakli yangilanadi, balki harbiy strategik tafakkurning o'zi ham butunlay boshqa yo'nalishda rivojlanadi. Bu esa harbiy ilmiy tadqiqotlarda texnikaviy innovatsiyalarni izlash bilan bir qatorda, chuqur ilmiy-nazariy yondashuvlarga asoslanib, kognitiv va aksiologik mezonlar asosida qarorlar qabul qilishni taqozo etadi. Harbiy ilmiy tadqiqot zamonaviy xavfsizlik arxitekturasining poydevorlaridan biri sifatida nafaqat milliy mudofaa strategiyalarini shakllantiradi, balki buzg'unchi texnologiyalarga qarshi kompleks kurash choralarini nazariy va amaliy asoslar bilan ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinganda bir qator mulohazalarni ko'rib o'tish mumkin. Tadqiqotchi N.A. Nosovning, "Bugungi harbiy texnologiyalar rivoji shunchalik tez va murakkab bo'lib bormoqdaki, unga nisbatan faqat amaliy vositalar bilan emas, balki strategik refleksiyaga asoslangan ilmiy-nazariy yondashuvlar bilan javob berish zarur"[1; 74-79].

Ushbu nuqtayi nazarni rivojlantirgan A.G. Vlasov ham o'z tadqiqotlarida sun'iy intellekt asosida ishlovchi qurollar va robotlashtirilgan jangovar tizimlarga nisbatan qarshilikni "faqat harbiy-texnik yondashuv emas, balki epistemologik va aksiologik asosga ega bo'lgan nazariy yondashuv" orqali tushuntirish lozimligini ta'kidlaydi [2; 112-116].

Yaponiya mudofaa texnologiyalari instituti olimi K. Nakamura: "Buzg'unchi texnologiyalar bilan bog'liq tahdidlar an'anaviy strategik modellarni eskirtirib qo'ymoqda. Harbiy reaksiya endi o'tmishdagi kinetik javoblardan emas, balki ilg'or kognitiv-tahliliy bilimlar bilan uyg'unlashgan ratsional strategik qarorlar bilan amalga oshirilishi kerak" [3; 58].

Amerikalik strategik tahlilchi R. Brayn: "Zamonaviy harbiy ustunlikni saqlab qolish buzg'unchi texnologiyalarni yaratish emas, balki ularning aksiologik oqibatlarini oldindan tahlil qilish, ularni nazariy modellashtirish va ehtimollikka asoslangan qarorlar

doirasida strategik dizaynni amalga oshirish bilan bog‘liqdir” [4; 91].

Fransuz olimi J.-P.Dupuy “Buzg‘unchi texnologiyalarni faqat vosita sifatida ko‘rish xato – ular real ijtimoiy va axloqiy muhitni transformatsiya qiluvchi kuchdir. Harbiy tadqiqotlar endilikda ushbu transformatsiyalarni oldindan ilg‘ash, modellashtirish va axloqiy asoslashga qaratilishi kerak” [5; 63]. Korrado Poli: “Harbiy strategik rejalashtirishni chuqurlashtirish uchun bizga endi faktlarga emas, ularning interpretatsiyasiga asoslangan ongli modellar kerak. Strategik qarorlar endi to‘g‘ridan to‘g‘ri axborotga emas, uning mohiyatli tahliliga tayanishi lozim” [6; 124].


Amerikalik harbiy-falsafiy tahlilchi Martin Libitski: “Yangi avlod qurollari — bu faqat fizika yoki texnologiyaga asoslangan vositalar emas; ular — axborot, bilim, psixologiya va ijtimoiy tizimlar orqali amalga oshiriladigan strategik faoliyatdir” [7; 66].

Rossiyalik tadqiqotchi A.V. Torkunov “Zamonaviy buzg‘unchi texnologiyalarning xavf darajasi ularning fizik kuchida emas, balki informatsion-kommunikativ maydondagi normativlikni izdan chiqarish imkoniyatida” deb baholaydi. [8; 93].

Amerikalik strategik tahlilchi Andrey Krepinevich: “Buzg‘unchi texnologiyalar strategik ustunlikni zamonaviy qurol-yarog‘lar emas, balki bilimlar majmui, ssenariyli tafakkur va muqobil modellashtirish imkoniyatlari orqali belgilaydi. Harbiy nazariya bu texnologiyalarni oddiy vosita sifatida emas, balki transformatsion kuch sifatida ko‘ra boshlashi zarur” [9; 41].

Angliyalik harbiy tadqiqotchi Laurens Fridman: “Harbiy strategiyani faqat kuch va qudrat bilan emas, balki ong va o‘zgaruvchanlik bilan ta‘minlash kerak. Buzg‘unchi texnologiyalarni tushunish uchun, ularni amaliy jihatdan emas, balki epistemologik konstrukt sifatida o‘rganish zarur” [9; 41]. Demak, harbiy ilmiy tadqiqotlar o‘z strategik samaradorligini saqlab qolishi uchun, u texnologik o‘zgarishlarga falsafiy nazar bilan qaray oladigan intellektual paradigma asosida shakllanishi lozim.

Natijalar va muhokama. Buzg‘unchi texnologiyalarga qarshi kurashish borasida o‘tkazilgan tadqiqotlarning so‘rovnomasida quyidgi natija qo‘lga kiritilgan bo‘lib, bu tadqiqot bir qator savollar asosida olib borilgan.



Yuqoridagi ustunli diagramma “buzg‘unchi texnologiyalarga qarshi kurashda zamonaviy ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarning o‘rni” mavzusida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalarini ko‘rsatadi. Diagrammadagi asosiy kuzatishlar quyidagicha:

Nazariy bilimlar roli (65% yuqori baho) – respondentlarning aksariyati zamonaviy nazariy yondashuvlar buzg‘unchi texnologiyalarni anglash va baholashda muhim rol o‘ynashini tasdiqlagan. Bu, ayniqsa, kommunikatsiya va ijtimoiy muhandislik usullarini tahlil qilishda o‘z aksini topgan.

Amaliy ko‘nikmalar samaradorligi (70% yuqori baho) – Respondentlar amaliy kompetensiyalar (masalan, raqamli xavfsizlik, media savodxonlik) yordamida buzg‘unchi texnologiyalarni aniqlash va ularga qarshi choralar ko‘rishni eng samarali usul deb hisoblashadi.

Ilmiy savodxonlik darajasi (60% yuqori baho) – ilmiy fikrlashga asoslangan media tahlil qobiliyatlari noto‘g‘ri va manipulyativ axborotni aniqlashda muhim omil sifatida e‘tirof etilgan.

Ta‘limning ahamiyati (75% yuqori baho) – so‘rov ishtirokchilari, ayniqsa, yoshlar orasida buzg‘unchi texnologiyalar ta‘sirini kamaytirishda ta‘lim muassasalaridagi profilaktik va informatsion dasturlar ahamiyatini yuqori baholashgan.

Ilmiy tahlil vositalari (55% yuqori baho, 30% o‘rta) – Soha mutaxassislari orasida buzg‘unchi tendensiyalarni ilg‘ashda ilmiy asoslangan monitoring va prognozlash metodlaridan foydalanish keng tarqalgan, biroq bu sohada hali ham metodik jihatdan mustahkamlash zarurati mavjud.

So‘rov natijalari shuni ko‘rsatadiki, buzg‘unchi texnologiyalarga qarshi kurashda zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar, amaliy ko‘nikmalar va tizimli ta‘lim muhim vosita sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ilg‘or amaliy kompetensiyalar va ta‘lim tizimi ushbu kurashda asosiy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Buzg‘unchi texnologiyalarga qarshi kurashishda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning o‘rni va ahamiyati borasida quyidagi natijaviy xarakterga ega bo‘lgan mulohazalarni keltirib o‘tadi:

1. Zamonaviy harbiy xavfsizlik paradigmalarni shakllantirishda buzg‘unchi texnologiyalar muammosi fundamental ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Ushbu texnologiyalar, jumladan, kiberqurollar, avtonom jangovar tizimlar, sun‘iy intellekt asosidagi qaror qabul qilish algoritmlari, kvant kommunikatsiyasi va neyron interfeyslar harbiy strategiyalarni reaktiv modeldan proaktiv bashoratga asoslangan kompleks strategik tizimga o‘tkazish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shunday epistemik o‘zgarishlar sharoitida harbiy ilmiy tadqiqotlar endilikda faqat texnologik innovatsiyalar bilan emas, balki strategik tafakkurning nazariy refleksiyasi bilan uyg‘un holda olib borilishi lozim.

2. Zamonaviy harbiy-ilmiy tadqiqotlar sohasida buzg‘unchi texnologiyalar xavfi nafaqat texnikaviy-texnologik, balki g‘oyaviy-epistemologik o‘zgarishlarga ham sabab bo‘lmoqda. Ular orqali nafaqat jangovar vositalar va operatsiyalar shakli yangilanadi, balki harbiy strategik tafakkurning o‘zi ham butunlay boshqa yo‘nalishda rivojlanadi. Bu esa harbiy ilmiy tadqiqotlarda texnikaviy innovatsiyalarni izlash bilan bir qatorda, chuqur ilmiy-nazariy yondashuvlarga asoslanib, kognitiv va aksiologik mezonlar asosida qarorlar qabul qilishni taqozo etadi.

3. Buzg‘unchi texnologiyalar — bu nafaqat harbiy xavfsizlikni, balki ijtimoiy ong, axborot suvereniteti va madaniy izchillikni izdan chiqaruvchi xavfli mexanizmlardir. Falsafa nuqtayi nazaridan olganda, buzg‘unchilik fenomeni inson tafakkuriga tashlangan axborot tahdidini anglatadi va unga qarshi kurashish zamonaviy bilish nazariyasi, gnoseologiya va aksiologiyadan o‘z o‘rnini topadi.

Xulosa. Zamonaviy geosiyosiy jarayonda insoniyat oldida turgan eng dolzarb tahdidlar qatorida buzg‘unchi texnologiyalar — sun‘iy intellekt, axborot manipulyatsiyasi, kognitiv urushlar, virtual mafkuraviy bosimlar va raqamli kuzatuv tizimlari asosida shakllanuvchi kuchlar — ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar va jamiyat ichki birliklarini nishonga oluvchi sof texnogen vositalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu tahdidlar insoniyat taraqqiyotining faqat texnologik emas, balki ontologik asoslariga, uning mavjudlik usullariga, ijtimoiy ongiga, identitetiga va madaniy xotirasiga ham bevosita xavf soladi. Shu bois, ularni yengish harakati, eng avvalo, falsafiy darajada yondashishni, ya‘ni ijtimoiy ongni himoya qilishga qaratilgan zamonaviy ilmiy-nazariy va amaliy bilimlar tizimini shakllantirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Носов Н.А. Военно-научная деятельность в условиях техногенной революции. – М.: Военный университет, 2020.

2. Власов А. Г. Информационно-психологические аспекты противодействия современным угрозам. - Санкт-Петербург, 2021.
3. Nakamura K. Defense Innovation in the Era of Disruption. – Tokyo: JST Press, 2020.
4. Bryan R. Strategic Foresight and Disruptive Tech. – Washington: RAND Corporation, 2021.
5. Dupuy J.-P. Pour un catastrophisme éclairé. – Paris: Seuil, 2004.
6. Poli C. Strategic Foresight: Anticipation for the Long Term. – Lausanne: Springer, 2017.
7. Libicki M. Crisis and Escalation in Cyberspace. – Washington: RAND Corporation, 2012.
8. Торкунов А.В. Военная стратегия XX века: проблемы и перспективы. – М.: МГИМО, 2018.
9. Krepinevich A. 7 Deadly Scenarios: A Military Futurist Explores War in the 21st Century. – New York: Bantam Books, 2009.
10. Freedman L. Strategy: A History. – Oxford: Oxford University Press, 2013.

FAROSAT ILMI FALSAFIY TAFAKKUR KO‘ZGUSIDA

Turayeva Aziza Pulatovna

Qarshi DU katta o‘qituvchisi

aziza.torayeva@mail.ru

ORCID 0009-0006-9002-1869

UDK 100.37 (045)

Annotatsiya. Fahm-farosat inson ma’naviy olamining tarkibiy qismi bo‘lib, kishining yurish-turishida, xulq-atvorida, o‘zgalar bilan munosabatida yorqin namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada farosat ilmi haqidagi Sharq va G‘arb faylasuflarining qarashlari tahlil etilgan. Shuningdek, zamonamizning yetakchi olimlari M. Bekmurodov va G. Navro‘zovlarning bu ilmga doir mulohazalari tadqiq etilgan. Muallif bugungi kunda nafaqat ijtimoiy hayotda, balki mediaolamda ham fahm-farosatni shakllantirishning muhim ahamiyatga ega ekanligini jamiyatdagi mavjud illatlar misolida tushuntirib bergan. Shuningdek, muallif fahm va farosat tushunchasi o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikka ham to‘xtalib o‘tgan va ushbu qo‘sh tushunchalarning umumiy va farqli jihatlari ochib bergan. Fahm ong-idrok mahsuli sifatida narsa-hodisalar mohiyatini tez ilg‘ab olishda namoyon bo‘lishi, farosat esa adob bilan bog‘liq ekanligiga e’tibor qaratgan.

Maqolada farosat ilmini shakllantirish yo‘llari va usullari haqida tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Farosat, farosat ilmi, farosat darajalari, mustahkam xotira, intuitsiya, mustaqil fikrlash, aql mustaqilligi, tafakkur qobiliyati, tafakkur qudrati.

THE SCIENCE OF INSIGHT IN THE MIRROR OF PHILOSOPHICAL THOUGHT

Abstract. Insight and prudence constitute an integral part of a person’s spiritual world, vividly manifested in one’s behavior, character, and relationships with others. This article analyzes the views of Eastern and Western philosophers on the science of insight. The reflections of contemporary scholars M. Bekmurodov and G. Navro‘zova on this subject are also examined. The author emphasizes that today insight is of great importance not only in social life but also in the media sphere, illustrating this through examples of societal flaws.

The author further elaborates on the dialectical interrelation between the concepts of comprehension and prudence, explicating both their convergent and divergent aspects. Comprehension, as a cognitive and perceptual capacity, is manifested in the ability to promptly apprehend the essence of objects and phenomena, whereas prudence is underscored as being intrinsically linked to ethical conduct and decorous behavior.

The article provides recommendations on the ways and methods of developing the science of insight.

Keywords: Insight, science of insight, levels of insight, strong memory, intuition, independent thinking, autonomy of mind, ability to think, power of thought.

Kirish. Barcha zamon-u zaminlarda ham yaxshi xulqli, shirinso‘z, fahm-farosatli

insonlar jamiyatning ko'rki, odamlarning a'losi bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Yomon xulqli, shaloq og'iz va befarosatlik esa jamiyat tomonidan qoralanadi va bunday badfe'l kishilardan ularning o'zi emas, ularning atrofidaqlar ko'proq aziyat chekadilar.

Bugungi globallashgan davrda esa egasiz va nihoyasiz virtual makonda befarosatlikning chegaralari ham kengayib bormoqda. Shunday sharoitda kishilar o'rtasidagi munosabatlarda, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda farosatsizlikni minimal darajada kamaytirish imkoni bormi, degan savollar insoniyat kelajagi uchun qayg'uruvchi har qanday insonni befarq qoldirmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Taniqli o'zbek olimi M Bekturodovning "Farosat ilmi" kitobi maqolani tayyorlashda nazariy asos vazifasini bajardi. Musulmon falsafasidagi farosatning inson ruhiy-ilohiy quvvati mahsuli ekanligini asoslovchi ayrim mulohazalar ham o'rganib chiqildi. Shunindek, turli davrlarda yashagan Sharq va G'arb olimlarining fahm-farosat haqidagi falsafiy qarashlari tadqiq va tahlil etildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Farosat ilmini tashkil etuvchi komponentlarni aniqlashda dialektika uslublari va usullari, prinsiplari va imperativlari, ilmiy manbalarni tahlil qilish uslubidan foydalanildi. Fahm-farosatni shakllantirish yo'llarini ishlab chiqishda kuzatish, nazariy-mantiqiy va gnoseologik uslublarga tayanildi.

Talqin va natijalar. Ko'p asrlar mobaynida Sharq va G'arb mamlakatlarida bilimning maxsus shakli sifatida vujudga kelgan Farosat ilmi kishilarning amaliy va nazariy faoliyatini oqilona tashkil etishga ko'maklashib keldi. Hatto muayyan davrlarda ta'lim muassasa (madrasa)larida bu fan yuzasidan maxsus bitiruv imtihoni olinib, tinglovchi tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar baholanib borilgan. Shunday ekan, farosat nima-yu, farosat ilmini yuksaltirmoq uchun nimalar qilish kerak, degan savollar tug'ilishi tabiiy.

Fahm-farosat – oddiy turmush hodisalarida ham, murakkab hayotiy munosabatlarda ham muayyan holatni, vaziyatni idrok yordamida tez anglay bilish. Fahm-farosat so'zlari xalq orasida odatda sinonim so'zlar shaklida qo'llanadi. Lekin aslida ilmda fahm farosatdan farqlanadi. Fahm – aql, idrok bilan bog'liq hodisa. Shuningdek, fahm mazmun e'tiboriga ko'ra faktlarni tez ilg'ay olish, masalalar mohiyatini boshqalarga ko'ra oldinroq anglashni ifoda etadi. Masalan, ba'zi odamlar narsa yoki hodisaga qaraydilar, ammo ularning ko'p jihatlarini ko'rmay o'tadilar. Yoki biror-bir narsa, gap-so'zni tinglaydilar, ammo eng kerakli gapni eshitmaydilar. Insonni tez fahmlash fazilatiga maxsus mashqlar orqali samarali o'rgatish mumkin, bu borada yetarli darajada adabiyotlar mavjud. Xususan, davlat xizmatchisining fahmini shakllantirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi haqida XI asrda yaratilgan "Qobusnoma" kitobida shunday deyiladi: "Xodim bo'lg'oningda hamisha rahbar huzurida hozir bo'lg'il va har ishning otini (mohiyatini) bilg'il. Barcha ishni imtihon qilg'il, bir ishdan faromush bo'lmag'il, hamma ishni yodingda saqlag'il va barcha devondagi ishlar holidan ogoh bo'lg'il. Hamma amaldorlarning muomalalarin bilg'il va har turli ishni bilmakda qunt bilan izlangin. Barcha hisobga qodir bo'lg'il va har daqiqa ish bilan mashg'ul bo'lg'il. Rahbarning sirini aytmag'il va har ishdan rahbarni ogoh qilib turg'il" [3].

Farosat esa insonga ko'proq oddiy kundalik turmushdagi voqelikni idrok etishda ko'maklashadigan qobiliyat bo'lib, u odob bilan bog'liq axloqiy hodisa. Masalan, osmonni qora bulut to'la qoplab olganini ko'rib, yo'lga soyabonsiz chiqqan odamni befahm yoki fahmsiz, chang, loy poyafzalini yechmay, gilamni bosib, ichkariga kirgan odamni farosatsiz yoki befarosat deymiz. Yoki oilaviy dasturxon atrofida farzand otaning harakatiga qarab, unga ayni paytda lozim bo'lgan pichoq yoki sanchqining, taqsimcha yoki qo'lsochiqning uzatishi farzandning farosati qay darajada ekanligidan dalolat qiladi. Ko'p hollarda fahmsiz odam ayni paytda farosatsiz ham bo'ladi. Farosat orqali boshqa odamlardagi quvonch va qayg'uni kichik bir ishoradan payqay olish, tashqi qiyofasi, xatti-

harakatlari, o'zini tutishi, yuz mimikasidan ruhiyatidagi o'zgarishlarni to'g'ri anglay bilish mumkin. Bu ikki ma'naviyat tushunchasi ko'pincha yonma-yon qo'llanishi ham mumkin. Fahm-farosat – botiniy sezgi, his, qalb ko'zi bilan ko'rish.

Ma'lumotlarga ko'ra, farosat ilmi IX asr boshlaridan XV asrgacha yuksalish bosqichida bo'lgan. Bu fan ko'p asrlar mobaynida Sharq mamlakatlarida oliy madrasa ta'limi tizimida markaziy o'rinni egallagan. Asosan, Movarounnahr va Xurosonda keng yoyilgan. U madrasada o'rganilayotgan turli yo'nalishdagi darslar mazmunini uyg'unlashtiruvchi fan sifatida alohida ahamiyat kasb etgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Balx, Qo'qon, Hirot va Bag'dod oliy madrasalarida farosat ilmi talabalarga to'rt yil mobaynida o'tilib, fan yuzasidan maxsus bitiruv imtihoni olingan. Imtihondan muvaffaqiyatli o'ta olmagan bitiruvchi o'z hisobidan yana bir yil madrasada qolib alohida dastur asosida tahsil olishga majbur bo'lgan. Mabodo talaba ikkinchi marotaba ham yetarli darajada salohiyat namoyon eta olmasa, unga qayta imtihon topshirish huquqi berilmagan va umumiy ma'rifati nisbatan sust deb hisoblangan va chekka qishloq masjidiga so'fi lavozimiga tayinlanib jo'natilgan.

Farosat turli darajalarda bo'ladi. Va u shakllanishi uchun inson ko'p narsalarga muhtoj. Negaki, farosat yillar davomida kishining hayotiy tajribalari, odamlar bilan muomalasi, safar-sayohatlari davomida shakllanadi. Kishi qanchalik dunyoqarashi keng va teran insonlar bilan muomala qilsa, ilm ahli va oliyjanob insonlar bilan hamsuhbat bo'lib, hayotni o'rgansa, farosati ham shunga qarab sayqallanib boradi. Bitta joydan hech qayoqqa chiqmagan, kitob o'qimagan, ko'pchilikka qo'shilmagan odam majlislarda, o'tirishlarda, muomalada albatta noto'g'ri xatti-harakat yo so'z aytib qo'yish ehtimoli katta. Keyin bu farosatsizlikka yo'yiladi.

O'zbek tilida farosat so'zi "did" so'zi bilan hamohang va ma'nodosh so'z hisoblanadi. Shuning uchun ham "did-farosat" degan ibora paydo bo'lgan. Arablar buni "zavq" ham deyishadi. Ba'zan esa farosat so'zi "aql", "donolik" va "ziyraklik" ma'nolarida qo'llanadi. "Aql-farosat" iborasi ham mazmunan shuni ifodalaydi.

Ammo arablarda farosat (firosat) so'zi biroz o'zgacha ma'noda ishlatiladi. Ularda mazkur bilim kishilarning tashqi ko'rinishlari, yuz bichimlari, fiziologik shakl-shamoyillari orqali ularning ichki olamiga baho berish, xarakterlarini aniqlashni o'rganadi. Ushbu ilm sharqda qadimdan mavjud bo'lib, yevropada fiziognomika deb ataladi. Bu "tikilish, yaxshilik alomatlarini topish, diqqat bilan kuzatish, sinchiklash, mulohaza qilish" ma'nolarini anglatuvchi arabcha "tafarrasa" so'zidan olingan.

Hamma ham kishilarning yuz tuzilishlariga qarab, ularning fe'l-atvorini aniqlay olmaydi. Buning uchun yuqori darajada ziyraklik lozim. Shu ma'noda bizda farosat so'zi ziyraklik va donolik so'zlarining sinonimi sifatida muomalaga kirgan.

Demak, farosat ikki xil ma'noda ishlatiladi: birisi muomala madaniyati, did, qayerda qaysi so'zni ishlatish, qay holatda qaysi yo'lni tutish o'rinli bo'lishini o'rgatadigan tajriba bo'lsa, ikkinchisi ziyraklik, donolik, odamlarning tashqi ko'rinishlari va holatlariga qarab ichki olamlari, maqsadlari va botinlariga baho berish ma'nosida qo'llanadi.

Shu ma'noda islom falsafasida farosat bir necha xil turlarga bo'lib o'rganiladi. Ba'zilar bu holat muktasab, ya'ni o'z mehnati orqali erishish bo'lsa, boshqalarda vahbiy bo'ladi. Muktasab farosat yuqorida aytilganidek, "ko'pni ko'rish", safar-sayohat qilish, ko'p kitob o'qish va hokazolar orqali qo'lga kiritiladi. Buyuk Navoiy yozganidek, fozillar bilan hamsuhbat bo'lish, insonning ma'naviy olamini boyitadi, farosat ilmini yuksaltiradi:

Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatini ko'nglum pisand etmas.

Vahbiy farosatga ega insonlarda esa bu qobiliyat sirf Allohning tuhfasini o'laroq mavjud bo'ladi. Ular o'z hamsuhbatlarining ichki olamiga qisqa suhbat orqali osonlik bilan chizgilar bera oladilar.

Farosat ilmini o'rganishda foyda bor. Ammo uni mutlaq tushuncha sifatida qabul qilmaslik kerak. Zero, bir insonning tabiati haqida xulosa qilish faqat uning tashqi ko'rinishiga bog'liq emas.

Kishi tabiblar va faylasuflar tomonidan bayon qilingan xilqiy sabablarni o'rganib chiqishi farosatning bir tomoni xolos. Ularning fikricha, kishidagi xilqiy ko'rinishlar xulqiy sifatlariga ishoradir. Zero, xilqatdagi mo'tadillik xulqatdagi mo'tadillikka dolalat qiladi. Xilqatdagi mo'tadillikdan og'ish xarakterda ham og'ish borligini anglatadi.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, farosatning yana bir turi borki, u kishining taqvo darajasi, Allohni tanish ko'lamiga qarab beriladi. Kishining ma'rifati yuksalib, Allohga muhabbati ortib borgani sari undagi farosat nuri ham kuchayib boradi. Iymon quvvatiga qarab, farosati o'tkirlashaveradi.

Jahon falsafasida "Muallim as-soniy" deb tanilgan buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy esa farosatni yaxshi fazilat sifatida ta'riflab, ikki turga tasniflaydi va xulqiy hamda fikriy toifalarga ajratadi: "Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik, fahm-farosatlilik, zehnlilikni yuzaga keltiradi. Xulqiy fazilat esa intiluvchi quvvatga kirib, iffat, shijoat, saxiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi" [5].

Husayn Voiz Koshifiy esa "Axloqi Muhsiniy" nomli asarida farosatni podsholarning xislati sifatida ta'rif etgan. Ya'ni yolg'onni rostdan ajratish, yomonni yaxshidan farqlash, hodisalar mohiyatini, odamlarning niyatini tez idrok etish, zehni o'tkirlik ma'nosida tushuntiradi.

Ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino farosatning mavjudligini sezgidan keladigan ishoraning ma'nosini tezlikda anglash bilan bog'lab tushuntiradi. Shuningdek, Ibn Sino bir narsani qayta-qayta eshitish ko'rish hukmiga teng ekanligini ham qayd etadi.

Radiy Fishning "Jaloliddin Rumiy" tarixiy-biografik romanida farosat haqida bir rivoyat keltirilib, bu rivoyatni J. Rumiy Farididdin Attorning "Mantiqut-tayr" kitobidan o'qiganligi ta'kidlanadi. Rivoyatda aytilishicha, bir shoh bo'lgan ekan. Bisotida yolg'iz bir o'g'li bor ekan. Lekin shahzoda shu qadar nodon ekanki, unga nainki shohlik, saltanat, hattoki oddiy bir ishni ham topshirish mushkuli kushod ekan. Shoh, o'g'limni ne hunarga o'rgatsam, deb uzoq bosh qotiribdi. O'ylay-o'ylay, oxiri folbinlikni ma'qul ko'ribdi. Ustoz folbinlar bu mushkul vazifani chor-nochor zimmalariga olishibdi... Oradan yillar o'tib, ular shahzodani saroyga boshlab kelishibdi, shoh oldida tiz cho'kib: "Olampanoh, o'g'lingiz folbinlikning hamma sirru asroridan voqif bo'ldi, bizga neki ayon bo'lsa — unga ham ma'lum. Boshqa o'rgatgudek narsamiz qolmadi", — deyishibdi. Shoh imtihon payti kelganligini anglab, uzugini kaftiga yashirib: "Aytchi, qo'limdagi ne?" — deb o'g'lini sinov qilibdi. Shahzoda qumga chizib rom ochibdi. Nihoyat: "Qo'lingizdagi — o'zi yumaloq, o'rtasi teshik", — deb javob beribdi. Shoh mamnun bo'lib: "Barakalla, o'g'lim, sen alomatlarini to'g'ri aytding, endi uning otini ham ayt", — deb qistabdi. Shahzoda o'yg'a botibdi. Oxiri "Tegirmon toshi", — deb javob qilibdi. Shoh faryod chekibdi: "Eh o'g'lim, bilim kuchi bilan barcha alomatlarini — belgilarini aytding! Lekin kishi kaftiga tegirmon toshi sig'masligiga fahm-farosating yetmadi!" [2].

Alisher Navoiy nazarida esa farosat kuchining harakatlantiruvchi quvvati, insonning sof qalbiy xohishi, ezgu tilaklarida namoyon bo'ladi. Ezgu qalb, yaxshi niyatlar inson tomonidan egallangan bilimlar, o'zlashtirilgan tajribalarga uyg'unlashib, farosatni nurlantiradi va uni boshqalardan yuksaltiradi. Alisher Navoiy har bir kasb egasi, xususan, odamlarga ma'naviy ta'sir o'tkazuvchilarning farosati kuchli bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, shayxul islomlar haqida fikr yuritib, ular "ulumi diniyadin ko'ngli mulki ma'mur kerak va yaqiniy farosatdin xotiri jam'iyati befutur. Ilmi taqvosi din ko'ngullarda shukuh va diqqat, farosatidin bediyonatlar ko'nglida anduh" [6].

Xususan, Amir Temur vazir tutish tuzugida shunday deydi: "Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lishlari lozim: birinchisi asillik, toza nasllilik, ikkinchisi aql, farosatlilik, uchinchisi odamlar ahvolidan xabardorlik, to'rtinchisi sabrlilik, bosiqlik

va tinchliksevarlik" [8].

Amir Temurning nechog'lik katta farosat sohibi ekani to'g'risida akademik Ibrohim Mo'minov ham shunday deb yozadi: "Odam tanish va odamni bilish Amir Temurga xos edi"[5]. Farosatni ilohiy nurga ham qiyoslashadi va bu bejiz emas deb hisoblaymiz. Zero, farosati kuchli odamlardagi xarizmatik qiyofa, fayz barchaga sezilib turadi. Fransuz adibi Lyusyen Keren "Amir Temurdan bir nur va ta'sir kuchi doimo taralib turgan", deb yozganida haq edi [4].

Rus yozuvchisi Maksim Gorkiy o'zining 1912-yilda yozilgan "Ona qasidasi" nomli novellasida [8] Amir Temurning to'rt yildan buyon o'g'lini izlab yurgan italyan millatga mansub jafokash onaga munosabatda ham hukmdorning naqadar farosati yuksak bo'lganligini ko'rish mumkin. Amir Temur huzurida bo'lib o'tgan bir voqea tarzida bitilgan bu hikoyada ona zoti sharaflanib, muazzam bir qo'shiq singari madh etilganligi hech bir o'quvchini befarq qoldirmaydi. Bu hikoya, shuningdek, rus ijtimoiy tafakkuridagi yanglish bir tasavvur — Sharqda ayollarga past nazar bilan qarash hukmron edi, degan aqidani hamda A. Temur qonxo'r bosqinchi edi, degan sobiq ittifoqning da'volarini ham puchga chiqaradi.

Nemis klassik faylasufi F.Gegel fikricha, fahm-farosat bir butun yaxlit obyektlarning bo'laklarga bo'linishidir. Butunni bo'laklarga bo'lish jarayonida fahm-farosatning quvvati, butunni bo'laklarga ajrata olish qobiliyati, o'sha bo'laklarning birining ikkinchisi bilan bog'liqligi, aloqadorligi yaqqol namoyon bo'ladi. Gegel nazarida fahm-farosatning aqldan farqi shundaki, u eng avvalo umumiylikni o'zida mujassamlashtiradi, so'ngra o'ziga xos farqni ifodalaydi.

Fahm-farosat va aql (intellekt)ni o'zaro aloqadorligi xususida yana bir nemis faylasufi I. Fixte mulohaza yuritib, fahm-farosatining individual xususiyatga ega ekani haqidagi g'oyani tanqid qiladi. U aql (intellekt) inson insoniyligining eng oliy nuqtasi, undagi ijtimoiylikning asosi ekanini ta'kidlaydi. Fahm-farosat mantiqiy jihatdan tafakkurning dastlabki bosqichi yoki o'ziga xos usuli bo'lib, bunda u ko'pincha predmet yoki hodisa to'g'risida to'g'ri muhokama yuritish, xulosa chiqarish, fikrlar izchilligini ta'minlash kabi vazifani bajaradi.

Fahm-farosat va aql (intellekt)ni ajratib talqin qilish Kant, Gegel falsafasida ham alohida ahamiyat kasb etgan. I. Kant fikricha, fahm-farosat hissiy a'zolar orqali olingan axborotlarni ma'lum bir shaklga soladi va bu jarayonda u narsa-hodisani ko'proq tashqi xususiyatlarini o'zida aks ettiradi, xolos. Aql esa aynan shu axborotlarni analiz va sintez qilish natijasida "narsa o'zida"ni bilishga intiladi. Lekin oxir-oqibatda u hal qilib bo'lmaydigan ziddiyatlar girdobiga tushib qoladi. Fahm-farosat tafakkur uchun yetarli emas, shuning uchun ham undagi mavhumlikni bartaraf etgan holda aniq mulohazalar orqali uni yanada rivojlantirish lozim. Shu ma'noda Gegel fahm-farosatli tafakkur yetarli emas, u yuqori, oqilona bilish shakllariga ko'tarilishga imkon beradigan zarur bosqichdir, xolos, deb ta'kidlaydi.

Demak, farosatning harakatlantiruvchi kuchi ko'p o'qib-o'rganish, chuqur mushohada qilish, teran o'ylash, tafakkur qilishda namoyon bo'ladi. Chuqur mushohada qilish uchun esa anglangan bilimlar, rivojlantirilgan intuitsiya, mustahkam xotira, tajribalar, vazminlik, kasbga muhabbat, professional g'urur va yoshlikdan shakllantirilgan mustaqil fikr yuritish odati talab etiladi.

Mamlakatimizning yetakchi faylusufi Q. Nazarov farosatni sezish, his qilish sifatida talqin qilsa[7], sotsiolog olim M. Bekmurodov esa farosatning tarkibiy elementlari ichida andishaning alohida o'rni borligiga e'tibor qaratadi. U andishani insonning jamiyat bilan munosabatida har bir ishning kelib chiqishi sabablari va oqibatini atroflicha o'ylab mulohaza qilish fazilati sifatida ta'riflaydi[1]. Faylasuf farosatli rahbar andishasiga alohida to'xtalib, rahbar andishasi xodimni inson va mutaxassis sifatida ehtiyotlash, qadrlashni ifodalab, jamoada ma'naviy sog'lom muhitni yaratishda qo'l kelishini

ta'kidlaydi. Falsafa tarixi bo'yicha chuqur izlanishlar olib borgan taniqli faylasuf G. Navro'zova farosatni fitriy, ya'ni tug'ma bo'ladi, deb tushuntiradi. Shuningdek, farosat ota-ona, ustozlar tarbiyasi orqali ham muayyan darajada shakllantirilishi mumkinligini ham e'tirof etadi[10].

Bugungi kun ijtimoiy voqeligidan kelib chiqib, kundalik hayotda yaqinlar va o'zgaralar bilan muomalada fahm-farosatning oddiy elementlarini o'z ichiga olgan quyidagi tavsiyalarni taqdim qilish mumkin:

- Kimdandir plastik karta orqali qarz olsangiz, qaytarishda xizmat haqini ham qo'shib o'tkazing;

- kimgadir telefon qilganingizda ikkinchi liniyadan tushsangiz bitta chaqiriqdan keyin aloqani uzing. U odamga siz qidirganingizni anglash uchun shu kifoya. Uzluksiz chaqiriqlaringiz bilan suhbatini xira qilmang; telegramdan (yoki boshqa ijtimoiy tarmoqdan) yozilgan savolga telegramdan javob bering, darhol telefon qilmang;

- kimgadir qo'ng'iroq qilsangiz va u tomon javob bermasa, bir sekunddan keyin ham javob bermaydi. Qayta-qayta qo'ng'iroq qilavermang. Umuman, javob berish u tomonning huquqi, zinhor majburiyati deb qaramang;

- kimdir birorta suratni ko'rsatish uchun telefonini bersa, faqat o'sha suratni ko'rish bilan cheklaning. Barmog'ingiz bilan keyingilariga o'tib ketmang, bunga haqqingiz yo'q;

- kimdir telefonida nimadir qidirayotgan bo'lsa tikilib turmang, boshqalarning monitoriga ruxsatsiz va o'ta zaruratsiz qaramang;

- jamoat transportida, umumiy ovqatlanish maskanlarida agar alohida xonada bo'lmasangiz, ayniqsa, atrofda ayollar va bolalar bo'lganda so'zlaringizni ham, ovozingizni ham, kulgingizni ham nazorat qiling;

- telefoningiz xotirasidagi raqamlarni har xil telegramm guruhlariga ruxsatsiz qo'shavermang;

- begona odam tanishingiz raqamini so'rasa, ruxsatsiz bermang. Telefon raqami ham shaxsiy ma'lumot ekanligini unutmang;

- kimgadir biron iltimos bilan murojaat qilgan bo'lsangiz, har kuni "Bizning masala nima bo'ldi?" deya xiralik qilavermang.

O'zbek xalq maqollarida ham fahm-farosatning muayyan jihatlari aks etgan:

O'qigan — yaxshi, uqqan — undan ham yaxshi.

Farosatni befarasotdan o'rgan.

Farosatsiz odamdan til bilmas hayvon yaxshi.

Xom tarvuzni qo'ltig'ingga olma.

Xotin aynisa, er aljiydi.

Chala tentak otini maqtar, toza tentak — xotinini.

Qovuni yo'q kuz bo'lganini bilmas, sovuni yo'q yoz bo'lganini bilmas.

O'zining yirtig'ini ko'rmagan, o'zganing tirtig'idan kular.

Etik oyog'ingni qisganda, bosh kiyimingdan gapirma.

G'alchani izzat qilsang, chorig'i bilan to'rga chiqar.

Xullas, tafakkur tarixidagi falsafiy qarashlar va kundalik kuzatishlarga tayanib, farosat ilmini quyidagicha ta'riflash mumkin: Farosat ilmi insonning tashqi ko'rinishiga qarab ichki dunyosida yuz berayotgan jarayonlar, qanday y'f-fikrlarga egaligi, nimani va qanday narsalarni o'ylayotganini anglashga qaratilgan, bir so'z bilan aytganda, odamning zohiriga qarab botinini o'rganadigan, yuz berayotgan jarayonlar qanday o'zgarishlarga olib kelishini bashorat qiladigan fandir.

Xulosa. Farosat ilmi o'z rivojida sotsiologiya, psixologiya, falsafa, pedagogika, semiotika kabi fanlarga tayanadi. Farosatning turi va shakli turlicha bo'lganidan bir sohada fahm-u farosatga ega insonlar boshqa sohalarda yetarli darajada farosatli bo'la olmasliklari ko'p kuzatilgan. Bunday bo'lishiga, ya'ni boshqa sohalarda ham odamning

o'z sohasidagi kabi barobar farosatli ish tuta olmasligining asosiy sababi uning yangi kirishgan sohalariga xos bo'lgan zarur bilim va tajribalarning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Xulosa qilib aytganda, nafaqat o'z kasbi va sohasiga aloqador bilimlarni o'rganish, balki yondosh sohalar bo'yicha ham yetarli axborotlarni o'zlashtirish, atrof-muhitga nisbatan sinchkov va e'tiborli bo'lish, tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirish orqali ham Farosat ilmini muayyan darajada egallash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бекмуродов М. Фаросат илми.—Т: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2022, 23-б.
2. Фиш Р. Жалолиддин Румий.— Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986, 35-б.
3. Кайковус, Қобуснома. – Т.: Ўқитувчи, 2006, 165-б.
4. Керен Л. Амир Темур салтанати.— Т.: Маънавият, 1999, 36-б.
5. Маънавий тарбия, хрестоматия.— Т.: Шарқ, 2012, 62-б.
6. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами, 14-жилд. – Т.: 1998, 21-бет.
7. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-жилд.—Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2022, 421-б.
8. Темур тузуклари. – Т: Шарқ, 2005, 89-90-бб.
9. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/maksim-gorkiy-ona-qasidasi.html> Зухриддин Исомиддинов таржимаси).
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/Navro'zova-G-farosat-ilmi-falsafiy-tahlil>.

FAXRIDDIN ROZIYNING MANTIQ MAKTABI: NAMOYANDALAR VA ULARNING ASARLARI

Eshpulatov Inoyat Saparovich

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik

bilim yurti katta ilmiy xodimi

Falsafa doktori (PhD)

i.eshpulatov@mail.ru

ORCID 0000-0003-4256-2207

UDK 1(091)

Annotatsiya. Faxriddin Roziy 544-yilning 25-ramazonida (1150-yil 25-yanvar) Ray shahrida ash'ariy olim Ziyoddin Umarning o'g'li bo'lib tug'ilgan. U Iroq saljuqiylari hukmronligidagi Ray, Nishopur, Marog'a kabi shaharlarda Juvayniy shogirdlari bo'lgan shofe'iy va ash'ariy olimlardan diniy ilmlarni o'rgangan. U islom olamiga yetib kelgan falsafiy va ilmiy bilimlarni, shuningdek, Ibn Sino falsafasini o'z davrining ustoz Majdiddin al-Jiliydan (vaf. 584/1188) o'rgangan. Sharqiy islomning ko'plab shaharlarida, jumladan, Marog'a, Qazvin, Marv, Saraxs, Nishopur va Hirotda shogirdlar o'qitgan, ma'ruzalar o'qigan va va'z qilgan. Xorazm va Movarounnahrda sayohat qilgan. Roziy umrining so'nggi yillarini Xorazm o'lkasidagi Gurganj va Hirotda Xorazm sultoni Alouddin Muhammad homiyligida o'tkazdi. 606-yilning 1-shavvolida yoki 1210-yilning 29-martida Hirotda vafot etadi.

Faxriddin Roziyning falsafiy dunyoqarashi keng qamrovli va mantiqiy, teologik, falsafiy, ahloqiy asarlarni o'z ichiga oladi. Uning asarlari ijtimoiy hayotning turli jabhalariga doir dolzarb muammolarga qaratilganligi bois nafaqat Osiyo, balki Yevropa olimlarining ham tadqiqot obyektiga aylangan. Xususan, Faxriddin Roziyning teologik va Qur'on tafsiriga doir diniy-falsafiy qarashlari yevropalik olimlar Ayman Shihadeh, Tariq Jafa'r va Yasin Seylan tomonidan tadqiq qilingan. Roziyning axloqiy qarashlarini M. Sag'ir Hasan Masumi o'z tadqiqotlarida bayon etib o'tgan. Shuningdek, professor M.N. Boltayev va N. Naimovlar ilmiy asarlari va dissertatsiyalarida Roziyning ontologik, gnoseologik va mantiqiy dunyoqarashini birinchi manbalar asosida aniq va mukammal tahlil qilgan. Tadqiqot obyektidan kelib chiqqan holda ushbu maqolamizda yuqoridagi mualliflar asarlari asosida Faxriddin Roziyning mantiq maktabi namoyandalari va ularning asarlari haqida kengroq ma'lumot berishga harakat qilindi.

Tayanch so'zlar: Sulamiy, Asuriddin al-Abhoriy, Nosiriddin Tusiy, Kamoliddin ibn Yunus, Tojiddin al-Urmaviy, Shamsiddin al-Xusravshohiy, Forobiy, Ibn Sino, Al-Mantiq al-Kabir.

FAKHRIDDIN RAZI'S SCHOOL OF LOGIC: REPRESENTATIVES AND THEIR WORKS

Abstract. Fakhriddin Razi was born on 25 Ramadan in 544, (25 January 1150) in the city of Rai, the son of the Ash'ari scholar Ziyaddin Umar. He studied religious sciences in cities such as Rai, Nishapur, and Maroga, which were under the rule of the Iraqi Seljuks, from Shafi'i and Ash'ari scholars who were students of Juwayni. He learned the philosophical and scientific knowledge that had reached the Islamic world, as well as the philosophy of Avicenna, from his teacher of his time, Majd al-Din al-Jili (d. 584/1188). He taught students, gave lectures, and preached in many cities of Eastern Islam, including Maroga, Qazvin, Merv, Sarakhs, Nishapur, and Herat. He traveled to Khorezm and Transoxiana. Razi spent the last years of his life in Gurganj and Herat in the Khorezm region under the patronage of the Khorezm Sultan Alaaddin Muhammad. He died in Herat on 1 Shawwal 606 or 29 March 1210.

Fakhriddin Razi's philosophical worldview is extensive and includes logical, theological, philosophical, and ethical works. Since his works are focused on topical issues in various aspects of social life, they have become the object of research not only by Asian but also by European scholars. In particular, Fakhriddin Razi's theological and religious-philosophical views on the interpretation of the Quran have been studied by European scholars Ayman Shihadeh, Tariq Jaffer, and Yasin Seylan. M. Sagir Hasan Masumi described Razi's ethical views in his research. Also, Professors M.N. Boltaev and N. Naimov, in their scientific works and dissertations, accurately and comprehensively analyzed Razi's ontological, epistemological, and logical worldview based on primary sources. Based on the object of research, this article attempts to provide more extensive information about the representatives of Fakhriddin Razi's school of logic and their works based on the works of the above authors.

Keywords: Sulami, Asuruddin al-Abhori, Nasiruddin Tusi, Kamaluddin ibn Yunus, Tajiddin al-Urmawi, Shamsiddin al-Khusravshahi, Farabi, Ibn Sina, Al-Mantiq al-Kabir.

Kirish. Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayn ibn Hasan ibn Ali Faxriddin Roziy Ray shahrida tug'ilgan. Otasi shu yerdagi masjidning imom-xatibi bo'lgani uchun uni "Roziy ibn Xatib" ham deyishgan. Faxriddin Roziyning tug'ilgan yili xususida ba'zi tarixchilar hijriy 543, ba'zilar 544 (milodiy 1148) yilni ko'rsatishadi. Alloma hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini chuqur o'rgangan arab olimi Muhammad Solih Zarkonning fikricha, u 544-yilda tug'ilgan.

Yoshligidan turli ilmlarga qiziqqan Faxriddin Xuroson va O'rta Osiyoning bir qancha shaharlarida bo'lib, ko'plab olim, shoir, faylasuf va davlat arboblari bilan muloqotda bo'ladi. U ta'lim olishni Xurosonning Marog'a shahrida boshlagan bo'lsa-da, hayotining ko'p qismi Buxoro, Samarqand, Nasaf, Xorazm, Banokat va Marvda o'tadi. Jumladan, Buxoroda buyuk mutafakkirlar Abu Ali ibn Sino va Abu Nasr Forobiy ta'limotlaridan tahsil oladi, ilmiy bahslarda qatnashadi.

Olim qaysi shaharga bormasin, unga hurmat ko'rsatilgan. Xorazmda shoh Alouddin Takash izzat-ikrom ehtirom bilan kutib olgan. Farzandlariga ustozlik qilishini so'ragan. Otasi vafotidan keyin taxtga o'tirgan Muhammad ustoz Faxriddin Roziyga alohida iltifot ko'rsatib, martabasini oshirgan.

Faxriddin Roziyning vafoti haqida ham olimlar orasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar Xorazmda, ba'zilar Ray shahrida, yana boshqalari Hirotda vafot etgan deyishadi. Ammo ko'pchiligi uning Xorazmda og'ir kasallikka chalinganini e'tirof etib, u yerda vafot qilganiga guvohlik beradi. Shunga ko'ra, Faxriddin Roziy hijriy 606 (milodiy 1209)-yili ramazon oyining 15 kuni boqiy dunyoga ko'chgani aytiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Roziyning mantiq maktabi doirasidagi nazariy qarashlar, uning maktabiga mansub namoyandalar va ular tomonidan yozilgan mantiq sohasiga oid asarlar o'rganildi. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, muqoyasaviy va manbaatanutiy (tekstual) metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. XII-XIII asrlarda islom tafakkurida o'ziga xos tarzda iz qoldirgan Faxriddin Roziyning so'fiylik va fiqhdan tortib, falsafa va ilohiyot, tafsirdan to maxsus fanlarga ko'plab shogirdlari va izdoshlari bor edi. Bu yerda biz faqat Faxriddin

Roziyning mantiq sohasida asarlar yozgan shogirdlariga murojaat qilamiz. Allomaning shogirdlarini uch guruhga bo'lish mumkin:

- 1) bevosita undan saboq olganlar;
- 2) shogirdlaridan saboq olganlar;
- 3) o'zidan yoki shogirdlaridan ko'rsatma olmagan holda mutafakkir asarlaridan bahramand bo'lganlar.

1. Qutb al-Din al-Misriy – As-Sulamiy nomi bilan ham mashhur [1-176]. Faxriddin Roziydan to'g'ridan to'g'ri ta'lim olgani xabar qilingan [2-462]. Qutbiddin al-Misriy Asiruddin al-Abhoriy (vaf. 663) va Nosiriddin Tusiy (vaf. 672) ustozlaridan ham bo'lgan [1-54]. Faxriddin Roziyning “Muhassalu Afkari'l-mutaqaddiym in va'l-mutahhiriyn mina'l-hukamoi va'l-ulamoi va'l-mutakallimiyn” asariga “Sharhu muhassali'l-kalom” nomli sharh yozgan.

2. Sayfiddin al-Amidiy. Buyuk huquqshunos va nazariyotchi, at-Tag'allubiy nomi bilan ham mashhur edi. Biroq bu as-Sa'labiyni noto'g'ri talqin qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. U tug'ilgan joyi Diyorbakir tufayli al-Amidiy nomi bilan mashhur [3-293]. 1156/551-yilda tug'ilgan, 1233/631-yilda Damashqda vafot etgan. Ayyubiylarga xizmat qilgan [4-57]. Uning Faxriddin Roziy bilan shaxsan uchrashgani yoki tahsil olgani haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Biroq u Damashq va Misrga safar qiladi va u yerda Roziy shogirdlari bilan uchrashadi. U Qutbiddin al-Misriy (vafoti 618), Kamoliddin ibn Yunus (vaf. 639), Afdaliddin Hunajiy (vaf. 646), Shamsiddin Husravshohiy (vaf. 652), Tojuddin al-Urmaviy (vafoti 652), Tojuddin al-Urmaviy (vafoti 639) larning zamondoshi edi.

Faxriddin Roziy izidan borib, “jadal” (jadal) mavzusida risola yozdi. Xuddi Faxriddin Roziy singari u ham Ibn Sinoning (vafoti 429-yil) “al-Ishorat va't-tanbihot” asariga “Kashf al-tamvihot” nomli sharh yozgan. Shuningdek, u Faxriddin Roziyning fiqh asoslariga oid “al-Maohiz” nomli asariga raddiya yozgan. “Daqaiku'l-hakoiq fi'l-mantiq” nomli mantiqqa oid asar ham yozgan. Uning eng mashhur izdoshi Qodi Bayzoviy (vafoti 685) edi [1-177].

3. Kamoliddin ibn Yunus. 1156/551-yilda tug'ilgan, 1242/639-yilda vafot etgan. Zamondoshi Faxriddin Roziydan bevosita saboq olganlar orasida tilga olingan serqirra olim Kamoliddin ibn Yunus Asiriddin Abhoriyning ustozlari edi [1-152]. Biroq Ibn Yunusni bevosita Roziyning shogirdi bo'lgan, dastlabki manbalarda Roziy shogirdlari orasida ismi tilga olinmagan deyishdan ko'ra, ularning ilmiy suhbatlari, fikr almashuvlari bo'lganini aytish to'g'riroq bo'ladi. Shunga qaramay, Faxriddin Roziy asarlarini sinchiklab o'rgangan Ibn Yunusni Roziyning yaxshi mutaxassisi bo'lgan va shuning uchun Faxriddin Roziyning shogirdi deyish mumkin, deb aytishimiz mumkin. Nikolay Resher Faxriddin Roziy Ibn Yunusning turli mantiq maktablari mansub bo'lganligini da'vo qilsa-da [5-204-205], biz buni noto'g'ri deb hisoblaymiz. Resher Ibn Yunusni Ibn Sinoning izdoshi deb hisoblasa, Faxriddin Roziy Ibn Sino Bag'dodiy yo'lidan borib, Forobiy ta'sirida unga qarshi chiqqan, degan fikrni ilgari suradi. Shunga qaramay, Roziy Forobiy va Ibn Sino qarashlaridan bahramand bo'lib, ikkala muallifni ham keltirgan. Qolaversa, Forobiy va Ibn Sinoning mantiqiy asarlarini tadqiq qilish Resher ta'kidlaganidek, ular o'rtasida tub farqlar yo'qligini ko'rsatadi. Ibn Yunus shogirdlari orasida Sirojuddin al-Urmaviy (vaf. 682) va Afdaliddin al-Hunajiy ham tilga olinadi. Ma'lum qilinishicha, Nosiriddin Tusiy ham u bilan uchrashib, ba'zi ilmiy masalalarni muhokama qilgan. Mantiqqa qarshi fatvo bergan Ibn Saloh (vaf. 642) ham Kamoliddin ibn Yunusdan ma'lum muddat mantiq ilmini o'rgangan. Biroq Kamoliddin ibn Yunus maslahati bilan mantiq ilmidan voz kechib, fiqh va ilohiyot bilan shug'ullanadi. Garchi “Uyun al-mantiq”, “Lug'a fi'l-hikma” kabi asarlar unga tegishli bo'lsa-da, faqat geometriyaga oid asarlari bizgacha yetib kelgan.

4. Toj al-Din al-Urmaviy. Faxriddin Roziyning sevimli shogirdlaridan biri edi. Hozirgacha saqlanib qolgan yagona asari ustozining “al-Mahsul fi usul al-fiqh” nomli “al-

hosil min al-mahsul” asariga sharhidir. Ba’zan Sirojiddin al-Urmaviy bilan adashtirib yuboriladigan Tojiddin al-Urmaviy hayoti va shogirdlari haqida bizda ko’p ma’lumotlar yo’q.

5. Zaynuddin al-Kashshiy. 1180/575-yilda tug’ilgan va 1268/666-yillar atrofida vafot etgani qabul qilinadi. U tug’ilgan joyi Kashga nisbatan Kashshiy deb atalgan. Klassik manbalarda yoki ensiklopediyalarda bu muallif haqida ko’p narsa ma’lum emas. Mantiq, fizika va metafizikaga oid asarlar yozgan. Garchi bu asarlar bizgacha to’liq bo’lmagan holda yetib kelgan bo’lsa-da, bugungi kunda bizda uning to’liq ikki nusxasi mavjud [6-18].

Shuningdek, “Kitobu hadaikul-haqoiq fi ilmi’l-mantiq vat-tabi va’l-ilohiy” nomli 219 betlik asar ham yozgan. Ushbu asarning dastlabki 124 sahifasi mantiqqa oid mavzularni qamrab oladi. Bu asarni Shamsiddin ar-Roziyning (vafoti 660-1258) “Hadayku’l-haqoiq” so’fiy kitobi bilan aralashtirib yubormaslik kerak[7].

Har ikki asarning tasnifi quyidagicha: Faxriddin ar-Roziyning “Mulahhas” va “Mabohis” kabi asarlarda yoritilgan mavzularga o’xshashdir.

“Al-Mantiq al-Kabir”da biz Faxriddin Roziy qo’lida o’qigan deb bilgan Zayniddin al-Kashshiyning to’rt bandi mavjud. Bu asarni Kashshiy o’qiganligini, hozirgi nusxa esa Kashshiy tuzatgan nusxa asosida yaratilganligini ko’rsatadi. Qolaversa, bu Kashshiyning Faxriddin Roziy bilan aloqasini mustahkamlaydi. “Al-Mantiq al-Kabir”ning ushbu nusxasi Najmiddin al-Kotibiy al-Qazviniy (vafoti 675)da ham bo’lganligini hisobga olsak, Qazviniy Kashshiy bilan uchrashib, hatto undan vasiylik ham olgan, deyish mumkin. Yana shuni ta’kidlashni lozimki, Nosiriddin Tusiy ham Kashshiy bilan zamondosh bo’lgan, bu holda Tusiyning Kashshiy bilan uchrashish ehtimoli yuqori.

6. Shamsiddin al-Xusravshohiy. 1184/580-yili Tabriz yaqinidagi Xosrovshoh shahrida tug’ilgan va 1254/652 yili Damashqda vafot etgan. U Faxriddin Roziydan mantiq va metodologiyani o’rgangan, Ibn Sino va uning ustozlari Faxriddin Roziy asarlarini umumlashtirgan. Ma’lumotlarga ko’ra, u Faxriddin Roziyning “al-Ayat al-bayyinat” asarini tugatgan yoki tuzgan. Uning birorta asari bugungi kungacha saqlanib qolmagan. Ayyubiylar va Mamluklarga xizmat qilgan. U Qutbiddin al-Misriy, Sayfiddin al-Amidiy (vafoti 631), Kamoliddin ibn Yunus, Tojiddin al-Urmaviy, Afdaliddin Hunajiy, Asiriddin Abhariy kabi ko’plab siymolar bilan zamondosh edi [1- 54].

7. Shihobiddin an-Nishoburiy. Faxriddin Roziy (qolgan ikkisi Qutbiddin al-Misriy va Zayniddin al-Kashshiy)dan shaxsan tahsil olgani haqida dastlabki manbalarda qayd etilgan uch shaxsdan biri. Bizda u haqida ko’p ma’lumot yo’q. Bugun bizda xuddi shu nomli kishiga nisbat berilgan “Jumal al-G’aroib” nomli asarimiz bor. Hadisning unchalik ma’lum bo’lmagan masalalari bo’yicha yozilgan bu kitob, ehtimol, boshqa birovga tegishlidir. Xuddi shu davrda Nosiriddin Tusiy tahsil olgan Farididdin Damod an-Nishoburiy ham yashagan. Bizda bu ikki shaxs bir-biridan farq qilgani haqida aniq ma’lumot yo’q.

8. Ibn Abu al-Hadid al-Madainiy. 1190/586-yilda Eronning Madayn shahrida tug’ilgan va 1258/656-yilda vafot etgan. U Faxriddin Roziy bilan shaxsan uchrashganmi yoki yo’qmi, degan ma’lumotga ega emasmiz. Biroq u Bag’dodga kelib, u yerda tahsil oldi. U Faxriddin Roziy shogirdlari bilan zamondosh edi.

9. Afdaluddin al-Hunajiy. 1194/590-yilda tug’ilgan, 1248/646-yilda vafot etgan. Uning Faxriddin Roziydan to’g’ridan to’g’ri saboq olgani haqida aniq ma’lumot yo’q. Xunajiy Kamoliddin ibn Yunusdan tahsil olgan. Uning shogirdlari orasida mashhur islom tarixchisi Ibn Abu Usaybiya (vaf. 668) ham bor edi. Uning “Kashf al-asror an gavomi al-afqar” asari Qazviniy (vafoti 675) va Bandahiy (vafoti 661) tomonidan izohlangan. Xunajiyning “al-Jumal fi muhtasari nihoyati al-amal” nomli asari ham bor, unga Ibn Vosil al-Hamaviy ham izoh bergan (vafoti 697). Ayyubiylarga xizmat qilgan Hunajiy Faxriddin

Roziyning “al-Matolibu’l-Aliyya” asarini ham umumlashtirgan[1-54].

10. Faxriddin al-Bandahiy. 1263/661-yildan keyin vafot etgan. Muallifning ismini Bendihi deb ham o‘qish mumkin. U haqida ko‘p narsa ma’lum emas. U Zayniddin al-Kashshiyning “Muqaddima” asarining mantiq bo‘limiga sharh yozgan. 160 bobdan iborat ushbu sharhning ikki nusxasi bugungi kunda mavjud. “Risola fi ahva’i dalolat al-lafz” nomli asarida ham muallifga nisbat berilgan. Shuningdek, u Xunajiyning “Kashf al-asror” asarini sharhlagani xabar qilinadi.

11. Asiriddin al-Abhoriy. 1265/663-yilda vafot etgan Abhoriy Roziyning shogirdlari Qutbiddin al-Misriy va Kamoliddin ibn Yunusdan tahsil olgan haqida xabar berilgan. Kamoliddin ibn Yunusning o‘zi Abhariy uzoq yillar uning qo‘lida tahsil olib, unga xizmat qilganini, kamtar va odobli, ko‘p gapirmaydigan inson ekanligini ta’kidlagan. Klassik manbalarga asoslanib, Faxriddin Roziy unga shaxsan ustozlik qilgan, deb da’vo qilish ishonchsiz ko‘rinadi. Faxriddin Roziy vafotidan o‘n yil o‘tib, Abhariy o‘zining ilmiy sayohatlarini boshlab, o‘sha paytdagi ilmlar markazi bo‘lgan Xurosonga tashrif buyuradi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Abhariy 625-616-yillarda Arbil va Mosulda diniy ilm olish uchun bo‘lgan. U Xurosonga kelguniga qadar Suriyada sayohat qilgan va tahsil olgan bo‘lishi mumkin. Uning sayohatlariga asoslanib, Abhariy 1190/585-yillarda tug‘ilgan deb taxmin qilishimiz mumkin. Binobarin, uning Roziy shogirdlariga dars berish bilan shug‘ullangani, Roziy ta’limoti bilan shug‘ullangani haqidagi rivoyatlardan ko‘ra ishonchliroq ko‘rinadi. Darhaqiqat, Ibn Hallikon (vaf. 680) Roziy shogirdlari orasida o‘zining ustozini Abhariyni tilga olmagani bu fikrni tasdiqlaydi[8].

12. Sirojiddin al-Urmaviy. 1198/594-yili Urumiya (hozirgi Eronning Razoiya shahri) shahrida tug‘ilgan va 1283/682-yilda vafot etgan. Saljuqiylar poytaxti Konyaga kelib, Mavlono Jaloliddin Rumiy (vaf. 671) bilan uchrashdi. Keyin esa Damashq va Misrga sayohat qilib, Ayyubiylarga xizmat qildi. U yerdan Fransiya qiroliga elchi qilib yuboriladi. U yerda hatto podshohning yetakchi amaldorlariga mantiq va falsafadan saboq berib, qaytib kelgach, saboqlarini risolalar shaklida yozib qo‘ygan. U Roziyning shogirdlaridan hisoblangan Kamoliddin ibn Yunusning shogirdi edi. Shuningdek, u Afdaliddin al-Hunijiydan mantiq ilmini o‘rgangani ma’lum qilingan [1-54].

13. Nosiriddin Tusiy. 1201/597-yilda Tus shahrida tug‘ilgan, 1274/672 yilda Bag‘dodda vafot etgan. U ilm-fanning deyarli barcha sohalarida, jumladan, ilohiyot, falsafa, mantiq, matematika va astronomiya bo‘yicha asarlar yozgan. U mo‘g‘ullarga xizmat qilgan va mo‘g‘ullar tomonidan taqdim etilgan mablag‘lar hisobidan Marog‘a rasadxonasini qurgan [9-437]. Ma’lum qilinishicha, Faxriddin Roziy vafot etgan paytda o‘n yoshlar atrofida bo‘lgan Tusiy Abhariydan saboq olgan. Zayniddin al-Kashshiyning ham zamondoshi bo‘lgan va ehtimol Qazviniy bilan yaqin munosabatda bo‘lgani uchun Kashshiy bilan uchrashgan Nosiriddin Tusiy Kamoliddin ibn Yunus bilan ham uchrashgan. Ma’lum qilinishicha, u Qutbiddin al-Misriy bilan ham uchrashgan. Uning shogirdlari orasida Najmiddin al-Kotibiy al-Qazviniy tilga olinadi. Qazviniy bilan yaqin munosabatda bo‘lganligini hisobga olsak, u Faxriddin Roziyning “al-Mantiq al-kabir” asarini o‘qigan bo‘lishi ehtimoli katta.

Tusiy Faxriddin Roziy izidan borib, “Ishorat”ga sharh yozgan, shuningdek, Roziyning “al-Muhassal”iga ham sharh, ham raddiya yozgan. “Tajrid al-mantik” va “Asos al-iqtibos” nomli asarlar ham yozgan.

14. Najmiddin al-Kotibiy al-Qazviniy. 1204/600-yilda Qazvinda tug‘ilgan, 1277/675-yilda Marog‘a shahrida vafot etgan. Abhariy va Tusiydan tahsil olgan. U hatto Tusiyning taklifi bilan Marog‘ada yillar davomida xizmat qilgan. Xunajiyning zamondoshi bo‘lgan Qazviniy Faxriddin Roziyning “al-Mantiq al-Kabir” asarini ham o‘qigan. Darhaqiqat, saqlanib qolgan yagona nusxa Qazviniyga tegishli ekanligi qayd etilgan. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Qazviniy al-Mantiq al-Kabirni Zayniddin al-Kashshiy qo‘lidagi nusxadan ko‘chirib olgan va shuning uchun Qashshiy

bilan uchrashgan. Faxriddin Roziyning “al-Muhassal” va “al-Muhhas al-hikma val-mantiq” asarlariga sharhlar yozgan. Uning mantiq sohasida yozgan yana bir muhim asari “ar-Risolat ash-Shamsiya”dir. Bu asar Qutbiddin ar-Roziy tomonidan “Tahrir al-qavoidi al-mantiqiyya fi sharh ar-risolat ash-shamsiya” nomi bilan izohlangan. Sa’diddin Taftazoniy ham asarga sharh yozgan. Keyingi davrlarda mashhur bo’lgan asarga Ibn al-Mutahhar al-Hilliy (vaf. 725), Molla Fanariy (vaf. 834), Qora Dovud (vaf. 947), Jaloliddin Davvoniylar ham sharhlaganlar.

15. Qutbiddin Sheroziy. 1236/634-yilda Sherozda tug’ilgan. 1311/710-yili Tabrizda vafot etgan. U Nosiriddin Tusiyning shogirdi edi. Mavlono Jaloliddin Rumiylar bilan ham uchrashdi. Tusiy xizmatida bo’lganligi sababli, u ham Qazviniy bilan uchrashgan, ikkalasi davrasida bo’lgan, deyishimiz mumkin. U “Nizomiyya” madrasasida ham o’qigan va Shihobuddin as-Suhravardiy (vafoti 588) asarlarini o’rgangan.

16. Shamsiddin as-Samarqandiy. Bizda u haqida ko’p ma’lumot yo’q. 1303/702-yillarda vafot etgan. U Marog’ada ishlagan va ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Shundan kelib chiqib, u Nosiriddin Tusiy va Najmiddin Kotibiy Qazvinilar bilan uchrashgan, deyish mumkin. Qutbiddin ash-Shiroziy va Shams al-Isfahoniylar ham zamondosh edilar. U Faxriddin Roziyning fiqh asoslariga oid “al-Mahsul” asariga sharh yozgan[7].

17. Abu’s-Sano Shamsiddin al-Isfahoniy. Uning asl ismi Mahmud ibn Abdurahmon edi. U Abu’s-Sano nomi bilan ham mashhur bo’lsa-da, Shams al-Din al-Isfahoniy nomi bilan mashhur bo’ldi. 1276/674-yili Isfahonda tug’ilgan va 1349/749-yilda vafot etgan[10-509-510].

Faxriddin Roziy shogirdlarini aniqlashda Ibn Abu Usaybiyadan tashqari Ibn Xalliqon va Safodiyning “Taboqot” kitoblaridan ham foydalandik. Ayniqsa, Safodiy Roziyning izdoshlari o’rtasidagi munosabatlar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi, ammo bu ma’lumotlar hali ham qo’shimcha tekshirishga muhtoj. Demak, Roziy shogirdlarini to’g’ri aniqlash keyingi mualliflarning asarlarini o’rganish va undagi manbalarni hisobga olgan holda mumkin bo’ladi. Biz Zayniddin al-Koshshiy, Sayfiddin al-Amidiy, Afdaliddin al-Hunajiy, Athiriddin al-Abhoriy, Najmiddin al-Kotibiy al-Qazviniy, Shamsiddin as-Samarqandiy kabi mashhur siymolar ijodini inobatga olib, shogirdlar avlodini shakllantirishga harakat qildik. Binobarin, Faxriddin Roziyning olti xil mantiq yo’nalishidagi izdoshlari borligini aytish mumkin:

1. Zaynuddin al-Kashshiy nasli.
2. Qutbiddin Misriy avlodi.
3. Kamoliddin ibn Yunus avlodi.
4. Tojuddin al-Urmaviy zanjiri.
5. Afdaluddin al-Hunajiy nasli.
6. Sayfiddin al-Amidiy zanjiri.

Asiruddin al-Abhariy va shogirdlari Najmiddin al-Kotibiy al-Qazviniy va Nosiruddin Tusiy. U Koshshiy, Misriy, Ibn Yunus va Hunajiydan to’rt xil an’anani birlashtirgan. Sirojiddin al-Urmaviy, Tojuddin al-Urmaviy va Hunajiydan kelgan an’ananing vakili. Keyinchalik Qutbiddin Sheroziy, Shamsiddin as-Samarqandiy, ayniqsa, Qutbiddin Roziy at-Tahtoniylar bu besh an’anani birgalikda davom ettirishga harakat qildilar.

Sayf ad-Din al-Amidiydan kelib chiqqan an’anani Ad-Din al-Ajiy davom ettirdi va uni boshqa besh an’ana bilan uyg’unlashtirishga harakat qildi. Aytish mumkinki, Faxriddin Roziydan kelib chiqqan bu olti an’ana Sa’diddin at-Taftazoniy va Sayyid ash-Sharif al-Jurjoniylar bilan birga davom etgan.

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda, mutafakkirning shogirdlari va boshqa izdoshlarini hisobga olgan holda aytish mumkinki, Faxriddin Roziyning qarashlari Xorazmiylar, Saljuqiylar, Ayyubiylar, Mo’g’ullar, Ilxonliklar, Mamluklar va Usmonlilar davlatlarining ta’lim tizimiga ta’sir ko’rsatgan. Boshqacha aytganda, Xuroson va

Turkiston mintaqalarida, shuningdek, Eron, Suriya, Misr, Shimoliy Afrika va Anadoluda samarali bo'lgan deb aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arıcı, Müstakim. “İslam Düşüncesinde Fahreddin er-Râzî Ekolü”, İslam Düşüncesinin Dönüşüm Çağ'ında Fahreddin er-Râzî (edt. Ömer Türker ve Osman Demir), 1978, s.176.
2. İbn Ebî Useybia, Uyûnu'l-enbâ fî tabakâti'l-etibbâ, thk. Nizar Rıza, Beyrût: 1965, s.462.
3. İbn Hallikân, Vefeyâtü'l-a'yân ve enbâü ebnâi'z-zemân, thk. İhsan Abbas, Beyrût: 1968, c.III, s.293.
4. Çapak, İbrahim, “Seyfuddin Âmidî'nin Mantık Anlayışı”, Uluslararası Seyfuddin Âmidî Sempozyumu Bildirileri, İstanbul: Ensar Neşriyat, 2009, s.347; Yüksel, “Âmidî, Seyfeddin”, s.57.
5. Rescher, Nicolas, Tatavvuru'l-mantıkı'l-arabi, trc.tkd. Muhammed Beyyûmî Mehrân, Kâhire: Dâru'l-meârif, 1985, s.204-205.
6. Durusoy, Ali, “Mantık ve Mantık Tarihi Üzerine Bir Deg'erlendirme”, İslami İlimler Dergisi, yıl 5, sayı 2, Güz 2010, s.18.
7. Şemseddin er-Râzî, Hadâiku'l-Hakâik, thk. Said Abdülfettâh, Mektebetü's-sekâfiyyeti'd-dîniyye, 2012.
8. Îsâgûcî, trc. Hüseyin Sarıog'lu, Îsaguci: Mantıg'a Giriş, İstanbul: İz Yayıncılık, 1998. Aynı eser Taha Alp tarafından da tercüme edilmiştir. Bkz. İstanbul: Yasin Yayınevi, 2007.
9. Şirinov, Agil, “Tûsî, Nasîruddîn”, DİA, c.XLI, İstanbul: 2012, s.437.
10. Demirci, Muhsin, “İsfahânî, Mahmûd b. Abdurrahman”, DİA, c.XXII, İstanbul: 2000, s.509-510.

MAIN FEATURES OF THE USE OF ENGLISH AND UZBEK ERGONYMIC UNITS AND THEIR TRANSLATION STRATEGIES

Abdurakhmonov Mirshod Olimjon o'g'li

Senior teacher, Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Kashkadarya province, Shakhrisabz city, Uzbekistan

mirshodabdurahmonov@gmail.com

ORCID 0009-0001-8063-8789

UDK 811.111/811.512.133

Abstract. This article provides an in-depth analysis of aspects of ergonyms—proper names used for organizations, institutions, and other social entities—that have often been overlooked in English linguistic studies. Drawing on data from contemporary newspapers and the extensive Corpus of Contemporary American English (COCA), the study refines existing theoretical and practical recommendations for translating ergonyms with greater accuracy and stylistic adequacy. Special attention is devoted to the difficulties translators face when transferring Uzbek ergonyms into English, including issues of grammatical adaptation, cultural and geographical references, and the need to preserve the original meaning and associative value of names. The paper also highlights similarities and differences in the structural composition of Uzbek and English ergonyms, such as the use of classifiers, geographical markers, and proprietary elements. By exploring these features, the research offers practical guidance aimed at enhancing translation quality and ensuring that ergonyms retain their socio-cultural significance in cross-lingual communication

Keywords: Translation, proper names, ergonyms, appositions, articles.

**INGLIZ VA O'ZBEK ERGONIMIK BIRLIKLARINING
QO'LLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING TARJIMA
STRATEGIYALARI**

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilshunosligida ko'pincha e'tibordan chetda qolgan ergonimlar — tashkilotlar, zamonaviy gazeta materiallari hamda keng qamrovli zamonaviy Amerika Ingliz muassasalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalarni ifodalovchi atoqli nomlar masalasini chuqur tahlil qiladi. Til Korpusi (COCA) ma'lumotlariga tayangan holda, tadqiqot ergonimlarni aniqroq va uslubiy jihatdan mos tarjima qilish bo'yicha mavjud nazariy hamda amaliy tavsiyalarni takomillashtiradi. Alohida e'tibor o'zbek tilidagi ergonimlarni ingliz tiliga o'girish jarayonida tarjimonlar duch keladigan qiyinchiliklarga qaratilgan: grammatik moslashtirish, madaniy va geografik ishoralar, shuningdek, nomlarning asl ma'nosi hamda ularning assotsiativ qiymatini saqlab qolish zarurati. Maqolada, shuningdek, o'zbek va ingliz tilidagi ergonimlarning tuzilishidagi o'xshashlik hamda farqlar, jumladan, klassifikatorlar, geografik ko'rsatkichlar va mulkiy elementlarning qo'llanilishi yoritiladi. Ushbu xususiyatlarni tahlil qilish orqali tadqiqot tarjima sifatini oshirish hamda ergonimlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini tillararo aloqa jarayonida saqlashga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Tarjima, joy nomlari, ergonimlar, apozitsiyalar, artikllar.

Introduction. Ergonyms are specific types of proper names that identify organizations, companies, institutions, and other social bodies. Examples include “United Nations,” “Apple Inc.,” and “Amnesty International.” According to Johnson (2015), such names contain a unique proprietary part, a descriptive classifier like “company” or “corporation,” and occasionally a geographical reference. The study of ergonyms in different languages focuses on their structure, cultural context, and the challenges they pose in translation. Крючкова М. Я (2003) stated that translating ergonyms from Uzbek to English requires balancing accuracy with cultural and linguistic relevance. In Uzbek: The classifier often precedes the proprietary name (e.g., “O'zbekiston Milliy Banki” translates to “National Bank of Uzbekistan”). In English: The classifier typically follows the proprietary name (e.g., “Apple Corporation”). As for geographical indicators, Uzbek ergonyms often integrate geographical indicators (e.g., “Toshkent Shahar Hokimligi” – “Tashkent City Administration”), whereas in English, such indicators may be omitted if

they are not critical to understanding. In addition, symbolic vs. literal use: Some ergonyms are symbolic, reflecting cultural or national values. For instance, “Buyuk Ipak Yo‘li Xolding” (Great Silk Road Holding) refers to cultural heritage, requiring nuanced translation into English to retain its meaning. Ergonyms, which refer to names of organizations, businesses, or other social entities (e.g., “United Nations,” “Amnesty International,” “Apple”), often present challenges in translation. Observations reveal frequent inconsistencies in their usage in newspaper texts and translation efforts. This study proposes a systematic approach to handling ergonyms in translation. Translators are advised to select methods such as calquing, transcription, or direct graphic transfer, ensuring key information in the original name is retained. However, adherence to theoretical guidelines alone is insufficient.

Method. Translators also need to account for practical factors such as grammatical adaptation and actual usage. This study employs a comparative-descriptive and linguistic analysis methodology to examine the translation of ergonyms and proper names (PNs) from Uzbek and Russian into English. Fazilat Kultayeva (2024) coined that a notable difficulty arises when rendering proper names (PNs) linked to ergonyms—particularly anthroponyms—which demand careful treatment because of their grammatical and contextual ties. While transcription guidelines are commonly followed, modifications are often required to fit the conventions of the target language. Davluatova E. M. and Rashidova F. B. (2022) noted that depending on their composition, ergonyms may be categorized as real, symbolic, or conditional, with implications for translation strategies. For example, Uzbek ergonyms typically position classifiers before proprietary elements, while English ergonyms often place them after, functioning as attributive modifiers. This structural divergence necessitates careful adjustment during translation to ensure clarity and natural flow in the target language. Adding classifiers like “corporation” or “company” may be required to enhance comprehensibility. Chan, Y. L. (2013) expressed that challenges with appositions in ergonyms incorporating appositions to properly describe ergonyms is a key difficulty in translation. Symbolic and conditional ergonyms, in particular, often require additional descriptors in English to convey their intended meaning. Комиссаров В.Н. stated that while “Microsoft Corporation” is commonly shortened to “Microsoft,” appositional descriptors like “technology company” or “software maker” are often added for precision and context. Based on articles and ergonyms in translation, this section discusses the use of articles with ergonyms, particularly in the context of symbolic and conditional ergonyms. These ergonyms often do not include a proper noun component and are used without articles in English. Examples: - “Intel, Uber and Univision confirmed their membership...” (Independent) – “Both Human Rights Watch and Amnesty International have condemned the Saudi government...” (Newsweek — COCA) Similarly, Uzbek companies and organizations of the same type do not require articles in their English counterparts: - “...the options under discussion included Alibaba taking an equity stake in M.Video...” (Reuters) Symbolic names combined with generic names, however, can use a definite article: - “Engineer Sandeep Sovani... recently ran airflow simulations for the software company Ansys.” (Popular Science — COCA) - “The Reuters news service reported that development today.” (PBS — COCA) This principle also applies to Russian ergonyms: - “Last month, the Russian company Gazprom began oil production...” (CSMonitor — COCA) Articles as Part of Ergonym Structures.

Result. Данилевский Н.Я. (1998) noted that proper names often appear with descriptors that function as appositions, sometimes accompanied by articles. Examples include: - “The World Meteorological Organization said there was no point waiting until the end of the year...” (PBS — COCA) – “Companies coming under the new Canadian sanctions include the Mytishchi Machine Building Plant, the Kalinin Machine Building

Plant, and the Tikhomirov Scientific Research Institute of Instrument Design.” (RT) In both English and Uzbek contexts, symbolic ergonyms may incorporate articles depending on usage and context: - “Developed by billionaire Mikhail Prokhorov, the head of the Oneksim Group.” (RT) Omission of Articles in some instances, articles are omitted despite the presence of classifiers: - “...after European Central Bank President Mario Draghi was quoted by German newspaper Handelsblatt saying...” (WashPost — COCA) - "On Wednesday, computer chip company Intel released its mid-year diversity report." (CSM — COCA) – according to Podberyozkina L.Z., Trapeznikova A.A “Electronics retailer Best Buy will no longer sell security software from Russian internet security company Kaspersky Lab.” (The Verge)

Discussion. Shukurov Otabek Ulashevich (2012) stated that proper nouns in Uzbek may need transliteration (e.g., “O‘zbektelekom” becomes “Uzbektelecom”). Transliteration might need adjustments to fit English phonetic norms. Adding Descriptors: To make the ergonym comprehensible in English, translators often add descriptors. For example: Uzbek: “O‘zmilliybank” English: “Uzbekistan National Bank”. Articles: English requires definite (“the”) or indefinite articles (“a”) for ergonyms, which Uzbek does not use. Translators must decide whether to add articles based on context. Cultural Sensitivity: Names rooted in Uzbek culture or history, such as “Alisher Navoiy nomidagi Davlat Teatri” (State Mirtojiev M. (2010) noted that theater named after Alisher Navoi), require careful adaptation to maintain cultural significance.

Comparative features of English and Uzbek ergonyms and their translation strategies:

Strategies	Aspects	English Ergonyms	Uzbek Ergonyms
Reordering components according to target language norms	Structure	Classifier follows the proprietary name (Apple Corporation)	Classifier precedes the proprietary name (O‘zbekiston Milliy Banki)
Decide whether to include or omit depending on context	Geographical markers	Often omitted if non-essential (Apple Inc.)	Frequently integrated (Toshkent Shahar Hokimligi)
Calquing + adding explanatory descriptors	Symbolic meaning	Can be literal (United Nations) or symbolic	Often reflects cultural heritage (Buyuk Ipak Yo‘li Xolding)

The analysis of ergonyms across English and Uzbek reveals that their successful translation demands far more than a literal, word-for-word approach. Structural contrasts—such as the placement of classifiers, the optional use of geographical indicators, and the presence or absence of articles—require translators to balance linguistic accuracy with natural usage in the target language. Equally important is sensitivity to cultural and symbolic meanings: many Uzbek ergonyms carry historical or national associations that cannot be conveyed through transcription alone.

A systematic strategy—combining calquing, transcription, direct graphic transfer, and where necessary the addition of clarifying descriptors—ensures that the socio-cultural essence of each ergonym is preserved. By integrating both theoretical guidelines and practical adjustments, translators can produce renderings that are precise, culturally resonant, and stylistically appropriate. Ultimately, this study underscores the need for flexible, context-driven methods to maintain the communicative and cultural value of ergonyms in cross-lingual translation.

Reference

1. Johnson, M., Lee, D. *The Socio-Cultural Significance of Naming in Modern Media*. Language and Society, 11(3), 2015, pp. 201–217.
2. Крючкова М. Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград,

2003. – 26 с.

3. Kultayeva Fazilat. *Specific to the Study of Ergonomics in Science*. Scientific Journal of Termez State University, 2024. pp 114-116

4. Davlatova E. M., Rashidova F. B. *The Problem of Studying Ergonyms in Linguistics*. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2022. pp.87-91

5. Chan, Y. L. *Ergonimes as Cultural Symbols in East Asian Media: A Cross-Cultural Analysis*. Asian Branding Journal, 22(1), 2013, pp. 53–70.

6. Комиссаров В. Н., Рецкер Я. И., Тархов В. И. Пособие по переводу с английского языка на русский: учебное пособие. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1960. – 175 с.

7. Данилевский Н. Я. Происхождение нашего нигилизма // Данилевский Н. Я. Горе победителям! Сборник статей. – М.: Аликс, 1998. С.67-71

8. Подберёзкина Л. З., Трапезникова А. А. «Лингвистическое градоведение» как предмет региональных исследований (на материале Красноярска) // Полифония большого города: сб. науч. ст.; под ред. Л. М. Терентий и др. – М.: МИЛ, 2012. – С. 100–115.

9. Shukurov Otabek Ulashevich. *Analysis of Modern Ergonomics in Uzbek Language*. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 2023.p 113

10. Mirtojiev M. *Semasiology of the Uzbek Language*. – Tashkent: Mumtoz So‘z, 2010. – p. 85.

O‘ZBEK TILIDA TARZ-HOLAT SEMALI TIL BIRLIKLARI LINGVISTIK MAYDON KO‘ZGUSIDA

Jo‘rayeva Mahliyo Nosirovna

Xalqaro innovatsion universitet, o‘qituvchi

mjurayeva908@gmail.com

ORCID 0009-0006-6255-3008

UDK 811-512-1’367

Annotatsiya. Ushbu maqolada fanlararo “maydon” tushunchasining tilshunoslik sohasiga kirib kelishi, uning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Jumladan, o‘zbek va jahon tilshunosligida ushbu konsepsiya doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar atroflicha ko‘rib chiqilib, so‘nggi yillarda maydon nazariyasining til birligi tahlilidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot doirasida o‘zbek tilida harakat tarzi shakllarining qo‘llanilishi misollar orqali tahlil qilinib, ularning maydon kontinuumidagi yadro va chegara (periferik) hududlardagi o‘rni va funksional o‘ziga xosliklari aniqlanadi. Tarz (holat) ma‘nosini ifodalovchi leksemalar: ravish, sifat, fe‘l, ko‘makchi fe‘lli so‘z birikmalari, harakat tarzi kategoriyasi, ravish holi, ravish ergash gapli qo‘shma gaplar hamda nolisoniy vositalar kabi lingvistik birliklar tahlil obyekti sifatida tanlanadi. Shuningdek, maqola maydonning lingvistik birliklararo o‘zaro ta‘siri va tilning dinamik strukturasida tarz semasining maydon modeli asosida chuqur o‘rganilishini maqsad qilgan. Mazkur yondashuv o‘zbek tilining nutqiy va yozma ko‘rinishlarida tarz ma‘nosining ifodalanish mexanizmlarini aniqroq tushunishga xizmat qiladi. Natijada maqola o‘zbek tilshunosligi va tipologiyasida maydon nazariyasining amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha yangi ilmiy qarashlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: maydon, tarz, harakat tarzi, funksional-semantik maydon, yadro, periferik.

LINGUISTIC UNITS WITH THE MEANING STYLE AND CASE IN UZBEK LANGUAGE IN THE MIRROR OF THE LINGUISTIC FIELD

Abstract. This article analyzes the introduction of the interdisciplinary concept of "field" into the field of linguistics, its theoretical foundations and practical application. In particular, the scientific research conducted within the framework of this concept in Uzbek and world linguistics is reviewed in detail, and the importance of field theory in the analysis of language units in recent years is highlighted. Within the framework of the study, the use of action style forms in the Uzbek language is analyzed through examples, and their place in the core and border (peripheral) regions of the field continuum and their functional specificities are determined. Linguistic units such as lexemes expressing the meaning of style (case): adverb, adjective, verb, auxiliary verb phrases, action style category, case of adverb, clauses with adverbs, and non-linguistic means are selected

as the objects of analysis. The article also aims to conduct an in-depth study of the style semantics based on the field model in the context of the interaction between linguistic units of the field and the dynamic structure of the language. This approach serves to more clearly understand the mechanisms of expression of stylistic meaning in spoken and written forms of the Uzbek language. As a result, the article offers new scientific views on the practical application of field theory in Uzbek linguistics and typology.

Keywords: field, style, style of action, functional-semantic field, core, peripheral.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z faoliyatlarining dastlabki kunlaridayoq davlat ahamiyatiga molik vazifalar qatoriga diqqat qaratib: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz..."

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – deya to'xtalgan edilar [1].

Mustaqillik davri barcha sohalarida, jumladan tilshunoslikda ham tub o'zgarishlar uchun asos bo'ldi. Bu jarayon o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish hamda sohaning ilgari o'rganilmagan muammolarini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi. Xususan, o'zbek tilining tarz maydoni, xususan, harakat-holati, tarzi va darajasi mikromaydonlarini ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan o'rganish hamda ularni ilmiy-amaliy asosda tahlil qilish bugungi o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biridir. Til – murakkab ijtimoiy hamda biologik-fiziologik hodisa sifatida kommunikativ, emotsional-ekspressiv va akkumulyativ funksiyalarni bajaradi. Ayniqsa, tilning emotsional-ekspressiv funksiyasining namoyon bo'lishida tarz-holat tushunchasining o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, "maydon" termini aniq va tabiiy fanlardan gumanitar fanlarga kirib kelishi bilan yangi ilmiy tushunchalar tizimida o'z o'rnini topmoqda.

Maydon (fizikada) – fizikaning asosiy tushunchalaridan biri sanaladi. Uni fanga fizik olim Maykl Faradey olib kirdi. Fizika ta'limida maydon tushunchasi keng qo'llaniladi, masalan, elektr maydon, magnit maydon, elektromagnit maydon, gravitatsion maydon. Fizika sohasida "maydon" termini "biror fizik hodisa ro'y beradigan yoki uning ta'siri seziladigan fazo" degan ma'noni ifodalaydi. Fizikadagi maydon nazariyasiga ko'ra, harakatdagi har qanday elektr zaryadi atrof-fazoda magnit maydon hosil qiladi. Magnit maydoni fazoda uzluksiz harakatdagi boshqa elektr zaryadlariga ta'sir o'tkazadi. Maydon doirasidagi elektr zaryadi uning markazi atrofida aylanma harakatda bo'ladi. Zaryad maydon markaziga qanchalik yaqin joylashgan bo'lsa, uning maydon ta'siri shuncha kuchli bo'ladi, uzoqlashgan sari ta'sir susaya boradi. Xullas, zarralar orasida bo'ladigan o'zaro ta'sirning katta masofalarga uzatilish jarayonini izohlash maqsadida ushbu termin fizika fani olamiga kirib kelgan"[2]. Keyinchalik qator boshqa sohalarida ham bu termin qo'llanilib o'rganila boshlandi.

Maydon (algebrada) – "...har bir noldan farqli elementi teskarilanadigan birli assotsiativ halqa jism deyiladi. Agar shu bilan birga ko'paytirish amali kommutativ ham bo'lsa, maydon deyiladi. Maydon tushunchasining juda muhim ekanligini nazarda tutib uning halqa tushunchasiga asoslanmaydigan ta'rifini keltiramiz.

Agar: a) $(K,+)$ – abel halqa; b) $(K,\cdot)$ – gruppoid, $(K\setminus\{0\},\cdot)$ – abel gruppasi; s) qo'shish bilan ko'paytirish amallari distributivlik qonuni bilan bog'langan (uni ikki formasining ixtiyoriy bittasi bilan ifodalash mumkin) bo'lsa, algebraik sistema maydon deyiladi"[3].

Maydon (lingvistikada) – ma'no umumiyliги bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funksional) o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi maydon sifatida belgilanadi. Tilshunoslikda "maydon" so'zi atama sifatida XX asrning birinchi choragidan ishlatildi.

Bu atama umumiy ma'noga ega bo'lib, o'zaro munosabatga kirishadigan muayyan vositalar sistemasini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusi lingvistik va semantik jihatdan murakkab bo'lganligi bois turli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu bois maqolada korpusli tadqiqot metodi, jahon tilshunosligida keng qo'llanilayotgan sistem-struktur metodidan va uning tarkibiy qismi bo'lgan komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Turli tilshunoslar tomonidan maydon, uning vositalari, chegarasi, tarkibi kabi masalalar turlicha talqin qilingan. "Funksional-semantik maydon (xususan, A.B. Bondarko tadqiqotlarida) haqida ham fikrlar bo'lib, ularda maydon bir sath doirasidan chiqib, butun tilni qamrab olishi aytiladi" [4]. Maydon nazariyasi muammolari bo'yicha keyingi yillarda qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jahon tilshunosligi vakili G.S. Shchur maydon muammolari yuzasidan mingdan ortiq maqolalar e'lon qilinganini ta'kidlaydi. Lingvistikada maydon nazariyasining keyingi yillardagi rivoji shu darajaga yetdiki, uning g'oyalari va metodlari tilning leksik sathidan boshqa sathlarga nisbatan ham tatbiq qilina boshlandi. O'zbek tilshunosligida til hodisalarini maydon teriminiga asoslanib o'rganish M. Abdullayev tomonidan boshlab berildi.

O'zbek tilida tarz (holat) ma'nosining ifodalanishi holat bildiruvchi leksemalarda: ravish, sifat, fe'llar, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, harakat tarzi kategoriyasi, ravish (tarz) holi, ravish ergash gapli qo'shma gap va boshqalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuqorida sanab o'tilgan birliklar turli tilshunoslar tomonidan alohida-alohida o'rganilgan. "Xususan, holat ravishlari S. Fuzailov, ko'makchi fe'lli qo'shilmalari A. Hojiyev va A. G'ulomov, holat fe'llari R. Rasulov, ravish hollari M. Mo'minova va A. Po'latov, holat ma'nosini ifodalovchi juft va takroriy so'zlar N. Abdurahmonov, holat sifatleri Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova, A.N. Zufarov va Z.M. Ma'rufovlar tomonidan, shuningdek, A. Nurmonov, H. Ne'matov, B. Mengliyev va ularning izdoshlari atroflicha tadqiq etishgan. Tarz ma'nosi, xususan, harakat tarzi kategoriyasi va uning xususiyatlari B. Bahridinova, O. Shukurov, Sh. Rahmatullayevalarning tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan" [5].

Natijalar va muhokamalar. Avvalambor, o'zbek tilidagi harakat tarzi shakllari O'zbekiston xalqining o'ziga xos milliy mentaliteti va qadriyatiga doir til xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq hamda shu bilan o'rganishlidir. "Qaysi tilni ko'rmaylik, til qurilishi, tarkibidan qat'i nazar fe'lning funksional-semantik o'rni beqiyos" [6].

Maqola quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutgan:

a) tilimizdagi tarz (holat) bildiruvchi so'zlarning maydon hosil qila olishini ko'rsatish;

b) holat ifodalovchi barcha vositalarni aniqlab, ularning ifodalanish holatlarini bayon qilish;

c) holat ifodalovchi vositalarning salmog'ini aniqlab, maydonda tutgan o'rnini aniqlashtirish...

O'zbek tilida tarz (holat) semali til birliklari quyidagilar: Holat bildiruvchi ravishlar. O'zbek tilida holat ravishlari (arabcha *ḥāl* – holat, ahvol) nutqning muhim semantik-sintaktik birliklaridan bo'lib, ular ish-harakatning bajarilish holatini, uning qanday tarzda, qanday vaziyatda, kim yoki nima bilan qiyoslanib amalga oshirilganini bildiradi. Holat ravishlari odatda "qanday?", "qanday qilib?", "qay tarzda?", "qay holatda?" kabi ravish so'roqlariga javob bo'ladi. Bu turdagi ravishlar ish-harakatning subyektiv-emotsional, muhitga bog'liq yoki psixologik ahvolda bajarilishini aniqlik bilan ko'rsatadi. Masalan, *sekin, asta, bemalol, qalban, arang, ochiqchasiga, yakkama-yakka, bafurja, yayov, qat'ian, qardoshlarcha, piyoda, xomligicha, darhol, birdan, qo'qqisdan, tasodifan, qatorasiga, qushday* kabi ravishlar turli darajadagi holat ma'nolarini ifodalaydi.

Sintaktik funksiyasi nuqtayi nazaridan holat ravishlari ko'pincha ravish holi vazifasida, ya'ni harakat fe'lini aniqlovchi sifatida xizmat qiladi. Masalan: *Muxlisa arab*

tilini o'rganishga astoydil kirishdi – bu yerda *astoydil* so'zi ish-harakatning ichki ishtiyoq bilan amalga oshirilayotganini bildiradi. Shuningdek, ba'zi holat ravishlari kesim vazifasida ham qatnashishi mumkin: *Dalalarda ishlar jadal*.

Ushbu ravishlar tarz funksional-semantik maydonining yadro zonasiga tegishli bo'lib, ular harakatni nafaqat grammatik jihatdan, balki semantik-nutqiy kontekstda tarzni chuqur ifodalashda muhim vositadir:

Vodiylarni yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi manda.

Holat bildiruvchi sifatlar. O'zbek tilida holat anglatuvchi sifatlar narsa-buyumning va mavjudotlarning holati va vaziyatini turg'un belgi sifatida ifodalab keladi. Quvnoq, odobli, iliq, issiq, bexabar, guldor, xursand, osuda, kir, toza, yopishqoq kabi so'zlar holat bildiruvchi sifatlar sanaladi. Holat bildiruvchi sifatlar tuzilishiga ko'ra: tub (*farovon, osuda, tashna, xursand*), yasama (*gavdali, azador, sersalom, porloq, quvnoq*), qo'shma (*kamgap, boshqorong'i, kechpishar, sohibjamol*), juft (*saramjon-sarishta, soya-salqin, kuydi-pishdi* (fe'ldan ko'chgan), *chala-chulpa*), takroriy (*biq-biq, burda-burda, yo'l-yo'l* (otdan ko'chgan) bo'ladi.

Holat bildiruvchi sifatning sintaktik vazifasi quyidagicha: a) kesim bo'lib kelishi: *Maktabning tomi eski va teshik edi*; b) ravish holi bo'lib kelishi: *Kerri bu gapni eshitdi-da, orqasiga beso'naqayroq tislani, tashqariga chiqdi*. (T.Drayzer); c) aniqlovchi bilan: *Bunda odamlar ko'p edi chog'i: yaxshi kiyingan, yoshlari qirq va undan balandda bo'lgan erkaklar mis to'siq ortida nimalar haqidadir gaplashishardi*. (T.Drayzer).

Holatga taqlidni bildiruvchi so'zlar.

a) kishilarning holatiga taqlidni bildiruvchi so'zlar: *dir-dir, alang-jalang, lang, zirq-zirq, lo'q-lo'q, shart-shurt, yum-yum (yig'lamoq), sim-sim (og'rinoq), g'ij-g'ij (aql), g'ing-ping, zir-zir, shartta-shartta, shuv, mo'lt, dik-dik, shov-shuv, pish-pish, hang-mang, lop, g'ivir*. Masalan, *U yum-yum yig'ladi*;

b) kishilarning xususiyatlarini ifodalovchi holatga taqlidni bildiruvchi so'zlar: *jilpang-jilpang, jirt-jirt, qilpang-qilpang, lik-lik, liking-liking*. Masalan, *Qizlarning jilpang-jilpang qilishi judayam yomon ko'rinadi*;

d) harakatning holatini ifodalovchi holatga taqlidni bildiruvchi so'zlar: *pildir-pildir, lapang-lapang, gir-gir...* Masalan, *Nozima onasining tepasida gir-gir aylanardi*;

e) ob-havo ta'siri natijasida paydo bo'ladigan holatga taqlidni bildiruvchi so'zlar: *dag'-dag', dir-dir, qalt-qalt, lov-lov, jiz-jiz*. Masalan, *Sovuqdan tanamiz dag'-dag' qaltirardi*;

f) yorug'lik, nur ta'sirida paydo bo'luvchi holatga taqlidni bildiruvchi so'zlar: *lip-lip, milt-milt, jimir-jimir, yalt-yalt, yalt-yult, yaraq, yal-yalt*. Masalan, *Chirog'imiz lip etib o'chib qoldi*;

g) tabiat hodisalarining holatiga taqlidni bildiruvchi so'zlar: *guppa-guppa, guv-guv, gup, jimir-jimir, sharros*. Masalan, *Birdaniga yomg'ir sharros quydi*;

h) o'simliklarning holatiga taqlid bildiruvchi so'zlar: *g'uj-g'uj, g'ir-g'ir, hilhil, duv-duv*. Masalan, *Mevalar duv-duv to'kildi*;

Holat bildiruvchi fe'llar. Fe'l arab tiliga oid so'z bo'lib, "harakat" degan ma'noni anglatadi. U qanday jarayonni ifodalashiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi, nima bo'lmoq? umumiy so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlar holat sanaladi. Harakat fe'llari faqat jonli yaratilarga xos bo'lib, ularning jismoniy harakatini ifodalaydi. Holat fe'llari esa jonli va jonsiz yaratilarning holatini bildiradi. Holat fe'llariga: *titramoq, xursand bo'lmoq, seskanmoq, jovdiramoq* kabi so'zlar misol bo'ladi. Masalan, *Umidaning javobidan onasi seskanib ketdi*.

Holat bildiruvchi ravishdosh shakllari. Holat ravishdoshlari harakatning holatini bildirib, fe'llarga -ib, -b, -a, -y, -gancha (-kancha, -qancha) kabi qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan, *kulib gapirdi, yig'lay-yig'lay so'zlab berdi, tikilgancha*

qaradi kabi. Ushbu morfemalar harakatning holat semasini yuzaga chiqaradi va natijada hosil bo'lgan shakl predikat (kesim) yoki ravish holi vazifasida ishlatiladi. Masalan: *Kulib gapirdi* – bu birikmada “kulib” ravishdoshi harakatning (gapirish) qanday holatda amalga oshirilganini ko'rsatadi. *Yig'lay-yig'lay so'zlab berdi* — bu yerda takroriy ravishdosh yordamida subyektning hissiy holati ifodalangan. *Tikilgancha qaradi* – bu misolda “tikilgancha” shakli orqali harakatning davomiy va barqaror holati ifoda etilgan.

Holat bildiruvchi sifatdosh shakllari. Holat sifatdoshlari shaxs va narsalarning harakat belgisini ifodalab keladi. Hosil bo'luvchi qo'shimchalari nutqimizda faol bo'lgan -gan, (-kan, -qan) shakllaridir va ular shaxs-narsalarning o'tgan zamonga xos harakat belgisini ifodalaydi. Sifatdosh fe'lning funksional shakllaridan biri bo'lib, narsaning harakat va holati belgisini ko'rsatadi va sifatlovchi vazifasida keladi: *Do'stlik bo'lmagan joyda ishning rivoji ham bo'lmaydi* (S.Zunnunova). Sifatdoshning yana bir asosiy belgisi harakat tushunchasi anglatishidir: *Madina doimo izlanadigan, yuksak marralarni qo'lga kiritishga chog'langan talabalarimizdan*.

Harakat tarzi shakllari. O'zbek tilida harakat tarzi shakllari xalqimizga xos milliy mental xususiyatlarni ifodalash xususiyati bilan ham xarakterlidir. Harakat tarzi shaklining yetakchi fe'lning -(i)b ravishdosh shakli yordamida ko'makchi fe'l bilan qo'shiluvdan hosil bo'lgan morfologik shakli faol qo'llanuvchi bir ko'rinishidir. Masalan: ketib qolmoq (“kutilmaganda”), berib turmoq (“vaqtincha”), kutib turmoq (“davomli harakat”) kabi.

Holat bildiruvchi ko'makchi. O'zbek tilida ko'makchilar odatda yetakchi so'zga bog'lanib, unga turli xil ma'nolarni yuklaydi. Ushbu ma'nolar orasida sabab, yo'nalish, mavzu, o'xshatish, chegara kabi semantik kategoriyalar mavjud. Shu bilan birga, ko'makchilarning ma'nosi matn kontekstiga qarab bir necha turli jihatlarni ifodalashi mumkin. Holat ma'nosini ifodalashda, “bilan” ko'makchisi harakatning qanday tarzda amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Masalan: *“Darsimni diqqat bilan tinglang.”* – bu yerda “bilan” so'zi diqqat holatini ifodalaydi va harakatning sifatini aniqlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ko'makchilarning yetakchi so'zga bog'lanishi orqali yuzaga keladigan ko'p qirrali semantik funksiyalar tilning sintaktik va semantik tizimida muhim rol o'ynaydi hamda matnning mazmun va tuzilishini boyitishda samarali vosita hisoblanadi.

Holatni ifodalovchi kelishik shakllar. O'zbek tilida o'rin-payt kelishigi (qo'shimcha -da) harakatning bajarilish holatini bildiruvchi grammatik birlik sifatida xizmat qiladi. Bu kelishik qanday?, qay tarzda? kabi so'roqlarga javob beradi va sintaktik jihatdan ravish holi vazifasini bajaradi. *“Ular ma'ruzani chuqur sukutda tinglar edilar,”* – so'zlashuvda “sukutda” so'zi o'rin-payt kelishigi yordamida harakatning bajarilish sharoitini aniq ifodalaydi.

Shuningdek, chiqish kelishigi (qo'shimcha -dan) ham harakatning bajarilish holatini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, u qanday?, qay holatda? kabi so'roqlarga javob beradi va gap tarkibida ravish holi funksiyasini bajaradi. Masalan: *“Dildan kulmoq.”* – bu yerda “dildan” so'zi chiqish kelishigi shaklida bo'lib, harakatning ichki holatini bildiradi.

Ohang bilan holatning ifodalanishi. Ohang so'zi fors tilidan kirib kelgan bo'lib, “tovush”, “nag'ma” va “kuy” kabi ma'nolarni o'zida jamlagan. Musiqiy ifoda vositasi sifatida ohang eng kichik musiqa bo'lagi sifatida qaraladi. Ohang bir nechta tovushlarning mantiqan bir-biriga bog'lanishi natijasida shakllanib, vokal musiqada rukn vazifasini bajaradi.

Tarz (yoki holat) ma'nosining fonetik ifodasida esa tovushning takrorlanishi (ikkilanishi) va urg'u o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, “A-a-aytibdi”, “O'-o'-o'ttiribsizmi?” kabi ifodalarda bema'lol, uzoq va bema'ni tarzda o'ttirish ma'nosi mavjud. Ushbu misollarda asosiy urg'u birinchi bo'g'inga qaratilishi orqali muallif o'zidagi turli his-tuyg'ularni yanada ravshan ifoda etishga erishadi. Shu tariqa, ohang va uning fonetik xususiyatlari nutqda emotsional holat va ifoda vositasi sifatida muhim o'rin tutadi.

Ravish ergash gapli qo'shma gaplarda holat mazmunining ifodalanishi. "Bosh gapdagi voqea-hodisaning, ish-harakatning qay tarzda, qanday vaziyatda yuzaga kelishini bildiruvchi qo'shma gap shakllarini ravish ergash gapli qo'shma gaplar deymiz. Ravish ergash gapning kesimi -b, -ib, qo'shimchalari bilan yasalgan ravishdosh yordamida ifodalanadi" [8]. Masalan,

Qorong'i kechada ko'kka ko'z tikib,

Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman. (Ch).

Maqolada tilshunoslikdagi tarz (holat) anglatuvchi til birliklariga maydon nuqtayi-nazaridan yondashdik hamda tarz (holat) ifodalovchi lisoniy hamda g'ayrilisoniy vositalarning barchasini qamrab olishga harakat qildik. Chunki bu sistem yondashuvning asosiy va zaruriy shartlaridan biridir. O'zbek tilida tarz (holat) semali til birliklarini funksional-semantik maydon nuqtayi-nazaridan o'rganish mavzuning yanada takomillashgan ko'rinishga kelishiga zamin yaratadi. "Funksional-semantik maydon termini, hodisaning lingvistik aspektida tekshirilishini ham ko'rsatadi" [9]. "Linvistikada funksional-semantik maydon tushunchasiga asos solinganidan buyon til hodisalarini ushbu yondashuvda tadqiq etish tobora ommalashmoqda. Bugungi kunga qadar tilshunoslar tomonidan zamon, aspektuallik, modallik, taksis, miqdor-daraja, harakat tarzi kabi funksional-semantik maydon turlari aniqlangan" [10].

Xulosa va takliflar. Tarz ma'noli maydon yadrosini quyidagi vositalar tashkil qiladi: holat ravishi va holat bildiruvchi sifatlar va holatga taqlid so'zlarda kuchli darajada. Bu leksik vositalar tarz (holat) tushunchasining asosiy vositasi bo'lib, **maydon yadrosini** tashkil qiladi. Chunki bu vositalar asosan holat ifodalash uchun xoslangan va unda holatning asosini tashkil etuvchi tarz yaqqol sezilib turadi. Shuningdek, bu leksemalar gapda sintaktik vazifada kelganda ham ravish holi vazifasini bajaradi, mazkur funksiyani bajarish uchun turli shakl va vositalar bilan birgalikda izchil ishlatiladi.

Tarz ma'noli maydon markazini quyidagi vositalar tashkil qiladi: harakat tarzi shakllari, ravishdosh, sifatdosh shakllari, ko'makchi... tashkil qiladi.

Harakat tarzi shakllari fe'ldan anglashilgan ish-harakatning "tarz" semasini muayyanlashtirganligi sababli bu fe'llarning relyativ valentligiga ta'sir qiladi. Boshqacha aytganda, leksemalarning "tarz" semali leksemalar bilan birikish imkoniyatlarini muayyanlashtiradi.

Tarz ma'noli maydon chetini quyidagi vositalar tashkil qiladi: ravish holi, ravish ergash gapli qo'shma gaplar, urg'u, ravish holi vazifasida kelgan ayrim ko'makchili va kelishikli otlar, nolisoniy vosita (imo-ishora, so'zlovchining subyektiv munosabati). Bu vositalar nafaqat tarz maydoni, balki boshqa mikromaydonlarga xos tushunchalarni ifodalash xususiyatiga ham ega. Bu esa ularning maydon chekkasidan o'rin olishini ta'minlagan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tarz funksional-semantik maydonini ifoda etuvchi vositalar tarkibi turli xil bo'lib, o'zbek tilida tarz (holat) ifodalovchi leksemalar – holat ravishlari, holat bildiruvchi sifatlar, holatga taqlidni bildiruvchi so'zlar tarz funksional-semantik maydoni yadrosini, leksik-morfologik vositalar – harakat tarzi shakllari, morfologik vositalar – harakatning kuchli-kuchsiz darajasini bildiruvchi fe'l shakllari, ayrim ravishdosh shakllari tarz funksional-semantik maydoni markazini, boshqa - sintaktik, uslubiy, nolisoniy vositalar, shuningdek, ko'makchili va kelishikli ayrim otlar tarz funksional-semantik maydoni chegarasini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Narzullayev U. X. Algebra va sonlar nazariyasi: O'quv qo'llanma. Samarqand, 2020. 60-61-b

3. G'aniyev A.G., Avliyoqulov A.K., Almardonova G.A. Fizika. I qism. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Buxoro, 2002. 186-b
4. Bondarko A.B. Грамматическая категория и контекст. – Л.: Наука, 1971. 116-b
5. Jo'rayeva M. O'zbek tilida tarz maydoni: mag. diss. Qarshi – 2019. 38-b
6. Mengliyeva M. Aspektuallik tizimi va uning funksional-semantik maydon sifatidagi mohiyati // “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2022 –yil. – B. 198.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 6 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: ЎЗМЕ, 2022. – Б. 412-b
8. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. N. Mahmudov va boshqalar. – Toshkent:Tasvir, 2024. 51-b
9. Elmuradova L. O'zbek tilida daraja funksional-semantik maydoni: Filol. fanlari nomzodi. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2011. 27-b
10. Safarov F.S. O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... diss. – Samarqand, 2004. 9-b

ABDULLA QAHHOR ASARLARI AYRIM TOPONIMLARINING LINGVOPOETIKASI

Tursunova Yulduz Yusuf qizi

“O'zbek tili va adabiyoti” kafedrası o'qituvchisi

Qarshi davlat universiteti

ytursunova636@gmail.com

ORCID 0009000946117216

UDK 413.11: 894.375(045)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Qahhor badiiy merosida uchraydigan toponimlarning lingvopoetik tabiati ilmiy asosda o'rganiladi. Tadqiqotning markazida joy nomlarining matn strukturasiidagi semantik yuki, ularning badiiy-estetik funksiyasi hamda adib uslubiga xos poetik tizimni shakllantirishdagi o'rni turadi. Qahhor asarlarida toponimlar nafaqat voqea joyini belgilovchi omil, balki qahramon xarakterining ochilishi, milliy muhitning tasviri va ijtimoiy haqiqatning badiiy talqinida faol ishtirok etuvchi vosita sifatida namoyon bo'lishi maqolada alohida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida toponimlarning konnotativ ma'nolari, ularning kontekstga ko'ra o'zgarishi va badiiy makon yaratishdagi stilistik vazifalari aniqlanadi. Yozuvchi tomonidan real geografik nomlar bilan badiiy to'qima makonlarni mahorat bilan birlashtirish jarayoni lingvopoetik jihatdan tahlil qilinib, bu birliklar milliy-madaniy o'zlikni aks ettirishda qanday semantik vazifa bajarishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, Qahhor toponimlari orqali milliy koloritning ifodalanishi, tarixiy xotiraning jonlantirilishi va badiiy matnning estetik yaxlitligini ta'minlash mexanizmlari yoritiladi. Tahlil natijalari toponimlarning adib poetikasida barqaror uslubiy hodisa sifatida shakllanganini ko'rsatib, ularning badiiy matndagi semantik va poetik qiymatini ilmiy asosda belgilaydi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qahhor, toponimlar, lingvopoetika, badiiy makon, semantika, stilistika, milliy kolorit, geografik nomlar, konnotativ ma'no, badiiy matn, madaniy xotira, poetika, obraz yaratish.

LINGUOPOETICS OF SOME TOPONYMS IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR

Abstract. This article provides a scholarly examination of the linguo-poetic nature of toponyms used in the literary works of Abdulla Qahhor. The study focuses on the semantic load of place names within the structure of the text, their artistic-aesthetic functions, and their role in shaping the author's distinctive poetic style. In Qahhor's narratives, toponyms function not merely as geographical indicators but also as expressive devices that contribute to character development, the depiction of national cultural settings, and the artistic interpretation of social realities. The research analyzes the connotative meanings of these toponyms, their contextual transformations, and their stylistic significance in the creation of a literary space. Particular attention is given to the author's skillful integration of real geographical names with fictionalized locations, revealing how

these elements serve to articulate national and cultural identity and convey deeper semantic meanings. Additionally, the article explores how Qahhor's use of toponyms enhances the expression of national color, activates historical and cultural memory, and ensures the aesthetic coherence of the literary text. The findings demonstrate that toponyms constitute a stable stylistic phenomenon in Qahhor's poetics, functioning as essential components that enrich both the semantic depth and the poetic integrity of his works.

Keywords: Abdulla Qahhor, toponyms, linguopoetics, literary space, semantics, stylistics, national cultural flavor, geographical names, connotative meaning, literary text, cultural memory, poetics, creating imagery, etc.

Kirish. Onomastika til onomastik birliklarini tashkil qiluvchi har qanday atoqli otni lingvistik va sotsiolingvistik aspektida tadqiq qiladi. Soha o'rganadigan til birliklari onoma (onim), ya'ni atoqli otning ko'rinishi va tiplaridir [4].

Abdulla Qahhor asarlari toponimlarini lingvopoetik tahlil qilishda "O'tmishdan ertaklar" qissasida keltirilgan joy nomlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asar yozuvchining bolaligi aks etgan avtobiografik qissa hisoblangani bois undagi deyarli barcha joy nomlari real toponimlar sanaladi. Yozuvchi qissada o'z bolaligi misolida o'sha davr odamlarining ijtimoiy hayoti va o'zi tenggi bolalarning qiyinchilikka to'la bolaligini aks ettirgan. Shu sababli qissadagi barcha real toponimlar asarning yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilgan. Jumladan, "*Mening bolaligim yillari Farg'ona vodiysining Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvaydi, Tolliq, Olqor, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on degan qishloqlarida o'tgan*" deb boshlanuvchi "O'tmishdan ertaklar" qissasining boshlanmasidayoq bunday joy nomlarining qo'llanishi yozuvchining asarning avtobiografik xarakterda ekanligini namoyon etgan. Farg'ona viloyatining Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvaydi, Tolliq, Olqor, Yulg'unzor, Oqqorg'on qishloqlarida Abdulla Qahhorning bolalik kezlari o'tgan. "O'tmishdan ertaklar" qissasidan bizga ma'lum bo'ladiki, yozuvchining bu qishloqlar bilan bog'liq achchiq xotiralar ham bor. Mana shu achchiq xotiralar Abdulla Qahhorning zehninga mazkur qishloq nomlari orqali o'rnatilib qolgan.

Tadqiqot metodologiyasi. V.M. Kalinkin[5], A.A. Fomin[6], E.N. Loskutova[7], M.V. Ponik[7] ning fikricha, "poetonim" atamasi badiiy matndagi ismlarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq aks ettirishi, bu yozuvchiga o'zining g'oyaviy va badiiy niyatini to'liq amalga oshirishga imkon berishi haqida turli fikrlar bildirishgan.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini lingvopoetika, stilistika, semantika va onomastika sohalariga oid nazariy qarashlar tashkil etadi. Maqolada Abdulla Qahhor asarlaridagi poetik toponimlarning badiiy-funksional mohiyatini ochib berish maqsadida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: Deskriptiv (tasviriy) metod asosida badiiy matnda uchraydigan toponimlar aniqlanib, ularning shakliy, semantik va stilistik xususiyatlari tavsiflab berildi. Toponimlarning badiiy matndagi mavqeyini, konnotativ ma'nosini, qahramon xarakteri va voqea rivojiga ta'sirini aniqlash maqsadida ular kontekstda kontekstual tahlil metodi yordamida o'rganildi. Toponimlarning semantik tarkibiy qismlari, ularning ma'no qatlamlari va assotsiativ maydoni lingvistik jihatdan komponent tahlil asosida tahlil qilindi. Poetik tahlil metodida toponimlarning obraz yaratishdagi roli, badiiy-estetik yuklamasi va yozuvchi uslubidagi o'rnini ochib berish uchun poetik struktura darajasida tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar mazmuniy, stilistik va lingvopoetik jihatdan umumlashtirilib, toponimlarning Qahhor poetikasidagi o'rniga oid ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokama. Qissada jami 65 ta toponimik birliklar qo'llangan. Ularni leksik-semantik jihatdan quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Kishi ismi asosida shakllangan joy nomlari: *Qorategin, Shohimardon, Mirtohir*.
2. Shaxs kasb-korini bildiruvchi so'zlardan shakllangan joy nomlari: *Degrezlik, Taroqchilik, Galabaqqollik*.
3. Obyekt uchun xarakterli bo'lgan belgi-xususiyatni ta'kidlovchi joy nomlari: *Oqqo'rg'on, Qo'shariq, Pastqo'riq, Teshiktosh, Ko'mir bozori, G'ishtko'prik*.

4. Qabila-urug' nomlari asosida shakllangan joy nomlari: *Naymancha*, *Qipchoqariq*.

Bundan tashqari, qissadagi real toponimlar asarning jonli va badiiy chiqishini ta'minlagan: "*Biz Ko'mir bozorida qanorlarda ko'mir ortilgan tuyalarni, undan nari har xil yaltiroq narsalarga to'la baqqollik do'konlarini tomosha qilib bordik; G'ishtko'prikning ikki tomonida zarang kosa tutib tilanayotgan pes-moxovlar, oldiga mayda tosh uyib rom ochayotgan folbinlarni oralab, ko'prikning u tomoniga o'tdik*" [2]. Parchadagi G'ishtko'prik va Ko'mir bozorining ta'rifi bilan bolalarning rohatijon yeyish holatlari uyg'unlikda tasvirlanishi yozuvchining o'ziga xos badiyatini namoyon qiladi. Shu o'rinda aytish kerakki, G'ishtko'prik shu nomdagi mahallaning nomi uchun asos bo'lgan: G'ishtko'prik – Qo'qon shahridagi mahalla. Mahalla shu yerdan oqib o'tadigan katta soy ustiga qurilgan ko'prik nomi bilan atalgan. Nomlanishiga ko'prikning qurilish materiali – g'ishtdan qilinganligi asos bo'lgan. Respublikamizda ko'prik nomlarining aholi turar joylariga nom bo'lib o'tishi keng tarqalgan hodisalardan. Mazkur matnda uchraydigan "G'ishtko'prik" toponimi faqat geografik manzilni bildirmaydi, balki u voqea rivojida muhim estetik va semantik yukka ega. Toponim atrofidagi ko'mir ortilgan tuyalar, yaltiroq buyumlar bilan to'la do'konlar, pes-moxovlar, rom ochayotgan folbinlar kabi tasvirlar G'ishtko'prikni hayotiy voqealar, turfa qatamlar jam bo'lgan, shahar muhitining o'ziga xos badiiy timsoli sifatida gavdalandiradi. G'ishtko'prik lingvopoetik birlik sifatida faqat nom emas, balki bolalik xotirasi, rang-barang hayot voqeliklari bilan boyitilgan obrazli makonga aylanadi.

Qissadagi *Boytako'prik* nomi ham ko'prik nomining aholi turar joylariga nom qilib berilishi natijasida hosil bo'lgan joy nomlaridan biri: "*G'ishtlik machit, Boytako'prikdan keladigan tanish-bilish ustalar va ularning shogirdlari tutab yonayotgan kattakon to'nka atrofiga tizilishgan, kitobxonlik bo'lmoqda edi*" [2]. Parchada keltirilgan Boytako'prik – Qo'qon shahridagi mahalla. Aslida mazkur toponim Boybo'tako'prik shaklida bo'lgan. Ko'prikni qurdirgan Boybo'ta ismi ko'prik nomi uchun asos bo'lgan bo'lsa, mazkur ko'prik nomi mahalla nomi uchun asos vazifani bajargan. Demak, antroponimdan drononim, drononimdan urbononim yasalgan.

Qadim zamonlarda qishloq, ko'cha yoki mahalla nomlari shu joyda istiqomat qiluvchi kishilarning kasb-kori va mashg'ul bo'lgan hunarlariga qarab nomlangan. Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasidagi aksariyat joy nomlari shu asosda shakllangan. Qissani o'qiyotgan kitobxon nomi tilga olingan mahalla yoki ko'cha nomidan bu yerda yashovchi aholining mashg'uloti haqida bilib oladi. Masalan, Galabaqqollik – Qo'qon shahridagi guzar nomi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da baqqol so'zining "mayda-chuyda ro'zg'or mollari va oziq-ovqat mahsulotlarini sotuvchi mayda savdogar", baqqollik so'zining esa "baqqol do'koni va o'shanday do'konlar joylashgan rasta" kabi izohlari keltirilgan [3]. Demak, Galabaqqollik – "bir necha baqqollik do'konlari bor joy" ma'nosini anglatadi: "*Haqiqatdan ertasiga, juma kuni o'sha hovliga ko'chdik. Hovli Mirtohir mahallasi bilan Galabaqqollik o'rtasidagi ko'chaning boshida ekan*" [2]. Bu toponim poetik jihatdan qaralganda, muallif tomonidan joy manzili orqali mahalla hayotining soddaligi, hayotiyliigi va tarixiy qatlamga egaligi aks ettirilgan.

Shu bilan birga Degrezlik Qo'qon shahridagi mahalla hisoblanadi. Ushbu turarjoyda yashovchi ko'pchilik aholi o'tmishda cho'yandan qishloq xo'jaligi va ro'zg'or buyumlari tayyorlash, chunonchi, omoch tishi, ketmon, belkurak yasash, shuningdek, qozon quyish bilan shug'ullanganlar. Mahallaga berilgan nom ana shu kasbga ishora qiladi. Degrez atamasi fors-tojikcha bo'lib, deg – qozon, rez – rehtan (quymoq) so'zlarining hozirgi o'zagidan tarkib topgan va "qozon quyuvchi" ma'nosini bildirishi haqida "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ma'lumot berilgan. Degrezlik esa "degrezlar yashaydigan yoki joylashgan mahalla, joy" ma'nosini bildiradi [3]. "*Ayam yig'ladi. – Siz urushga ketib qolsangiz biz nima qilamiz? – Men hech qayoqqa ketmayman, urush shu*

yerning o'zida, eshitmayapsanmi, shu o'n-o'n besh kun ichida bosmachi Xodabozorni bosdi. Baqachorsini bosdi, Degrezlikni bosdi..." [1]. Matndagi Degrezlik faqat joy nomi emas, balki o'zida tarix, kasb-hunar, urush fonidagi hayotiy dramatismni mujassam etgan lingvopoetik ifoda vositasidir. Ya'ni voqea sodir bo'layotgan makonni aniq belgilaydi; ikkinchidan, o'quvchini o'sha davrning ijtimoiy hayotiga, kasb-hunarlar asosidagi mahalliy tuzilishga olib kiradi; uchinchidan esa, bosqinchi kuchlar egallagan hududlar qatorida tilga olinib, matndagi xavotirli ruh, tahdidli kayfiyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida joy nomlari juda kam. Qissada bor-yo'g'i 8 ta toponim qo'llangan bo'lsa-da, ular yozuvchining badiiy maqsadini ochishga xizmat qiladi: *"Uchar avtomobil qochish uchun kerak bo'lmasa, Rahimjon aytmoqchi, odamni xo'rlaydigan, odamni nafasini bo'g'adigan urf-odatlarimizni bombardion qilish uchun kerak! Jek Londonning xayoliy bir hikoyasi bor edi shekilli, – dedi Anvar. – Hikoya qahramonlari xayoliy yo'llar bilan Amerikada kapitalizmni yiqitib, o'rniga sotsializm quradi. Lekin Amerika xalqi o'shanaqa xayoliy qurollarni o'ylab topguncha Rossiya xalqlari oddiy miltiq bilan kurashib kapitalizmni yiqitdi. Biz ham shu yo'ldan borib, avtomobilni uchar qiladigan bo'yoq topilmaguncha ro'para kelgan oddiy tayoqni ko'tarib jangga kirishimz osonroq!"* [1]

Bilamizki, Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida ikki oshiq – Anvar va Muhayyoning sevgisi qalamga olingan. Bu ikki yoshning sevgisiga qarshilik qilayotgan kimsalardan biri Anvarning ammasi Marg'uba bo'ladi. U Anvarni otasi Murod Alining vasiyatiga ko'ra eri Javlonning o'gay qizi Muattarga uylanishini xohlab Anvar va Muhayyoga ko'p yomon so'zlar aytib ularni xafa qiladi. Shu paytlarda Anvar ammasi Marg'ubadan nolib Muhayyoga "yerning tortishish kuchini kesadigan bo'yoq" o'ylab topilsa-yu, "Volga" bilan istalgan joylarda kezib yurilsa, deya orzu qilishini aytadi. Bu fikrlarni eshitib kulgan Muhayyoga Anvar uchar avtomobil, nafaqat Marg'uba ammasi, balki o'zbek xalqining odamni bo'g'adigan urf-odatlarini yo'q qilishga kerakligini tushuntiradi. Yozuvchi shu o'rinda Jek Londonning xayoliy qissasidagi Amerika va Rossiya nomlarini keltiradi.

"Amerika" ushbu matnda kapitalizm, texnika taraqqiyoti va xayoliy ixtirolar makoni sifatida tasvirlanadi. Bu toponim badiiy matnda real geografik hudud emas, balki kapitalistik jamiyat, fantastik texnika yaratadigan xalq, o'ta taraqqiyparvar jamiyat ramzi sifatida ishlatilgan. Jek Londonning "xayoliy qurollar" tasviri bilan bir qatorda "Amerika xalqi ... o'shanaqa xayoliy qurollarni o'ylab topguncha" degan jumla mavjud. Bu yerda "Amerika" fantastik darajadagi texnik tafakkur bilan bog'lanadi, haqiqat va xayolot o'rtasidagi kontrastni kuchaytiradi.

Amerika va Rossiya – joy nomlari asar voqealarida bevosita ishtirok etmaydi. Asarda Amerika va Rossiya poetik toponimlarni yozuvchi tilga olishi bilan ular haqida oldindan ma'lum tasavvurga ega bo'lgan kitobxon ularni yana bir bor ko'z oldiga keltirishga harakat qiladi hamda mazkur davrdagi Amerika, Rossiyadagi siyosiy jarayonlarni qahramon kechinmasi bilan bog'lashga harakat qilgan muallifning maqsadini anglab yetadi. Ayni davrda Rossiyada sotsializm g'oyalari ilgari surilayotgan edi. Bu xayoliy g'oyalar vaqt o'tib puch g'oyalar ekanligini tarix isbotladi. Amerika va Rossiya toponimlari badiiy matnda o'zaro g'oyaviy ziddiyatni aks ettiruvchi, falsafiy konnotatsiyalarga ega bo'lgan, badiiy obrazlarni teranlashtiruvchi lingvopoetik vositalar sifatida ishlatilgan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdulla Qahhor asarlarida uchraydigan toponimlar faqat geografik belgi sifatida xizmat qilmay, balki badiiy matnning mazmuniy va poetik qatlamlarini boyituvchi asosiy vosita sifatida faol ishlatiladi. Ular qahramonlarning xarakterini ochish, voqealar rivojini aks ettirish, milliy-madaniy muhitni shakllantirish hamda tarixiy xotirani jonlantirish jarayonida muhim rol

o'ynaydi. Toponimlarning konnotativ ma'nosi, stilistik vazifasi va matn kontekstidagi integratsiyasi adibning lingvopoetik mahoratini namoyon qiladi. Shu bilan birga, real va badiiy makonlarning uyg'unlashuvi Qahhor poetikasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi, o'zbek badiiy tilining boyligi va milliy koloritni ifodalash imkoniyatlarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Qahhor. Anor: Qissa va hikoyalar. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B. 44-45
2. A.Қаҳҳор. Ўтмишдан эртақлар (қисса). - Тошкент: Гафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 208.
3. Бегматов Э., Мадвалиев А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент, 2005-2008. – Б. 189-190.
4. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 10.
5. Калинин В.М. Поэтика онима. – Донецк, 1999. – С. 62.
6. Фомин А.А. Всегда ли литературная ономастика тождественна поэтической ономастике?// Вопросы ономастики, 2009. N7. – С. 62.
7. Лоскутова Е.Н. Суггестивное воздействие и лингвокультурологический потенциал поэтонимов (на материале произведений М.А. Шолохова): Дисс. канд. филол. наук: 10.02. – <http://www.dslib.net/jazyko-znanie/suggestivnoe-vozddejstvie-i-lingvokulturologicheskij-potencial-pojetonimov.html>.
8. Постмодернизм. Словарь терминов. <http://niv.ru/doc/dictionary/postmodernism-literature/index.htm>
9. Нуритдинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 59-60.
10. Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фанл. фалс. докт. (Phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 177 б.

SO‘ZLARNI SEMEMAGA BIRLASHTIRISHDA NUTQIY VA LEKSIKOGRAFIK OMILLARNING O‘RNI

Bobojonov Sharipboy Xudoshukirovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Til va adabiyot kafedrası mudiri

professor vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari nomzodi

sharifbobojonov994@gmail.com

ORCID 0009-0000-3203-8685

UDK 811.512.133

Annotatsiya. Maqolada semema va nutqiy ma'noning barqaror belgilari, ularning o'zaro dialektik munosabati masalasi qanchalik muhim bo'lsa, sememani tiklash (aniqlash) va uning jonli voqelanish holatlarini muayyanlashtirish ham uni aniqlashning muhim shartlari ekanligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, nutq jarayonida namoyon bo'lgan so'zlarning rang-barang nutqiy lug'aviy ma'nolari tahlilga tortiladi hamda ulardagi asliy va "begona" (boshqa hodisalarning tajallilari) jihatlar farqlanadi. Lug'aviy birlikning zotiy mohiyatiga daxldor bo'lmagan tajallilar e'tibordan soqit qilinib, faqat zotga aloqador hodisalar umumlashtiriladi va shu tarzda so'zning lisoniy mohiyatga daxldor jihatlari ochilib, uning lisoniy asosi – leksema sememasi tiklanadi. Ayrim sememalar nutqiy lug'aviy ma'no sifatida voqelansa, ba'zilarida lug'aviy ma'no sifatida ham, grammatik ma'no sifatida ham yuzaga chiqadi.

Tayanch so'zlar: semema, nutqiy ma'no, lisoniy birlik, nutqiy birlik, ma'no, leksema, so'z, mohiyat, munosabat, leksikografiya, paradigma, tahlil.

THE ROLE OF SPEECH AND LEXICOGRAPHIC FACTORS IN THE COMBINATION OF WORDS INTO SEMEMES

Abstract. The article shows that, as important as the issue of stable signs of sememe and speech meaning, their dialectical relationship, is, the restoration (definition) of sememe and the identification of the cases of its vivid realization are also important conditions for its

determination. Also, the diverse speech lexical meanings of words manifested in the speech process are analyzed, and the original and "alien" (allegations of other phenomena) aspects in them are distinguished. Allegations that are not related to the inherent essence of the lexical unit are ignored, and only phenomena related to the essence are generalized, and in this way the aspects related to the linguistic essence of the word are revealed, and its linguistic basis - the lexeme sememe - is restored. While some sememes occur as speech lexical meanings, in some they appear both as lexical meanings and as grammatical meanings.

Keywords: sememe, discourse meaning, linguistic unit, discourse unit, meaning, lexeme, word, essence, relationship, lexicography, paradigm, analysis.

Kirish. Semema va nutqiy ma'noning barqaror belgilari, ularning o'zaro dialektik munosabati masalasi qanchalik muhim bo'lsa, sememani tiklash (aniqlash) va uning jonli voqelanish holatlarini muayyanlashtirish ham uni aniqlashning muhim shartlaridan biridir.

Ma'lumki, ilmiy tahlil ilmiy bilishning xususiyliklarini o'rganuvchi ilk bosqichi bo'lib, u amaliy yoki nazariy aspektda qaysidir murakkab butunlikni, har xil narsalarni tashkil qiluvchi qismlarga va tomonlarga ajratishdir [1]. Gegal ta'biri bilan aytganda, ximik bir parcha go'sht ustida har xil operatsiyalar bajarib, uning vodorod, uglerod, kisloroddan tashkil topganligini aniqlaydi. Ammo bu go'shtning mohiyati degani emas. Bilishning ikkinchi bosqichi – umumlashtirishgina umumiylikni, mohiyatni aniqlashga tomon qo'yilgan dastlabki muhim qadamdir. Tahlil va umumlashtirishni o'zaro mustaqil, ilmiy bilishning magistrat chiziqlari sifatida qarash mumkin emas. Shuning uchun "avvalo tahlil, so'ngra umumlashtirish" yoki "avvalo umumlashtirish, so'ngra tahlil" tezislari tadqiqotchini noto'g'ri yo'lga boshlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tasniflash, tavsiflash, komponent tahlil, differensial-semantik hamda konseptual tahlil usullaridan foydalanildi. Mohiyatan xususiyliklarning rang-barangligi va son-sanoqsizligi shu darajadagi, agar tadqiqotchi ularni peshma-pesh umumlashtirmasa, birlashtirmasa va til vositalari bilan qayd qilmasa, fahmiy taassurotlar to'riga o'ralashib qolgan bo'lur edi. Umumiylikni aniqlash uchun esa har qanday o'tkinchi, uni qorishtiradigan, to'sib qo'yadigan hodisalardan aqliy yo'l bilan "ko'z yumishga" to'g'ri keladi.

Umumlashtirish bu o'xshash belgilarni shunchaki ajratish yoki qo'shish emas, balki narsalarning mohiyatiga kirib borish, harxilliklardagi yagonalikni ilg'ay olish, tasodifiyliklar tagidagi qonuniyatlarni idrok etishdir.

Umumlashtirishning mantiqiy vazifasi o'rganish manbaining tur va jins belgilarini bog'lash, tur va jins bog'liqligiga ishora qilish orqali "bosqichli mavhumlashtirishdir"[2].

Ko'rinadiki, nutqiy lug'aviy ma'nolarni umumlashtirish ham ularning zotiy mohiyatini ochishdagi muhim omildir. Biroq nutqiy ma'nolarni tiklash bilan tiklangan sememani baravarlashtirish, ularni bir tushunchaning turlicha nomlanishlari sifatida qarash to'g'ri emas.

Zero, nutqiy ma'nolarni umumlashtirish, ta'kidlanganidek, leksema mohiyatini aniqlashning bir usuli, bosqichi bo'lsa-da, asosiy mezon bo'lishga da'vo qila olmaydi.

Natijalar va muhokama. Sistemalogiya nazariyasida uqtirilishicha, asl mohiyat sistemada, unurning tizimdoshlari bilan o'zaro munosabatlarida oydinlashadi [3]. Demak, nutqiy ma'nolar asosida (lug'aviy mohiyat) yotar ekan va yaxlit tizim sifatida idrok etilar ekan, uning mohiyati bevosita o'zi mansub butunlikka hamda shu butunlikning tarkibidagi boshqa yondosh birliklarga (boshqa sememalar)ga munosabatida bilinadi. Masalan, [yuz] leksemasi kamida ikki butunlik tarkibiga kiradi.

Uni chizmada quyidagicha berish mumkin bo'ladi:

[Qo'l]
I
[bet]-[yuz]-[aft]-[chehra]-[jamol]-[oraz]
I
[bosh]

I
[quloq]
I
[ko'z]

Bir butunlikda [yuz] leksemasi paradigmadoshlari [bet], [aft], [chehra], [jamol], [oraz] leksemalari bo'lsa, ikkinchi butunlikda (qo'l), oyoq, bosh, ko'z, quloq leksemalari bilan bir tizimni hosil qilgan. Demak, bu leksemaning zotiy mohiyati birlikning har ikkala butunlik mohiyatiga hamda bu butunlik tarkibiga kiruvchi boshqa leksemalarga munosabatlarida ravshanlashadi.

Ana shu munosabatlar asosidagina leksema mohiyati ochiladi. Shuningdek, ana shu mohiyat (semema) tufayli leksemalar orasidagi munosabatlar vujudga keladi [4].

Leksema mohiyatini belgilashda uning rang-barang xossalarini umumlashtirishgagina emas, balki u mansub paradigmaning boshqa a'zolari bilan munosabatlariga asoslaniladi.

Lisoniy birlik sof "zotiylik" (substansiya) sifatida o'z xossalari va boshqa lisoniy birliklarga munosabatlaridan xoli holda yashamaydi. Zero, har bir predmet – bu nisbiy barqarorlikka ega bo'lgan xossalar birligidir [5]. Demak, lisoniy birlikning ichki zotiy mohiyati unda mujassamlashgan "ichkariga yo'nalgan" munosabatlardir. Biroq esda tutish lozimki, "ma'lum bir narsaning xossasi, uning boshqa narsalar bilan munosabatlarida hosil qilinmaydi, balki shu munosabatlar orqali aniqlanadi, namoyon bo'ladi, xolos" [6]. Masalan, magnitning tortishish xossasi uning o'zida mujassamlashgan, biroq u temir bilan munosabatlaridagina yuzaga chiqadi. Bunga V.V. Vinogradovning A.A.Potebnya grammatik shakl qo'llanishlari individualligi va barqarorligi haqidagi qarashlarining "grammatik belgilar va ma'nolar sifatidagi shaklning dialektik va dinamik butunligini tushunmaslik oqibati" [7] ekanligini ta'kidlab aytgan quyidagi metodologik ahamiyatli fikrlarini dalil qilib keltirish mumkin: "O'zining muayyan qo'llanishlaridan xoli holda so'z (leksema Sh.B) kishi ongida o'zining barcha ma'nolari bilan, yashirin imkoniyat xarakteridagi va zarur hollarda yuzaga "qalqib chiqish" xususiyatlari bilan yashaydi" [8]. F. de Sossyurning mashhur "til substansiya emas, balki forma (munosabatlar – Sh.B)dir" [9] iborasini esa mana shu munosabatlarning hal qiluvchi roliga urg'u berish deb tushunmoq lozim bo'ladi. Sossyur birliklar mohiyatining mavjudligini emas, balki uning namoyon bo'lishi, shu bilan birgalikda, aniqlanishi uchun ular mansub tizim va uni "tutib turuvchi" munosabatlar to'ring muhimligini birinchi o'ringa qo'yadi. Shu ma'noda, tilshunos S.Shaumyanning quyidagi fikrini keltirish o'rinli: "An'anaviy tilshunoslik uchun fonema, morfema, so'z va boshqa lisoniy birliklar muayyan muddat qiyofali unsurlardir, xolos. Struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan esa barcha lisoniy birliklar o'zlarini munosabatlarining kesishuv nuqtasi, boshqacha aytganda, munosabatlar tuguni sifatida namoyon qiladi" [10].

Aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, lug'aviy zotiylik mohiyati (semema)ni ochishda nutqiy ko'rinishlarni bosqichli mavhumlashtirish qanchalik muhim bo'lmasin, mohiyati, ya'ni sememasi tiklanayotgan leksemani o'zi mansub tizim doirasida kuzatish uning "tirik"ligini ta'minlovchi munosabatlarni oydinlashtirish belgisini zarracha bo'lsin, kuchsizlantira olmaydi. Zero, "mohiyat munosabatlidir, munosabat mohiyatlangandir" [11].

O'zining bevosita kuzatishda berilgan nutqiy ma'nolariga nisbatan umumiylik maqomida bo'lgan leksema unsur sifatida ma'lum bir tizim tarkibiga kirar ekan, bunda uning ushbu tizimgacha mavjud va shu tizim munosabatlari "to'ri"da namoyon bo'ladigan belgilarni farqlash lozim bo'ladi. Bunda esa butunlikning umumlashtirish natijasida tiklangan xossalari va tizimdoshlari bilan munosabatlarini kuzatish mahsuli bo'lgan sistem sifatleri farqlanadi. Bunday yondashuv birlikning bosqichli mavhumlashtirish natijasida

hosil qilingan belgilari uning tizimdagi boshqa unsurlar bilan qarama-qarshi qo'yish, ziddiyatlarini munosabatlarda kuzatish uchun zamin bo'lishini yana bir karra isbotlaydi.

Lisoniy hodisa (semema) ma'lum xossalari asosida boshqa lisoniy hodisa (semema) bilan munosabatga kirishsa (leksema turli xil paradigmalariga kirsa), va shu asosda, yangi qirralarini namoyon qilsa, bunda u o'zga mohiyat kasb etadimi? Bu, albatta, lug'aviy birlik kirishayotgan munosabatning turi va darajasi bilan bog'liq.

Agar leksema, o'z zotiy mohiyati, barqaror xossalari asosida boshqa lug'aviy birliklar bilan munosabatga kirishib, boshqa bir butunlikni tashkil etishda ishtirok etsa, bu butunlikning tarkibiy qismi sifatida o'zining asl zotiy mohiyatini to'ldiradi, bu yangi qirra birlikning zotiy mohiyati bilan xususiy-umumiy munosabatida bo'ladi.

Masalan, [qanot] leksemasining hosila ma'nolaridan biri ("havoda suzuvchi moslamalarning uchish vositasi") asosida deydik, [dvigatel], [parrak] kabi bo'lak asosida bir butunlik hosil qiladi. Bunda birlikning butunlikdagi belgilari barqarorlik tabiatiga ega bo'lib, bu mohiyati (sememasi) uning asl ("parrandalarning uchish a'zosi") mohiyatini to'ldiradi.

Shuningdek, [qanot] leksemasi ba'zan nutqiy ma'nosi asosida [farzand], [tayanch] birliklari tizimiga yaqinlashadi, ular bilan munosabatlarda tamoman yangi belgilarga ega bo'ladi. Biroq, bu belgilar uning zotiy mohiyatiga o'zgarish kiritmaydi, o'tkinchi xossalar sifatida qolaveradi.

Xulosa va takliflar. Demak, ma'lum bo'ladiki, umumlashtirishlar natijasida muayyanlashtirilgan sifatlar leksemaning barqaror paradigmaga kirishi uchun imkoniyatdir. Bu belgilar lug'aviy birlikning tizim hosil qiluvchi belgilari bo'lsa, munosabatlarda yuzaga chiqqan barqaror hosila belgilar tizimda hosil bo'luvchi belgilardir. Bugungi an'anaviy leksikologik manbalarda so'zning lug'aviy ma'no tarkibi turlicha talqin qilinadi. Bir leksemaning turlicha nutqiy "ko'rinishlari" alohida ma'nolar – sememalar sifatida qaraladi. Lisoniy va nutqiy hosila ma'nolar bir qatorga qo'yiladi va izohlanadi. Masalan, yuqorida aytilganidek, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da [o'tmoq] fe'lining 31 xil ma'nosi izohlanadi va ularning 3 tasi ko'chma ma'no sifatida qaralashini (buning o'zi ham ba'zi muammoli nuqtalarga ega va bu haqda quyida alohida to'xtalamiz) e'tibordan soqit qilsak, ma'nolardagi 28 tasi asosiy, to'g'ri ma'nolar sifatida qaraladi. Diqqat qiling: 1. Sinash uchun berilgan savollarga javob bermoq, biror soha bo'yicha yetarli yoki yuqori darajada ekanini isbotlamoq. Imtihondan o'tmoq. 2. Biror narsani aniqlash, belgilash uchun o'tkazilgan tekshirishda ijobiy natijaga erishmoq. Mandat komissiyasidan o'tmoq. 3. Biror lavozimga saylanmoq. Vohidov aytgan nomzod o'tdi (P. Qodirov). Ko'rindiki, [o'tmoq] fe'lining har bir gapdagi ma'nosida "sinash", "ijobiy natijaga erishmoq" semalari (asosiy semalar) takrorlanadi. Ular xususiy hollar - sinashning turlari bilan farqlanadi. Bu ma'nolarning nutqiy xarakterda ekanligi sinovlar turining o'zgarishi natijasida ma'nolarning turlicha ko'rinishlar kasb etishi bilan belgilanadi. Demak, mazkur misollarni ancha davom ettirish mumkin.

Lug'aviy birlikning ayrim o'tkinchi xossalari na tizim hosil qiluvchi, na tizimda hosil qilinuvchi belgi sanaladi. Zero, tizim barqarorlik bilan tizimdir. Lug'aviy birlik ma'noviy mohiyatiga zotiy yondashilganda, bu mohiyat mana shu ikki xil sifat va munosabatlarning barqaror yig'indisi sifatida tahlil qilinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'chqortoyev I. F. de Sossyurning lingvistik konsepsiyasi. Nazariya va metod masalalari. ToshDU qoshidagi malaka oshirish fakulteti tinglovchilari uchun qo'llanma. ToshDU. Toshkent, 1976. -38 b.

2. Qilichev B. O'zbek tilida partonimiya: Filol.fanlari nomz. ...diss.avtoref. –Toshkent, 1997. -20 b.

3. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. -T.: Fan. 1982. -87 b.

4. Qurbonova M. O'zbek tilshunosligida formal-funksional yondashuv va sodda gap qurilishi talqini: Filol. fanlari d-ri...diss. avtoref. –T.: 2000. -48 b.

5. G'iyosov S. O'zbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. 1986. № 2. B. 28-33.
6. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalişi. –T.: O'qituvchi. 1989. -109 b.
7. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi. 1974. -308 b.
8. Hojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'atida fe'llarning berilişi // O'zbek tili va adabiyoti masalalari, 1962. №4. –B. 27-32.
9. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi. 1985.
10. Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. –T.: Sharq. 2001. -336 b.
11. Tursunov U. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun. 3-nashri. –T.: O'zbekiston. 1992. -399 b.

MAKTAB TA'LIMIGA OID TERMINLARNI O'RGANILISHI VA UNI TADQIQ ETISHGA DOIR

Jabborov Xo'jamurod Jabborovich

Qarshi DU professori, f.f.d.

xojamurod@list.ru

ORCID 0009-0007-25-1391

UDK 636-413-164.(045)

Annotatsiya. Yangi O'zbekistonning hozirgi jadal rivojlanish bosqichidagi umumiy o'rta ta'lim tizimi va uning mazmunini modernizatsiyalash va tubdan isloh qilish, o'qitish va o'rgatishning sifati, mazmuni va samaradorligini oshirish maktab ta'limi tizimini tashkil etishdagi innovatsion jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda bu jarayonda zamonaviy maktab ta'limiga oid terminlarni o'rganish ham dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda bu sohaga oid terminlar majmuini tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish, izohli lugatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab ta'limiga oid terminlarning shakllanishi, taraqqiyot manbalari, leksik-semantik xususiyatlari til ilmi nuqtayi nazaridan o'rganish, lug'aviy ma'nosi va mazmunini to'g'ri anglab yetish, bu sohada terminologik, izohli, bir va ko'p tili terminologik lug'atlar tuzishni davrni o'zi talab etmoqda. Mazkur maqolada o'zbek tili maktab ta'lim tizimi terminlarining o'rganilishining zarurati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, o'zbek, o'zbek tili, maktab, o'qituvchi, o'quvchi, o'rta, umumiy, ta'lim, tillar, tizim, termin, o'rganmoq.

ON THE STUDY AND RESEARCH OF TERMS RELATED TO SCHOOL EDUCATION

Annotation. The modernization and comprehensive reform of the general secondary education system in the current stage of rapid development of New Uzbekistan, as well as the improvement of the quality, content, and effectiveness of teaching and learning, are directly connected with innovative processes in organizing the school education system. Today, one of the pressing issues in this process is the study of terms related to modern school education. From the linguistic perspective, the study and compilation of explanatory dictionaries of terminology in this field are of great importance. The formation, sources of development, and lexical-semantic features of school education terms should be examined from a linguistic point of view to ensure a proper understanding of their lexical meanings and content. This, in turn, necessitates the creation of terminological, explanatory, and mono- and multilingual dictionaries. The present article discusses the necessity of studying the terminology of the school education system in the Uzbek language.

Keywords: Uzbekistan, Uzbek, Uzbek language, school, teacher, student, secondary, general, education, languages, system, term, to study

Kirish. Hozirgi paytda Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-ma'naviy, ta'limiy-tadrisiy infratuzilmasi va poydevorining asosini ta'lim tizimi tashkil etadi. Respublikamizda xalq ta'limiga qarashli maktab ta'lim tizimining doimiy rivojlanishi, xususan, xususiy bog'chalar, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining yangidan tashkil etilishi, ilmiy-texnik inqilobning hozirgi bosqichi ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu ta'lim sohasidagi islohotlarni yanada keng miqyosda amalga oshirishni talab qiladi. E'tibor bering, inson faoliyatining ushbu sohasini isloh qilish jarayoni deyarli uzluksiz davom etmoqda: tizimning turli qismlarining tuzilishi va tashkil etilishida ma'lum o'zgarishlar kiritilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim tizimi rivojlanishining ma'lum bir bosqichida tub islohotlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Bugungi kunda bunday o'zgarishlar natijasida ta'lim sohasiga ko'plab terminlar o'zlashmoqda. Shu bois o'zbek tilshunosligida, xususan, o'zbek terminologiyasida har xil terminologik sistemalarni ya'ni soha terminologiyasini o'rganish muammolari birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon esa O'zbekistonda istiqloq davri milliy til talablaridan kelib chiqqan holda ona tilining rolini oshirish, jamiyatda o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib, o'sib borayotganligi bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, bunday qiziqishning o'sib borayotganligi maktab ta'lim tizimining quyi bosqichida yoshlarni barkamol avlod sifatida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va o'qitishga, yuqori bosqichida esa yuqori malakali kadrlar etib yetishtirishga bo'lgan talab va ehtiyojdan kelib chiqmoqda. Bunday talab va ehtiyojlarni qondirish uchun, albatta, bu sohada qo'llaniladigan terminlarning ma'nolari o'rganish zarurati mavjud.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Maqolada jahon tilshunosligida maktab ta'limi terminologiyasi S. I. Zavrajnova, T. I. Nurushevalarning ingliz tili leksikasida maktab ishlarining sistem tahlili, I. Kochegarovaning Angliya maktab ishlari leksikasining lingvistik tarqalishi va uni sharhlash, A. Nusenbaum, S. Majarovalarning ba'zi bir ingliz pedagogik terminlari, P. V. Sarevning ingliz maktab ta'limi terminologiyasi haqidagi nomzodlik ishlari va maqolalari nashr etilgan.

O'zbek tilshunosligida terminologiya masalalarini o'rganishda E. Begmatov, X. Dadabayev, O. Usmonov, Z. Hamidov, R. Doniyorov, N. Qosimov, N. Usmonov, X. Jabborov kabi tilshunoslar katta hissa qo'shishdi. Maktabgacha va boshlang'ich sinflarda bolalar va o'quvchilar nutqini o'stirish umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirish bo'yicha B. Xodjayev, Z. Rahmatova, Sh. Nurullayevalar, mustaqillik yillarida O'zbekistonda universitet ta'limining shakllanishi va rivojlanishi: tajriba va muammolar mavzularida D. Vasiyeva kabi olimlar pedagogik, lingvistik yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borishgan. Ammo o'zbek tili maktab ta'lim tizimidagi terminlarning leksik-semantik, yasali va semantik-sintaktik xususiyatlari hozirgacha masus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tahlil metodolouiyasi. Maqolada maktab ta'limi tizimiga oid terminlarning paydo bo'lishi, shakllanishi, taraqqiyot manbalari, yozma manbalarda zikrlanishi, tarixiy va zamonaviy maktab ta'limi bilan bog'liq madrasa va maktab, mudarris va o'qituvchi kabi terminlarning lingvistik tahlilini amalga oshirish, ulardagi bu soha til materiallarini tarixiy-qiyosiy aspektida tadqiq etishni kun tartibiga qo'yish zarurati yoritilgan. O'zbek tilining maktab ta'lim tizimi terminologiyasini tadqiq etishda shu sohaning maxsus terminlarini o'rganish zarurligi qayd etilganki, ularni diaxron va sinxron metodda tahlil etish yaxshi natijalar berishi bayon qilingan Bundan shunday xulosaga kelish mumkin: hozirgi o'zbek tili terminologiyasida maxsus bir terminologik sistema – maktab ta'limiga oid terminologik sistema yuzaga kelgan va u amaliyotda qo'llanilmoqda. Bu soha terminlarining lingvistik xususiyatlarini o'rganilishi tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Har bir milliy til o'zining ilmiy terminologik sistemalarini yaragadi. Ana shunday sistemalardan biri o'zbek tilining maktab ta'limiga oid terminologiyasidir. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, o'qitish ishlari kadimdan "shakllanib kelgan, binobarin, ayrim lek-semalar termin sifatida ishlatilgan bo'lsa-da, zamonaviy maktab ta'limi hamda uning hozirgi ko'rinishidagi terminologiyasi o'zbeklar hayotida XX asr boshlaridan keyin yuzaga keldi. Demak, maktab ta'limini maxsus terminlarsiz tasavvur qilib bulmaydi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin: hozirgi o'zbek tili terminologiyasida maxsus bir terminologik sistema – maktab ta'limiga oid terminologik sistema yuzaga kelgan va u amaliyotda qo'llanilmoqda.

O'zbekistonning ta'lim tizimi, xususan, maktab ta'limi so'nggi o'ttiz besh yil ichida butunlay o'zgarib bormoqda. O'zbekiston respublikasida 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim" to'g'risidagi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" barcha umumta'lim maktablari va maktab ta'limda o'rganilishi kerak bo'lgan fanlar, o'quv dasturlari va dasturlarning doirasini belgilaydigan umumiy ta'limning milliy standarti yaratilishiga zamin yaratdi. O'zbekiston respublikasida ta'lim tizimi markazlashtirildi. Bu markazda o'quv dasturlarini tuzildi, yangi darsliklar yaratildi. Shuning uchun bunday islohotlarni inqilobiy o'zgarishlar deb atash mumkin. Ta'lim sohasidagi yana bir muhim

o'zgarish - bu ota-onalarning o'quvchilar jarayoniga va o'quv sharoitlariga ta'sirining sezilarli darajada oshishi bo'ldi.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy-ma'naviy, ta'limiy va tarbiyaviy, siyosiy-huquqiy tizimlaridagi islohotlar, ishlab chiqarishning jadallik bilan rivojlanishi tilning terminologik tizimiga ham ta'sir etadi. Bu esa turli sohaga oid ko'plab terminlarning sonini bir tildan ikkinchi bir tilga o'zlashishiga sabab bo'ladi. Bu holat shu sohada faoliyat yuritayotgan insonlardan o'z kasbiga oid termin va tushunchalar haqida to'liq va aniq ma'lumotga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Shu sababli ham o'zbek tili maktabiy ta'limi tizimi terminologiyasida sodda, qo'shma, birikmali terminlar va ularning komponentlari o'rtasidagi semantik-sintaktik munosabatlarni o'rganishni davrning o'zi talab etmoqda. Mazkur maqolada o'zbek tilida maktab ta'lim tizimiga oid terminlarning o'rganilishi haqida so'z yuritamiz.

Jahon tilshunosligida bizning mavzumizga yondosh, ya'ni maktab ta'limi terminologiyasi [Zavrajnova, Nurusheva, 1986: 79-92] [Kochegarova, 1984: 13], [Nusenbaum, Majarova: 1965: 226-238], [Oshepkova, 1990: 80-84], [Sarev, 1968: 79-84] lar tomonidan olib borilgan. O'zbek tilshunosligida terminologiya masalalari [X. Dadabayev, 2016: 4-13], [O. Usmonov, Z. Hamidov, 1981: 56-63], [R. Doniyorov, 1977: 69-87], [N. Usmonov, 1994: 23], [Qosimov, 1985: 124] kabi tilshunoslar katta hissa qo'shishdi. Ammo o'zbek tili maktab ta'lim tizimiga oid terminlar hozirgacha masus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Mustaqillik davrida ayrim-ayrim sohalarning boshqa sohalar bilan integratsiyalashuvi jarayoni yuz berib, bir soha terminologiyasi tarkibida bir necha soha uchun mushtarak bo'lgan terminlarning paydo bo'lishi tabiiy hol bo'lsa, maktabgacha va maktab ta'limi sohasining ayrimlarida yangi islohotlarning olib kirilishi ta'sirida mazkur sohaning tarmoqlashuvi yangi fanlarni yuzaga keltirib, shu fanlarga tegishli tushunchalarning nomi sifatida yangi terminologik sistemalarni ham yuzaga keltirmoqda. Boshqa bir soha terminologiyasining vaqt e'tibori bilan taraqqiy etishi ta'sirida shu soha terminologiyasi ham boyib bormoqda va ularni o'rganish ehtiyoji sezilmoqda. Ayniqsa, o'zbek tilidagi maktab ta'lim tizimiga oid terminlarning lingvistik tahlilini amalga oshirish, ulardagi bu soha til materiallarini tarixiy-qiyosiy aspektida tadqiq etishni kun tartibiga qo'ymoqda. Shunday sohalar terminologiyalarida biri - o'zbek tilining maktab ta'lim tizimiga oid terminologiyasi tadqiqidir.

O'zbek tilida maktab ta'lim terminologiyasining shakllanish manbalarini aniqlash, taraqqiyot bosqichlarni belgilash, o'zlashish omillari va yasali xususiyatlarini o'rganish asosida tasniflash, tub, yasama, birikma terminlarning paydo bo'lishi, shakllanishi, shuningdek, maktab ta'lim tizimiga oid terminlar tarkibida mavjud sinonimiya, omonimiya polisemiya hodisalarini tahlil etish, umuman, bu soha terminologiyasini tartibga solish yuzasidan tavsiyalar berish ishning maqsad va vazifalari doirasiga qiradi.

O'zbek tilidagi maktab ta'lim tizimi terminologiyasini yozma tarixiy manbalar, ta'lim va tarbiyaga oid ilmiy va ommaviy adabiyotlar vositasida o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu soha terminologiyasi terminlarga ancha boy: alifbe//alifbo, dars, darslik, daftar, imtihon, boshlang'ich sinf, bo'r, vazifa, a'lo, a'lochi, baho, besh, bilimdon, qalam, avtoruchka, adab, maktab, direktor, kutubxonachi, o'quvchi, muallim, muallima, ustoz, o'qituvchi, dars, saboq, maktab, o'qish, o'rgatish, ilm olish, sinfxona, sinf rahbari, o'quv dasturi, fan dasturi, diktant, insho, bayon kabi.

O'zbek tili maktab ta'lim tizimi terminologiyasida tub terminlarga nisbatan ikki va uch komponentli birikmali terminlar katta miqdorni tashkil etadi: Masalan: o'qishga borish, sinfga kirish, ta'lim olish, maktab bog'i, o'quv maskani, kitob-bilim manbai, mudarris, maktab ta'limi muassasalari, saboq olish, dars tayyorlash, maktab partasi, eski maktab, maktab ta'limidan keyingi ta'lim, o'quvchi kundaligi, daftar tekshirish, uyga vazifa va shu kabilar.

Xullas, umumiy o'rta ta'limga oid terminlarga yuqorida ko'rsatilgan terminlardan tashqari quyidagi tub va birikmali terminlarni ham kiritish mumkin: tarbiya - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

Pedagog-bola yetaklovchi. Pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanuvchi, shu sog'a bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs.

Umumiy o'rta ta'lim – bu ta'lim turi 1-sinfdan 11 sinfgacha bo'lgan ta'lim olish davrini o'z ichiga oladi. Umumiy o'rta ta'lim quyidagi davrlarga bo'linadi: boshlang'ich ta'lim – 1-4-sinf; tayanch o'rta ta'lim – 5-9-sinf; o'rta ta'lim – 10-11-sinf.

Davlat ta'lim muassasasi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa; davlat ta'lim standartlari – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui; davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar; malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi; mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi.

Yuqorida keltirilgan so'z va birikmalar genetik jihatdan arab, fors-tojik, lotin, rus va o'zbek tillarga mansub. Ba'zilar umumiste'molda faol qo'llanadi. Tarixiy, pedagogik asarlarda qayd qilingan. Qadimiy ta'lim va tarbiyaga oid manbalar tarkibida saqlanib qolgan.

O'zbek tilida maktab ta'lim tizimiga oid terminlarni o'rganishda ko'p komponentli so'z birikmalarining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, yaqin vaqtgacha asosan texnik va tabiiy fanlar terminologiyasini tahlil qilish doirasida mavjud bo'lgan terminologik tizim to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni to'ldiradigan gumanitar bilimlar va faoliyat sohalari, xususan, o'zbek tilidagi ta'lim tizimi terminologiyasini har tomonlama o'rganish zarurati bilan belgilanadi.

O'zbek tilida ta'lim tizimiga oid termin va birikmali terminlarni o'rganish zarurati tilshunoslikning terminologiyani tartibga solish va soddalashtirish, lug'atlar tuzish, chet tillarini o'qitishning turli muammolarini hal qilish va yetarli tarjima masalalarini hal etish kabi amaliy vazifalari bilan ham bog'liqdir.

Ushbu tadqiqot ishida o'zbek tili maktab ta'lim tizimidagi terminlar va so'z birikmalari tarkibiy qismlari o'rtasidagi semantik-sintaktik munosabatlarni aniqlash va ushbu munosabatlarning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni belgilashdan iborat. Ishning asosiy maqsadi o'zbek tili maktab ta'lim tizimining terminologiyasini to'plash, kartotekalashtirish, sistemaga solish, mavzuviy guruhlariga ajratib tahlil etish, terminologik so'z birikmalari tarkibiy xususiyatlarini aniqlab chiqish, ular o'rtasidagi semantik-sintaktik munosabatlarni tahlil qilish, ularning shakllantirishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash kabi masalalardir.

Xulosa va takliflar. O'zbek tili maktab ta'limi tizimiga oid terminlarni tadqiq etish va bu soha terminologiyasiga murojaat qilish o'z vaqtida yangi tushunchalar va terminlarning ma'nolarini aniqlashga, ta'lim tizimi terminologik lug'atini yaratishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, maktab ta'limiga oid turli xil terminlarni jamlagan izohli va terminologik lug'atlari tuzish imkonini beradi. Tuzilgan lug'atlardagi terminlarni o'rganish va kuzatish bizga ta'lim tizimida jamiyatning tilga ta'sirini, shuningdek, ularda yuzaga keladigan til jarayonlarini, umumiy adabiy tilning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni tahlil qilish imkonini beradi, chunki izohli va terminologik lug'atlar bu tilda sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlarni qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://englishlive.ef.com/blog/language-lab/manu-words-english-language>.
2. Завражнова С.И., Нурушева Т.И. Системный анализ английской лексики школьного дела // Семантические особенности и функции слов и словосочетаний в английском языке. – М., 1986. – с. 79-92.

3. Кочегарова Л.И. Лингвострановедческое описание лексики школьного дела Англии: Автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 1984. – 13 с.
4. Нусенбаум А., Мажарова С. Некоторые английские педагогические термины (в Англии и США) // Язык и стиль. – М., 1965. – с. 226-238.
5. Ощепкова В.В. Некоторые англо-американские параллели ключевых понятий, относящихся к системе образования // Лингвострановедческое описание лексики английского языка. – М., 1983. – с. 42-48.
6. Ощепкова В.В. Педагогическая терминология в пяти странах английского языка // Иностранные языки в школе. – № 1. – М., 1990. – с. 80-84.
7. Царев П.В. Терминология английского школьного образования // Иностранные языки в школе. – № 3. – М., 1968. – с. 79-84.
8. Дадабоев Х. Старотюркская дипломатическая терминология в XI-XIV вв. Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Ташкент: Фан, 1994. – С.4-13.
9. Усмонов О., Хамидов З. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. - Тошкент: Фан, 1981, 56-59
10. Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фан. номз. Автореферати. Тошкент, 1994.
11. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. Тошкент: Фан, 1977
12. Қосимов Н. Ўзбек тили илмий –техникавий терминологияси масалалари. Тошкент: Фан, 1985.

O‘ZBEK TILIDA LEKSIK VARIANTDOSH BIRLIKLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL ROLI

Bazarova Dildor Baxronovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası dotsenti

bazarova.dildor@gmail.com

ORCID 0009-0005-6224-6545

UDK 81’367:81’373:81’42(575.1)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi leksik variantdosh birliklarning lingvistik xususiyatlari, ularni belgilovchi mezonlar va funksional roli tizimli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqotda variantdosh birliklarning denotativ va konnotativ qatlamdagi farqlari, grammatik mosligi, morfemik va etimologik asoslari, shuningdek fonetik farqlanishlari yoritildi. Maqola natijalari shuni ko‘rsatadiki, dominant shakl til normativ tizimida markaziy o‘rin tutadi, passiv variantlar esa nutqning stilistik rangdorligini ta‘minlab, dialektal va badiiy matnlarda faol qo‘llaniladi. Leksik variantlar tilning tabiiy evolyutsiyasi, kommunikativ samaradorligi va ijtimoiy kontekstga moslashuvchanligini aks ettiradi. Tadqiqot shuningdek, variantdosh birliklarni elektron bazaga kiritish, ularning stilistik va ekspressiv funksiyalarini chuqur tahlil qilish hamda o‘quv jarayonida qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: variantdosh birlik, leksik variativlik, dominant shakl, denotativ va konnotativ ma‘no, fonetik farqlanish, morfemik tuzilma, til me‘yori.

LINGUISTIC FEATURES AND FUNCTIONAL ROLE OF LEXICAL VARIANT UNITS IN UZBEK LANGUAGE

Abstract. This article provides a systematic analysis of the linguistic features, defining criteria, and functional roles of lexical variant units in the Uzbek language. The study examines the differences between variants at the denotative and connotative levels, their grammatical compatibility, morphological and etymological bases, as well as phonetic divergences. The findings demonstrate that the dominant form occupies a central position within the normative system of the language, while passive variants contribute to the stylistic richness of speech and are actively used in dialectal and literary texts. Lexical variants reflect the natural evolution of the language, its communicative efficiency, and its adaptability to social contexts. The research also offers scientific and practical recommendations regarding the inclusion of variant units in electronic databases, the in-depth analysis of their stylistic and expressive functions, and their application in educational processes.

Keywords: lexical variant, lexical variability, dominant form, denotative and connotative meaning, phonetic divergence, morphological structure, language norm.

Kirish. Til tizimi o'z mohiyatiga ko'ra dinamik, ko'p qavatli va doimo taraqqiyotda bo'ladigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Ushbu tizimda variativlik, xususan, leksik sathdagi variantdoshlik doimiy ravishda yuzaga kelib turadigan tabiiy jarayonlardan biridir. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, kommunikativ ehtiyojlarning yangilanishi tilning leksik tarkibiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham variantdosh birliklarning faol yoki passiv muomalaga kirishi yoki undan chiqish jarayoni me'yoriy tizim, talaffuz an'analari, stilistik talablar va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur maqolada variantdosh birliklarning lisoniy xususiyatlari, ularni belgilovchi mezonlar, dominant shaklning tanlanish mexanizmi hamda konnotativ va grammatik qatlamlarda kuzatiladigan farqlanishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning adabiy til me'yorlaridagi o'rni va funksional imkoniyatlari zamonaviy lingvistika yondashuvlari asosida yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy izlanishlarga xos bo'lgan kompleks yondashuvlar qo'llanildi. Xususan, materiallarni chuqur tahlil qilish jarayonida taqqoslash, qiyosiy tavsiflash, tasniflash va izohlash metodlari uyg'un tarzda tatbiq etildi.

Natijalar va muhokama. Til doimo ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uyg'un holda rivojlanib borar ekan, uning tabiiy taraqqiyoti uzluksiz o'zgarishlar, yangilanishlar va muqobil shakllarning paydo bo'lishi bilan kechadi, shu bois ayni bir ma'no yoki vazifani ifodalovchi turli ko'rinishlarning til tizimida mavjud bo'lishi tabiiy hodisa sanaladi. So'z variantlarini aniqlashda eng asosiy va birlamchi mezon — ularning leksik ma'nosining to'liq mos kelishidir. Har qanday variantdosh birlik, avvalo, bir ma'no doirasida shakllangan bo'lishi, ya'ni ma'nodoshlik emas, balki ma'no barqarorligini namoyon etishi lozim. Chunki aynan ma'no barqarorligi variantni sinonimdan, fonetik almashinishni esa leksik farqlanishdan ajratib turadi.

Leksik ma'noning bir xil bo'lishi bilan bir qatorda, variantlar erkin so'z birikmalarida o'zaro o'rin almashtirish (substitutsiya) imkoniyatiga ega bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar ikki shakl nutq jarayonida mazmunni o'zgartirmagan holda bir xil kontekstlarda qo'llana olsa, ular bir so'zning variantdosh shakllari sifatida baholanadi. Masalan, ayrim fonetik yoki morfologik tafovutlarga ega shakllar o'zaro sinonimik munosabatga emas, aynan variantdosh munosabatga kiradi, chunki ular til tizimida bir so'zning turli ko'rinishlari sifatida yashaydi [1,8].

Bunday shakllar fonetik ko'rinishlar, leksik juftliklar yoki grammatik konstruktsiyalar tarzida namoyon bo'lib, ularning mavjudligi tilning rivojlanuvchanligi, ijtimoiy jarayonlarga moslashuvchanligi va funksional imkoniyatlarining kengligidan dalolat beradi. Jamiyat taraqqiyoti yangi talablarni yuzaga keltirar ekan, ayrim variantlar asta-sekin eskirgan qatlamga o'tib boradi, ba'zilar esa so'zlashuv uslubiga xosligi tufayli adabiy muomaladan cheklanadi, bundan tashqari, talaffuz me'yorlariga mos kelmaslik yoki madaniy-lisoniy talablarni qondirmaslik ham ularning passivlashuviga olib keladi. Ana shunday murakkab jarayonda dominant birlikning mavqeyi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u me'yoriy tizimning barqarorligini ta'minlab, boshqa variantlarning faol yoki passiv qatlamga ajralishida mezon vazifasini o'taydi. Dominanta shakl adabiy tilning fonetik, grammatik va stilistik me'yorlariga mosligi, kommunikativ qulayligi va funksional samaradorligi bilan ajralib turadi. Me'yoriy tizim aynan shunday shaklni "adabiy me'yor" sifatida tanlaydi va lisoniy tajribada mustahkamlaydi. Tilning barcha sathlarida variativlik kuzatiladi, biroq leksik sathdagi variantlar o'ziga xos semantik, stilistik va kommunikativ yuklamasi bilan ajralib turadi. Leksik variantlar ko'pincha sinonimlar bilan tenglashtiriladi, holbuki ularning lingvistik tabiati va kommunikativ roli

sezilarli darajada farq qiladi. Ammo ular orasidagi farq shundaki:

- ularning denotativ ma’nosi o’zgarmaydi;
- shakliy-fonetik farq mavjud bo’ladi;
- ular til tizimida parallel nom sifatida yashaydi;
- konnotativ bo’yoqdorlikda farq mavjud.

O’zbek tilshunosligida bu masala Sh. Rahmatullayev[2], A.Boboyeva[3], U.Usmonova[4], D.Nabiyeva[5], K.Usmonov[6], R.Shukurov[7, 8] va A.Qazaqbayeva [9] tomonidan qisman yoritilgan bo’lsa-da, leksik variantlarning uslubiy qo’llanilishi hanz yetarlicha tizimli tadqiq qilinmagan. Variantdosh birliklarni ilmiy tavsiflash uchun quyidagi mezonlar muhim metodik asos bo’ladi:

Umumiy denotativ ma’no. Variantlar bitta predmet yoki hodisani nomlaydi. Bu ularni sinonimiyaning boshqa ko’rinishlaridan farqlaydi. Shu bilan birga, denotativ ma’noni umumiy leksik ma’no bilan bir xil talqin qilish to’g’ri emas. Chunki ifoda bo’yoqlari farq qilishi mumkin. Masalan: *kabutar* — kitobiy uslub, *kaptar* — so’zlashuv uslubi. Bunday farqlanish o’zbek tilidagi leksik variantdosh birliklarning konnotativ (ekspressiv-uslubiy) qatlamiga taalluqlidir. Ya’ni, har ikki shakl bir xil denotativ ma’noni – “bir xil turdagi qush”ni anglatadi-da, ularning qo’llanish maydoni, uslubiy bo’yoqdorligi va nutq jarayonidagi funksional yuklamasi turlicha namoyon bo’ladi.

Umumiy grammatik ma’no. Variantlar bir xil grammatik kategoriya doirasida bo’ladi, biroq to’liq grammatik mutanosiblik shart emas. Masalan:

podsho → *podshosi* (tovush orttirish bilan egalik shakli olinadi),

podshoh → bunday shakl grammatik jihatdan hosil bo’lmaydi.

Bu holat variantlarning grammatik ko’rinishi turlicha bo’lishi mumkinligini ko’rsatadi.

Bir xil morfemik tuzilma. Variantlar bir xil asos va qo’shimchalar tizimi asosida tashkil topadi (*ajdarho*— *ajdar* — *ajdaho*, *masjid* — *machit*, *hiylagar*-*hiylakor*, *ma’nili*-*ma’noli*, *iymonsiz*-*imonsiz*).

Masalan: *Machit-masjid*.

Machit – (so’zlashuv tilida) aynan masjid.

Odamlarni *machit* namozxon qilganmi, namozxon odamlar *machit* solganmi? (A. Qahhor, Qo’shchinor chiroqlari)

Masjid – (sajda qilinadigan, namoz o’qiladigan joy)

Mahalla *masjidida* xufton azoni aytili, shundan biroz o’tib Ra’nolar darvozasi ham g’iqillab ochildi (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) [10.38]

Etimologik ildizning umumiylii. Etimologik birlik tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida yuz bergan fonetik o’zgarishlar, morfologik moslashuvlar, dialektal ta’sirlar, shuningdek, boshqa tillar bilan aloqa natijasida ro’y bergan almashinuvlar bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Shu sababli leksik variantlarning kelib chiqishini o’rganishda nafaqat ularning zamonaviy shakli, balki qadimgi yodgorliklardagi ko’rinishlari, tarixiy fonetik jarayonlar va leksik qatlamlarning o’zgarish dinamikasi ham inobatga olinadi. Etimologik ildizning umumiylii variantdosh birliklarning bir-biriga semantik jihatdan yaqin bo’lishini, ko’p hollarda sinonimik munosabatga ega bo’lishini, ammo ayni paytda bir ma’noni ifodalovchi turlicha shakllar sifatida yashashini ta’minlaydi. Bu mezon variantlarning tasnifida asosiy tamoyil bo’lib xizmat qiladi, chunki u tilning tarixiy rivoji davomida yuzaga kelgan shakl farqlari ortida bir yagona o’zagi mavjudligini ilmiy asoslaydi.

Fonetik farqlanish. Tillarda fonetik darajadagi tafovutlar, ya’ni fonemalarning almashinuvi, urg’uning o’zgarishi yoki talaffuz variantlarining mavjudligi, odatda, ma’noga putur yetkazmaydigan, lekin nutqning tovush tuzilishini boyituvchi hodisalardir. Bunday farqlanishlar fonemaning **varianti** sifatida namoyon bo’lishiga olib keladi. Fonema tarkibidagi ushbu fonetik differensial belgilar nutq jarayonida turli fonetik sharoitlar ta’sirida yuzaga keladi, biroq ular so’zning leksik yoki grammatik ma’nosini

o'zgartirish qudratiga ega emas..

Variantdosh birliklarning funksional qiymati. Siqib chiqarilayotgan variantlar to'liq yo'qolib ketmaydi. Ular dialektal nutqda, og'zaki so'zlashuvda, badiiy matnlarda, ekspressiv maqsadlarda faol qo'llanadi. Bu tilning tabiiy variativligi va ekspressiv imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

Leksik variantlar tilning tabiiy evolyutsiyasida muhim rol o'ynaydi. Dominanta birliklar orqali til normativ mexanizmi barqarorlanadi, passiv variantlar esa nutqning ekspressiv va stilistik rangdorligini saqlab qoladi. Shu bilan birga, denotativ umumiylik va konnotativ farqlanishlar variantlarning funksional spektrini kengaytiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, leksik variantlarning qo'llanilishi faqat stilistik boyitish bilan cheklanmay, ular kommunikativ samaradorlik, ijtimoiy kontekstga moslashuv va dialektal differensiyalashuv imkoniyatlarini ham ta'minlaydi. Bu esa tilning ichki dinamikasi, jamiyat ehtiyojlari va norma bilan bog'liq murakkab o'zgarishlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi leksik variantdosh birliklar va ularning lingvistik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til doimo ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uyg'un ravishda rivojlanadi va leksik sathdagi variativlik tilning tabiiy evolyutsiyasining ajralmas qismidir. Variantdosh birliklar, ya'ni bir ma'no va predmetni ifodalovchi, lekin shakl, fonetik va stilistik jihatdan farq qiluvchi so'zlar, tilning normativ mexanizmi va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Maqolada variantdosh birliklarning denotativ va konnotativ qatlamdagi xususiyatlari, grammatik mosligi, morfemik va etimologik asoslari hamda fonetik farqlanishlar orqali ularning til tizimidagi mavqeyi yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dominant shakl tilning normativ tizimida markaziy o'rin tutadi, passiv variantlar esa nutqning ekspressiv va stilistik rangdorligini ta'minlab, dialektal va badiiy matnlarda faol qo'llaniladi. Shu bilan birga, leksik variantlar orqali tilning ichki dinamikasi, kommunikativ samaradorligi va ijtimoiy kontekstga moslashuvchanligi yaxshiroq tushuniladi.

Qisqacha aytganda, leksik variativlik tilning evolyutsion, funksional va ijtimoiy jihatdan moslashuvchanligini aks ettiradi. Variantdosh birliklar tilning boyligini oshiradi, stilistik va ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi, va shu bilan birga normativ mexanizm orqali tilning barqarorligini ta'minlaydi.

O'zbek tilidagi variantdosh birliklarni alohida lug'at yoki elektron bazaga kiritish orqali ularni morfemik, fonetik, etimologik va stilistik mezonlar bo'yicha tasniflash, tadqiqotlar uchun qulay ma'lumot manbayi yaratadi. Adabiy til me'yorlari va kommunikativ samaradorlik asosida dominant shaklni tanlash va uning normativ barqarorligini mustahkamlash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Dialektal, badiiy va og'zaki nutqdagi passiv variantlarning stilistik, ekspressiv va konnotativ funksiyalari bo'yicha chuqur tahlil o'tkazish, ularning til evolyutsiyasidagi o'rnini aniqlash tavsiya etiladi. Variantdosh birliklarni o'quv jarayonida, xususan, adabiy til va leksik stilistika darslarida, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda faol qo'llash orqali talabalarning lingvistik fikrlashini rivojlantirish va til boyligini oshirish mumkin. Variantdosh birliklarning faol yoki passiv holati jamiyat ehtiyojlari, kommunikativ vaziyatlar va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar bilan qanday bog'liqligini o'rganish til evolyutsiyasi haqidagi nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Горбачевич К.С. Вариантность слова и языковая норма: на материале современного русского языка.— Л.: Наука (Ленингр. отд-ние), 1979.— 238 с.

2. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. Университетлар ва педагогика институтларининг студентлари учун қўлланма. — Т.: Ўқитувчи, 1978. — 406 б.

3. Бобоева А. Ҳозирги ўзбек тилида вариантдорлик // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979, 6-сон. – Б. 57–61.
4. Усмонова У. Дублетлар ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1968, – № 1. – 39–41.
5. Набиева Д.А. Ўзбек тилида лисоний бирликларнинг инвариант-вариант муносабати: Филол. фанлари номзоди дисс...автореф. –Т.: 1998. – 29 б.
6. Усмонов К. Ўзбек тилида фонема ва уларнинг вариантлашуви. – Қарши: Насаф, 2006. – 47 б.
7. Шукуров Р.Сўз вариантларининглексик-семантик дифференциацияси: монография – Т. : Фан, 2006. – 164 б.
8. Шукуров Р. Сўз вариантларининг имло луғати. –Тошкент: Фан ва технология. 2014. – 100 б.
9. Қазақбаева А.Т. Қорақалпоқ тилида қўшимчаларнинг вариантлилиги: Филол.фанлари номзоди дисс...автореф. – Нукус, 2010. – 22 б.
10. Базарова Д.Б. Ўзбек тилида вариантдош бирликларнинг нуткий қўлланиши ва услубий хусусиятлари: Фил. фанл. бўйича. фалс. докт. (PhD) дисс. –Қарши, 2020.
11. А.Қаҳҳор. Қўшчинор чироқлари. – Тошкент.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 246 б.
12. А.Qodiriy, Mehrobdan chayon.– Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 150 б.

KOMPOZITSIYANING BADIY ASARDAGI ROLI

Kamalova Dilfuza Enuarovna

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Nukus filiali dotsenti, PhD

dilkamalova@mail.ru

ORCID 0009-0002-5940-1653

UDK 82-2.82-32

Annotatsiya. Ushbu maqola san'atning barcha turlari, xususan, adabiy asarlar uchun kompozitsiyaning nazariy asoslarini chuqur o'rganadi. Ishda kompozitsiya nafaqat shakliy element, balki uning g'oyasini to'laqonli ochib berishdagi muhim vosita ekanligi ta'kidlanadi. Kompozitsiyaning strukturasi, rivojlanish bosqichlari va badiiy vositalar bilan o'zaro aloqasi tahlil qilinadi, bu esa asarning umumiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolaning amaliy qismi "Qoraqalpoq zamonaviy nasri antologiyasi" (2022-yil nashri) ga kiritilgan hikoya va novellalarni kompozitsiya nuqtayi nazaridan atroflicha ko'rib chiqadi. Ushbu tahlil jarayonida antologiyadagi asarlarning mavzu doirasi, ularning g'oyaviy yo'nalishi, yaratilgan obrazlar tizimi va o'ziga xos poetik xususiyatlari batafsil o'rganiladi. Bunday yondashuv orqali zamonaviy qoraqalpoq nasrining o'ziga xos jihatlari, janrning rivojlanish tendensiyalari va adabiy mahoratning namoyon bo'lish usullari aniqlanadi. Tadqiqot natijasida qoraqalpoq adabiyotining bugungi kundagi holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida xulosalar chiqariladi.

Kalt so'zlar: badiiy asar, hikoya, novella, kompozitsiya, mavzu, obraz.

THE ROLE OF COMPOSITION IN A WORK OF ART

Abstract. This article delves into the theoretical foundations of composition for all forms of art, particularly literary works. In the work, it is emphasized that composition is not only a formal element, but also an important means of fully revealing its idea. The structure of the composition, stages of development, and its relationship with artistic means are analyzed, which serves to increase the overall effectiveness of the work.

The practical part of the article examines in detail the stories and novellas included in the "Anthology of Modern Karakalpak Prose" (2022 edition) from the point of view of composition. In the process of this analysis, the thematic scope of the works in the anthology, their ideological direction, the system of created images, and their specific poetic features are studied in detail. Through such an approach, the peculiarities of modern Karakalpak prose, the trends in the development of the genre, and the methods of manifestation of literary mastery are revealed. As a

result of the research, Karakalpak literature

Keywords: work of art, story, novella, composition, theme, image.

Kirish. Har qanday san'at asari, xoh u adabiyot, musiqa, tasviriy san'at yoki arxitektura bo'lsin, ma'lum bir g'oya, his-tuyg'u yoki voqeani ifodalash uchun yaratiladi. Bu jarayonda kompozitsiya - asarning barcha qismlarini uyg'un va mantiqiy tarzda birlashtiruvchi, uning mohiyatini to'laqonli ochib berishga xizmat qiluvchi asosiy element sifatida muhim rol o'ynaydi. Kompozitsiya oddiygina tuzilma emas, balki asarning nafasidir. U asar ichidagi barcha g'oyalarni bir butunlikka jamlab, ularga shakl va mazmun beradi.

Kompozitsiya badiiy asarning ta'sirchanligini oshiradi. U voqealarning ketma-ketligini, obrazlarning rivojlanishini, asar ritmini va ohangini belgilaydi. Yaxshi tuzilgan kompozitsiya asar syujetini hayajonli qilib, o'quvchi (yoki tomoshabin, tinglovchi) e'tiborini tortadi va uni asar olamiga chuqurroq kirishga undaydi. Aksincha, kompozitsiya zaif bo'lsa, asar qiziqarsiz va tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin.

Shu sababli, badiiy asarni tahlil qilishda kompozitsiyaga e'tibor qaratish asar muallifining nima demoqchi ekanini, qanday g'oyalarni yetkazishni maqsad qilganini chuqurroq anglashga yordam beradi. U nafaqat asarning tashqi ko'rinishi, balki uning ichki mantiqi va badiiy niyati haqida ham muhim ma'lumot beradi. Kompozitsiya – bu muallifning asarni qurish uchun tanlagan me'moriy rejasidir, u asarning go'zalligi va chuqurligini ta'minlaydigan yashirin asosdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu maqolada 2022-yili nashr etilgan “Qoraqalpoq zamonaviy nasri antologiyasi”ga [4] kiritilgan hikoya va novellalar kompozitsiya jihatdan tahlil qilinadi. Antologiyaga kiritilgan asarlar zamonaviy qoraqalpoq nasrining mavzu doirasi, g'oyaviy yo'nalishi, obrazlar tizimi va poetik xususiyatlarini o'rganish uchun boy material beradi. Bu asarlarni ilmiy-adabiy tahlil qilish, qoraqalpoq adabiyotining o'zbek adabiyoti va umuman, jahon adabiyoti bilan o'zaro aloqalarini hamda milliy-ma'naviy qadriyatlarining yangi shakllarda namoyon bo'lishini aniqlashga yordam beradi.

Natija va muhokama. Abdimurod Otajonovning “Tug'ilmay turib yo'q bo'ldi” [4: 13] hikoyasining asosiy mavzusi – yosh ijodkorning ilk qadamlari, uning orzulari, intilishlari va bu yo'ldagi to'siqlarga duch kelishi tasvirlanadi. Muallif Abdimurod Otajonov bu orqali adabiyot olamining murakkabliklarini, ijodiy jarayonning o'ziga xos sinovlarini ko'rsatib beradi. Asarning bosh g'oyasi esa “mehnatning qadri va uning bekor ketishi” haqidadir. Yosh yigitning g'ayrati, intilishi, uzoq tunlar davomida yozgan asari oxir-oqibat, ehtiyotsizlik va loqaydlik qurboni bo'ladi. Muallif bu misol orqali yosh avlodni faqatgina ixtiyoriy qishloq xo'jaligi mehnatigagina emas, balki ijodiy mehnati ham qadrlanishi kerakligiga ishora qiladi.

Asardagi obrazlar tizimi quyidagicha:

Bosh qahramon (yosh yozuvchi): U hikoyaning markaziy qahramoni bo'lib, o'zining yoshlikka xos g'ayrati, orzulari va hissiyotlari bilan tasvirlangan. Uning ishtiyoqi, asarining e'lon qilinishi uchun chekkan mashaqqatlari va nihoyat, umidining puchga chiqishi uning ruhiy holatini yaqqol ko'rsatib beradi. Uning ichki monologlari (“men o'zimni beli tolib, charchagan odamday his qilardim”) uning ruhiy holatining qanchalik murakkabligini ochib beradi.

Yoshi ulug' ustoz (tahririyat xodimi): Ushbu obraz murakkab va ziddiyatli xarakterga ega. Bir tomondan, u yosh ijodkorni maqtaydi, unga umid bag'ishlaydi, shaxsiy tajribalari bilan bo'lishadi. Boshqa tomondan, o'zining mas'uliyatsizligi va loqaydligi tufayli yosh yozuvchining ilk asarini yo'qotib qo'yadi. Uning “o'zim qanday aldam-qaldam bo'lsam, ishim ham shunday...” degan iqrori uning xarakterini to'liq ochib beradi.

Hikoya tuzilishi an'anaviy syujet chizig'iga asoslangan bo'lib, quyidagi bosqichlardan iborat:

Ekspozitsiya (boshlanish): Hikoya talabalarning paxta terimiga ketishga

tayyorlanishi, bosh qahramonning o'z asarini tahririyatga topshirgani haqidagi ma'lumotlar bilan boshlanadi. Bu o'quvchini voqea markaziga olib kiradi.

Tugun (voqealar rivoji): Bosh qahramonning asarining taqdirini bilish uchun tahririyatga borishi, yoshi ulug' ustoz bilan uchrashuvi va uning aytgan so'zlari voqealar rivojini ta'minlaydi. Bu qismda yosh yozuvchining umidi va umidsizligi o'rtasidagi kurash ko'rsatiladi.

Kulminatsiya (eng yuqori nuqta): Hikoyaning eng keskin nuqtasi yosh yozuvchi qaytib kelib, ustoz bilan uchrashganda, u asarning yo'qotib qo'yilganini aytgan lahzadir. "Sho'rim qurib, men... sho'rimga sho'rba to'kilib... men pyesangni yo'qotib qo'ydim" – bu jumla butun asarning ma'nosini ochib beradi va bosh qahramonning umidlari chilparchin bo'lganini ko'rsatadi.

Yechim (xotima): Bosh qahramonning ustozning gaplariga quloq solmay ketib qolishi bilan hikoya yakunlanadi. Garchi asar yo'qotilgan bo'lsa-da, bosh qahramon hayotning qattiq sinovlaridan saboq olib, ijodiy yo'lida yangi bosqichga o'tadi. Bu holat "Tug'ilmay turib yo'q bo'ldi" sarlavhasining chuqur ma'nosini ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, "Tug'ilmay turib yo'q bo'ldi" hikoyasi syujet jihatdan oddiy bo'lsa-da, yosh ijodkorning ichki dunyosini, uning orzulari va ushbu orzularning bevaqt so'nishini mahorat bilan tasvirlay olgan. Muallifning badiiy vositalardan unumli foydalanishi, obrazlar xarakterini chuqur yoritishi asarning g'oyaviy ahamiyatini oshirgan. Bu asar orqali Abdimurod Otajonov adabiyot olamida qattiqliklar va mas'uliyatsizlik borligini ko'rsatib, yosh ijodkorlarga sabr va matonat bilan yondashish kerakligini uqtiradi.

Antologiyaga kiritilgan Kenesboy Allambergenovning "Kuchuk va bola" [4: 372] novellasi insoniylik, mehr-shafqat va yolg'izlik mavzularini kuchuk obrazi orqali ifodalagan chuqur ma'noli asar hisoblanadi. Asar asosan metafora, kinoya va simbolizm kabi adabiy san'atlardan foydalanib yaratilgan. Kuchuk obrazi bu yerda faqatgina jonivor emas, balki jamiyatdan chetlatilgan, mehrga muhtoj, yolg'iz insonning ramziy timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Kuchukning tashlandiq axlatlar orasidagi hayoti jamiyatdan tashqarida, qadrsiz va e'tiborsiz qolgan insonlarning og'ir ahvolini ifodalaydi. Axlatlar uyumi nafaqat moddiy chiqindilar, balki begonalik, e'tiborsizlik va umidsizlikning ramziy makonidir.

Bola obrazi esa bu umidsiz olamga kirib kelgan mehr, umid va insoniylik nuri hisoblanadi. Uning beg'araz mehmondo'stligi va o'ziga xos e'tibori kuchukning yorqin kelajakka bo'lgan ishonchini qaytardi. Bolaning kuchuk bilan o'yinlari, uni ovqatlantirishi, hatto uning jarohatlangan joylari og'riganda ham mehr bilan muomala qilishi – bu inson qalbidagi ezgulikning eng sof ko'rinishidir.

Ayol obrazi esa novellada nafrat, shafqatsizlik va insoniylikdan uzoqlashgan jamiyatning timsoli bo'lib ko'rinadi. Uning kuchukni kaltaklashi, bolani undan ajratishi – bu yaxshilikka qarshi turgan yovuz kuchning metaforasi. Uning qahri va qattiq munosabati o'quvchida nafrat uyg'otadi.

"Kuchuk va bola" novellasi voqealarning ketma-ket, mantiqan uzviy bog'lanishiga asoslangan kompozitsiyaga ega.

Ekspozitsiya (boshlanishi): Asar voqealari kuchukning tashlandiq axlatlar uyumida tongni kutib olishi bilan boshlanadi. Bu qismda kuchukning og'ir hayoti, jarohatlanganligi va umidsizligi tasvirlanadi. Bu o'quvchini asarning asosiy ruhiga, ya'ni yolg'izlik va umidsizlik tuyg'ulariga olib kiradi.

Tugun (rivojlanishi): Voqealar bolaning paydo bo'lishi bilan yangi bosqichga o'tadi. Bola kuchukni topib, unga mehr berishi, ular o'rtasidagi do'stlikning boshlanishi voqealar zanjirini boyitadi. Bu qismda bir-birini tushunuvchi ikki jonning samimiy munosabati tasvirlanadi.

Asarning eng yuqori nuqtasi ayolning kuchukni shafqatsizlarcha kaltaklashi va uni

boladan ajratishi bilan bog'liq. Bu qismda asar qahramonlari duch kelgan eng katta ziddiyat va to'siq tasvirlanadi. Bolaning kasal bo'lib, kasalxonaga olib ketilishi, kuchukning og'ir zarbadan qochib, yana yolg'izlanishi asarning eng keskin holati hisoblanadi.

Asar yakuni biroz ochiq qoldirilgan bo'lsa-da, kuchukning har kuni bolaning uyiga kelib, uni kutishi, umid bilan yashashi va yakunda yana axlat uyumiga qaytib, "uchinchi xo'jayin"ni kutishi bilan yakunlanadi. Bu qism, umidning puchga chiqishiga qaramasdan, kuchukning (va ramziy ma'noda, insonning) ezgulikka bo'lgan ishonchi hech qachon so'nmasligini ko'rsatadi.

"Kuchuk va bola" novellasi chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan, insoniylik, mehr-shafqat va yolg'izlik mavzularini mahorat bilan ochib bergan asardir. Adabiy-badiiy ifoda vositalaridan foydalanishi, kompozitsion tuzilmasining puxtaligi bilan o'quvchini befarq qoldirmaydigan, o'ylantiradigan asar sanaladi.

"Kuchuk va bola" asari janr jihatdan novella hisoblanadi. Novellaning quyidagi asosiy xususiyatlari ushbu asarda yaqqol namoyon bo'ladi:

Novella odatda hikoyaga nisbatan hajmi jihatidan kattaroq, romanga nisbatan esa ancha kichik bo'ladi. "Kuchuk va bola" ham xuddi shunday, u bir qahramonning hayotidan olingan qisqa, ammo mazmunli voqeani tasvirlaydi. Bu uning ixchamligini ko'rsatadi.

Novellada voqealar zanjiri juda tez rivojlanadi. Asarda ortiqcha lirik chekinishlar yoki tasvirlar uchramaydi. Kuchukning tashlandiqlar orasidagi hayoti, bola bilan uchrashuvi va ularning do'stligi, so'ngra ayolning paydo bo'lishi va voqealarning keskin o'zgarishi – bularning hammasi qisqa vaqt ichida sodir bo'ladi. Bu tezkorlik asarni yanada dinamik qiladi.

"Kuchuk va bola" novellasi yuzaki qaraganda oddiy bir voqea haqida bo'lib ko'rinsa-da, unda insonparvarlik, yolg'izlik, mehrga ehtiyoj, jamiyatdagi ziddiyatlar va umid kabi chuqur falsafiy g'oyalar yashiringan. Umuman olganda, inson qadri, mehr-oqibat va hayot mazmuni haqida chuqur o'ylarga chorlaydi. U hayotning beshafqatligi va yolg'izlik kabi og'ir mavzularni ko'tarsa-da, o'quvchiga umid va insoniylik har doim g'alaba qozonishi mumkinligini isbotlashga harakat qiladi. Bu asar inson qalbidagi eng sof hislarni topish va ularni qadrlash muhimligini ta'kidlaydi.

Abdimalik Xo'janazarovning "To'rt shoxli odam" [4: 258] hikoyasi nafaqat syujeti, balki o'ziga xos kompozitsion qurilishi bilan ham e'tiborga molik. Asarning kompozitsiyasi an'anaviy hikoya tuzilmasidan farqli o'laroq, qahramonning ichki psixologik holatini va milliy mentalitetga xos ramziy ma'nolarni ochib berishga xizmat qiladi. Hikoyaning markaziy kompozitsion elementi bu – to'rtta "shox" metaforasi bo'lib, u asarning butun syujetini, g'oyaviy mazmunini va qahramonlar tizimini birlashtiruvchi asosiy ustun vazifasini o'taydi.

Hikoyaning o'ziga xos kompozitsion xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Hikoyaning butun tuzilishi markazida "to'rt shoxli odam" iborasi turadi. Yozuvchi bu metafora orqali insonning ko'zga ko'rinmaydigan, ichki kamchiliklarini, ya'ni "unutshaq", "achuvshaq", "qizg'anshaq" va "maqtanshaq" xususiyatlarini badiiy ifodalaydi. Asar kompozitsiyasi mana shu to'rt tushunchani ochish va ularning qahramonning xarakterida qanday namoyon bo'lishini ko'rsatishga qaratilgan. "Shox"lar haqidagi dialog hikoyaning asosi bo'lib, unda voqealar zanjiri emas, balki g'oyaviy zanjir birin-ketin ochib boriladi.

Hikoyaning asosiy qismi ikki do'st – hikoya qiluvchi qahramon va O'tamish o'rtasidagi suhbatdan iborat. Bu dialog asarning asosiy kompozitsion shakli hisoblanadi. Dastlabki voqea (nosvoyxalta izlash) O'tamishga hikoyachining kamchiliklarini ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadi. Keyin esa bu kichik voqea katta falsafiy suhbatga ulanib ketadi. O'tamishning har bir "shox"ni aytishi va hikoya qiluvchining o'zining xatosini tan olishi

bilan kompozitsiya davom etadi. Bu dialog nafaqat syujetni rivojlantiradi, balki asarning ma'no-mazmunini ham chuqurlashtiradi.

“To‘rt shoxli odam”da syujet an’anaviy ma’noda voqealar rivoji emas, balki qahramonning o‘zini anglash jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarda tugun nosvoyxaltaning yo‘qolishi va hikoyachining jahl otiga minishida o‘z aksini topadi.

Voqealar rivoji esa O‘tamishning “senga shox chiqyapti” deya to‘rt “shox”ni birin-ketin sanab o‘tishi. Bu bosqichda har bir misol yangi bir “shox”ni ochib beradi.

Hikoyam kulminatsiyasi hikoyachining o‘zida haqiqatan ham bu “shox”larning borligini tushunib, “shunda men rostdan ham to‘rtta shoxi bor odammanmi?” deya o‘ziga savol berishida ko‘rinadi.

Yechim ochiq qoldirilgan bo‘lib, qahramon bu kamchiliklardan qanday qutilish haqida o‘yga cho‘madi. Bu esa o‘quvchini ham mushohadaga chorlaydi.

Hikoyadagi vaqt (nafaqaga chiqqan, keksalik davri) va makon (qishloq, yo‘l) shunchaki fon emas, balki qahramonlarning xarakterini ochib berish uchun xizmat qiladi. Aynan keksalikda, odam o‘zini o‘ylay boshlagan paytda bunday kamchiliklar ochiq-oydin ko‘rinishi kompozitsion jihatdan asosli qilib ko‘rsatilgan. Do‘stlar ma‘rakaga ketayotgan yo‘l esa suhbat uchun qulay muhit yaratib, o‘zaro samimiy muloqotga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, Abdimalik Xo‘janazarov “To‘rt shoxli odam” hikoyasida an’anaviy syujet qurilishidan uzoqlashib, g‘oyaviy-ramziy kompozitsiya usulini qo‘llagan. Asar tuzilmasining o‘ziga xosligi shundaki, u kichik bir maishiy voqeadan boshlab, do‘stlarning dialogi orqali qahramonning ichki dunyosini, uning kamchiliklarini fosh qiladi va nihoyat, o‘zini anglash jarayonini ifodalaydi. Hikoya kompozitsiyasi faqat voqealarni emas, balki insoniy nuqsonlarni, milliy mentalitetga xos odatlarni tahlil qilishga xizmat qiladi. Bu esa asarning badiiy-falsafiy qimmatini oshirib, uni zamonaviy qoraqalpoq nasrining yorqin namunalaridan biriga aylantiradi.

Marat Tovmurodovning “Yig‘ilish” [4: 403] novellasi zamonaviy qoraqalpoq adabiyotidagi eng o‘ziga xos asarlardan biri. Unda muallif simvolizm, metafora va kinoya kabi badiiy vositalardan mohirlik bilan foydalangan. Asar yuzaki qaraganda, oddiy bir majlis tasviri bo‘lsa-da, aslida sovet tuzumi davridagi byurokratiya, amaldorlarning soxta nutqlari va oddiy ishchilarning o‘z haqqini talab qilishga bo‘lgan irodasi haqida hikoya qiladi.

Kulminatsion yuksaklikka yetgan so‘zlashuv: Bu ibora yig‘ilishdagi keskinlikni, qahramonlarning asabiylashgan holatini yaqqol ko‘rsatib beradi. Yozuvchi insonlarning yuz terisi, ter tomchilari va taranglashgan nerv tolalari orqali ularning ichki holatini, noroziligini, ochiqchasiga qarshi chiqa olmaslikdan yuzaga kelgan ruhiy ezilishini tasvirlaydi.

“Minbardagi odam” va “yoshulli odam”: Bu yerda muallif qahramonlarga ism bermasdan, ularni umumlashtiradi. “Minbardagi odam” - hokimiyat, yuqoridan buyruq beruvchi kuch, “yoshulli odam” esa – oddiy xalq, mehnat jamoasining tajribali va dono vakili sifatida ramzlashgan. Ularning ziddiyati asarning asosiy konflikti hisoblanadi.

Novella chiziqli, ammo dinamik kompozitsiyaga ega. U voqealarni ketma-ket, bir maromda rivojlantiradi va o‘quvchining diqqatini doimiy ushlab turadi.

Ekspozitsiya (boshlanishi): Asar yig‘ilish zalidagi ziq muhit, keskinlik va qahramonlarning bezovtaligi tasviri bilan boshlanadi. Bu holat o‘quvchini voqealar rivoji uchun tayyorlaydi. “Minbardagi odam”ning nutqi, unga hech kimning e‘tibor bermayotgani vaziyatning soxta ekanligini ko‘rsatadi.

Tugun (voqealar rivojlanishi): Yig‘ilishdagi notinchlik tugunni hosil qiladi. Yuqoridan tayinlangan “erkatoy yigit”ning boshliq bo‘lishiga qarshi noroziliklar boshlanadi. Bu norozilikning ochiq namoyon bo‘lmasdan, ichki g‘ulg‘ula shaklida kechishi vaziyatni yanada taranglashtiradi.

Novellaning eng yuqori nuqtasi - yoshulli odamning kalitlarni stolga tashlashi va zalni tark etishi. Bu harakat butun jamoa uchun ishora bo'ladi va oqibatda zal bo'shab qoladi. Bu vaziyatda ziddiyat o'zining eng yuqori nuqtasiga yetadi: hukmronlikka intilgan amaldorlar bilan oddiy mehnatkashlarning o'rtasidagi konflikt ochiqchasiga namoyon bo'ladi.

Asarning yechimi tezkor va mantiqiy. Bo'sh qolgan zal amaldorlarni o'z qarorini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Ertasi kuni avtobazadagi ishlar joyiga tushadi, eski injener yangi boshliq bo'lib tayinlanadi. Bu holat, mehnat jamoasining birligi oldida yuqoridan kelgan bosim o'jiz ekanligini ko'rsatadi.

"Yig'ilish" novellasi o'zining mazmunli va badiiy yorqinligi bilan ajralib turadi. Oddiy yig'ilish tasvirida muallif bir zamonlar jamiyatda mavjud bo'lgan ziddiyatlarni, insonlarning o'z haq-huquqlari uchun kurashini va oddiy mehnatkashlarning birlashgan kuchi oldida hech qanday buyruq ustun kelmasligini mohirlik bilan ko'rsatib bera olgan.

"Yig'ilish" novellasi janr jihatidan sotsial-psixologik novellaga mansub. Bu novellaning asosiy belgilari asarda yaqqol ko'rinadi:

Novella qisqa hajmga ega bo'lsa-da, katta bir voqeani, ya'ni yig'ilishdagi keskinlikni va uning natijasini to'liq ochib beradi.

Voqealar tezkorlik bilan rivojlanadi. Yig'ilishning boshlanishi, yoshulli odamning kalitlarni tashlashi, zalning bo'shab qolishi va ertasi kuni vaziyatning o'zgarishi kabi hodisalar bir-birini tezlikda almashtirib turadi.

Asar markazida bitta asosiy konflikt – yuqoridan qo'yilgan amaldorning tayinlanishiga mehnat jamoasining noroziligi yotadi. Barcha voqealar shu konflikt atrofida qurilgan.

Asar qahramonlarning ichki kechinmalarini ularning taranglashgan nerv tolalari, ter bosgan manglaylari orqali ochib beradi. O'quvchi yig'ilishdagi havo, ishtirokchilarning ruhiy holatini his qila oladi. Bu psixologik holat novellaning markaziy qismiga aylanadi.

Kompozitsion jihatdan novella chiziqli rivojlangan bo'lsa-da, voqealar ketma-ketligini o'zaro bog'lagan psixologik holatlar asosiy o'rin tutadi. Yig'ilishdagi ziq muhit, ishtirokchilarning nerv tarangligi kabi detallar tashqi voqealar zanjirini emas, balki qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berishga xizmat qilgan. Bu yondashuv asar dinamikasini oshirib, yakunda sodir bo'ladigan voqea – kalitlar simvolizmining ta'sirini kuchaytiradi.

Yozivchining "Birovning taqdiri" [4: 404] novellasi kompozitsion jihatdan murakkab va o'ziga xos tuzilishga ega. Asar "hikoya ichida hikoya" uslubi orqali qurilgan bo'lib, bu uning asosiy g'oyasini - inson taqdirining kutilmaganligi haqidagi fikrni kuchaytiradi. Kompozitsiyaning har bir elementi bu g'oyani ochishga xizmat qiladi.

Novella hozirgi zamonda, ishxonadagi bir guruh odamlarning yosh, shaddod qiz Nabiyraning taqdiri haqida bahslashishidan boshlanadi. Bu munozara o'quvchining diqqatini darhol jalb qiladi va asarning asosiy mavzusini – inson taqdirini muhokama qilish masalasini o'rta tashlaydi.

Misol: "Uni sen bilan men belgilayvermaymiz, tug'ilgan paytidanoq manglayiga yozib qo'yiladi taqdir deganlari..." Bu jumla bilan tajribali Janaboy og'a diqqatni o'ziga tortadi va asarning asosiy hikoyasini boshlashga zamin yaratadi.

Tugun, bosh qahramon Janaboy og'aning o'z sinfdoshi Klara haqidagi hikoyasini boshlashi bilan yuzaga keladi. Nabiyra haqidagi munozara ortga chekinib, o'quvchi o'tmishga – 39 yil avvalgi voqealarga sayohat qiladi.

Misol: "Sinfimizda manov qizdan ham o'tgan, olov bo'lib yonib turgan bir qiz bor edi..." Bu jumla bilan ikkinchi, ya'ni asosiy hikoya boshlanadi. Bu "hikoya ichida hikoya" uslubining boshlanish nuqtasidir. Klara obrazining "olov", "uchuvchi bo'laman" kabi xususiyatlar bilan tasvirlanishi Nabiyra obraziga parallel yaratishga xizmat qiladi.

Novellaning klimaksi (yuqori nuqtasi) ikki qahramonning taqdiri orqali parallel

ravishda yuzaga keladi.

Birinchi klimaks (Klara hikoyasida) Janaboy og'a uzoq yillardan so'ng olov bo'lib yonib turgan, "uchuvchi bo'laman" degan Klara bilan uchrashadi. Uning o'zgarib, "uch-to'rt temir tishi bor, ozg'in, qorato'ridan kelgan" ayolga aylanishi va "o'sha o'tli yuragining epkini ... allaqachonlar so'nib bitgan"ligini ko'rishi – asarning eng keskin, ta'sirli lahzasi hisoblanadi. Bu o'quvchiga Klara taqdiridagi kutilmagan burilishni yaqqol namoyon etadi.

Ikkinchi klimaks (Novellaning umumiy yakuni) Janaboy og'a o'z hikoyasini tugatib, o'zining hayotiy xulosasini beradi. Uning "Boshqa birovning sirtidan fol ochib, kelajagini belgilab bermoqchi bo'lasizlar... Yumushlaringni ishlab, tushlikka nima yeyishingiz haqida o'ylagan yaxshi emasmi?" degan so'zlari bilan hozirgi zamonga qaytiladi. Shu lahzada Nabiyraning "Menga hech kim telefon qilmadimi?" deb xonaga kirishi – avvalgi muhokama bilan hozirgi vaziyatni bog'laydi va hikoya g'oyasini yakunlaydi.

Yechim aniq bir natija berishdan ko'ra, falsafiy xulosa bilan yakunlanadi. Boshqalar uning taqdirini muhokama qilganidan bexabar bo'lgan Nabiyraning so'rovi javobsiz qoladi, chunki hech kim uning so'zlariga e'tibor bermaydi. Barcha o'z ishiga qaytadi. Bu orqali muallif, insonlar boshqalarning taqdirini muhokama qilishdan ko'ra, o'z ishiga e'tibor qaratishi kerakligi haqidagi g'oyani ta'kidlaydi.

Misol: "Unga hech kim javob qilgisi kelmadi, band edi. Qiz hayron bo'lib qarab turdi-da, yelkasini qisib, xonadan chiqib ketdi". Bu yakun o'quvchiga o'zining shaxsiy xulosasini chiqarishga imkon beradi va asarning ta'sirini kuchaytiradi.

Kompozitsion jihatdan asar ajoyib tuzilgan. Hozirgi zamonda boshlangan oddiy munozara o'quvchini 39 yillik o'tmishga olib boradi. Bu orqali muallif insonlarning hozirgi yashash tarzi va yoshlikdagi orzulari o'rtasidagi keskin ziddiyatni ko'rsatib beradi. Yosh, shaddod Nabiyra va o't-olov bo'lib yonib turgan Klara obrazlari parallel ravishda taqdirning qanday burilishlari bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, "Qoraqalpoq zamonaviy nasri antologiyasi"ga kiritilgan hikoya va novellalarning kompozitsion tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy qoraqalpoq adabiyoti nafaqat mavzular doirasi, balki badiiy-estetik shakllarning xilma-xilligi bilan ham ajralib turadi. Antologiyadagi asarlar kompozitsion qurilish jihatidan an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirib, har bir asar g'oyaviy niyatini to'liq ochib berishga xizmat qilgan.

An'anaviy syujet chizig'i va uning yangicha talqini Abdimurod Otajonovning "Tug'ilmay turib yo'q bo'ldi" hikoyasi ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya va yechim kabi an'anaviy kompozitsion bosqichlarga asoslangan bo'lsa-da, yechimning ochiq qoldirilishi orqali o'quvchini mushohadaga chorlaydi. Bu holat an'anaviy qurilmaning zamonaviy adabiy niyatlarga moslashtirilganini ko'rsatadi.

Ramziy-metaforik kompozitsiya Kenesboy Allambergenovning "Kuchuk va bola" novellasi hamda Abdimalik Xo'janazarovning "To'rt shoxli odam" hikoyasida ko'zga tashlanadi. Sotsial-psixologik kompozitsiya Marat Tovmurodovning "Yig'ilish" novellasida asoslangan. Asarda tashqi voqealar (yig'ilishdagi ziq muhit, kalit tashlash) orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy ezilishi va noroziligi ochib berilgan. Kompozitsiya tezkorlikka va markaziy konflikt atrofida qurilgan yagona syujetga tayanib, asarning dinamikasini ta'minlaydi. Yozuvchining "Birovning taqdiri" novellasi kompozitsiyaning eng murakkab namunalaridan biri bo'lib, unda "hikoya ichida hikoya" uslubi mahorat bilan qo'llanilgan. Hozirgi zamonda boshlangan oddiy munozara o'tmishga sayohatga aylanib, inson taqdirining kutilmaganligi haqidagi g'oyani ta'kidlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 560 b.

2. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: 2008. – 225 b.
3. Jarimbetov Q., Genjemuratov B. Adebıyat teoriyası. – Toshkent: 2018. – 240.
4. Qoraqalpoq zamonaviy nasri antologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 520 b.
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent. O‘qıtuvchi. 2005. – 271 b.
6. Adabiy turlar va janrlar (Tarixi va nazariyasiga oid). Uch jildlik. 1 jild. Epos. – T., Fan. 1991. – 91 b.
7. Amanova A. Janrdın mümkinshilikleri // Ámudárya. 1987. №9. – 104 b.
8. Axmetov S, Esenov J, Jarimbetov Q. Ádebıyattanıw atamalarınń orısshá-qaraqalpaqsha túsındırme sózligi. – Nókis. Bilim. 1994. – 240 b.
9. Axmetov S., Sultanov Q. Ádebıyattanıw. – Nókis. Qaraqalpaqstan. 1987. – 228 b.
10. Esenov J. Sheberliktiń sırları. – Nókis. Qaraqalpaqstan. 1986. – 68 b.

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING ZUKKO BILIMDONI

Xasanova Dilshoda Abdug‘aniyevna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU ilmiy tadqiqotchisi

holidahasanova@gmail.com

ORCID 0009-0009-8985-5630

UDK 891.709

Annotatsiya. Badiiy adabiyot taraqqiyotida adabiyotshunoslik va adabiy tanqid muhim rol o‘ynaydi. Badiiy asarlarni nazariy tushunchalarsiz to‘liq anglash mumkin emas. Shuning uchun ham badiiy adabiyotning yaratilish tarixi qanchalik qadimiy bo‘lsa, adabiyotshunoslik, adabiy-tanqidiy qarashlar ham shunchalik olis tarix bilan tutashadi. Turli-tuman badiiy obidalarining yuzaga kelishining o‘ziyoq o‘z navbatida u haqdagi ayrim adabiy-estetik qarashlarni ham yuzaga keltiradi. Botirxon Valixo‘jayev tadqiqotlarida adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning mazkur sahifasi keng, atroflicha yoritilishi bilan ham uning ijodida bu yo‘nalish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur ilmiy maqolada o‘zbek adabiyot ilmining zabardast namoyandasi, taniqli olim, akademik Botirxon Valixo‘jayev ustozning o‘zbek adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotidagi xizmatlari tahlil etiladi. Unda o‘zbek adabiy-estetik qarashlari tarixi, tadrijiy taraqqiyoti, ifodalanish xususiyatlari, janr-shakllar rivojining olim tomonidan ilmiy asoslar bilan ochib berilishiga e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Badiiy tafakkur, asarni baholash mezonlari, ilmiy va nazariy qarashlar, tanqid tushunchasi, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik, Botirxon Valixo‘jayev va adabiy-tanqiq, bevosita va bivosita janrlar.

AN INTELLIGENT ENLIGHTENER OF UZBEK LITERARY STUDIES

Abstract. Literary studies and literary criticism play vital role in the development of artistic literature. Works of art cannot be fully understood without theoretical concepts. Therefore, the more ancient the history of the creation of fiction, the more distant the literary, literary and critical views come into contact with history. The very emergence of various artistic monuments, in turn, generates some literary and aesthetic views on it. Due to the wide and comprehensive coverage of this page of literary criticism and literary criticism in the research of Botirxon Valikhujayev, this area acquires an important scientific significance in his work. This scientific article analyzes the merits of an outstanding figure of Uzbek literature, an outstanding scientist, academician Botirxon Valikhujayev in the development of Uzbek literary scholarship. It focuses on the scientific substantiation by scientists of the history of Uzbek literary and aesthetic views, their theoretical development, the peculiarities of expression, the development of genres and forms.

Keywords: Artistic thought, criteria for evaluating the work, scientific and theoretical views, the concept of criticism, literary criticism, literary, Botirxon Valikhujayev and literary-critical, directly and indirect genres.

Kirish. Professor Botirxon Valixo‘jayevning asarlari va adabiyotshunoslikka qo‘shgan hissasi maxsus ilmiy tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini o‘rganish, navoiyshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik sohasidagi nazariy fikrlari va amaliy ishlari, erishgan yutuqlari ko‘pchilik olimlarning e‘tibori va e‘tirofiga sazovor bo‘lgan. Uning ilmiy ishlari, hayot yo‘liga xos ijobiy xususiyatlar

M. Muhiddinov, Sh. Sirojiddinov, H. Homidiy, J. Hamroyev, D. Salohiy, Sh. Axmedova kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlarida, shuningdek, ilmiy-amaliy anjumanda yosh olimlar, izlanuvchilarning maqolalarida muayyan darajada ko'rsatib berilgan bo'lsa-da, Botirxon Valixo'jayevning o'zbek adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotidagi xizmatlari alohida tadqiqot sifatida maxsus o'rganilmagan.

Olim Botirxon Valixo'jayev adabiy tanqid tushunchasini juda qadimdan, xalq og'zaki ijodi namunalari tarkibidan izlaydi. Adabiyotshunoslik ilmi hozir biz tushunadigan ko'rinishda emas, balki adabiy tanqid bilan bog'liqlikda uchrashi alohida ta'kidlanadi. Olim nazarida, "badiiy asar yoki umuman badiiy ijod adabiy tanqidning, adabiy-tanqidiy qarashlarning vujudga kelish sababi bo'lib, natija – adabiy tanqid, o'z navbatida, badiiy ijodning taraqqiyoti sababiga aylanadi, shunday qilib ular o'zaro aloqaga kirishadilar". Badiiy adabiyotning yaratuvchisi xalq bo'lgani kabi unga baho beruvchi ham xalq hisoblanadi. O'tmishda tabiat hodisalariga, ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurashini tasvirlovchi, undagi fazilatlar, ruhiy holatlarning ta'sirli ifodasi xalqning ham mazkur asarlarga to'g'ridan to'g'ri munosabat bildirilishiga olib kela boshladi, – deb yozadi olim. Xuddi ana shu xususiyatni, xalqning baxshiga o'z taassurotlarini, ya'ni munosabatlarini bildirganligini alohida ta'kidlaydi. "Sanobar" dostonini eshitganlar sevimli baxshisiga murojaat qilib, "bizga yig'loqi kishilar to'g'risida emas, balki odamni ruhan tetik qiluvchi, qahramonlik va ezgulikka boshlovchi kishilar haqidagi dostonlarni ko'proq aytsangiz", – deganida baxshining "Farhod va Shirin" haqidagi qissani qahramonlarning vafot etishi bilan emas, balki murod-u maqsadiga erishib, to'y-u tomosha bilan yakunlash to'g'risidagi mulohazalarida katta haqiqat ko'rinadi". Mana shu haqiqat olim nazarida, tanqidning ilk, ibtidoiy ko'rinishlari hisoblanadi. Uning juda qadimiyligini dalolatlab beradi. Shu bilan bir qatorda, olim mazkur mulohazalarni shunchaki to'qimaydi, balki aniq manbalarga tayanib keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzusini yoritishda tasniflash, germenevtik, tarixiy-qiyosiy va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Folklor ko'rinishidagi manbalar garchi og'izdan og'izga o'tib, bizgacha yetib kelgan bo'lsa, ba'zilar yozma ilmiy manbalar orqali tarix zarvaraqlariga muhrlangan. Alisher Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin", "Majolis un-nafois", Koshifiyning "Latoif ut-tavoif", Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarlari shular jumlasidandir. Olim yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalarni tarixiy yodnomalarda, esdalik tipidagi asarlarda, devonlarga yozilgan debochalarda, manolib holatlarda, kichik lirik janrdagi asarlarda, dostonlarning maxsus boblarida, tazkiralarda, aruz, qofiya, badoye' va sanoye'ga doir risolalarda, ba'zan esa ilmiy adab deb atalmish ilmlar turkumiga bag'ishlangan kitob va lug'atlarda bayon etilganligini qayd etarkan, adabiy-tanqidiy qarashlarni muhim ikki qismga ajratib o'rganishni ma'qul topadi. Mazkur taklif ilmiy jamoatchilikda har tomonlama chuqur o'rganilgan xulosa sifatida e'tirof etiladi.

O'tmish adabiyotshunosligi va adabiy tanqidining ifodalanish "janr"larini mohiyatiga qarab 1) bilvosita va 2) bevosita "janr"larga bo'lib o'rganadi. "Janr" atamasi olim tomonidan qo'shtirnoqqa olib ko'rsatiladi. Sababi – nazarda tutilgan janrlar nisbiy bo'lib, ular tom ma'noda adabiy tanqidning janrlari emas, balki o'tmishda adabiy-tanqidga oid fikr-mulohazalar shu "janr"lar tarkibida uchrashi ko'zda tutilgan. Tadqiqotchi nazariy qarashlarida nafaqat turk(o'zbek) adabiyoti, balki tojik, ozariy, afg'on, eron xalqlari hamda Hindiston bilan yaqin munosabatda bo'lgan adabiy-badiiy aloqalar orqali ijodiy hamkorlik ham yo'lga qo'yilganligini e'tirof etadi. Shuning uchun ham olim tadqiqotlarida forsiy va ozariy (turkiy) tillarda yaratilgan manbalarga murojaatlar asos vazifasini ham o'taydi. Dastlab tadqiqotda bevosita "janr"larga atroflicha to'xtaladi. Masalan, Faxriya – janri haqida qisqacha nazariy ma'lumot beriladi: "Odatda, faxriya kichik she'riy janrlar yoki dostonlar ichida kelib, unda muallif, bir tomondan, o'z ijodiyotini biror mashhur shoir ijodi bilan tenglashtirsa, ikkinchi tomondan o'z she'rlarini

qiymati va ahamiyatiga ham ishora qiladi. Shundan so'ng Salmon Savajiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoirlarning faxriyalaridan misollar keltirilib fikrini isbotlaydi. Shu tahlit nazariy qarashlarini mustahkamlaydi. She'riy parchalar, ilmi adabga oid asarlar ko'rinishidagi "janr"lar mavzusini yoritishda ham, yuqorida qayd etganimiz kabi yo'l tutiladi. Kitobxon diqqat-e'tiborini torta oladigan manbalar, misollar bilan o'rtoqlashadi. Bevosita "janr"lar aynan adabiyotshunoslik va adabiy tanqid borasida qilingan ishlarda asl manba ekanligi ta'kidlanadi. Mazkur janrlar, – deydi olim, – adabiyotshunoslik va adabiy tanqid tarixini mukammal o'rganishga xizmat qiladi. "Tazkira" atamasi tor ma'noda adabiyotshunoslik, adabiy tanqid janrlarini anglatadi. Bu o'rinda Botirxon Valixo'jayev o'zining yuksak iste'dodi, nozikta'b olim ekanligini to'liq namoyon etadi. Tazkiralarning o'tmish adabiyotshunosligidagi tutgan o'rni, tarixi, tazkira yozgan shoir va yozuvchilar, tarixchilar haqida to'liq, mukammal ma'lumot beradi. Mumtoz adabiyot tarixi bilan shug'ullangan kishilar uchun qo'llanma darajasidagi manbalarni keltiradi. Manolib-holat va risolalar borasida ham olim zukkolik bilan qalab yuritadi. "Manolib va holatlar o'z zamonasining shoir va yozuvchilari haqidagi risolaga o'xshash asarlardan sanaladi. Manolib-holatlar, odatda, biror bir mashhur adib vafotidan so'ng yozilib, ularda mazkur shaxsning hayoti, ijodiy faoliyati, shaxsiy fazilatlarini yoritiladi". Mazkur ta'riflar olim tomonidan qisqa va aniq tarzda keltiriladi. Bu holat tadqiqotga yanada ilmiylik bag'ishlaydi. Shundan so'ng o'zbek adiblari ijodi misolida o'z fikrlarini isbotlaydi. Aruz, qofiya va san'atlarga bag'ishlangan risolalar haqida fikr yuritar ekan, olim avvalo arab va fors-tojik tilida yaratilgan manbalarga e'tibor qaratadi. Ularning muhimlarini misol sifatida ko'rsatadi. Mohiyati, fanning qaysi jihatlarini ochib berishligi haqida mulohazalari bilan o'rtoqlashadi. Undan keyin esa asosiy maqsadga ko'chadi. O'zbek adabiyotining zabardast vakillari – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning aruz ilmiga oid asarlarini faxr va iftixor bilan eslaydi. Esda qolarli namunalar keltiradi. "Janr"lar o'ziga xosliklarini quyidagi jumalalarda xulosalaydi: "...adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etuvchi janrlarni ko'zdan kechirish shundan dalolat beradiki, adabiyot she'r va shoirlikning turli masalalari davr taqozasi bilan har xil shakllarda o'z ifodasini topa bordi. To'g'ri, ma'lum adabiy zamin va sharoitda maydonga kelgan bunday janrlar o'zgarishsiz qolmadi, albatta. Har bir davr ularga o'z muhrini bosdi, takomillashtirdi va yoki yangisini maydonga keltirdi"[1; 256-b].

Adabiyotshunoslik va adabiy tanqidni davrlashtirishda Botirxon Valixo'jayev asosan uch tamoyilga e'tibor qaratadi. Faqat ularninggina muhim deb hisoblaydi. Bu o'ziga xosliklarni quyidagilarda ko'radi; bir tomondan ijtimoiy-siyosiy sharoit, ikkinchi tomondan adabiy hayot nazarda tutilishi, uchinchi, adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidiy qarashlarning ifodalanish holatini ham hisobga olinishini alohida ta'kidlaydi.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib davrlashtirishni 1. Ilk qadamlar. 2. Taraqqiyot zinalari. 3. An'ana va yangilik kabi bo'limlarga ajratadi. "Ilk qadamlar"da o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy-tanqidiy qarashlarining shakllanish bosqichi, asr bilan hisoblaganda eng qadimgi davrdan XI asrgacha bo'lgan davr oralig'i qamrab olinadi. Mazkur davr ilk bosqich bo'lgani uchun ham adabiy-tanqidiy qarashlar adabiyotshunoslik fani bilan aralash holda, umumiy tarzda, yetarli bo'lmagan darajada ekanligiga aynan olim tomonidan urg'u beriladi. "Taraqqiyot zinalari" qismida o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy-tanqidiy qarashlar takomillashgan davr, ya'ni shakl va mazmun jihatdan bir butunlikni hosil qilgan davr sifatida qaraladi. Olimning qayd etishicha, davrning muhim jihatlaridan biri, o'sha davrdagi adabiy jarayonning ayrim masalalariga e'tibor qaratilishidir. Bunda konkret, aniq asarlarga ham murojaat qilinadi. "An'ana va yangilik" bo'limi Botirxon Valixo'jayevning yangi adabiyotga yangicha yondashuvi sifatida qaralsa, bizningcha, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatlar bilan ham tadqiqotning darajasi o'lchanadi. Boshqa hamkasblaridan ajralib turadigan sifatleri ham shunda ko'rinadi. Bu davr XVI asrdan XX asrgacha bo'lgan adabiy jarayonni qamrab oladi. Davr ham ikki

qismda qayd etilgan an'analarni davom ettiradi. Shu bilan birgalikda, uni har jihatdan boyitadi. Murakkablik tomoni shundaki, XIX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy hayotdagi o'zgarishlarni ham chetlab o'tmaydi. Badiiy adabiyot vositasida ularga munosabat bildiriladi.

Botirxon Valixo'jayev Farobiyning "Buyuk kishilarning naqlaridan" asari xususida mulohaza yuritib, uning she'r san'ati haqidagi fikrlarini keltiradi: "Bu san'at biror maqsadni amalga oshirayotgan paytda yo'ldan chiqib ketmaslikka yordam beruvchi va inson xayolini qog'ozda namoyon etuvchi san'atdir. She'rning olti xili bor. Shundan uchasi yaxshi va uchasi yomon xildir. Yaxshilaridan biri shuki, uning yordamida inson aqliy quvvatini mukammallashtiradi, saodatga olib boruvchi fikri oydinlashadi, yaxshi ishlarga, fazilatli bo'lishga ilhomlanadi, xasislik, yomon, qabih ishlardan saqlanadi. Ikkinchi yaxshi xili kishining ruhiy sezgilarini yuksaltiradi, haddan tashqari ehtiyotkorlikdan xoli qiladi, izzat-nafsni saqlaydi, kishining hirsini tiyadi, g'amdan xolos qiladi, yomonlik oldida yuqorida qayd etilgan yaxshi xislatlarni namoyon etishga yordam beradi [1; 285-b]. Olim mazkur fikrlarni bejizga keltirmaydi. Bugun she'riyat – XXI asr tongida inson ong-shuuriga qanday ta'sir qilishligi ochiqdansa yoyinki inson tabiatidagi qay bir xususiyatlarni kamol topishiga xizmat qilsa, shu narsa-shu g'oya Farobiy tomonidan ilgari suriladi. Mazkur fazilatlarini tadqiqotchi qo'llab-quvvatlaydi. O'z fikr-mulohazalari bilan yashirin jihatlarini ko'rsatadi, tahlillari bilan boyitadi. Farobiy badiiy ijodning ko'pgina muhim masalalari ustida mulohaza yuritib, shoir va she'r oldiga qo'yiladigan talablarni bayon etadi, – deb yozadi olim. Uning nazarida, Farobiyning "Shoirilar san'ati va qonunlari haqida" risolasida she'r va uning xususiyatlariga doir mulohazalarni keltirishning o'ziyoq, dastlabki davr adabiy-tanqidiy qarashlarning nihoyatda to'g'ri, haqqoniy ekanligidan darak beradi. Diqqatga loyiq tomoni shundaki, – deydi u, – muallif badiiy tasvirning taqlidiy-haqqoniy bo'lishligini targ'ib qilish bilan barcha shoirning mubolag'adan foydalanishiga ham e'tibor qaratadi. Ammo bu mubolag'a o'rinli bo'lishini alohida ta'kidlaydi.

Olim Mahmud Koshg'ariy haqida fikr yuritarkan, uning adabiyotshunoslik sohasidagi xizmatlariga alohida e'tibor qaratadi. Uning "Devoni lug'otit turk" asarida keltirilgan adabiy janrlarga e'tibor qaratib, bu janrlarni fors-tojik adabiyotida qayd etilgan adabiy janrlarga o'xshamasligini yozadi. Shu kabi xulosalardan kelib chiqib, mazkur janrlarni ikki guruhga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb topadi. Shu boisdan ularni, kichik nasriy janrlar va lirik janrlarga ajratadi. "Etuk", "otgunch", va "sov" kabi janrlarni ilk turkiy adabiyotdagi nasr ko'rinishlari sifatida tadqiqotiga olib kiradi. Ushbu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkin. Turkiy(o'zbek) adabiyotida qadim davrlardan boshlab, birinchi epik janrlar yuzaga kelgan, lirik janrlar esa keyingi davrlar mahsulidir.

Natijalar va muhokama. Adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidiy qarashlar, "Taraqqiyot bosqichlari"da tamoman yangi bosqichga ko'tarildi. Olimning ta'kidlashicha, mazkur davrda adabiy janrlar mukammallashibgina qolmay, aynan shu davrda ko'pgina "janr"lar ham adabiyotshunoslikka kirib keldi. O'zbek tilidagi birinchi tazkira, manoqib, she'riyatga doir risolalar shu davr mahsuli ekanligini e'tirof etadi. Shunisi e'tiborliki, bu davrda adabiy-tanqidiy qarashlarni ifodalashda umumiylik, qorishqlik o'rnini nisbatan aniqlik egalladi, – deb yozadi olim. Shu bilan birgalikda, olim bu davrda nafaqat adabiyotda, balki adabiy-tanqidiy qarashlarda ham zullisonaynlik ko'zga tashlana boshlanganligini e'tirof etadi. Olim ushbu bo'limda ko'proq Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlariga e'tibor qaratadi. So'z avvalida navoiyshunoslik maktabi namoyondalarini sanab o'tadi, so'ngra esa Navoiyning aynan adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rgangan olimlar haqida ma'lumot beradi. Ularni e'tirof etadi. Hurmat bilan tilga oladi. Domla Navoiy dahosi haqida mulohaza yuritganda, unga yuksak darajadagi hurmatini, hayratini fikrlarida namoyon etadi. Alisher Navoiyning adabiyotshunos olim va adabiy tanqidchi sifatidagi faoliyati ko'pincha bir-biriga qorishib ketadi. Ular yaxlitlikda

namoyon bo'lishligini chuqur anglaydi. "Alisher Navoiyning adabiyotshunos olim va adabiy tanqidchi sifatidagi faoliyati uning badiiy ijod sohasidagi shoirlik maromi hamda ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun Alisher Navoiy badiiy so'zning inson va uning manfaatlariga xizmat qilishi, haqiqat va rostlik asosida yaratilishi hamda yolg'ondan uzoq bo'lishi lozimligi masalasiga alohida diqqat qiladi".

Necha zarurat aro qolg'on chog'i,

Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i [1; 310-b].

Navoiyning "haqiqat" va "yolg'on" deganda nimalarni nazarda tutganligini tahlil qilarkan, mazkur mulohazalar Aristotel, Farobiy, Abu Ali ibn Sino kabi olimlar mulohazalari bilan umumiylik kasb etishini misollarda ko'rsatib beradi. Bu bilan Botirxon Valixo'jayev nafaqat Navoiyning qarashlarini istifoda etadi, balki o'zining ham zukko, donishmand olim ekanligini anglatib o'tadi. Aristotel, Farobiy, Abu Ali ibn Sino falsafasini chuqur o'rgangan olimgina mavjud asarlarni tadqiqot manbalariga qiyoslay oladi.

"O'zbek adabiy tanqidi tarixi" [2; 8-b] mualliflari adabiyotshunos va tanqidchi orasida muayyan farqlar mavjudligini yozadilar: 1) adabiyotshunos, asosan, ilmiy tafakkur maydonida, tanqidchi esa ilmiy-publistsistik va badiiy tafakkurning mushtarak maydonida harakat qiladi; 2) adabiyotshunos fundamintal muammo va xulosalar ustida, adabiy tanqidchi esa jonli adabiy jarayon ustida so'z yuritadi". Xuddi shu holatni ham Botirxon Valixo'jayev tadqiqotlarida ham kuzatish mumkin. Uning yozishicha: "Alisher Navoiy o'tmish shoirlari ijodiga ham, zamonasidagi qalam sohiblari ijodiy faoliyatlariga ham turli shakllarda baho berdi, ular haqida fikr yuritdi. Agar o'tmish shoirlariga bo'lgan munosabatda Alisher Navoiy ko'proq adabiyotshunos sifatida ko'zga tashlansa, zamondoshlari haqida so'z yuritganda, adabiy tanqidchi sifatida namoyon bo'ladi".

Botirxon Valixo'jayev Navoiyning "Majolis un-nafois" asarining adabiy-tanqidiy qarashlar tarixidagi ahamiyati borasida batafsil to'xtaladi. "Majolis un-nafois"da asosan o'tmishda yashab o'tgan shoir va olimlarnig adabiy merosi, yashash joyi tilga olinishini, zamondoshlariga esa juda kam o'rin ajratilganini to'g'ri ta'kidlaydi. O'zigacha yaratilgan tazkiralarni chuqur o'rgangan Navoiy "Majolis un-nafois"ni boshqalaridan, undan oldin yaratilganlaridan chuqur farqlanishini yozadi. Uning sakkiz majlis – bobdan iborat ekanligi, bu majlislarni shoir va qalam ahlining joylashtirilishi nuqtayi nazaridan uch guruhga ajratilishini tushuntiradi. Masalan, ikkinchi guruhning IV-V majlislarida asosiy kasblari boshqa bo'lib, ba'zan she'r bilan qiziquvchi va hatto she'r bituvchi fozil kishilar haqida bahs yuritilgan bo'lsa, VI majlisda yuqoridagilar bilan bir qatorda, sohibdevonlar ham tilga olinadi.

Olim mazkur tazkirani 7 qismga ajratib o'rganishni ma'qul ko'radi. Har bir qism o'tkir, olimona nigoh bilan tekshiriladi, munosabat bildiriladi. Shu bois tazkira haqida o'zining yagona xulosasini bera oladi: "Navoiyning "Majolis un-nafois" asari o'zining xususiyatlari bilan, bir tomondan, tazkirachilik an'anasining nodir yodgorliklaridan biri sifatida ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, adabiy hayotning har tomonlama o'rganish uchun noyob manbaligi bilan ham qimmatlidir. Asarda keltirilgan ma'lumotlar XV asr adabiy muhitida zullisonaynlik, mavzu va janriy rang-baranglik, hunarmandlik mavqeyining osha borishi, turli xil adabiy yo'nalishlarning mavjudligi, mumtoz adabiy an'analarga bo'lgan munosabat va, xususan, bu davr adabiy muhitida Alisher Navoiyning ulkan mavqeyini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi" [1; 337-b]. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, har bir majlisning o'zi ham maxsus tuzilmaga ega bo'lib, shoirlar ma'lum bir izchillik bilan joylashtirilganligi tadqiqotlar natijasidan anglashiladi. Qo'llanmaning "An'ana va yangilik" deb nomlanuvchi uchinchi qismi XIV asrdan XIX asr oxirigacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi. Tadqiqot davomida fors-tojik tilida yozilgan bir nechta tazkiralalar tilga olinadi, ulardagi she'r va shoirlik borasidagi fikrlarga munosabat bildiradi. Shundan so'ng esa o'zbek tilida yozilgan adabiy-tanqidiy

materiallarga e'tibor qaratadi. Jumladan, Munis Xorazmiyning "Firdavs ul-iqbol" asari tarixiy asar bo'lsa-da, madaniy va adabiy muhit borasida qimmatli ma'lumotlarga boy ekanligi yoziladi. Uning ayrim she'rlaridagi she'r va shoirlik haqidagi fikrlarini tahlil qiladi. Mazmun-mahiyatini o'quvchi bilan baham ko'radi. Xorazmiy "haqiqiy shoir xalq uchun xizmat qilishi, ularning e'tiborini qozona bilishi lozimligiga ishora ham qiladi", deb yozadi. Munis she'rini "tig'i dudama", "mahkam imorat" sifatida tilga olib, uning yaratuvchilari – shoirlar ana shu fazilatni hisobga olgan holda badiiy ijod bilan shug'ullanishlari ma'qulligini uqtirishadi. Bu bilan – deydi olim, - Munis shoirlarni o'tkir va badiiy jihatdan barkamol she'rlar yozishga undaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ham adabiy-tanqidiy qarashlar imkoniyat darajasida matbuot yuzini ko'rganligini, ya'ni yangicha ko'rinishda, gazeta sahifalarida nashr etilganligini, yozadi olim. Uning qayd etishicha, 1870-yildan keyin Turkistonda "Turkiston viloyati gazetasi" "Turkistanskiye vedomosti" gazetasiga ilova tarzida nashr etila boshlaydi. Mahalliy ziyolilar ana shu gazeta sahifalarida, ya'ni podsho hukumati manfaatlariga xizmat qiluvchi matbuotdan o'zlarining ilg'or g'oyalarini ifodalashda foydalanadi. Furqatning "Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli o'zi yozg'oni" deb ataluvchi maqolalar turkumida XIX asrning yangicha ko'rinishdagi adabiy-tanqidiy qarashlarini kuzatish mumkin, deydi. So'ngra esa bu holat keng tus oladi: "O'sha vaqtda nashr ettiriladigan "Turkiston viloyati gazetasi", "Sadoyi Farg'ona", "Al-Isloh", "Oina" kabi ro'znoma va majallalar sahifalarida u yoki bu shoir ijodiga, asarlariga bag'ishlangan turli saviyadagi maqolalar, she'rlar bostirilar edi. Shoirlarga, masalan, Ogahiy, Muqumiy, Haziniy, Muhayyirga bag'ishlangan maqolalarda ularning hayoti va ijodi to'g'risida ayrim ma'lumotlar beriladi. Bunday maqolalar muallifning dunyoqarashi saviyasida yoziladi. Ro'znoma sahifalarida ba'zan ilg'or shoirlar ham tanqid qilinardi, deb yozganida olim ayni haqiqatni yozgan edi. Davr adabiy ruhini to'g'ri anglagan, adabiy-tanqidiy qarashlarni bir kuzatuvchi-tadqiqotchi sifatida yoritilishining o'ziyoq o'quv qo'llanmaning nihoyatda muhim tadqiqot ishlaridan biri ekanligini anglatadi.

Xuddi shunday matbuot sahifalarida e'lon qilingan Nozimaxonim fikrlarini bugungi kun tanqidchiligi darajasidagi fikrlar deb baholaydi. "O'z adabiyotining tarqqiyoti borasida jo'sturu qilib, har toifa adib va shoirlar yetishtirmoq g'amini yemagan millat oxir bir kun hissiyotlardan, o'y-fikrlardan mahrum qolib, oxir natijada ma'nan inqiroz sari yuz tutar" [1; 389-b]. Mazkur fikrlar Cho'lponning "Adabiyot nadur" maqolasi bilan hamohanglik kasb etadi. Bu maqola 1914-yil "Sadoyi Turkiston" gazetasida e'lon qilinadi. Cho'lponning matbuot yuzini ko'rgan ilk maqolasi. Ozod Sharafiddinov "Adabiyot yashasa – millat yashar" maqolasida Cho'lponning asaridan quyidagi parchani keltiradi: "Ha, to'xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar bilan kirlong'on ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o'lmagan va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydin, fikrdan mahrum qolib sekin-sekin inqiroz bo'lur" [3; 66-b].

Xulosa va takliflar. Har ikkala maqola bir-birini to'ldiradi. Qaysi maqola avval yozilganligi yoxud nashr etilganligi to'g'risida esa Botirxon Valixojayev fikr bildirmaydi. Shu haqda ham munosabat bildirib ketilsa, albatta, maqsadga muvofiq bo'lardi. Mazkur adabiy-tanqidiy qarashlar olim nazdida, yangi o'zbek tanqidchiligining yuzaga kelishida ko'prik vazifasini o'tab beradi.

O'lim o'z tadqiqotining uchinchi qismida Boburning adabiy-tanqidiy qarashlariga ham e'tibor beradi. Boburning "Boburnoma", "Aruz risolasi" shu yo'nalishda yozilgan asarlardandir. Bobur ham ustoz Alisher Navoiy kabi she'rda mazmun yetakchilik qilishini yoqlaydi, shaklbozlarni esa qoralaydi. Masalan, she'r haqida mulohaza yuritib, she'rning mazmunli bo'lishi bu mazmun afsonaviy "obi hayvon" kabi kishilarga ta'sir

qilishi kerakligi, she'r mazmuni o'quvchiga biror narsani o'rgata bilishi lozimligini alohida uqtiradi, Bobur dunyoqarashida she'rning mazmuni katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etishi to'g'ri anglangan. Olim Boburning mazkur she'rini fikrining isboti sifatida keltiradi.

*Ey kim, bari she'r ahliga sen xon yanglig',
She'ring bori she'rlarga sulton yanglig'.
Mazmuni aning xati savodi ichra,
Zulmat orasida obi hayvon yanglig' [1; 390-b].*

Botirxon Valixo'jayev Boburning ayrim shoirlar ijodiga noxolis, bir yoqlama yondoshganlagiga ham to'xtalib o'tadi. Jumladan, Muhammad Solih ijodi borasidagi fikrlarini misol tariqasida keltiradi. Uning "Shayboniynoma" dostonini qoralashini, tanqid qilishini, o'z manfaatidan kelib chiqib esa birgina baytini maqtaganini aytib o'tadi. *Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona, Qildi Farg'onani tanbalxona...* Shuningdek, Boburning Shayboniyning boshqa avlodlari haqida ham shunga o'xshash fikrlar mavjudligini ta'kidlab munosabat bildiradi. Shu bilan birgalikda, Bobur faqat dushmanlari tomonidan yozilgan she'rlarni tanqid qilmasdan, amakisi Sulton Husayn Mirzoning adabiy faoliyatiga ham iliq munosabat bildirmaydi, deb yozadi. Ko'rinadiki, Bobur adabiy tanqidda qattiqqo'l munaqqid sifatida gavdalanadi. Bekordan bekor birovning ijodini maqtavermaydi. Maqtashdan ko'ra uning "sust" va "furud" tomonlarini ochib ko'rsatadi. Bu kabi fikrlarni ustoz Hiloliyning "Shoh va Darvesh" dostoniga Bobur tomonidan bildirilgan tanqidiy fikrlar misolida tushuntirib beradi. Boburning adabiy-tanqidiy qarashlarini baholashda olim yetuk mutafakkirning badiiy ijod borasidagi fikrlarini namuna sifatida keltiradi. Boburning umumiy baholar bilan chegaralangan "yomon aytmas edi", "she'rlari yomon emas", "hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas" kabi fikr-mulohazalari bilan bir qatorda, Shayxim Suxayliy, Hiloliy kabi shoirlar ijodiga kengroq yondoshganini ham qayd qilib o'tadi. Shuningdek, Boburning "badiiy ijod ahli oldiga, xususan, shoirlar oldiga katta va sharaflı vazifalarni qo'ymoqda; badiiy asar hayotiy voqealar asosida yaratilishi va "rost bitilishi" kerak. Boburning yuqoridagi qarashlarida XVI asr o'zbek adabiyotining hayotiylik va haqiqatga tomon intilganini ko'rish mumkin. Haqiqatan ham, agar adabiyot va hayotiy voqealar o'rtasida tabiiy va jonli bog'lanish bo'lmasa, badiiy asarda hodisa-voqealar "san'atkorona", ayni vaqtda bema'ni, buzulgan tarzda tasvirlanishi mumkin. Bas shunday ekan, badiiy adabiyot hayot bilan bog'lanib, uni to'g'ri tasvirlaganidagina qiymatga ega bo'ladi. Bobur "bayoni voqeini...rost bitilgay", - deb yozganida ana shu masalaga ishora qilganini ta'kidlaydi olim.

Boburning badiiy asarning tiliga, uning "ravshan va pok" bo'lishiga alohida e'tibor qaratganini olim e'tirofli o'rinlardan hisoblaydi. Bu narsa, - deydi Botirxon Valixo'jayev, - O'zbek she'riyati va adabiyotshunosligida azaliy muammo bo'lib kelgan bu muammoga har bir el ichidan chiqqan ziyoli katta e'tibor qaratgan. Shuning uchun ham u Boburdagi bu qobiliyatni qonuniy zarurat deb hisoblaydi.

Umumlashtirib aytganda, "Boburnoma" o'zbek mumtoz adabiyotida ko'pgina xususiyatlari bilan Alisher Navoiydan keyingi davr adabiy tanqidchiligida, uning darajasini belgilashda muhim manba hisoblanadi, deb ayni haqiqatni yozadi olim. Botirxon Valixo'jayev Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi" haqida bor haqiqatlarni yozadi. Risolaning taqdiri. Qayta topilishi, u haqdagi zamondoshlarining fikrlarini misol sifatida keltiradi. Bobur mazkur risolani yozishda shunchaki qalami kuchini sinab ko'rish emas, balki o'zidan oldingi aruz haqidagi asarlarni puxta o'rganib, so'ng bu ilmiy tadqiqot ishiga o'tirganligini qayd etadi. Boburning "Mezon ul-avzon" hamda "Mezon ul - ash'or" asarlari to'g'risidagi mulohazalari fikrimizni isbotlaydi, - deb yozadi. Olim Hasan Nisoriyning Bobur ijodiga yuqori baho berib, jumladan "risolai aruzi" to'g'risida samimiyat bilan so'z yuritganini aytadi. Asarni "durru gavharga to'la dengiz"

deb tavsiflashini alohida e'tirof etadi. Zamonasining taniqli aruzshunosi Hasan Nisoriy bir mutaxassis sifatida Boburning risolasi haqidagi fikrlari tahsinga sazovorki, bu bilan Bobur aruz qonun-qoidalarini mufassal biladigan olimligidan dalolat beradi. "Zahiriddin Muhammad Boburning aruzga bag'ishlangan risolasi o'zbek she'rshunosligi taraqqiyotining qonuniy talablari natijasi hamda Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"ining davomi sifatida maydonga keldi. Agar Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari o'zbek she'rshunosligining Navoiyga qadar va uning davridagi, qisman Navoiy ijodidagi xususiyatlarini xususan aruz bilan bog'liq tajribalarni nazariy jihatdan umumlashtiruvchi asar bo'lsa, Boburning risolasi Alisher Navoiy ijodiy merosi va qisman muallifning Boburning tajribalari asosida maydonga kelgan asardir. Ana shu holning o'zi Bobur risolasining qiymatini yanada oshiradi va XVI asrning 20-yillarigacha bo'lgan o'zbek she'riyatini aruz nuqtayi nazaridan izohlaydigan asar ekanidan dalolat beradi", [1; 405-b] – deb o'zining qat'iy munosib bahosini beradi. Boburning "Aruz risolasi"ni keng va atroflicha o'rgangan olim uni faqat aruz vazni bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi deyishlik xato ekanini uqtiradi. Asarning shu yo'nalishdagi boshqa asarlardan farqi, o'ziga xosliklari sifatida quyidagi xususiyatlarni keltirishni ma'qullaydi:

- 1) O'zbek she'rshunosligi hamda eski o'zbek tili fonetikasining aruzga munosabati;
- 2) Turkiy – o'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma she'rshunosligidagi o'zaro ta'sir;
- 3) Muallifning o'zbek, ozarbayjon va fors-tojik adabiyotlarining zabardast namoyondalari ijodi, asarlari haqidagi mulohazalari;
- 4) Asarda adabiyotshunoslikning muhim masalalari qardosh xalqlar adabiyoti misolida ham yoritilishi.

Mazkur fikr-mulohazalar Botirxon Valixo'jayevning Bobur adabiy-tanqidiy merosini o'rganishda olimlik rutbasini yuqori darajada ko'rsata olganligini bildiradi. Bundan tashqari Bobur aruz haqidagi risolasida "xalq qo'shiqlari", "yor-yorlar" hamda "tuyuq" janriga xos ko'pgina ma'lumotlarni ham beradi. Bu bilan oydinlashadiki, "Aruz risolasi" faqatgina adabiyotshunoslikka oid asar bo'lib qolmasdan o'zbek adabiyotining bir qator janrlarini o'rganish uchun ham noyob manbalardan hisoblanadi. Demak, Boburning qayd etilgan risolasi faqat o'zbek she'rshunosligi tarixini o'rganish bilan cheklanmay, balki o'zbek adabiy-tanqidiy qarashlari taraqqiyotini, uning yangiliklarni izlash yo'lidagi targ'ib-tashviqotlarini rivojlanishini ilmiy o'rganish uchun ham bebaho manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Botirxon Valixo'jayev "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi" tadqiqoti bilan eng qadim o'tmishdan XIX asr so'ngigacha bo'lgan davrni keng planda o'rgandi. Adabiy-tanqidiy qarashlar tadrijiyligini bir yetuk olim nigohi bilan ilmiy izchillikda ko'zdan kechirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Валихўжаев Б. Танланган асарлар. 3-жилд. – Т.: Zilol buloq, 2023 йил, 285 - бет
2. Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қахрамонов Қ., Ўзбек адабий танқиди тарихи. – Т.: Tafakkur qanoti, 2012 йил, 8 - бет
3. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. - Т.: Шарқ. 2004 йил, 66 –бет
4. Валихўжаев Б. Сайланма. 1-жилд. – Самарқанд: СамДУ. 2022. – 276 б.
5. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2002 yil.
6. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Т.: O'zbekiston, 1993 yil.
7. Каримов А. Амир Темура ҳақида сўз. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 127 б.
8. Мирзаев С. Шарқ адабиётининг донишманди. Б.Валихўжаев. Библиографик кўрсаткич. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002 йил, 139 - бет
9. Нурли йўллар. Илмий мақолалар тўплами.–Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. 153б.
10. Файзий Д. Самарқанд адабиётшунослик мактаби. Адабий портрет. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. – 138 б.

ROMANDA TASVIR VA TALQIN UYG'UNLIGI

Duysenbayev Olimjon Ismailovich

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

olimboy-nukus-78@bk.ru

ORCID 0009-0000-5455-9318

UDK 821.512.133-31

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek nasrida roman janrining badiiy-kompozitsion xususiyatlari, xususan, syujetdan tashqari unsurlar — portret, peyzaj, epizodik lavhalar hamda lirik chekinishlarning asar g'oyaviy-estetik yaxlitligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot Nabijon Hoshimovning "Tog'lik qiz" romani misolida olib borilib, unda personaj ruhiyatini ochishda tasvir va talqin uyg'unligining poetik imkoniyatlari yoritiladi. Muallif portret orqali xarakter yaratish, peyzaj yordamida qahramon ichki kechinmalarini ifodalash hamda lirik chekinishlar orqali falsafiy umumlashmalar berish usullarini tahlil etadi. Maqolada kompozitsion yaxlitlikning roman badiiyatidagi ahamiyati, muallif pozitsiyasining ifodalanishi va obrazlar tizimining estetik ta'sir kuchi ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari roman poetikasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: roman, syujet, kompozitsiya, portret, peyzaj, lirik chekinish, obraz, ruhiyat, estetik tafakkur.

THE HARMONY OF DEPICTION AND INTERPRETATION IN THE NOVEL

Annotation. This article analyzes the artistic and compositional features of the novel genre in modern Uzbek prose, focusing in particular on extra-plot elements such as portrait, landscape, episodic scenes, and lyrical digressions, and their role in ensuring the ideological and aesthetic integrity of a literary work. The study is based on Nabijon Hoshimov's novel "Tog'lik qiz", through which the poetic possibilities of the harmony between depiction and interpretation in revealing the inner world of characters are examined. The author explores the functions of portrait in character formation, the use of landscape in expressing inner emotional states, and lyrical digressions as a means of philosophical generalization. The article also discusses the significance of compositional coherence in the artistic structure of the novel, the expression of the author's position, and the aesthetic impact of the system of images from a scholarly and theoretical perspective. The findings of the study contribute to a deeper understanding of novel poetics.

Keywords: novel, plot, composition, portrait, landscape, lyrical digression, image, psyche, aesthetic thinking.

Kirish. Badiiy asar tuzilmasida syujet asosiy harakatlantiruvchi omil sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, uni to'laqonli ochib beruvchi, mazmunan boyituvchi kompozitsion unsurlar – portret, peyzaj, epizodik lavhalar, lirik va falsafiy chekinishlar singari vositalarning tutgan o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, roman singari keng qamrovli badiiy janrlarda bu unsurlar asarning ichki g'oyaviy qatlamlarini ochish, xarakterlar ruhiyatini teran yoritish, voqelikning badiiy-estetik qiyofasini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Kompozitsion yaxlitlik badiiy asarning mukammalligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek nasrining yirik vakillaridan biri Nabijon Hoshimov ijodi misolida roman matnida portret, peyzaj, tafsilot va boshqa syujetdan tashqari unsurlarning poetik vazifasi, ularning personaj ruhiyati hamda asar g'oyaviy-estetik strukturasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda zamonaviy adabiyotshunoslikning nazariy va amaliy yondashuvlariga tayangan holda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, roman janrining badiiy-kompozitsion xususiyatlarini yoritishda tahlil va sintez, qiyosiy-tipologik, strukturaviy-kompozitsion hamda poetik tahlil metodlari asosiy o'rin tutdi. Nabijon Hoshimovning "Tog'lik qiz" romani matni yaqin o'qish (close reading) usuli asosida o'rganilib, portret, peyzaj, epizodik lavhalar va lirik chekinishlarning g'oyaviy-estetik vazifalari aniqlab berildi. Shuningdek, personaj

ruhiyatini ochishda tasvir va talqin uyg'unligini tahlil etishda psixologik-tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Nazariy xulosalarni asoslashda adabiyot nazariyasiga oid manbalar umumlashtirilib, induktiv va deduktiv usullar qo'llandi. Tadqiqot natijalari tizimli ravishda bayon etilib, umumiy ilmiy xulosalar chiqarildi.

Natijalar va muhokama. Nabijon Hoshimov romanlarida mazkur badiiy unsurlar syujet va kompozitsiyaning janriy uyg'unligini ta'minlovchi estetik kategoriyalardan biri sanaladi. Adib romanida peyzaj va portret, epizodik lavhalar, lirik chekinishlar yozuvchi falsafiy-estetik qarashlarni yanada teran yuzaga chiqishida, o'quvchini mushohada yuritishga da'vat qiladi.

Avvalo, adabiy portret syujetdan tashqaridagi kompozitsion unsurlardan biri bo'lib, u yozuvchining xarakter yaratishdagi mahoratining nechog'li yuksakligini ham taqozolaydi. Yozuvchilar ko'pchilik vaziyatlarda kompozitsion qoliplash usuliga murojaat qilib, hikoya ichida hikoya qilishga murojaat qiladi. Syujetning eng qiziqarli joyini to'xtatib turish bilan ham, voqelikka o'zgacha tus beradi. Ayniqsa, XX asrda yaratilgan romanlarda portret va peyzaj badiiy vositasi negizida personaj ruhiyati, asar syujeti ochib berilganligini kuzatamiz. Vaholanki, adabiy portret qahramonning ichki psixologik holati-yu, asarda bajarishi lozim bo'lgan rolini ham belgilovchi poetik unsurlardandir. "Badiiy portret insonning tashqi ko'rinishi, yuzi, kiyim-kechagi, yurish-turishi tasviri bo'lib, qahramonning ma'naviy qiyofasini yorqinroq, aniqroq tasvirlash san'atidir. Portret asarning umumiy g'oyasiga bo'ysundirilgan holda qo'shimcha g'oyaviy-badiiy vazifa bajarsa va qahramon xarakterining u yoki bu qirrasini aks ettirsagina haqiqiy badiiy portret hisoblanadi"[1.112] Haqiqatdan ham, badiiy portret qahramonning botiniy va zohiriy olamini o'quvchiga tanishtirish "maydon"i bo'lish bilan birgalikda unga o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy vazifa yuklashni ham zimmasiga oladi.

Ta'kidlash o'rinliki, Nabijon Hoshimovning qahramonlari tabiatan olam va odam munosabatlari to'qnashuvlarida, ziddiyatlarida yanada ochiladi. Adib bu adabiy an'anani A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov, X.Do'stmuhammad, M.M.Do'stmuhammad, N.Eshonqul singari yozuvchilar ijodidan ham ma'lum ma'noda ta'sirlangani, ba'zi obrazlar bilan bog'liq aks ettirilgan adabiy portret tasviri romandagi Chotqol tog'i timsolida ham yanada jonli, ishonarli chiqqanini unutmaslik lozim:

"Bu yil Chotqol tog'lariga kuz barvaqt keldi. Ariqbo'yi qishlog'idan to Qumloy tepaliklarigacha yastanib yotgan, bahorda lolaqizg'aldoqlardan alvoni gilam qoplanadigan tog' oldi dashtliklarida yetilgan oqshuvoqlar izg'irin shabodasida mayin uvillaydi.

Oqshuvoqlar nolasi sirli, sitamli bo'lib, go'yo ma'suma ayolning qayg'uli yig'isiga o'xshab ketadi. Qirra toshli, qora o'rkachli tog'lar sari chiqib borar ekansiz, negadir butun Teragiston darasining mag'rur qoyalari ham boshi quyi egilgandek, masrur ko'rinadi. Ali Qurbon bulog'i atrofida qaddi bukhayib, siyrak butoqlari bilan go'yo cho'kkalab qolgan kekxa o'riklar yanada balandroq faryod chekmoqchiday tuyulishadi, Usmon ota tosh qo'rg'onidagi azim yong'oqzorlarga to'shangan xazonlar esa, mahzun shildiraydi"[2.3]

Romanda uchta portret akslangan: birinchisi, Husan portreti, ikkinchisi ona va uchinchisi tabiatning tasviri. Barcha tasvir asosiy g'oya – bola ruhiyatidagi soddalik, beg'uborlik va tashnalikni yuzaga chiqarishga xizmat qilishini payqash qiyin emas! Negaki, bolaning qalbida uyg'ongan mehr, sog'inch, istak va qo'msab yashash Ona dilidagi shafqatni yanada uyg'otib yuboradi. Mazkur asarda yozuvchi onaning ham ruhiy holati portretini dialog tarzida ham ifodalashga erishgan. Bechora mehrga mushtiq onaning o'z bolasini har kuni sog'inib yashashi, unga ko'nglida hayvonot va nabotot olamining mavjudotlari bot-bot ikki misra she'rni o'qib berishi, u takrorlashi negizida musaffo bolalikning oydin orzulariga ishora qilinmoqda. Farzandining ruhiyatidagi o'zgarishlarni teran his qilgan onaizor hech bir imkon topolmaydi. Romanda ona obrazi – oilaning markazi, ko'z qorachig'i. Yozuvchi romanga sevishtganlar taqdiri timsolida jamiyat hayotida bo'lgan va bo'layotgan uzil-kesil o'zgarishlarni shu qadar tig'iz

joylaydiki, goho o'zining nutqi bilan qahramon nutqi orasida polifonizm qorishib ketadi. Ya'ni romandagi yozuvchi g'oyasi kompozitsion qoliplash usuli tasvir kriteriyalarida voqeaning shiddat bilan ro'y berish vaqtiga bo'shatib beradi. Romandagi Hasan ruhiyatining mukammallik kasb etishiga atrof-javonibda bo'layotgan voqealar asta-sekin o'z ta'sirini o'takaza boradi. Taqdir qismati oldida qahramon jismi va ruhiyati ochlik ehtirosini tiya oladi. Yozuvchi qahramonning aniq ismini ham keltirishdan ko'ra, uni shu ko'yga solgan jamiyat – oila tabiatidagi adashishlarni tushuntirishni afzal ko'radi.

Shuni qayd etish joizki, syujet va kompozitsiya puxta tuzilgan taqdirdagina yozuvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadini to'laqonli bajargan bo'ladi. Negaki, badiiy shartlilik romanda qissaga qaraganda ko'proq ijodiy tajribani talab qiladi. Romanda voqelikni ifoda qilishda yozuvchi bir qadar erkin harakat qilsa, asardagi shtrixlar buni qisqa va lo'nda talqin qilishga keng yo'l ochadi.

Yozuvchining badiiy-estetik niyati, kompozitsiyaning yaratilib borish jarayonida oydinlashib boradi. Demak, kompozitsiya yozuvchining estetik qarashlari bilan uyg'un holda shakllanib boradi. Har bir ijodkor o'zining falsafiy-estetik qarashlari, bilim saviyasi, hayotiy tajribasi, xayol olamining benihoya kengligi, qobiliyatining iste'dod sari intilishi, o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Yozuvchi N.Hoshimovni ham ana shunday ajoyib uslub sohibi deb, bemalol ayta olamiz.

Yozuvchining kompozitsiya yaratishi va ifoda uslubi umuman boshqacha. Hammasi: asar tili, obrazlar, detal va portret, personaj nutqlari, tush, makon va joy nomlari barchasi ramziydir. Asarni oddiy kitobxon tushunishi mushkul. Balki keng qamrovli tafakkur egasi bo'lgan, o'zini va o'zi yashayotgan muhitni zarrada olam aks etganidek ko'ra oladigan, maxsus tayyorlikka ega kitobxonlar uchun yozilgandir.

Badiiy asar kompozitsiyasi yozuvchining badiiy-estetik, g'oyaviy-badiiy niyatiga mos ravishda yuzaga chiqadi. Kompozitsiyani markazida aslida syujet turadi. Ammo, har qanday asar faqat syujet yoki syujet elementlaridagina iborat emas. Badiiy asar umumiy to'qimasida "syujetdan tashqari unsurlar" ham bo'ladiki, ular kompozitsiyaning mukammalginini ta'minlaydi. Umumiy kompozitsiyaning yaratilishi jarayonida har bir konstruksiyaning maqsadli joylashtirilib borishi muallif badiiy niyatini oydinlashtirib boradi. Nazariy manbalarda keltirilishicha, "asarning syujetdan tashqari unsurlariga" peyzaj, portret, tush, xat, adabiy xarakteristika, sarlavha, epigrafi, lirik chekinish, qistirma epizod, uy-joy, jihozlar tasvirlari kiritiladi.

Yozuvchi N.Hoshimovning kompozitsiya yaratish va badiiy talqin mahorati ham o'ziga xos takrorlanmasdir. Uning romanidagi voqelikda tasvir va ifoda o'zaro uyg'unlashib, kitobxonni muayyan hayotiy voqelik bilan bog'laydi. Nafaqat bog'laydi, balki, o'tmish va kelajak o'rtasida turgan sizning ong va tuyg'ularingizni qo'zg'aydi, uyg'otadi va dialektik takomilini ta'minlaydi. Badiiy talqin uslubining o'ziga xosligi shundaki, yozuvchi jim-jimador so'zlar, har xil badiiy tasvir vositalar yoki badiiy tafakkurning yombilari majmuidan ataylab foydalanmaydi, balki g'oyaviy-badiiy niyatning amalga oshish jarayoniga qarab siz kutgan holat va vaziyatlar ifodasini hosil qilib boradi.

U biron-bir voqeani hikoya qilib berishga kirishar ekan, o'zi o'sha voqeaning ichiga kirib ketadi, uning ichida yashaydi va o'quvchini ham o'sha to'laqlinlar qa'riga, holatlar ummoniga olib kirishga erishadi. Muhimi, yozuvchining "men"i har doim yaxshi gap aytishni, barchani ezgulikka chorlashni istaydi. Chunki, o'zining aytishicha, yozuvchi ijo qilayotganda "yaxshi odamga, deyarli farishtaga" aylanishi shart. ... Zero, uning e'tiqodicha, «Iste'dod – yashirin bir gavhar. Uning jilolanishi uchun bilim kerak.

Peyzaj badiiy asar to'qimasida ko'p uchraydigan kompozitsiya unsurlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham peyzaj asarda "g'oyaviy-kompozitsion" rol o'ynaydi. Yozuvchi tabiat manzaralarini chizish orqali o'zining tabiatga bo'lgan munosabatini, inson va tabiat munosabatlariga yondashuvini qaysidir ma'noda bildirib boradi. Albatta,

yozuvchining peyzaj qo'llashdan maqsadi o'zining tabiatga bo'lgan shaxsiy yondashuvlarini ifodalashdan iborat emas. "Ayni zamonda, peyzaj asarning g'oyaviy mazmunini va xarakterlarni ochishda qo'shimcha vosita" bo'lib xizmat qiladi. "Yozuvchi peyzaj oraqali yo bevosita o'z fikrlarini bayon qiladi yoki personajlarning ichki kechinmalarini ko'rsatadi. Har ikkala holda ham peyzaj ma'lum g'oyani ifodalaydi"[3.149].

Badiiy asarda tabiat tasviri muallif niyatiga ishora, muayyan qahramonning taqdiriga ishora yoki personajlar ruhiyati bilan hamohang uyg'un bo'lib kelishi mumkin:

"Oqshuvoqlar bugun bejiz nola qilmayotgan, mag'rur qoyalarning boshlari bekorga egik, kekxa o'riklarning faryodi ham yeru-ko'kni besabab tutmayotgandi. Illoh, o'sha nolalar tog' yonbag'ridagi bepoyon kengliklar bo'ylab Ariqbo'yi qishlog'ining osmoni uzra sokin parvoz qilishar va marhum Shokarim ota hovlisidan chiqayotgan mungli qayg'u ovozlari hamohang qo'shilib, butun yeru ko'kni larzaga solardi.

Bugun bundan o'n yil muqaddam og'ir infarkt xastaligini boshidan o'tkazgan va tajribali shifokorlarning «Agar mo'jiza yuz bermasa, uzoq yashay olmaydi» degan xulosalaridan so'ng nihoyat Ruqiya xola ham bu boqiy dunyoni tark etdi"[4.4]

Bu tasvirda peyzaj, portret va ekspozitsiya o'zaro uyg'unlik kasb etib badiiy shartlilikni hosil qilgan. Matndagi "oqshuvoq", "qoya", "kekxa o'rik" kabi so'z va so'z birikmalari metaforiklashib asar qahramonining taqdiriga ishora qiladi. "Yomg'ir" obrazi adabiyotda qahramon taqdiri va ruhiyatining nozik nuqtalarini ifodalashda keng qo'llaniladi. Inson taqdiri, hayot murakkabligini talqin qilishda "yomg'ir" obrazining poetik xizmati katta.

Taqdir va ruhiyat uyg'unligi tabiat tasvirida mahorat bilan chiziladi. Roman qahramoni onasi, ayoli va qizlarini ardoqlaydi, sevadi va hayotining mazmuni deb, biladi. Roman monolog-xotira, monolog-mulohaza usulida ifoda qilinadi. Inson o'tmishdan doimo o'git olib, kelajak orzusi bilan yashaydi. Yozuvchi romanda aynan shu nuqta bo'rtib, qabarib ko'rinib turadi.

Avvalambor, badiiy nutq ikkita ko'rinishda bo'ladi: muallif nutqi va personaj nutqi. Muallif nutqi asosan hikoya qiluvchi ya'ni hikoyachi tarzida keladi. Yozuvchi asarlaridagi peyzaj, portret, qahramonlarga berilayotgan adabiy xarakteristika kabilar muallif tilidan bayon qilinadi. Muallif nutqi asarning bir bo'lagini, yaxlitligini ta'minlab boruvchi asosiy vositadir. Muallif nutqi real voqelar oqimining mantiqiyliigi va qonuniyligini ta'minlab boradi. Kitobxon bilan asar voqeligi o'rtasida kommunikativ aloqa o'rnatadi.

Badiiy asar yaxlitligini, bir butunligini ta'minlashda muallif xarakteristikasining o'rni alohida. Chunki tasvir va talqin obyektiga haqida kitobxonga ma'lumot beruvchi unsur bu – albatta ta'rif-tavsiflardir.

Bu bizga qahramonni, vaziyat, holatni to'g'ri tushunishimizga yordam beradi. "Ta'rif – tavsif(xarakteristika) – ma'lum bir hodisa, kishi yoki predmetga xos xususiyat va sifatni aniqlashdir. Ta'rif - tavsifda, birinchi navbatda, muallifning o'z qahramoniga munosabati – pozitsiyasi ifodalanadi, ikkinchidan, kitobxonlarda ularga faol munosabat hislari uyg'otiladi"[5.171]

Yozuvchi romanida ta'rif-tavsiflar nafaqat asar qahramoniga balki badiiy talqin obyektiga bo'lgan narsa-hodisalarga ham, shartli metaforik obrazlarga ham beriladi. Romanda shunday muallif xarakteristikasi uchraydi:

"Mushtariy tog' bag'rida, katta bobosidan avloddan avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan Usmon ota qo'rg'onida o'sib ulg'aydi. Otasi Sarbardin aka asli qipchoq qavmidan, mohir cho'ponlardan edi. Onasi Salomatxon qo'tondagi uy yumushlari bilan tinimsiz band bo'lib, tong yorisha boshlashi bilanoq sigir va echkilarini sog'ar, non yopar, tappi qilar, kuvda qaymoq iylar, sut qaynatib qatiq uyutar, suzma, pishloq, qurtlar

tayyorlar va tinimsiz boshqa uy-ro'zg'or ishlarini bajarar, jun ro'mol to'qir va har oqshom tog'dan horib-charchab kelgan erini yuvib-tarar, bolalariga qarardi. Tog'da elektr chirog'i bo'lmagani uchun ular barvaqt yotib, erta turishar, tog'u toshda dunyoning ishlaridan deyarli bexabar juda oddiy umrguzaronlik qilishardi.

Mushtariy maktab yoshiga yetganida uni Ariqbo'yilik xolasinikiga tashlab kelishdi. U singlisi Surayyo bilan faqat dam olish va ta'til kunlarigina toshqo'tonga kelishar, ba'zan otalari otliq borib ulardan xabar olib, qaytishda bozordan zaruriy narsalar bilan qaytardi. Mushtariy bolaligidan tog'ma-tog' qo'y-echkilarni boqib, musaffo havodan to'yib, faqat sutu qatiq ichib ulg'ayganidanmi, o'zining chaqqonligi, shaddodligi, qolaversa, iqtidorli ekani bilan boshqa tengdoshlaridan keskin ajralib turardi. Ayniqsa, sport musobaqalarida, milliy o'yinlar o'ynalganida, raqs kechalari, she'riy mushoiralar bo'lganida unga teng keladigani yo'q edi. Ba'zan Ariqbo'yi, G'ova, Baliqchi, Madaniyat kabi qo'shni qishloqlarning yoshlari bilan ham bellashuvlar bo'lib turardi. Navro'z kunlari bo'lsa, to'rttala qishloqning yoshu qarisi tog' yonbag'rida lolaqizg'aldoqlar bilan qoplanadigan alvon dashtlaru yam-yashil tog'larga xalq sayliga chiqishar, bu joylarda asosan, to'rttala qishloq vakillari ishtirokida milliy o'yinlar va sport musobaqalari o'tkazish doimiy an'anaga aylanib qolgandi" [6.10]

Xulosa. Roman ekspozitsiyasida dastlab tog'lar va vodiylar tasviri keltiriladi. Chotqol tog'i borasidagi ta'rifu-tavsifda muallifning bu toqqa bo'lgan salbiy munosabati anglashiladi. Tog' haqidagi tavsifni o'qigan kitobxon retrospektiv tafakkur qiladi va Ibrohim payg'ambar zamonidagi shakkok hukmdor hikoyatini eslaydi.

Roman matnidagi tog'lar, qo'sh qoyalar, buloqlar, cho'qqilar oddiy texnik tushunchalar emas. Balki, muallif nazaridagi aka-uka va Mushtariyning shartli obrazi desak, xato bo'lmaydi. Yozuvchi Hasan va Mushtariyning qismatini "Qo'sh qoya"ga qiyoslab talqin obyektiga o'z yondashuvini ochiqqlagan. Yozuvchi shartlilik va metaforik obrazlar orqali o'z g'oyalarini detallashtirishga harakat qilgan. "Butunlik, yaxlitlik, tugallanganlik hikoya janrining eng muhim belgilari sanaladi-ku, ularni ta'minlashda detalning roli juda muhimdir"[7.207]. Hikoyachi muallif (farzand) yoshligini, tug'ilib o'sgan qishlog'ini, bolaligi o'tgan tog'larni eslab, Mushtariydan eshitgan rivoyatlarki, eslab beg'ubor sevgilisini xotirlaydi. Sevishganlar rishtalari mana shu tasvir va ifodalarda uyg'unlik kasb etgan.

Xulosa qilib aytganda, roman janrining badiiyati syujet va kompozitsiya orqali to'laqonli namoyon bo'ladi. Nabijon Hoshimovning "Tog'lik qiz" romanida portret, peyzaj, lirik chekinishlar kabi kompozitsion unsurlar asarning syujet chizig'iga bevosita bog'langan holda qahramon ruhiyatini ochish, g'oyaviy-estetik maqsadni teranlashtirish xizmatini bajaradi. Bunda ayniqsa, ona va bola obrazlarining psixologik tafsifi orqali jamiyatdagi muhim ijtimoiy muammolar, insoniy qadriyatlar, mehr va iztirob holatlari o'ta ta'sirli tarzda ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шукуров Н ва бошқ. Адабиётшуносликка кириш. –Т: "Ўқитувчи". 984. –Б.112.
2. Шукуров Н ва бошқ. Адабиётшуносликка кириш. –Т: "Ўқитувчи". 1984. –Б.3.
3. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. "O'zbekiston", T. 2002. –B. 149.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. "O'zbekiston", T. 2002. –B. 114.
5. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. "O'zbekiston", T. 2002. –B. 171.
6. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. "O'zbekiston", T. 2002. –B.10.
7. Karimov B. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. "Turon-iqbol", T. 2011. –B. 207.

**MULTIMODALITY IN SOCIAL MEDIA COMMUNICATION:
INTERACTION OF VERBAL AND VISUAL MODES****Aminov Farrux Komiljon o'g'li**

Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

aminov.fk@qarshidu.uz

ORCID: 0000-0001-5429-0929

UDK 81'42:004.738.5

Abstract. In order to create meaning, modern social media communication is intrinsically multimodal, combining spoken language with visual and other semiotic resources. The interaction between verbal and visual modes on Instagram is the main focus of this study, which investigates multimodality in social media communication. Employing a subjective multimodal talk examination technique, the think about looks at a purposive test of Instagram posts made by well-known influencers. The think about looks into how photographs, captions, emojis, and visual composition work as a coherent semiotic framework.

The discoveries illustrate that verbal components such as captions frequently depend on visual fabric for semantic completion, though visual modes get interpretative clarity through supporting literary signals. Emojis and other visual components have been appeared to have noteworthy practical parts in group of onlookers engagement, interpersonal arrangement, and stance-taking. Moreover, visual surrounding and elaborate consistency have a major effect on personality creation and talk coherence.

The consider concludes that meaning in social media talk comes from the facilitated interaction of multiple semiotic modes instead of from discrete dialect units. This article advances media linguistics and discourse studies by emphasizing multimodal interaction and emphasizing the need for linguistically informed multimodal approaches to analyze modern digital communication.

Keywords: multimodality, social media discourse, Instagram communication, multimodal discourse analysis, verbal and visual interaction, media linguistics, digital communication.

**IJTIMOY TARMOQLARDAGI MULOQOTDA MULTIMODALLIK:
VERBAL VA VIZUAL SHAKLLARNING O'ZARO TA'SIRI**

Annotatsiya. Ma'no yaratish jarayonida zamonaviy ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot tabiatan multimodal bo'lib, unda og'zaki til visual va boshqa semiotic resurslar bilan uyg'unlashadi. Ushbu tadqiqot ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotda multimodallikni o'rganib, Instagram platformasida verbal va vizual shakllarning o'zaro ta'sirini asosiy e'tibot markaziga qo'yadi. Subyektiv multimodal tahlil usulidan foydalangan holda, tadqiqot mashhur influyenslar tomonidan joylashtirilgan Instagram postlarining maqsadli tanlanmasini tahlil qiladi. Tadqiqotda izohlar, emojilar va vizual kompozitsiyaning yagona va uy'gun semiotic tizim sifatida qanday ishlashi yoritib beriladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, sarlavhalar (captionlar) kabi verbal komponentlar ko'pincha semantic jihatdan to'liq ma'no hosil qilish uchun vizual materialga tayanadi, vizual shakllar esa qo'llab-quvvatlovchi lingvistik signallar orqali talqin aniqligiga ega bo'ladi. Emojilar va boshqa vizual elementlar auditoriya bilan o'zaro aloqani kuchaytirish, shaxslararo munosabatlarni shakllantirish hamda munosabat va pozitsiyani ifodalashda muhim pragmatic vazifalarni bajarishi aniqlangan. Bundan tashqari, vizual muhit va puxta uyg'unlik shaxsiy imidjni yaratish va muloqotning izchilligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot xulosasiga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotda ma'no alohida-alohida lingvistik birliklardan emas, balki bir-biri bilan uyg'unlashgan ko'plab semiotik shakllarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Ushbu maqola multimodal o'zaro ta'sirga e'tibor qaratish hamda zamonaviy raqamli muloqotni tahlil qilishda lingvistik asoslangan multimodal yondashuvlarning zarurligini ta'kidlash orqali media lingvistikasi va diskurs tadqiqotlariga munosib hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: multimodallik, ijtimoiy tarmoqlar diskursi, Instagram muloqoti, multimodal diskurs tahlili, verbal va vizual o'zaro ta'sir, media lingvistika, raqamli muloqot.

Introduction. Social media's hazardous development has definitely changed how individuals communicate nowadays, coming about in talk that's naturally multimodal.

Social media talk joins an assortment of semiotic modes, such as composed content, pictures, recordings, emojis, typography, and spatial format, in differentiate to conventional shapes of communication that basically depend on verbal dialect. To create meaning, affect interpretation, and direct user interaction, these modes dynamically interact. As a result, social media communication presents a troublesome subject for phonetics investigate, especially within the spaces of pragmatics and talk investigation.

Early etymological investigate on computer-mediated communication centered on verbal highlights such as conversational standards, lexical development, and casual language structure in online compositions [1]. In spite of giving profitable bits of knowledge on the utilization of advanced dialect, these ponders regularly considered visual components to be coincidental or assistant. But with the rise of outwardly centered stages like Instagram and TikTok, meaning-making can now not be satisfactorily clarified by text-centered approaches alone. Verbal components like captions or comments are in some cases semantically insufficient without reference to related pictures or recordings.

The multimodality hypothetical system was made in reaction to this confinement. The facilitated utilize of a few semiotic assets, each of which contributes interesting meaning possibilities, is how multimodality conceptualizes communication [2]. Concurring to this point of view, meaning is made through an assortment of modes, counting visual, spatial, and gestural shapes. Researchers contend that these modes work as portion of a coordinate's framework instead of exclusively, particularly in advanced situations [3]. In spite of this method's broad utilize in media considers, publicizing, and instructive talk, its precise application in linguistics-focused social media inquire about remains or maybe minor.

The attention-grabbing and interaction-boosting potential of pictures and recordings has been highlighted in past social media ponders ponder [4]. Emojis have been inspected as practical identifiers that express position, feeling, or respectfulness [5]. These ponders recognize the significance of nonverbal components, but they frequently see at modes independently, dismissing to adequately talk about how verbal and visual components work together to create coherent talk implications. Because of this, little is understood about the linguistic mechanisms underlying the production of multimodal meaning.

From a discourse-analytic perspective, the interaction between verbal and visual modes greatly influences pragmatic intent. Whereas visuals can strengthen or negate the propositional meaning of captions, emojis can be utilized as fences, intensifiers, or respectful procedures [6]. Format and visual composition advance make strides literary coherence and interpersonal meaning. These discussions propose that multimodality is more than fair an tasteful include of social media communication; it is an fundamental etymological apparatus that influences elucidation, stance-taking, and gathering of people arrangement.

Despite the increasing scholarly interest in multimodality, linguistically grounded research that focus on the interaction of modes rather than their individual functions are still needed. More research is specifically needed to investigate how verbal and visual components work together to create meaning at the discourse level in real-world social media situations. In order to advance media linguistics and create analytical models that accurately represent modern communication practices, it is imperative that this gap be filled.

Research Methodology. This study examines the interactions between verbal and visual modes in social media communication using a qualitative multimodal discourse analysis technique. A qualitative design is thought to be most suited given the exploratory nature of the study and its emphasis on meaning-making processes. Linguistic theories of multimodality and discourse, which view communication as the integration of many

semiotic resources operating in concert within particular social and cultural settings, serve as the foundation for the analysis [7]. The study highlights modes' interplay and collective contribution to discourse meaning rather than looking at them separately.

Instagram was chosen as the essential stage for information collection since of its multimodal engineering. Not at all like text-dominated stages, Instagram prioritizes visual substance whereas empowering dialect components like captions, hashtags, and comments to play a noteworthy communication part. This combination makes Instagram an especially valuable stage for considering the intelligent between verbal and visual modalities in advanced communication [8]. Also, since of its accentuation on group of onlookers interaction and mindful self-presentation, Instagram is a vital asset for phonetic inquire about.

The dataset comprises of posts from Instagram influencer accounts that are open to the open. The taking after criteria were utilized to choose influencers:

- The account is publicly accessible.
- The account has a large follower base (over 100,000 followers).
- Posts regularly combine images with extended captions.
- Content is produced in English to ensure linguistic consistency.

Influencers were selected because their postings are purposefully created for public communication and show how to strategically employ multimodal resources to create engagement, identification, and stance [9]. Influencers from the fields of public communication, education, and lifestyle were chosen using a purposive sampling technique. Thirty Instagram posts in all were chosen for examination. Every post contains:

- one or more images,
- a written caption,
- emojis and hashtags where applicable.

In order to focus on spontaneously occurring multimodal discourse, highly standardized sponsored adverts were removed from the collection of posts, which took place over a three-month period to maintain thematic consistency.

Multimodal Talk Investigation (MTI), which looks at how a few semiotic modes connected to make meaning, serves as the premise for the investigation [10]. The thought is grounded in concepts from systemic valuable phonetics, particularly the thought that meaning works at the same time at the ideational, interpersonal, and printed levels [11]. Concurring to this methodology, the taking after informative categories were associated:

- Verbal mode: down to earth signals, evaluative dialect, linguistic structure, and lexical choice.
- Visual mode: striking nature, composition, look, surrounding, and picture substance.
- Mode interaction: text-image pressure, complementarity, or semantic fortification.
- Stance-taking, interpersonal arrangement, engagement strategies, and the utilization of emojis as down to business modifiers are illustrations of down to earth capacities [12].

Each post was scrutinized in its aggregate, with specific accentuation paid to how captions studied pictures and how visual components influence talked word comprehension.

Three stages of the investigation were carried out. In order to find recurrent trends in the usage of verbal and visual resources, all of the chosen posts were first examined. Second, a thorough qualitative examination of typical posts was conducted with an emphasis on how captions, photos, and emojis interacted. Third, the results were analyzed in light of current discourse and multimodality theories.

Posts were frequently examined and cross-checked against the analytical

framework to improve analytical rigor. Finding theoretically significant patterns in multimodal meaning-making within social media discourse was the analysis's goal rather than statistical generalization.

Results and Discussion. Meaning in social media communication is created through the methodical interaction of verbal and visual modes rather than through either medium alone, according to a research of Instagram influencer posts. The findings demonstrate how emojis, images, and captions function as a cohesive semiotic ensemble to improve discourse meaning, pragmatic intent, and audience engagement.

One of the foremost vital discoveries is that verbal captions can depend on visual components for semantic completeness. Captions are frequently brief, basic, or equivocal comments that as it were make sense in connection to the going with picture. This bolsters the multimodal speculation, which keeps up that meaning is shaped from the interaction of modes instead of from discrete semiotic assets [13]. Captions like “This changed everything” or “A minute to remember” don’t have a clear referential meaning when examined as an entirety. Be that as it may, when combined with pictures that portray individual accomplishments, excursion encounters, or sensational circumstances, the visual mode offers the relevant data required for elucidation. In these circumstances, the caption coordinates the viewer’s evaluative position whereas the picture serves an ideational reason, supporting past statements that content and pictures have complimentary semantic relations [14].

Emojis have a major pragmatic role in influencer speech, according to the report. Emojis often change the illocutionary impact of captions by acting as posture indicators, intensifiers, or mitigators. To help the definitive tone and make a sense of association with the watcher, for occasion, grinning or cherishing emojis are frequently utilized with enlightening or advice-focused captions.

This result is in line with down to business perspectives that respect emojis as nonverbal prompts that compensate for the nonattendance of face-to-face interaction in advanced communication [15]. From an etymological perspective, emojis progress interpersonal meaning by communicating invitingness, solidarity, or energetic course of action. These interpersonal implications are advance fortified by visual components like color immersion, look heading, and facial expression, which appear how practical expectation is scattered all through modes instead of inserted as it were in talked dialect.

The work of visual composition in making talk coherence is the subject of another vital finding. Influencers regularly utilize repetitive color plans, surrounding methodologies, and photography points of view in their visual approaches. By organizing substance and advancing consistency among posts, these visual designs work as scholarly assets. Comparable to etymological cohesion forms in printed talk, these visual regularities illustrate that visual modes can carry out errands as often as possible related with dialect [16]. Together, repeating lexical designs (such propelling sentences and evaluative descriptive words) and visual consistency create an interesting talk character that raises gathering of people mindfulness and engagement.

The discoveries affirm that multimodality is not a decorating or optional highlight of Instagram communication, but or perhaps an urgent etymological resource. Each mode impacts and limits the other's interpretation as verbal and visual prompts work together to organize meaning. This recognition supports discourse-based speculations on multimodality that emphasize semiotic integration and significant interpretation [17].

Essentially, the discoveries adjust with nearby inquire about on computerized talk. Concurring to Mahmudova U., multimodal components of online communication have a huge effect on group of onlookers recognition and practical elucidation, particularly in socially centered computerized writings [18]. By showing how these multimodal interactions function concretely in influencer speech, the current findings expand on this

thesis and support the value of multimodal analysis in linguistics.

While combined, the findings demonstrate how important it is to use multimodal discourse analysis while researching social media communication. The intricacy of meaning-making on visually oriented sites like Instagram cannot be adequately captured by traditional text-focused linguistic techniques. Discourse coherence, pragmatic force, interpersonal relationships, and semantic interpretation are all impacted by the interaction between verbal and visual modalities.

This work advances media linguistics by highlighting the interaction of modes and proving that social media discourse ought to be viewed as a cohesive semiotic system. The results increase the linguistic validity of multimodal methods to digital communication by supporting current theoretical claims and offering empirical proof from real Instagram data.

Conclusion and recommendations. The objective of this ponder was to examine multimodality in social media communication, particularly centering on how verbal and visual modes connected on Instagram. The examination illustrates that instead of depending exclusively on words, meaning in social media talk is created by the facilitated utilize of a few semiotic assets, counting captions, pictures, emojis, and visual composition. These modes work together as a coherent framework that impacts semantic elucidation, down to earth aim, and interpersonal interaction.

The discoveries illustrate that verbal components, such as captions, frequently depend on visual substance for semantic completion, though visual components get interpretative help from going with content. Emojis and visual signals advance move forward down to business meaning by passing on area, feeling, and social aim. This debate highlights the necessity for multimodal discourse analysis to adequately capture the complexity of social media conversation and illustrates the limitations of text-centered linguistic approaches in contemporary digital communication.

The study backs the notion that, from a linguistic perspective, multimodality should be viewed as a basic analytical dimension rather than an extra feature. The findings provide empirical evidence based on real Instagram data and validate previous theoretical assertions in multimodal and discourse studies. The study also shows how multimodal techniques are methodically used to create identity, coherence, and audience alignment in public digital discourse by concentrating on influencer communication.

It is possible to make a number of suggestions for further study and real-world implementation. First, by adding bigger and more varied datasets from other social media platforms, future linguistic studies should broaden the application of multimodal discourse analysis. Finding cross-cultural trends in multimodal meaning-making would benefit greatly from comparative research incorporating several languages or cultural contexts. Second, while studying phenomena like politeness, stance-taking, persuasion, and identity building in digital contexts, academics are urged to incorporate multimodal techniques into pragmatics and discourse analysis. A more thorough grasp of how interpersonal meaning is negotiated online would be possible with such integration.

Third, the results have consequences for education and media literacy. Teachers and content producers should understand that strategic alignment of verbal and visual components is essential for successful social media communication. Teaching people multimodal awareness can improve their ability to critically analyze digital content and create more responsible and cohesive online discourse.

Finally, from an applied perspective, multimodality should be considered as a deliberate communication strategy by organizations and persons in charge of social media accounts, such as academic institutions, government agencies, and influencers. Understanding how verbal and visual modes interact can enhance digital communication's clarity, engagement, and credibility.

References

1. Herring, S. C. (2004). Computer-mediated discourse analysis: An approach to researching online behavior. *Designing for Virtual Communities in the Service of Learning*, 338–376.
2. Kress, G. (2010). *Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication*. London: Routledge.
3. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2001). *Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication*. London: Arnold.
4. Manovich, L. (2017). *Instagram and Contemporary Image*. University of San Diego Press.
5. Dresner, E., & Herring, S. C. (2010). Functions of the nonverbal in CMC: Emoticons and illocutionary force. *Communication Theory*, 20(3), 249–268.
6. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Jewitt, C. (2009). *The Routledge Handbook of Multimodal Analysis*. London: Routledge.
8. Zappavigna, M. (2016). Social media photography: Construing subjectivity in Instagram images. *Visual Communication*, 15(3), 271–292.
9. Abidin, C. (2016). “Aren’t these just young, rich women doing vain things online?” Influencer selfies as subversive frivolity. *Social Media + Society*, 2(2), 1–17.
10. O’Halloran, K. L. (2011). Multimodal discourse analysis. In K. Hyland & B. Paltridge (Eds.), *The Bloomsbury Companion to Discourse Analysis* (pp. 120–137). London: Bloomsbury.
11. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1989). *Language, Context, and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective*. Oxford: Oxford University Press.
12. Danesi, M. (2017). *The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet*. London: Bloomsbury.
13. Bateman, S. (2014). *Text and Image: A Critical Introduction to the Visual/Verbal Divide*. London: Routledge.
14. Barthes, R. (1977). *Image, music, text*. London: Fontana Press.
15. Kelly, R., & Watts, L. (2015). Characterising the inventive appropriation of emoji as relationally meaningful in mediated close personal relationships. *Computers in Human Behavior*, 62, 96–106.
16. Lemke, J. L. (2002). Travels in hypermodality. *Visual Communication*, 1(3), 299–325.
17. Forceville, C. (2020). Visual and multimodal communication: Applying the relevance principle. *Oxford Handbook of Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.
18. Mahmudova, U. U. (2025). *Raqamli texnologiyalar diskursidagi mediamatnlarning lingvistik va uslubiy jihatlari*. Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 42(1), 462–468.

MUHAMMAD G‘OZIY DEVONIDA IRFONIY MAZMUN POETIKASI

Nazmiya Muxitdinova

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

professori, f.f.d.

muxitdinovanazmiya@gmail.com

ORCID 0000-0001-7108-7244

UDK 891:709

Annotatsiya. Adabiy vorisiylik ijodiy ilhomlanish, buyuk istye’dodga taqlid qilish va ergashish tushunchalari o’ziga xos yuksak saviyadagi madaniy, adabiy hodisa bo’lib, Sharq mumtoz adabiyotining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Bu madaniy-adabiy jarayonda shakllangan san’at tarmoqlaridan qay biriga nazar tashlanmasin, asosiy maqsad «o’zidan oldingidan» o’rganib, uning g’oyasi va badiiy mahoratini rivojlantirgan holda «yangilash» ekanligi oydinlashadi. Maqolada Alisher Navoiyning ijodxonasida kasbi kamolga etgan Mirhasan Sadoiy va Muhammad G’oziy devonlaridagi hamd, na’t, munojot va manqabat mavzularidagi g’azallarida an’ana va o’ziga xoslik masalalari tadqiq etilgan. Shoirlarning bunday mavzudagi she’rlarida

salaflar anʼanalarining badiiy takomili gʻoyaviy-badiiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: devon, mavzu, gʻoya, timsol, badiiyat, anʼana va oʻziga xoslik.

Annotation. Literary continuity is a unique cultural, high-level literary phenomenon in which the concepts of creative inspiration, imitation and the continuation of great talent are one of the most important features of Eastern classical literature. Regardless of which branch of art is formed in this cultural and literary process, it becomes clear that the main goal is to "renew", learning "from the past" and developing their ideas and artistic abilities. The article examines the issues of tradition and originality of poems by Mirhasan Sadoi and Muhammad Gazi, who grew up in the workshop of Alisher Navoi. The poet's poems analyze the artistic perfection of the Salaf traditions on this topic from an ideological and artistic point of view.

Key words: devan, theme, idea, artistic symbol, art, tradition and originality.

Kirish. Oʻzbek adabiyoti Alisher Navoiy asos solgan Hirot adabiy muhitidan keyin Qoʻqonda Amir Umarxon va uning umr yoʻldoshi Mohlaroyim Nodira zamonida rivojlanishning yangi choʻqqisiga koʻtarildi. Hirot adabiy muhitidan afzal oʻlaroq, Qoʻqon adabiy muhitida oʻzbek tilida yaratilgan adabiy asarlarning salmogʻi hamda oʻzbekzabon shoirlarning miqdori oshib bordi. Natijada, ushbu davrda 20 dan ortiq sohibdevon oʻzbek shoirlari qatorida XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida yashab ijod etgan koʻzga koʻringan yirik namoyandasi –Gʻoziy¹ barhayot maʼrifiy gʻoyalardan bahramand boʻlgan mumtoz sheʼriyatimizni boyitishga baqadri hol hissa qoʻshdilar.

Devon tartib berishda dastlabki gʻazallarni hamd va munojot, naʼt va manqaba mavzularida bitish anʼanasiga Alisher Navoiy asos solgan boʻlib, bu haqda Navoiyning oʻzi “Badoyeʼ ul-bidoya” devonining debochasida batafsil toʻxtalib oʻtgan [Badoyeʼ ul-bidoya. 1987: 19]. Albatta, Navoiydan oldingi turkiygoʻy shoirlarda ham hamd va naʼt mavzusidagi gʻazallar uchraydi. Ammo ularning devonlari keng tarqalmagani bois, mazkur anʼananing sarchashmasi Navoiy devonlaridan boshlanadi, deyishga toʻlaqonli asosimiz bor. Alisher Navoiyning “alif” turkumidagi gʻazallarning dastlabki toʻqqiz gʻazali hamd, munojot va naʼt mavzusiga bagʻishlanganini eʼtiborga olsak, bundan Gʻoziy mavzu yagonaligini hisobga olib, “alif”, “be”, “dol”, “nun” harflari bilan tugallangan gʻazallarni devonning boshiga joylashganiga asos boʻlgani oydinlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Muhammad Gʻoziy devonidagi hamd, naʼt, manqabat va mavʼiza mavzularidagi gʻazallarida anʼana va oʻziga xoslik masalalari mumtoz poetika unsurlari, obraz va timsollar aspektida qiyosiy-tarixiy, konseptual, statistic, kognitiv, germeneytik metodlar asosida tadqiq etildi.

Natijalar va muhokama. Gʻoziyning birinchi hamd gʻazali fors tilida bitilgan boʻlib, Zindapil Ahmad Jomiy² devonining fotiha gʻazaliga javob tariqasida yozilgan. Ahmad Jomiyning gʻazali quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Худовандо, ба лутфи хеш гўё кун забонамро,

Ба дидорат мушарраф соз чашми хунфишноамро.

[Ahmadi Jomiy. Ashʼori devon. B. 6A]

(Mazmuni: Parvardigoro, oʻz lufting bilan tilimni burro qil; qonli yosh toʻkuvchi ikki koʻzimni diydoringga musharraf et).

Gʻoziyning gʻazali esa ayni shu vazn, qofiya turkumi va mavzuda bitilgan boʻlib, nazira talablariga toʻlaqonli javob beradi. Uning gʻazali ham salafi kabi munojot ohangida bitilgan boʻlib, umidvor bandaning tavba-tazarrusi, Haq taolo dargohi ostonasining oliy ekanligi, kalom mulkida sohibqiron boʻlishlik faqat Uning ilhomi va madai tufayli boʻlishi mumkinligi haqida. Gʻoziy Ahmad Jomiy gʻazali matlaʼining ikkinchi misrasini tazmin etib, shu yoʻl bilan maʼnaviy sarchashmasining manzilini ham oʻquvchiga nozik ishora bilan bildirib oʻtgan:

¹ Qarang: Gʻoziy. Devon. Inventar №121 Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondi. Maqolada shoir sheʼrlarining raqamlanishida ushbu manba asos qilib olindi.

² Zindapil Ahmad Jomiy (1048-1141) – Xurosonning Jom viloyatida tugʻilgan soʻfiy shoir. “Minhoj un-najot”, “Anis ut-tobein”, “Kanz ul-haqq” kabi tasavvufga oid asarlari shuhrat topgan.

Илоҳо деҳ, зи номат зеб авроқи баёнамо,
Муҳалло аз санои хеш кун теғи забонамо.
Дар он собат, ки бо хосони худ дидор бинмои,
Ба дидорат мушарраф соз чашми хунфишонамо. [G'oziy. №121: 2a]

Hamd g'azallarida izdoshlik hodisasining yana bir original ko'rinishini G'oziyning ikkinchi g'azalida mushohada etish mumkin. G'oziy devonidagi ikkinchi g'azal ham fors tilida yozilgan bo'lib, quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Эй бар қадами зоти ту шоҳид ҳама ашъе,
Авсофи камоли ту зи таъриф мубарро. [G'oziy. №121: 2b]

Mazkur g'azal Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi quyidagi matla' bilan boshlanadigan g'azal bilan mavzu-mundarija hamda g'oyaviy-badiiy yo'nalishi bo'yicha hamohang bo'lib, bundan G'oziyning forsiy g'azali Navoiyning o'zbekcha hamd g'azali javobida yozilgan, degan xulosani ilgari suradi:

Ey safhayi ruxsoring azal xattidin insho,
Debochayi husnungda abad nuqtasi tug'ro. [G'.S. 2011: 23]

G'oziy fors-tojik va o'zbek hamda ozarboyjon mumtoz adabiyotlarining yetuk bilimdoni sifatida boshqa mumtoz shoirlarning ijodidan ham yaxshi xabardor bo'lgan. Uning mazkur g'azali yaralishida Sa'diy Sheroziyning "Tayyibot" devonidagi shu qofiya turkumida yozilgan quyidagi hamd g'azali ilhom va ijodiy ta'sirlanish manbai vazifasini bajargan:

Аввали дафтар ба номи Эзиди доно,
Сониъи Парвардигори Хайи тавоно. [Sa'diy. Kuliyot. 1375: 358]

G'oziy ushbu g'azalida Sa'diy va Navoiyning ayrim fikr va qaqrashlarini boshqacha badiiy yo'sinda ifodalashga harakat qilgan. Jumladan, quyidagi baytida Sa'diy Sheroziy matla'i hamda Navoiyning g'azalidagi oltinchi baytning (Muhtoj sening dargahinga xusravu darvesh, Parvarda sening ne'matinga johilu dono) ma'no-mohiyatini qayta ijodiy yaratish yo'li bilan quyidagi tarzda bayon etgan:

Муҳтожи саҳои ту, чи султону чи дарвеш,
Рӯзиҳури хони ту, чи нодону чи доно. [G'oziy. №121: 2b]

G'oziyning mazkur g'azaldagi originalligi talmih san'atini keng qo'llanilganida namoyon bo'ladi. Uning ushbu g'azalida Yusuf, Zulayxo, Ayyub, Zakariyo kabi payg'ambarlar qismatidagi voqealarga ishora qilinadi. Shu orqali shoir hamd g'azalida qur'oni qissalarning mazmunini ham singdirib, hamd g'azallardagi motivlarni yanada kengaytirishga harakat qilgan.

G'oziyning hamd g'azallardan ko'ra uning devonida na't g'azallarning hissasi ko'proq. Shuningdek, na't g'azallari ikki tilda yozilgan bo'lib, shulardan uchasi fors-tojik tilida, to'rttasi o'zbek tilida yozilgan. Forsiy na'tlardan devonda 3-raqam bilan belgilangan g'azal alohida e'tibor talab qiladi. Shoir ushbu na'tning har bir baytini muayyan oyat yo hadis mazmuniga muvofiq tuzib, ko'p hollarda tegishli oyat va hadisdan iqtiboslar keltiradi. Jumladan, g'azalning ikkinchi baytida Qur'oni karimning ikki surasidan iqtibos keltirib, tanosub, tazod va iqtibos san'atlarining qorishiq holatidagi yuksak badiiy manzarasini yaratishga erishgan:

Аз чаъди мушкбори ту "Вал – лайл"³ – туррае,
Дар мусхафи жамоли ту сатр аст "Ваз-Зухо"⁴.

Ayni shu manzarani biz o'zbekcha na'tlarda ham mushohada etamiz:

Oyati "Vash-shams"⁵ nozildur uzoring sha'nida,

³ Shoir bu baytlarda Muhammad payg'ambar s.a.v.ni sifatlarini keltiradi va Qur'oni karim suralarini oyatlariga kelgan ba'zi so'zlarni keltirib tashbeh qiladi: وَاللَّيْلِ إِذَا يَغْشَى (Val – layli iza yag'sho) - oyat ma'nosi: «men qorong'u tun bilan qasam ichaman».

⁴ وَالزُّحَى - «Vaz-zuho» ma'nosi: «kunnig choshgohiga qasam» yoki «quyoshga qasam». Shoir Payg'ambarimiz s.a.v. jamollarini quyoshga tashbeh qilmoqda.

Surai “Val-layl” keldi vasfi zulfi anbarin⁶.

Ma'lum bo'ladiki, G'oziyning na'tlari ikki tilda yozilgani bilan poetik ifoda uslublari mushtarak bo'lib, bu bilan G'oziy o'zbek va fors-tojik tillari imkoniyatlaridan teng ravishda foydalana olish mahoratini namoyish etgan. Shuningdek, diniy motivlar e'tiqodi yagona bo'lgan o'zbek va tojik xalqlarining badiiy tafakkurida ham mushtaraklik borligi, poetik til ham deyarli bir xil ekanini amaliy tarzda ko'rsatgan.

G'oziy devonining yana bir xarakterli jihati – uning muxammas va musaddaslari joy olgan qismlari ham na't mavzusi bilan boshlanadi. Ayniqsa, tab'i xud taxmisida bir bandida xulafoyi roshidin – Abubakr Siddiq, Umar Foruq, Usmon Zinnurayn, Ali Murtazo raziyallohu anhum ismlari keltirilib, shu tariqa shoir ahli sunnat va jamoat e'tiqodida ekanini badiiy tarzda ifodalagan:

Буд Сиддики таҳи ёр туро андар ғор,
Умар он баҳри саҳо, қотили қавми куффор,
Ҳаст Усмон – садафи дурри ҳаё, кўҳи виқор,
Шери Яздон, шаҳи мардон Алии шохсавар,
Марҳабо Саййиди кавнайн, алайка-с-салавот. [G'oziy. №121: 34 b]

Muxammaslarining birini G'oziy “shiru shakar” – ikki tilda yozib, unda bir bandini o'zbekcha, bir bandini tojik tilida taxmis qiladi. Ushbu muxammasda shoir Rasululloh (s.a.v.)ning shifoat mo'jizasi haqida so'z yuritadi. Aytish kerakki, oxirzamon payg'ambarining mo'jizalari ko'p bo'lgani bilan, ulardan ikkitasi – me'roj va shifoat mo'jizalari alohida tilga olinadi. Qur'oni karimga ko'ra, me'roj mo'jizasi sodir bo'lgandan so'ng kufri va imon ahli o'rtasida aniq chegara belgilab berildi. Shifoat hodisasi esa hali sodir bo'lmagan mo'jiza bo'lib, qiyomat kuni amalga oshishi oyat va hadislarida bayon etilgan. Jumladan, “Yunus” surasining 10-oyatida shifoat mo'jizasi haqida bayon etilgan. Ammo bu mo'jizaga ayrim buzg'unchi oqimlar shubha bilan qaraydilar. Shu sababdan, sof e'tiqod va islom dinining pokligi uchun kurashadigan mutafakkir shoir va adiblarimiz, jumladan G'oziy ham ushbu mo'jiza haqida qator badiiy asarlar yaratganlar. G'oziyning talmi' san'ati asosida yaratilgan muxammasining birinchi bandi ikki tilda, qolgan bandlar esa tartib bilan o'zbekcha va tojik tillarida yozilgan:

Ey mehri ruxing shamsai ayvoni shifoat,
Qoshing madi “Bismillohi” devoni shifoat,
Og'zing o'la bir chashmai hayvoni shifoat,
Rayhoni xating – sabzai bo'stoni shifoat,
Alqissaki, boshdin ayog'ing – koni shifoat. [G'oziy. №121: 44 a]

G'oziyning g'azaliyotida ham mav'iza ohangida bitilgan g'azallar anchagina. Uning she'rlarida eng avvalo insonning qadr-qimmatini, obro'-e'tibori ulug'lanadi. Shoirning qat'iy inonchiga ko'ra, inson tabiatning gultoji, eng aziz va mukarram zot etib yaratilgan ekan, u har qanday holatda odamiylik maqomiga munosib a'mol va e'tiqodga ega bo'lmog'i lozim. Insonning xilqatidagi ilohiylikka eltuvchi aql va ruh hamda tubanlashishga etaklovchi nafs bor ekan, hayoti hamisha ikki qutbni tashkil etuvchi nafs va ruh o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi. Bu kurashda inson havoyi istaklarga izn bermasdan, qanoat, rizo, shukronalik, o'z izzatini bilish, xoksorlik, halimlik, sabr, hayo va vafo kabi ezgu xislatlar bilan botiniy olamini ziynatlab bormog'i zarur. Aksincha, nafsni junbushga keltiruvchi behuda va o'tkinchi narsalar yo'lida o'z obro'-e'tiborini qo'ldan boy berib, ikki olamda xorlikka yuz tutib, nadomat va pushaymonlik iskanjasida qolajak:

Bo'lma komi nafs uchun, har siflani oldida xam,
Obro'sizliq yugin chekmoqqa muzdur so'lmag'il. [G'oziy. №121: 10 a]

⁵ وَالشَّمْسُ وَضُحَاهَا (Vash-shamsi vazzuhoha) - oyat ma'nosi: “Quyosh bilan va uning ziyosi bilan qasam.”

⁶Vash-shasm oyati seni (Muhammad s.a.v) chiroyli yuzingdan nusxa ko'chirilgan. Val-layl oyatlarida esa seni anbaroso zulfingni sifati kelgan..

Mav'iza mavzusida yaxlit g'azallar G'oziyning devonida sanoqli – umumiy hisobda beshta g'azalni tashkil qiladi. Ularning uchasi fors-tojiy tilida, ikkitasi o'zbek tilida yozilgan. Ammo ishqiy mavzuda yozilgan g'azallarning ko'pida mav'iza ohangida bitilgan baytlar salmog'i ancha ko'p. Jumladan, ishqiy mavzuda yozilgan g'azallarning birida u quyidagi baytni keltiradi:

Zi xushdilin jahon, kom kay tavony, yoft?

Ba peshi teg'i g'amash, sina to sipar nakuny. [G'oziy. №121: 10 a]

Xulosa va takliflar. G'oziyning aqidasiga ko'ra, bu dunyo va unga bog'liq bo'lgan barcha ishlar faqat anduh va g'ussa keltiradi. Ammo ana shu qayg'ularni shodlikka aylantiruvchi bir dard borki, uning tig'iga ko'ksini qalqon qilgan kishi albatta barcha musibatlari shodlikka, g'am-alamlari quvonchga do'nadi. Bu – ishq g'ami. Aynan ishq tufayli inson o'zining odamiylik qiyofasini saqlab qolib, pirovardida o'zligi va Haq taoloning O'zini taniy boshlaydi. G'oziy ilgari surgan falsafa bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Umumiy hisobda, G'oziyning devonida hamd va munojotdan ko'ra na't g'azallar nisbatan ko'proq bo'lib, manqabat mavzusida ham na't asarlari doirasida munosabat bildirgan. Mav'iza – didaktik xarakteridagi g'azallardan ko'ra, shu mazmunda bitilgan baytlar boshqa mavzudagi g'azallar tarkibida keltirilgan. G'oziy ikki tilda ham ushbu mavzularga daxl qilib, shu tariqa ikki adabiyotning badiiy tafakkur xazinasiga aloqadri hol o'z hissasini qo'shishga harakat qilgan. Bu ham Qo'qon adabiy muhiti namoyandalarining har birida o'ziga xos ijodiy prinsiplari, uslub va raviyalari borligidan dalolat beradi. G'oziy ma'rifatparvar shoirlardir. Ular ijodi sharq shye'riyatining eng yaxshi an'analari asosida, birinchi navbatda ulug' Alishyer Navoiy lirik me'rosi ta'sirida shakllandi. Shoirlar buyuk Navoiy dahosidan, shye'riyat tilida inson haqida fikr yuritishni, ishq mavzusida so'zlashni o'rgandilar. Asarlari g'oyaviy-badiiy, mavzu mazmun sohasidagi takomilida, o'zining byeqiyos shye'riyat ustasi bo'lib yetishuvida Navoiy dahosining ilhomlantiruvchi kuchi nihoyatda katta bo'lgan. Bu o'z navbatida Muhammad G'oziy ijodining undan keyingi shoirlar uchun ijod maktabi vazifasini o'taganligida ham ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy Alisher. Badoye' ul-bidoya. MAT. 20 jildlik. T. 1. – T.: Fan, 1987. – 723 b.
2. Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. Majolis un-nafois. – T.: G'G'ulom nomidagi NMIU, 2011. – B.348.
3. Navoiy Alisher. Devon. 4-jildlik. J.1. G'aroyib us-sig'ar/ Nashrga tayyorlovchi O.Davlatov. – T.: Tamaddun, 2011.
4. Sa'diy Sheroziy. Kuliyot. – Tehron: Intishoroti Nohid, 1375. – B.358.
5. Shayxulislom Abunasr Ahmadi Jomiy Nomaqiy. Ash'ori devon. Devony Hazrat Jomy Zindapil. Qo'lyozma № 121. 6 a. <http://www.sufi.ir/books/download/farsi/jam/divan-ahmad-jam.pdf>
6. G'oziy. Devon. Inventar №121 Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi.
7. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movaraunnahr – O'zbekiston, 2009. – 290 b.
8. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. O'n jild. Yettinchi jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 278 b.
9. G'afforova Z. Alisher Navoiyning hamd va na't g'azallarining g'oyaviy-badiiy tahlili. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) diss. Samarqand, 2020.
10. История всемирной литературы. В девяти томах, том седьмой. Редакционная коллегия тома И.А.Бернштейн и друг. – Москва: Наука, 1991. – 830 ст.

IJTIMOIY-SIYOSIY LEKSIKANING O'RGANILISH TARIXI

Toshtemirov Baxtiyor Otamurodovich

QarDU o'qituvchisi

1984baxtiyor1984@gmail.com

ORCID 0009-0000-0003-3695

UDK 316.334.3(038)

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy tillarda ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanishi, rivojlanishi va ilmiy jihatdan o'rganilish tarixi yoritiladi. Ijtimoiy-siyosiy leksikaning vujudga kelishi jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi va siyosiy munosabatlarning rivoji bilan bevosita bog'liqligi asoslab beriladi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, jumladan, O'rxun-Yenisey bitiklari, o'rta asr yodgorliklari hamda keyingi davr manbalari asosida ushbu leksik qatlamning tarixiy bosqichlari tahlil qilinadi. Maqolada S.E. Malov, G. Aydarov, H.A. Dadaboyev, M.S. Xarlanova A.B. Isabekova, A.K. Kaydarov va A.A. Abdraxmanov, M.Sh. Gasimov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim manba sifatida ko'rib chiqilib, ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning genetik qatlamlari, semantik xususiyatlari va shakllanish usullari ochib beriladi. Shuningdek, XX asrda turkiy tillarda milliy terminologiyaning yangilanish jarayonlari ham yoritiladi. Maqola turkologiya va leksikologiya tadqiqotlari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-siyosiy leksika, siyosiy terminologiya, leksik-semantik taraqqiyot, tarixiy-lisoniy jarayon, jamiyat va til munosabati, terminologik tizim.

Abstract. This article examines the formation, development, and scholarly study of socio-political vocabulary in the Turkic languages. It substantiates that the emergence of socio-political lexis is directly connected with social development, state governance, and the evolution of political relations. Based on ancient Turkic written monuments, including the Orkhon-Yenisei inscriptions, medieval sources, and later materials, the historical stages of this lexical layer are analyzed. The article considers the works of scholars such as S.E. Malov, G. Aidarov, H.A. Dadaboyev, A.B. Isabekova, A.K. Kaydarov, M.Sh. Gasimov and M.S. Kharlanova as key sources, revealing the genetic layers, semantic features, and formation methods of socio-political terminology. It also highlights the processes of renewal of national terminology in the Turkic languages during the twentieth century. The article is of significant scholarly value for studies in Turkology and lexicology.

Keywords: socio-political vocabulary, political terminology, lexical-semantic development, historical-linguistic process, society and language relations, terminological system.

Kirish. Kishilik jamiyati vujudga kelgandan boshlab, odamlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlar tabiiy ravishda vujudga keladi. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida davlat subyektlari shakllanganda ular o'rtasida turli munosabatlar yuzaga keladi: ijtimoiy, siyosiy va boshqalar. Turli xil do'stona munosabatlar va muloqotlarni o'rnatish jarayonida (mamlakat ichida va uning chegaralaridan uzoqda, ya'ni boshqa xalqlar bilan) diplomatiya tili muhim rol o'ynaydi. Uning asosiy qismini esa ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid so'zlar tashkil etadi. Shunday qilib, ijtimoiy-siyosiy leksika ancha oldin shakllanib, rivojlana boshlagan. Ushbu leksikaning paydo bo'lish tarixi va rivojlanish bosqichlarini kuzatish uchun bizgacha saqlanib qolgan turli janrdagi yozma yodgorliklarga murojaat qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, qièslash, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Umumiy turkiy yozma adabiy til O'rxun-Yenisey bitiklari davridayoq shakllanib, rivojlana boshlaydi. IX–X asrlardagi yodgorliklar va uyg'ur yozuvida umumiy turkiy tilga oid matnlar saqlanib qolgan. Ular hozirgi barcha turkiy tillarning fonetika tarixini, leksika va grammatikasini o'rganishning eng qadimiy manbalari hisoblanadi. Ma'lumki, turkiy tillarning ijtimoiy-siyosiy leksikasi ko'p asrlar davomida shakllangan va rivojlangan.

Turkiy tillar ijtimoiy-siyosiy lug'ati tarkibidagi so'zlarning xususiyatlaridan biri shundaki, ko'pgina turkiy tillar fonetik va semantik nuqtayi nazardan bir-biridan unchalik farq qilmaydi.

1959-yilda S.E. Malovning “Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari” kitobi nashr etildi. Bu ish qadimiy turkiy yodgorliklar tilini oʻrganishga bagʻishlangan. Muallif yodgorliklarni runik, uygʻur, arab kabi 3 turga ajratadi va kitob oxirida qadimgi turkiy yozuv soʻzlari lugʻatini beradi, shundan 20 ta soʻz ijtimoiy-siyosiy lugʻatga tegishli. Bular jumlasidan: *al* – xalq, davlat, *baliq* – shahar, *bosh* – bosh, boshliq, *boshchi* – rahnamo, *bitig* – maktub, *budun* – xalq, *xoqon* – hukmdor, *tarkan* – unvon va boshqalar [1].

“VIII asr qadimiy turkiy yozuvning Oʻrxun yodgorliklari tili” kitobida G.Aydarov fonetika, morfologiya va soʻz yasalihi bilan birga bu yodgorlikning lugʻat tarkibini ham oʻrganadi. Ijtimoiy-siyosiy leksika “ijtimoiy hayot hodisalari” guruhida koʻrib chiqiladi, bu yerda: *in*, *al* “davlat, xalq, qabila”, *ulus* “xalq, mamlakat”, *toʻru* “davlat”, *bay* “boy” qul qul, su “qoʻshin”, *budun* “xalq”, yurt – “yurt, mamlakat” kabi soʻzlarga duch kelamiz.

Turkiy tillar taraqqiyotining turli bosqichlarini va muayyan turkiy tilning shakllanish tarixini oʻrganish, xususan, oʻzbek tili leksikasini oʻrganish uchun 14-asrga oid “At-Tuhfa” katta rol oʻynaydi. Bu risolada oʻsha davrning boy leksik materialini oʻz aksini topgan. Unda ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid baʼzi soʻzlar, masalan, *il* “yurt”, *daulat* “davlat”, *hakim* “hukmdor”, “qozi”, *xanlik* “xonlik”, *malik* “podshoh” va hokazo.

H.A. Dadaboyevning “XI-XIV asrlar turkiy tilli yozma yodgorliklarda ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy terminologiya” monografiyasi qadimgi turkiy matnlarning ijtimoiy-siyosiy lugʻatini oʻrganishga bagʻishlangan. U yozganidek, ijtimoiy-siyosiy terminologiyani leksik-semantik guruhlari tarkibiga kiruvchi atamalar va termin-soʻz birikmalari davlatning maʼmuriy-siyosiy tuzilishi, tashqi siyosiy faoliyati, ijtimoiy tuzum bilan bogʻliqdir. Ular tilning lugatini boyitib, toʻldirgan [3]. Muallif ijtimoiy-siyosiy atamalarni tarixiy va etimologik tahlil qilishga ham harakat qiladi. H.A. Dadaboyevning tadqiqotlariga koʻra, oʻrganilayotgan davr yodgorliklarida *el/il* “yurt”, *vatan* “vatan”, *mamlakat* “imperiya, davlat”, *ulus* “shahar” kabi ijtimoiy-siyosiy atamalar uchraydi. “*siyasat*” “siyosat”, *viloyat* “davlat, viloyat”, *ilchi* “elchi”, *kuryltay* “quriltay” va boshqalar. Muallifning fikricha, bu turklarning oʻrganilayotgan davrda faol tashqi siyosiy faoliyatidan dalolat beradi.

“Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Leksika” kitobida *elchi* “elchi”, *bek* “hukmdor”, *kermen* “qalʼa”, avul “qishloq” yoki *ordu* “xon saroyi”, *bayrag* “tugʻ, bayroq”, *xoqon* “oliy hukmdor, xon”, *bay* “boy, davlatmand”, *qul* “qul” va hokazo ijtimoiy-siyosiy atamalarni oʻrganadi.

Turkologiyada umumiy turkiy yodgorliklar va matnlar leksikasini oʻrganish bilan bir qatorda hozirgi turkiy tillar leksikasini, jumladan, ijtimoiy-siyosiy leksikani oʻrganish ham juda jadal olib borildi va olib borilmoqda.

Turkiy tillarda 20-asrning ikkinchi yarmida milliy terminologiya zamonaviy tendensiya va davr ehtiyojlarini hisobga olgan holda juda yangilandi. Bu ijtimoiy-siyosiy leksikaga ham tegishli.

Shu munosabat bilan turkiy tillar leksikasini rivojlantirish va milliy terminologiyani yangilash masalalarini oʻrganishga bagʻishlangan asarlar paydo boʻldi.

Turkman tilidagi ijtimoiy-siyosiy leksika muammolarini yoritib bergan “Zamonaviy davrda turkman tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasining rivojlanishi” asarini misol qilib koʻrsatishimiz mumkin. Muallif turkman tilining ijtimoiy-siyosiy leksikasining shakllanish masalasini koʻrib chiqadi, siyosiy leksikaning soʻz yasalihi va leksik-grammatik xususiyatlarini oʻrganadi: mavzuviy guruhlarni aniqlaydi, siyosiy atamalarning semantik xususiyatlarini aniqlaydi, rus tilining ushbu soha terminologiyasini boyitishdagi rolini qayd etadi. Asarda turkman tilida ijtimoiy-siyosiy terminologiyani shakllanish yoʻllari koʻrib chiqiladi. Turkman tili ijtimoiy-siyosiy leksikasini boyitish turlari: 1) soʻzlarning maʼnolarini qayta koʻrib chiqish va kengaytirish; 2) kuzatuv; 3) atama yasashning uchta usuli: a) qoʻshimcha; b) asoslarni qoʻshish; v) tavsif usuli siyosiy atamalar va ijtimoiy-siyosiy lugʻat soʻzlarining maʼnolarini yetkazish vositasi sifatida

yoritib beriladi.

M.S. Xarlanova ham turkman tilining XX asr boshlarigacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi hamda yangi bosqichda bo'lgan va faqat 30-yillarda shakllangan, ya'ni asosan sobiq sovet tuzumi davrida bu yerda rus tili katta rol o'ynaganligini ta'kidlaydi. 30-yillarda gazetalar "sovet xalqaro so'zlarini buzib tashlamasdan, rus tilida mavjud bo'lgan shaklda olishlari kerak edi", deb qayd etgan.[3].

M.S. Xarlanova ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning boshqa terminologik tizimlardan asosiy farqlovchi xususiyatlarini ko'rsatadi: 1) ijtimoiy-siyosiy terminologiya mafkura bilan bevosita bog'liq; 2) mafkura alohida tushunchalarga munosabatni va pirovard natijada atamalarga munosabatni belgilaydi; 3) mafkuraning o'zgarishi bilan konseptsiyaga kiritilgan mazmun o'zgarishi mumkin; 4) ijtimoiy-siyosiy terminologiya keng omma uchun ochiqdir[4]. Uning ishiga "Ijtimoiy-siyosiy atamalarining qisqacha ruscha-turkmancha lug'ati" ilova qilingan.

Qirg'iz tilining ijtimoiy-siyosiy leksikasini A.B. Isabekova, V.I. Zakirova va T.A. Duyshenaliyevlar turli aspektlarda tadqiq qilganlar.

A.B. Isabekovanning "Qirg'iz adabiy tilida ijtimoiysiyosiy terminologiya va uning tartiblanishi masalasi" nomli nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferatidan ko'rinib turibdiki, qirg'iz tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminologiyani o'rganib, dialektik va tarixiy materializm, siyosiy iqtisod va partiya tarixi, ateizm va huquqshunoslik atamalarini kiritib, uning tarkibini kengaytiradi. Shuningdek, muallif XX asr boshlari davlat rahbari (V.I. Lenin) asarining qirg'iz tiliga tarjimalari asosida qirg'iz tilida ijtimoiy-siyosiy atamalarining shakllanishi va rivojlanishini tahlil qiladi. Unda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning shakllanish yo'llari, leksik va morfologik xususiyatlari, rivojlanish va tartiblanish yo'llari, bu terminologiyaning ichki va tashqi (mo'g'ul, arab, fors, rus o'zlashmalari) resurslari orqali boyitish yo'llari ko'rsatilgan. Muallif atamalarining morfologik xususiyatlariga to'xtalib, ularni tuzilishiga ko'ra (sodda va murakkab) tasniflaydi, turli gap bo'laklariga (ot, sifat, fe'l) tegishlilikini ko'rsatadi [5].

T.A. Duyshenaliyeva va V.I. Zakirova "Qirg'iz terminologiyasi" maqolasida quyidagi so'z yasovchi qo'shimchalarning ijtimoiy-siyosiy lug'atdagi faolligini qayd etadilar: **-lvk/-luk:** *kenduluk* "kundalik"; **-dvk, -duk:** *ustemduk* "hukmronlik"; **-tyk -tik:** *kelishpestik* "kelishmaslik"; **-lyk/-lik:** *estelik* "yodgorlik", *qarshilik* "qarshilik"; **-chy/-chi:** *elchi* "elchi"; *yademekchi* "yo'l boshchi"; *satuchi* "sotuvchi"; **-ma/-ma:** *bashqarma* "boshqarma"; *basma* "muhr", *muneldeme* "tavsifnoma"; qo'ldanma "qo'llanma, yo'riqnoma"; kersetme "ko'rsatma", *kerezme* "ko'rgazma"; **-uv:** *boshqaruv* "boshqaruv", *atkaruv* "bajarish"; **-dash/-desh** *zamandash*, "zamondosh", *pikirdesh* "hamfikir, fikrdosh" va hokazo [6].

Qozoq tilining ijtimoiy-siyosiy leksikasi R.Barliboyev monografiyasida tadqiq etiladi. Uning ishida ijtimoiy-siyosiy leksikaning 5 ta mavzuviy guruhi tahlil qilingan: 1) tashkiliy-mafkuraviy faoliyat bilan bog'liq atamalar; 2) mafkuraviy-huquqiy tushunchalarni bildiruvchi nomlar; 3) partiyaga tegishli nomlar; 4) ma'muriy-hududiy organlarga tegishli nomlar hamda muassasalar va kasb-hunarlarining nomlari; 5) jamiyatlar, tashkilotlar nomlari. Muallif qozoq tilining ijtimoiy-siyosiy atamalarining leksik-semantik va grammatik tavsifini beradi. Uning ta'kidlashicha, bu leksika qozoq tilida to'liq shakllangan bo'lib, nafaqat qozoq tilidagi so'zlarni, balki ruscha o'zlashuvlar va baynalmilal so'zlarni ham ham o'z ichiga oladi. Monografiyada sobiq sovet davrida qozoq tili ijtimoiy-siyosiy leksikaining shakllanish va rivojlanish tarixi har tomonlama va batafsil yoritilgan [7].

A.K. Kaydarov va A.A. Abdraxmanovning "Qozoq terminologiyasi" maqolasida qozoq adabiy tili, eng avvalo, boy va rang-barang xalq terminologik lug'atiga asoslanadi. Qozoq terminologiyasining ildizi qadimgi turkiy yozuvlarda aks etgan. Bularga ijtimoiy-siyosiy tizimga aloqador atamalar ham kiradi: *qag'an* "podshoh", *bek* "bek", *tarxan*

“aslzodalarning harbiy unvoni”, *qul* “qul”, *chig‘ay* “kambag‘al” va boshqalar [8].

A.K.Pirniyazova “Hozirgi qoraqalpoq tilining ijtimoiy-siyosiy lug‘atining shakllanish va rivojlanish yo‘llari” nomli avtoreferatida turli davrlarda qoraqalpoq tilining ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanish tarixi, uning tarkibi va tuzilishini o‘rganadi. Muallif ijtimoiy-siyosiy leksikaning rivojlanish dinamikasining tarkib topish usullari va unumdorlik darajasiga qarab aniqlaydi, ularning so‘z yasalishi modellarini keltiradi. Muallif ijtimoiy-siyosiy leksikaning tarkib topishi va boyish yo‘llarini ham ko‘rsatib o‘tadi. U so‘z yasalishining uchta asosiy usulini aniqlaydi: leksik-semantik, morfologik va sintaktik. Muallif ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanishida qoraqalpoq tilining ichki resurslaridan foydalanish asosiy usul deb ko‘rsatadi. Uning qayd etishicha, qoraqalpoq tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasining boyishida so‘z o‘zlashtirish muhim rol o‘ynagan. Uning fikricha, siyosiy atamalarning o‘zlashma fondi arab, fors, rus qatlamlariga, shuningdek, baynalmilal so‘zlarga borib taqaladi.

Qoraqalpoq tilidagi nominativ vositalar tizimida ijtimoiy-siyosiy leksikaning o‘rni aniqlashga harakat qilingan, siyosiy leksikaning turli rivojlanish davrlarida shakllanish jarayoni o‘rganiladi; shuningdek, tarkibi va tuzilishi o‘rganilib, ijtimoiy-siyosiy leksikaning rivojlanish dinamikasi, uning hajmining bosqichma-bosqich kengayishi va bunda rus tilining ta’siri ko‘rsatilgan; tashkil topish usullari va ularning mahsuldorlik darajasi ham belgilanadi; ijtimoiy-siyosiy lug‘atning so‘z yasaliş modelları aniqlanadi [9].

M.Sh. Gasimov “Ozarbayjon terminologiyasi” maqolasida ijtimoiy-siyosiy leksikani ham tadqiq etadi. Uning qayd etishicha, so‘z yasashning uchta usuli mavjud: qo‘shimcha qo‘shish, sintaktik va so‘zlarni qisqartirish usuli (qisqartma). Ammo arab va fors tillaridan o‘zlashgan qo‘shimchalarga berilgan ayrim misollar ozarbayjon tilida hosil bo‘lmagan, chunki ular unumli asos bilan birga qabul qilinadi: *ichiredar* “ijara beruvchi”, *terefdar* “tarafdor, qo‘llab-quvvatlovchi”, *besheiriyat* “insoniyat”, *tesheigat*. “tashviqot”, *kitobxona* “kutubxona”, *hastekxona* “kasalxona” va boshqalar [10].

S.N. Xalilova “Ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning lingvistik asoslari” nomli doktorlik dissertatsiyasining avtoreferatida ozarbayjon tilida ijtimoiy-siyosiy atama shakllanishining nazariy masalalariga to‘xtalib, o‘zlashma ijtimoiy-siyosiy lug‘atni tilning o‘z qatlam ijtimoiy-siyosiy lug‘atidan aniq chegaralab ko‘rsatadi va ularni ilmiy asoslaydi. Muallif asl atama va sovetizm termini tushunchalarini ham keskin farqlaydi. Ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanishida kalkalash muhim o‘rin tutadi, deb haqli ravishda ta’kidlaydi. S.N. Xalilova ozarbayjon tilida kalkalarning shakllanishiga oid 8 ta holatni keltiradi.

Muallif turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy lug‘atda qisqartmalarning paydo bo‘lishini arab alifbosini kirill alifbosiga almashtirish bilan bog‘laydi va shu bilan birga qisqartmalar tizimining shakllanishiga rus tilining katta ta’siri haqida gapiradi. Shu bilan birga, muallif turkiy tillarning ijtimoiy-siyosiy leksikasida qisqartmalarning ko‘p bo‘lishini ma’qullamaydi, chunki abbreviatura natijasida yangi atama yaratilmaydi. Muallif turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy leksika sohasida atama yasashning leksik-semantik va morfologik usuliga ham to‘xtalib o‘tadi [11].

R.Y. Babayevning “Ozarbayjon tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining genetik aspekti” nomli dissertatsiyasi avtoreferatida muallif ozarbayjon tilshunosligida ijtimoiy-siyosiy leksikaning o‘rganish tarixini ko‘rib chiqadi. Ishda so‘z tarkibi va affiksatsiya usulida so‘z yasalishi o‘rganiladi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiyani boyitishda R.L. Baboyev arab va fors tillaridan so‘z o‘zlashtirish muhim rol o‘ynaganligini ta’kidlaydi. U arab tili o‘zlashmalarini ikki guruhga ajratadi: 1) ijtimoiy va 2) ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq o‘zlashmalar. U forscha o‘zlashtirishlarni quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratdi: 1) predmetlarning nomlari; 2) mavhum tushunchalar nomi; 3) ijtimoiy-siyosiy tushunchalar; 4) diniy tushunchalar [12]. Bizningcha, muallif keltirgan misollarning hammasi ham

ijtimoiy-siyosiy lugʻatga taalluqli emas: *saz* “cholgʻu”, *derzi* “tikuvchi”, *choʻban* “choʻpon” va boshqalar.

G.G. Kagarmanov “Sovet davrining boshqird ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi” monografiyasida boshqird tilining ijtimoiy-siyosiy leksikasi 20-yillarning oʻrtalarida shakllana boshlaganini yozadi. U ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanishini yana ikki davrga ajratadi: 1) 1920–1940-yillar; 2) 1940–1980-yillar. Muallif boshqird tilining ijtimoiy-siyosiy leksikani oʻrganish va shakllantirish tarixini tasvirlaydi. G.G. Kagarmanov oʻz asarida boshqird tilining ichki resurslari va boshqa tillardan olingan oʻzlashuvlardan asosida, ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini tahlil qiladi. Biroq oʻzlashtirilgan atamalarining koʻpchiligi xalqaro xarakterga ega boʻlgan manba tilining koʻrinishini saqlab qolganligi taʼkidlanadi. Muallif ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning leksik-semantik va struktur-semantik xususiyatlarini sinxron va diaxronik jihatlarida tahlil qiladi [13].

G.N. Muhamedyanovanning “Ijtimoiy-siyosiy leksikadagi evfemiya (nemis, rus va boshqird tillari materiallari asosida)” avtoreferati rus, nemis va boshqird tilidagi ijtimoiy-siyosiy mazmundagi evfemizmning oʻziga xos xususiyatlarini qiyosiy oʻrganish, tavsiflashga bagʻishlangan. Asarda tabu va evfemizmning qadimiy va zamonaviy koʻrinishlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik motivlari, ularning munosabati va tilning nominativ vositalari tizimidagi oʻrni; evfemizmni shakllantirishning asosiy vazifalari va usullari ham tizimlashtirilgan; evfemizmni melioratsiya, kriptolatsiya, dezinformatsiya kabi oʻxshash va oʻxshash hodisalardan farqlash mezonlari ishlab chiqilmoqda; ijtimoiy-siyosiy leksikada keng tarqalgan mavzuviy guruhlar va ularning evfemizmga tobe boʻlgan komponentlari belgilanadi, rus va boshqird tillarida ijtimoiy-siyosiy mazmundagi evfemistik birliklarning ishlash xususiyatlari aniqlanadi. Muallif evfemiyani ikki turga ajratadi: 1) “*salbiy*” *evfemiya* yoki *minus belgili evfemiya*, yaʼni bular davlat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi salbiy hodisalarni yashirishga qaratilgan evfemistik birliklar; va 2) “*mos*” *evfemizm* yoki *plyus belgili evfemizm*, yaʼni bular siyosat mafkurasiga toʻgʻrilik doirasida vujudga kelgan evfemizmlardir va ularning chegaralash mezonlarini beradi. Muallif bu turdagi evfemizmlarning har birini mavzuviy guruhlariga ajratadi [14].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hozirgi turkologiya fanida ijtimoiy-siyosiy leksika masalasi muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Turli turkiy tillar materiallari asosida olib borilgan monografik tadqiqotlar bu qatlamning shakllanish qonuniyatlari, tarixiy rivojlanish jarayoni hamda til tizimidagi oʻrni haqida muayyan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon bermoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy leksikaning paydo boʻlishi va rivojlanishida jamiyat taraqqiyoti, davlat tuzilishi, siyosiy tizimlar va mafkuraviy omillarning bevosita taʼsiri mavjudligi aniqlanmoqda.

Shuningdek, turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy atamalarining genetik tarkibi turli manbalarga tayanishi bilan ajralib turadi. Ularning bir qismi qadimgi turkiy leksikaga borib taqalsa, yana bir qismi boshqa tillardan oʻzlashgan yoki ichki imkoniyatlar asosida yasalgan birliklar hisoblanadi. Bu holat ijtimoiy-siyosiy leksikaning dinamik va doimiy yangilanib boruvchi qatlam ekanligini koʻrsatadi. Leksik tarkibning shakllanishida soʻz yasashning turli usullari, semantik kengayish, terminologik aniqlik va normallashtirish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy-siyosiy leksikani oʻrganishda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, funksional va sotsiolingvistik yondashuvlarning qoʻllanilishi tadqiqotlar koʻlamini kengaytirib, masalaning har tomonlama yoritilishiga xizmat qilmoqda. Natijada, turkiy tillarda ijtimoiy-siyosiy leksikaning nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligi yanada yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VIII века / Г.Айдаров. – Алма-Ата: Наука, 1971. – 380 с.
2. Бабаев Р.Я. Общественно-политическая лексика азербайджанского языка в генетическом аспекте: автореф. дис. ... канд. филол. наук / Р.Я.Бабаев. – Махачкала, 2006. – 18 с.
3. Гасимов М.Ш. Азербайджанская терминология. / М.Ш.Гасимов // Развитие терминологии на языках союзных республик СССР: сб.ст. – М.: Наука, 1987. –С. 67- 92.
4. Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. / Х.А.Дадабаев. — Ташкент: «Ёзувчи», 1991. – 185 с.
5. Дуйшеналиева Т. Киргизская терминология / Т.Дуйшеналиева, З.Закирова // Развитие терминологии на языках союзных республик СССР: сб.ст. – М.: Наука, 1987.-С. 157-174.
6. Исабекова А.Б. Общественно-политическая терминология в киргизском литературном языке и вопрос ее упорядочения: автореф. дис. ... канд. филол. наук / А.Б.Исабекова. – Фрунзе, 1971. — 19 с.
7. Кагарманов Г.Г. Башкирская общественно-политическая терминология советского периода: Монография / Г.Г.Кагарманов. – Уфа: РИО БашГУ, 2005. – 186 с.
8. Кайдаров А.Т., Абдрахманов А.А. Казахская терминология / – М.: Наука, 1987. – С. 29-49.
9. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности: тексты и исследования / С.Е.Малов. – М.: Изд-во Акад. наук СССР, 1959. – 451 с.
10. Мухамедьянова Г.Н. Эвфемия в общественно-политической лексике (на материале русского и башкирского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук / Г.Н.Мухамедьянова. – Уфа, 2005. – 27 с.
11. Пирниязова А.К. Пути формирования и развития общественнополитической лексики современного каракалпакского языка: дис. ... канд. филол. наук / А.К.Пирниязова. – Ташкент, 1986. – 260 с.
12. Халилова С.Н. Лингвистические основы общественно-политической терминологии: автореф. дис. ... докт. филол. наук / С.Н.Халилова. – Баку, 1989. –53 с.
13. Харланова М.С. Развитие общественно-политической терминологии туркменского языка в современный период: дис. ... канд. филол. наук / М.С.Харланова. – Ашхабад, 1965. – 165 с.
14. Хисамова Ф.М. Татарский язык в восточной дипломатии России / Ф.М. Хисамова. – Казань: Мастер-Лайн, 1999. – 408 с.

FURQAT MUVASHSHAH LARI TO‘G‘RISIDA AYRIM QAYDLAR**Nuriddinov Shahobiddin Boboyorovich**

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Qarshi davlat universiteti

nshahobiddin82@gmail.com

ORCID 0009-0007-2692-8332

UDK 821.512.133-1.09

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek mumtoz shoiri Zokirjon Furqatning muvashshah g‘azallari tadqiq qilingan. Muvashshahlarning nashrlardagi matnlari o‘zaro qiyosiy o‘rganilgan. Muvashshah g‘azallarning o‘zbek mumtoz adabiyotida paydo bo‘lishi, taraqqiyoti va shoir ijodiy merosidagi o‘rni tadqiq qilingan. Ijodkor hayotini o‘rganishdagi ahamiyatiga e‘tibor qaratilgan. G‘azallarda ismlari keltirilgan shaxslarning Furqat bilan aloqadorligi o‘rganilgan. Muvashshah g‘azallarga oid mulohazalar tahlil qilingan. Xususan, Atoulloh Husayniy, Maqsud Shayzoda, Aziz Qayumov, Arofatoy Mo‘yidinova singari olimlarning muvashshah nazariyasiga oid ilmiy qarashlari atroflicha tahlilga tortilgan. Shuningdek, mavjud adabiy nashrlarda Furqat muvashshah g‘azallarining matniga oid nuqsonlar ham tadqiq qilingan.

Bundan tashqari, muvashshahlarda ismlari keltirilgan kishilar shaxsiyatiga aniqlik

kiritilishi zarurligi to'g'risida mulohazalar bildirilgan. Furqat she'rlarning keyingi nashrlarini mukammallashtirish dolzarbligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: muvashshah, g'azal, matn, bayt, misra, bayoz, nashr, ism.

Annotation: The article examines the muvashshakh ghazals of the Uzbek classical poet Zokirjon Furqat. The texts of muvashshakhs in publications were studied comparatively. The emergence of muvashshakh ghazals in Uzbek classical literature, their development, and their place in the poet's creative heritage have been studied. Attention is paid to the importance of studying the life of the creator. The connection of the names of the persons mentioned in the ghazals with Furqat was studied. Reflections on muvashshakh ghazals are analyzed. In particular, the scientific views of such scholars as Atoullloh Husayniy, Maqsud Shayzoda, Aziz Qayumov, and Arofotoy Muydinova on the theory of muvashshakh have been thoroughly analyzed. Defects related to the text of Furqat's muvashshakh ghazals have also been studied in existing literary publications. In addition, opinions were expressed about the need to clarify the identity of the people whose names are mentioned in the muvashshakhs. The relevance of improving subsequent editions of Furkat's poems was emphasized.

Keywords: muvashshakh (acrostic), gazal, text, beyt, line, bayaz, edition, name.

Kirish. Muvashshah Sharq mumtoz adabiyotida ijodkor badiiy mahoratining mezonlaridan biri bo'lib kelgani ma'lum. Ko'plab latif she'riy san'atlar va poetik shakllar qatorida muvashshah usulida bitilgan lirik asarlar ijodkorlar adabiy merosining eng sara namunalaridan hisoblangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tasniflash, biografik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, va badiiy-estetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Sharq adabiyotida muvashshah bitish an'anasi qadimdan mavjud bo'lib, uni yuzaga keltiruvchi badiiy san'atni "tavshih" deb ataganlar. Buni Atoullloh Husayniyning quyidagi fikrlari ham dalillaydi: "Tavshih ajam shuarosi nazdida andin iboratdurkim, shoir misra yoki baytlarning boshida yo alarning o'rtasida bir necha harf yoki bir necha so'z keltirurkim, ul harf yoki so'zlarni jam' qilinsa, bir ism yo bir laqab, yo bir misra yo bir bayt bo'lur yoki anga o'xshash bir nima hosil bo'lur va bu san'atni o'z ichiga olgan she'rni muvashshah derlar" [4: 84-85]. Bu an'ana, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari o'zbek she'riyatida keng rivojlandi. Xususan, Toshkent, Qo'qon va Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan shoirlar merosida muvashshahning yuzlab namunalari uchrashi fikrimizni dalillaydi.

Shayxzoda bunga munosabat bildirib: "Lirikada muvashshah janri (Yevropa adabiyotlarida akrostix) o'zbek adabiyotida, ayniqsa, XIX asrning II yarmida ko'p avj olib ketib, adabiyot ahli o'rtasida rasm bo'lib qolgan edi. Hatto shu darajadagi, shoirlik va nazmchilik hunari muvashshahchilikdagi mahorat bilan o'lchanadigan bo'lib qolgan edi", deb yozadi [10: 91-92]. Shayxzoda muvashshahni negadir *janr* deb ataydi. E'tibor berilsa, muvashshah g'azal, muxammas, murabba' kabi turli lirik janrlar tarkibida keluvchi poetik shakl ekanligi ko'riladi. Adabiyotshunos A. Muydinova muvashshahchilik an'anasiga bag'ishlangan tadqiqotida aruz vaznida yaratilgan she'rlardagi muvashshahlarni quyidagicha tasniflaydi: "a) baytdagi toq misralardan; b) juft misralar yoki qofiyali misralardan; s) baytning har ikkala misrasi qo'shaloq tarzda; d) musammatlarda har bir bandning birinchi misrasi bosh harflaridan ism yoki nom chiqishi" [5: 21-22]. Muvashshahlar eng ko'p uchraydigan lirik janr g'azal bo'lib, yuqoridagi tasnifning birinchi shakli, ya'ni baytdagi toq misralarning dastlabki harflaridan kishi ismi kelib chiqadigan muvashshah-g'azallar ko'pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa, XIX asrning II yarmida Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida muvashshahnavislik an'anasi keng rivojlandi.

O'zbek mumtoz she'riyatining zabardast namoyandasi Zokirjon Furqat nazmiy merosida ham muvashshahlarning ko'plab yaratilgani ushbu an'ana natijasi ekani ayon. Shoir nazmiy merosining bugunga qadar amalga oshirilgan nashrlarida o'ttizga yaqin muvashshah uchraydi.

Muvashshahlar, asosan, sof ishqiy mavzuga bag'ishlanadi. "Muvashshah-g'azalda

keltirilgan sifatlashlar, shoirona tasvirlar ko‘proq Sharq adabiyotiga xos an’anaviy xarakterga ega. Muvashshah shoir mahoratining bir namoyishi” [6: 45]. Garchi ularda ma’shuqaning ta’rifu tavsifi, oshiqning zabun holi kabi motivlar yetakchilik qilsa ham, aksar hollarda muvashshahlarda ayollar ismi emas, erkaklar nomi yashiringan bo‘ladi. Xo‘sh, unda muvashshahdagi kishi ismi bilan unda kuylangan ishqiy mazmunning qanday aloqasi bor? Bizningcha, bu borada Maqsud Shayxzoda bildirgan fikr juda o‘rinli: “...muvashshah kimning nomiga bog‘langan bo‘lsa, o‘sha g‘azalda ta’riflangan obraz ham aynan mazkur kishining o‘zidir, deb o‘ylash xatodir. Muvashshahdagi ism bu g‘azalning kimga bag‘ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor bus-butun boshqa bir kishi bo‘lishi mumkin” [10: 101].

Darhaqiqat, muvashshahlarning mazmuniga e’tibor qilsak, yuqoridagi fikrning to‘g‘riligiga amin bo‘lamiz. Masalan, “Mahkamxon” ismiga muvashshah-g‘azalda:

Muncha zolim bo‘lmish ul xunrez tarso ko‘zlaring –

Kim, solur olam eliga sho‘ru g‘avg‘o ko‘zlaring.

Yoki “Toshkandxon” ismiga bog‘langan muvashshah-g‘azalda:

To so‘zga lab uyurding, jono, shakar to‘kildi,

Ham aylading tabassum, mavji guhar to‘kildi –

kabi baytlar keladi. Tabiiyki, baytlarda ma’shuqa tasviri haqida gap boryapti. She’r mazmunining Mahkamxon yoki Toshkandxonga aloqasi yo‘q. Ishqiy g‘azalga kishi nomining keltirilishi shoirning g‘azalda nazarda tutilgan ism egasiga samimiy ehtiromini ko‘rsatuvchi munosabat deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Shu o‘rinda muvashshahchilikdagi kamyob bir jihat xususida ham to‘xtalib o‘tish joiz. Muvashshahlarda, asosan, erkak kishilarning ismlari qalamga olinadi. Xotin-qizlar ismining muvashshah qilinishi esa deyarli uchramaydi. Muqimiyda bu uslubdagi o‘nlab g‘azallar orasida “Adolxon” ismiga bog‘langan yagona muvashshah mavjud. Xuddi shunday Furqat she’riyatida ham “*Qilmaya kasbi nazokat lablaringdin bargi gul*” misrasi bilan boshlanuvchi birgina muvashshahda Qumrixon ismi qalamga olinadi.

Furqat muvashshahlari “Islomxon”, “Xayriddinxon”, “Abdulxalilxon”, “Toshkandxon”, “Yo‘ldoshxon”, “Muhammadxon”, “Qorixon”, “Ahmadxon”, “Maqsudjon”, “Muhiddinxon”, “Saidqosimxon”, “Rashidxon”, “A‘zamxon”, “Muhammadoxon” singari zamondoshlari nomiga bitilgan. Ayrim kishi ismlari bir necha g‘azallarda muvashshah qilingan. Masalan, “Usmonjon”, “Yusufxon”, “Mahkamxon”, “Odilxon” ismlari ikkita, “Qalandarxon” ismi esa uchta g‘azalda muvashshah sifatida keladi. Tabiiyki, bu nomlar shoir mansub bo‘lgan muhit va davraga begona emas. Ya’ni shoir tasodifiy ismlarga emas, balki o‘zi uchun yaqin va qadrli kishilarga hurmat sifatida ularning nomiga muvashshah bog‘lagan. Qolaversa, nomlari zikr etilgan kishilarning ayrimlariga Furqat mansub bo‘lgan adabiy muhit vakillari Muqimiy, Zavqiy hamda Toshkent shoirlari ijodida ham bir qator muvashshahlar bitilgan.

Albatta, zamondosh shoirlarning g‘azallarida ismlari muvashshah qilingan kishilarning shaxsiyati alohida izlanishni taqozo qiladi. Ularning aynan bir shaxs yoki ismdosh ikki shaxs ekani ma’lum emas. Biroq bu nomlar ijodkor bilan yaqin munosabatda bo‘lgan kishilar ekan aniq. Negaki, mazkur ismlarning ayrimlari Furqatning boshqa lirik asarlarida uchraydi. Masalan, shoirning Muqimiyga bitilgan she’riy maktublaridan birida

Yozib erkansiz yaqinda Mulla Ahmadjonga xat,

Nechadin so‘ng, xayriyat, xat oxirida borman –

deb yozadi. Bu ism Muqimiy g‘azallaridan birida ham muvashshah sifatida kelgan.

Ma’lumki, har ikki shoir bir necha bor Toshkent safarida bo‘lib, bu shaharda bir muddat istiqomat qilishadi. Toshkentlik ijodkorlar bilan yaqin aloqada bo‘lishadi. Chor hukumatining Turkistondagi ma’muriy markazi sifatida Toshkentga turli shaharlardan ko‘plab ijodkorlar tashrif buyurgan. Ilmiy manbalarda ular o‘rtasida juda yaqin ijodiy hamkorlik shakllangani qayd qilinadi. Xususan, safar davomida Furqatning toshkentlik

o'nlab ijodkorlar, san'atkor va boshqa taniqli kishilar bilan iliq munosabatda bo'lgani furqatshunos olimlarmiz tomonidan e'tirof etilgan. Muqimiya yozilgan maktublardan birida keltirilgan quyidagi bayt buning dalilidir:

Rizoman Toshkand odamlaridin,
So'rar holim faqiru ag'niyolar.

Xuddi shunday "Sabog'a xitob" manzumasida

Ayo, bodi sabo, Alloh uchun tur,
O'zingni Toshkand shag'riga yetkur...
Salom aytib dimog'in chog' qilg'il,
Latoyif so'zlar aytib, dog' qilg'il –

deb yozar ekan, muvashshahlarda ismlari keltirilgan kishilarning aksariyatini birma-bir zikr etadi. Ko'rinadiki, bu muvashshah-g'azallarning matn tarixini o'rganish, shoir ijodiy biografiyasi chuqur tadqiq qilish hamda imkon qadar mukammal tarjimai holini tiklash imkoniyatini oshiradi.

Muvashshah-g'azallar matni to'g'risida mulohaza yuritganda, nashrlarda yo'l qo'yilgan ayrim chalkashlik va xatolar mavjudligini ta'kidlash zarur. Qo'lyozma yoki toshbosmadagi matnning nomukammalligi yoki kotib tomonidan yo'l qo'yilgan xatolik va bularga ahamiyat bermaslik nuqsonli nashrga sabab bo'ladi.

Oddiy g'azallarda baytlar o'rning o'zgarishi shakl va umumiy mazmunga u qadar ta'sir etmasligi mumkin. Biroq muvashshah-g'azallarda bu kabi xatolik yaqqol ko'rinadi hamda asar strukturasiga putur yetkazadi.

Fikrimizning dalili sifatida shunday g'azallardan birining nashr variantini keltiramiz:

May ichibkim, g'amza tig'in obdor aylar ko'zung,
Har nigohda yuz kishini dilfigor aylar ko'zung.
Xoling oshubi habash iqlimig'a yag'mo solib,
Fitnadin toroj mulki zangbor aylar ko'zung.
Aylamas toqat nigohingga agarchi bo'lsa tosh,
Ko'zguni siymob yanglig' beqaror aylar ko'zung.
Raxna solib dahr aro qildi Haloku davrini,
Qo'rqaman el qonidin suv jo'ybor aylar ko'zung.
Xoki nochizi do'kon o'ldi javohir surmasi,
Bir nazar solmay ani bu nav' xor aylar ko'zung.
Oy yuzing uzra qoshing o'trusida Mirrix o'lub,
Qavs burjida qironlar oshkor aylar ko'zung.
Tutmagan bo'lsa g'azabdin Shohimardon shevasin,
Nega qoshingdin hamoyil Zulfiqor aylar ko'zung.
Nakhati zulfing ushotib nofai Chin qadrini,
Ohui dashti Xo'tanni sharmsor aylar ko'zung.
Bazm aro gulrang mayi sen no'sh qilg'ilkim, gahi,
Furqatiyg'a bir boqib, raf'i xumor aylar ko'zung.

[3: 59; 2: 51].

Ijodkorlar muvashshah-g'azalda kishi ismining kelib chiqishiga ko'p hollarda ochiq ishora qilmaydi. Buni o'quvchi yoki tadqiqotchining o'ziga havola qiladi. Diqqat qilinsa, yuqoridagi g'azalning muvashshah ekanini sezish qiyin emas. Yettinchi baytni g'azalning uchinchi bayti sifatida o'qilishi yo'l qo'yilgan xatolikni tuzatadi. Shunda g'azal baytlarining toq misralari bosh harflaridan "Muxtorxon" ismi hosil bo'ladi. Har holda, (buni muvashshah emas, oddiy g'azal deyilsa) yuqoridagi matn muvashshahga bu qadar yaqin bo'lishi ehtimoldan yiroq. Har ikki manbani nashrga tayyorlagan olim Furqat asarlarining barcha qo'lyozma va toshbosma bayozlardagi matnlarini ko'rib, qiyoslab chiqqanini qayd etadi [3: 17]. Bizningcha, nashr uchun asos bo'lgan bayozlarda kotib

xatosi tufayli baytlar o'zni almashgan. Bu esa, shoir lirik asarlarining birlamchi manbalarini yanada mukammalroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Nashrlardagi muvashshahlar matniga xos xatoliklardan yana biri – bu baytlarning qisqartirishidir. Quyidagi g'azal “Muhammadatixon” ismiga muvashshah qilingan.

Man g'aribni kuydurub, qildi ado g'ulg'ullaring,
 Bu tariqa zor etib, qilding tamosho qullaring.
 Hajrdek g'avg'o solib munglug' boshimga, ey uko,
 Dasta-dasta har taraf aylab riyoh kokullaring.
 Mast etib beixtiyor, olding bu hushim siynadin,
 Har dame silkintirib ushbu siyoh sunbullaring.
 Donai xoling yarashgan loladek ruxsoringga,
 Ushbu soching domani rayhonmu yo janbullaring.
 Orazing bog'ida ochilgay tutoshib dam-badam,
 G'unchai xandonalar, aylab tamanno gullaring.
 Tutmagay lutf otini, doim ishi javru jafo,
 Xoradek qattig' ekandur beibo ko'ngullaring.
 Orom olgay jon, aning tegsa agar shabbodasi,
 Yelfinib ustingdagi kiygan qabo gul-gullaring.
 Xastadurman furqatingda, yo'q madorim zarracha,
 Bir borib ko'rgaymuman, ey, mahliqo, manzillaring?

[1:108]

Diqqat qilinsa, g'azalning so'nggi ikki bayt nashrdan tushib qolgani ayon bo'ladi. Bu kabi xatolik “*Anbarin xatteki kilding oshkor, ey, sarvinoz*” misrasi bilan boshlanuvchi o'n baytli g'azalida ham kuzatiladi [1:68]. E'tibor qilinsa, g'azaldagi toq misralarning bosh harflaridan “Abduljalilxon” (عبد الجليل خان) ismi muvashshah qilinganini anglash mumkin. Biroq g'azalda “alif” va “lom” harflari bilan boshlanuvchi to'rtinchi va beshinchi baytlar nashrda mavjud emas.

Muvashshah-g'azallar matnida yana bir nuqson – toq misralardagi dastlabki so'zlarning ism chiqishga xalal beradigan shaklda o'zgartirilishidir. Masalan, yuqorida keltirilgan g'azalning ikkinchi baytidagi birinchi misra nashrlarda “*Ko'ksima o'qlarki otding g'amzadin, paykonlaring*” shaklida uchraydi [3: 85; 2: 77]. Misradagi dastlabki so'zning “Bag'rima” tarzida tabdil qilinishi muvashshah mezoniga ham mos keladi, vazn talabi ham buzilmaydi. Shuningdek, “ko'ksima”ning “bag'rima” bilan almashtirilishi bayt mazmunini yanada teranlashtiradi.

Xulosa. Muvashshahlar misolida Furqat lirik merosi nashrlaridagi g'azallar matni to'g'risida to'xtalib o'tdik. Ayon bo'lmoqdaki, nashrlarda anchagina nuqsonlar kuzatiladi. E'tirof etish kerakki, bugunga qadar amalga oshirilgan nashrlar hassos shoir Zokirjon Furqat ijodiy merosini adabiyot muhiblariga yetkazish yo'lida katta ish bo'lgan. Biroq har qanday mumtoz matnni o'quvchiga benuqson yetkazish matnshunoslikning asosiy vazifalaridan biri ekani inobatga olinsa, shoir asarlarini birlamchi manbalar bilan qiyosiy o'rganish hamda mukammal nashrlarini tayyorlash zarurati allaqachon paydo bo'lgan. Shu nuqtai nazardan, yangi nashrlar uchun mamlakatimiz va xorijdagi fondlarda saqlanayotgan qo'lyozma hamda toshbosma manbalardan o'rin olgan Furqat asarlarini sinchiklab o'rganish, o'zaro muqoyasa qilib mukammal matnlarini o'quvchilarga taqdim qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Furqat. Muhabbat yo'lida. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2009. 304 b.
2. Furqat. Tanlangan asarlar. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi ASN, 1975. 296 b.
3. Furqat. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. 1 tom. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. 230 b.
4. Husayniy A. Badoyi'u-s-sanoyi'. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. 380 b.

-
5. Muydinova A. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotida muvashshahchilik: an'ana va individuallik. Filol.fanl.b. fals.d-ri... dis. – Toshkent, 2023.
 6. Qayumov A. She'riyat jilolari. – Toshkent, O'qituvchi, 1997. 128 b.
 7. Zokirjon Furqat. Ishqingda kuyub, jono... – Toshkent, "Adabiyot", 2021. 124 b.
 8. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. Beshinchi tom. – Toshkent: Fan, 1980.123-b.
 9. O'zbek adabiyoti (antologiya). To'rt tomlik. To'rtinchi tom. 1-kitob – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1973.236-b.
 10. Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1973.98-b.

ENHANCING THE ROLE OF FOREIGN LANGUAGE IN PROFESSIONAL PRACTICE THROUGH SPECIALIZED CORPORA**Musayeva Fariza Maksutovna**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti
musayeva_fariza@mail.ru

ORCID 0009-0004-6296-0792

Kadirkbekova Durdona Hikmatullayevna,

I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz (MTU)
universiteti Toshkent shahridagi filiali
filologiya fanlari doktori (PhD)
d_kadirkbekova@mail.ru

УДК 81.373.46

Abstract. This study explores the impact of corpus-informed instruction on developing English for Specific Purposes (ESP) competence among students in the Oil and Gas field. Employing a mixed-methods approach, the research combined quantitative analysis of learners’ written work with qualitative insights from interviews, classroom observations, and teacher reflections. A specialized corpus of oil and gas texts served as the foundation for instructional materials, enabling students to engage with authentic professional language. The results demonstrated notable improvement in learners’ lexical precision, collocational accuracy, and genre-specific writing performance. Participants reported that corpus use made learning more relevant, motivating, and connected to real professional contexts. Teachers observed greater student autonomy, increased awareness of professional language style, and more accurate application of field-specific terminology. Overall, the findings highlight that integrating specialized corpora into ESP instruction enhances linguistic accuracy and disciplinary competence while fostering independent learning and communicative confidence. The study concludes that corpus-informed pedagogy offers a practical and effective framework for aligning academic language instruction with the communicative demands of the oil and gas industry.

Keywords: Corpus-informed, English for Specific Purposes (ESP), Oil and Gas communication, lexical competence, collocational accuracy, professional discourse, corpus linguistics, authenticity.

MAXSUS KORPUSLAR YORDAMIDA CHET TILINING KASBIY FAOLIYATDAGI O‘RNINI MUSTAHKAMLASH

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida neft va gaz yo‘nalishidagi talabalar uchun maxsus maqsadlarda ingliz tili (ESP) kompetensiyasini rivojlantirishda korpusga asoslangan o‘qitishning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Aralash metodologik yondashuv asosida tadqiqot talabalarning yozma ishlari tahlilining miqdoriy natijalarini suhbatlar, dars kuzatuvlari va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalaridan olingan sifat jihatidan ma’lumotlar bilan birlashtirdi. Neft va gaz sohasiga oid maxsus korpus o‘quv materiallarini tayyorlashda asos bo‘lib xizmat qildi, bu esa talabalar uchun ingliz tilini o‘z kasbiy faoliyatlarida muloqot vositasi sifatida qo‘llash imkonini berdi. Olingan natijalarda aniqlandiki, leksik birikmalardan foydalanish va janr aniqligida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi, bu esa talabalarning faolligi va professional nutqdan samarali foydalanishlarini tasdiqlandi. Ishtirokchilar korpusdan foydalanish o‘quv jarayonini yanada mazmunli, motivatsion va real kasbiy muloqotga yaqinlashtirganini ta’kidladilar. O‘qituvchilar talabalar mustaqilligining oshishi, kasbiy nutq uslubi haqidagi xabardorlikning ortishi va soha terminologiyasini aniqroq qo‘llashini qayd etdilar. Umuman olganda, natijalarga ko‘ra, maxsus maqsadlarda o‘qitiladigan ingliz tili kurslarida til korpuslarini dars jarayoniga integratsiyalash tilni professional jihatdan qo‘llashda yordam berishini tasdiqlaydi, bu esa ingliz tilini o‘rganishni real sanoat aloqalari bilan samarali bog‘laydi.

Kalit so‘zlar: korpus lingvistikasi, maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), neft va gaz aloqasi, leksik bilim, kollokatsion aniqlik, professional nutq, korpus lingvistikasi, haqiqiylik.

Introduction. The professionalization of higher education and globalization of the

labor market have intensified the communicative demands on language learners. English for Specific Purposes (ESP) addresses these challenges by aligning instruction with discipline-specific contexts. However, despite technological advances, ESP teaching often remains reliant on textbooks and teacher intuition, which fail to capture authentic professional discourse [7, 2].

Corpus linguistics offers a solution by enabling systematic analysis of real language use. Specialized corpora are collections of texts from particular professional fields allow identification of recurrent lexical, grammatical, and pragmatic patterns [3, 11]. Modern tools such as Sketch Engine, AntConc, and LancsBox now make such analyses accessible for ESP teaching [14, 5], enhancing learners' awareness of authentic professional language.

Yet, despite its potential, corpus use in ESP remains inconsistent, often limited to isolated demonstrations rather than structured pedagogy [7, 8]. This study therefore proposes a pedagogical framework that systematically integrates specialized corpora into ESP instruction through five stages—needs analysis, corpus selection, data exploration, task design, and evaluation—to better link language learning with professional communication.

Literature Review. Corpus linguistics has transformed ESP pedagogy by enabling evidence-based approaches to language description and instruction. Early studies [4, 6, 9] emphasized the pedagogical value of authentic texts, while later research [1, 7] demonstrated how corpora support vocabulary learning, genre analysis, and disciplinary writing. Specialized corpora, in particular, provide insights into professional discourse practices, revealing how lexical and syntactic patterns shape meaning within specific fields [10, 13].

Empirical research confirms that corpus-informed tasks foster learners' linguistic awareness and autonomy [2, 5]. However, many ESP programs still underuse corpora due to limited teacher training and lack of integration into curriculum design [8]. Consequently, there is a need for structured frameworks that embed corpus-based analysis throughout ESP instruction rather than as an isolated technique.

This study builds on these perspectives by proposing a practical model for incorporating specialized corpora into the ESP classroom, aiming to enhance learners' professional communication competence through systematic, data-supported instruction.

Methodology. This study employed a mixed-method design to evaluate the effectiveness of a corpus-informed framework for ESP instruction. Implemented over one semester in an undergraduate Oil and Gas Business course, the framework integrated corpus-based activities to enhance learners' professional language competence and awareness of authentic discourse. Quantitative data from pre- and post-tests measured lexical diversity, collocational accuracy, and genre-specific writing, while qualitative data from observations, interviews, and reflections captured participants' experiences.

Forty-two undergraduates (B1–B2 CEFR) participated, divided into an experimental group ($n = 22$) receiving corpus-based instruction and a control group ($n = 20$) following a textbook-based syllabus. Both groups were taught by the same instructor to ensure consistency. Ethical approval and informed consent were obtained.

A specialized 2-million-word corpus (2,008,561) of oil and gas texts including textbooks, dictionaries, and scientific articles (2014–2024) was compiled and analyzed using Sketch Engine to extract frequency lists, concordances, and collocations for instructional use. (See Figure 1.) Writing samples were statistically analyzed (paired t -tests), and qualitative data were thematically coded [9, 12]. Triangulation across data sources and inter-rater reliability ($r = 0.87$) ensured validity and reliability, while participant anonymity and confidentiality were fully maintained.




Figure 1. A specialized corpus of Oil and Gas.

Results and Discussion. The analysis of Oil and Gas ESP learners' written work revealed significant progress in lexical richness, collocational precision, and use of professional terminology after corpus-based instruction. The experimental group's type-token ratio increased from 0.47 to 0.60 ($p < .01$), reflecting broader vocabulary use and improved control of technical lexis. Learners began employing discipline-specific collocations such as *drilling mud circulation*, *oil spill management*, and *pipeline maintenance*, replacing non-specialized expressions like *clean oil pipe* or *fix damage*. Frequency analysis in Sketch Engine indicated a 35% rise in field-related collocations, whereas the control group showed only marginal gains ($p > .05$).

Qualitative feedback indicated positive learner responses to corpus-based instruction. Students found the approach motivating and relevant to professional communication, noting that corpus exploration clarified how experts structure technical texts. Teachers observed increased engagement and greater attention to terminology and register. Overall, corpus-informed instruction improved Oil and Gas students' linguistic accuracy, disciplinary awareness, and confidence in professional communication, bridging academic learning with industry practice. (See Table 1.)

Table 1. Summary of Quantitative Findings

Indicator	Experimental Group (Pre)	Experimental Group (Post)	Control Group (Pre)	Control Group (Post)	Significance (p)
Type-Token Ratio (Lexical Diversity)	0.47	0.60	0.46	0.49	< .01
Collocational Accuracy (%)	54	73	55	58	< .05
Discipline-Specific Collocations (freq.)	128	173	124	131	< .05

Conclusion. The study examined the effectiveness of a corpus-informed pedagogical framework in developing professional communicative competence among oil and gas ESP students. By integrating specialized corpora into classroom instruction, learners demonstrated measurable gains in lexical precision, collocational accuracy, and discipline-specific discourse awareness. The findings confirm that corpus-based pedagogy enhances authenticity and learner engagement, bridging the gap between academic learning and professional communication. The proposed framework offers a replicable model for embedding corpus analysis into ESP curricula, supporting both linguistic and professional development. Future research could expand this approach across other technical disciplines and explore its long-term impact on workplace communication.

References

1. Basturkmen H. Developing courses in English for specific purposes. Springer, The Electronic Journal for English as a Second Language, Volume 16, Number 1. 2010, p.12.
2. Bhatia V. K. Analysing genre: Language use in professional settings. Routledge, 2014, p 27.
3. Biber, D. Corpus linguistics: Investigating language structure and use. *Cambridge University Press google schola*, 2, 1998, pp. 230-239.
4. Charles M. Using corpora for ESP/EAP writing and teaching. In V. Bhatia, S. Bremner & Y. K. Tien (Eds.), The Routledge handbook of English for specific purposes, Routledge, 2019, pp. 385–399.
5. Dudley-Evans T., & St John M. J., Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach. Cambridge University Press., 1998, p.301
6. Flowerdew L., Corpora and language education. Palgrave Macmillan, 2012, p.362.
7. Gilmore A., Authenticity in English language teaching: An evaluation of textbook content and design. Routledge, 2020, p.33.
8. Hunston S., Corpora in applied linguistics. Cambridge University Press, 2002, p.300.
9. Hutchinson T., & Waters A., English for Specific Purposes: A learning-centred approach. Cambridge University Press, 1987, p.183.
10. Lee D. & Swales J. M., Corpus linguistics and ESP: Past, present and future. *ESP Today*, 9(1), 2021, pp. 1–23. <https://doi.org/10.18485/esptoday.2021.9.1.1>
11. McEnery T. & Hardie A., Corpus linguistics: Method, theory and practice. Cambridge University Press, 2012, p.292.
12. Musayeva F.M., The importance of questionnaires in corpus building process. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 2 (43), 2012, pp. 39-47, <https://journal.fledu.uz>
13. Römer U., Corpus research applications in second language teaching. *Annual Review of Applied Linguistics*, 31, 2011, pp. 205–225. <https://doi.org/10.1017/S0267190511000055>
14. Sinclair J., Corpus, concordance, collocation. Oxford University Press, 1991, p.97.

A REFLECTIVE CASE STUDY ON DEVELOPING AN UNDERSTANDING OF CRITICAL READING**Turakulova Baxtiniso Nuriddinovna**

TIIAME NRU

PhD student of the Teaching theory and methodology department

92_peerage@mail.ru

ORCID 0009-0009-2804-3196

UDK 371.3

Abstract. This reflective case study explores how a graduate student and novice instructor developed a comprehensive understanding of *critical reading* through theoretical research, reflective practice, and classroom application. Anchored in frameworks by Wallace and Wray (2011), Freire (1983), and Bloom (1956), the research traces the participant’s evolution from passive, information-oriented reading toward active, evaluative, and context-aware interpretation. The study employed qualitative methods, including reflective journals, teaching artifacts, and a final academic presentation as data sources. Thematic analysis revealed four developmental stages: (1) awareness of the limits of traditional reading, (2) adoption of structured questioning techniques, (3) expansion toward sociocultural awareness through Freire’s concept of “reading the world,” and (4) integration of higher-order thinking as conceptualized in Bloom’s taxonomy. Findings demonstrate that reflective engagement with theoretical frameworks, combined with applied teaching practice, fosters sustained critical reading competence. The study concludes that critical reading is best understood as a developmental, iterative process shaped by reflection, contextual awareness, and cognitive transformation. Implications for teaching literature and reading in higher education include incorporating structured critical reading strategies, fostering reflective practice, and contextualizing texts within sociocultural frameworks.

Keywords: critical reading, reflective learning, Bloom’s taxonomy, Freire, Wallace and Wray, critical literacy, literature education.

TANQIDIY O'QISHNI TUSHUNISHNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA MULOHAZALI AMALIY TADQIQOT

Annotatsiya. Ushbu reflektiv amaliy tadqiqot aspirant va yosh o'qituvchining nazariy tadqiqotlar, reflektiv amaliyot va sinfda qo'llash orqali tanqidiy o'qishni qanday qilib keng qamrovli tushunishini o'rganadi. Wallace va Wray (2011), Freire (1983) va Bloom (1956) tomonidan olib borilgan tizimlarga asoslangan tadqiqot ishtirokchining passiv, axborotga yo'naltirilgan o'qishdan faol, baholash va kontekstga asoslangan talqinga o'tishini kuzatadi. Tadqiqotda reflektiv jurnallar, o'qitish artefaktlari va ma'lumotlar manbai sifatida yakuniy akademik taqdimot kabi sifatli usullar qo'llanilgan. Tematik tahlil to'rtta rivojlanish bosqichini aniqladi: (1) an'anaviy o'qish chegaralarini anglash, (2) tuzilgan savol berish texnikasini qo'llash, (3) Freirening "dunyoni o'qish" konsepsiyasi orqali ijtimoiy-madaniy xabardorlikka kengayish va (4) Bloom taksonomiyasida konsepsiyalashtirilgan yuqori darajadagi fikrlashni integratsiyalash. Natijalar shuni ko'rsatadiki, nazariy tizimlar bilan reflektiv aloqa amaliy o'qitish amaliyoti bilan birgalikda barqaror tanqidiy o'qish qobiliyatini rivojlantiradi. Tadqiqotdan xulosa shuki, tanqidiy o'qish eng yaxshi refleks, kontekstual xabardorlik va kognitiv o'zgarish orqali shakllantirilgan rivojlanish, iterativ jarayon sifatida tushuniladi. Oliy ta'limda adabiyot o'qitishning oqibatlarini orasida tuzilgan tanqidiy o'qish strategiyalarini joriy etish, reflektiv amaliyotni rivojlantirish va matnlarni sotsiomadaniy doirada kontekstlashtirish kiradi.

Kalit so'zlar: tanqidiy o'qish, reflektiv o'rganish, Blum taksonomiyasi, Freire, Wallace va Wray, tanqidiy savodxonlik, adabiyot ta'limi.

Introduction. Critical reading is an essential skill for school, especially in college and literature classes, because it allows readers to do more than understand the text on the surface; it helps them analyse it more deeply. Critical reading is different from passive reading because it requires you to evaluate and question the material actively. Wallace and Wray (2011) characterise crucial reading as a process of assessing the credibility of arguments, the quality of evidence, and the robustness of reasoning within a text. When students read critically, they don't just take what they read at face value; they also question the text's ideas and assumptions. This level of involvement is essential in school because it helps students become independent, analytical thinkers. It doesn't happen overnight that you learn to read critically; it usually takes some help, some thought, and some practice. Educational theorists have stressed that genuine reading comprehension transcends mere word decoding. Freire (1983) contends that reading constitutes a profoundly critical act. He famously said, "reading the world comes before reading the word," which means that you need to understand the bigger picture and your own reality before you can understand written texts. In other words, critical reading means understanding how the text and the context are related and recognising that reading is connected to your awareness of social and cultural realities. In the same way, Bloom's taxonomy of cognitive skills places critical reading at the top levels of mental engagement. Bloom (1956) created a hierarchy of learning goals that pushes teachers and students to go beyond just remembering facts and instead analyse, evaluate, and create. The purpose of Bloom's Taxonomy was to encourage "higher forms of thinking in education... such as analysing and evaluating... rather than just remembering facts. In the context of reading, this means that a critical reader uses higher-order cognitive skills like analysis and evaluation to understand and judge texts instead of just remembering what they say. These literary perspectives indicate that developing into a critical reader necessitates active inquiry, contextual comprehension, and sophisticated cognitive abilities.

Literature review. Building on the work of Bloom and Freire, researchers like Anderson and Krathwohl (2001) and Barrett (1976) created taxonomies that connect reading comprehension to cognitive growth. Barrett's Taxonomy delineates five hierarchical levels of reading comprehension: literal, reorganizational, inferential, evaluative, and appreciative. Collectively, these levels chart the reader's progression from superficial to profound engagement with text. In this model, critical reading is like the

evaluative and appreciative levels, where readers not only figure out what the author meant, but also judge their intent, ideology, and aesthetic value. This viewpoint is consistent with contemporary educational objectives that regard reading as a tool for fostering critical thinking and metacognitive awareness. Brookfield (2017), for example, says that reflection is the link between understanding and criticism, and that it helps students internalise and change what they read. Paul and Elder (2014) characterise critical reading as “an active, self-directed, self-monitored, and self-corrective process” necessitating an awareness of reasoning, assumptions, and evidence. Wallace and Wray (2011) offer a highly effective framework, supplying students with guided enquiries such as “What is the writer’s purpose?” and “How does the evidence support the claim?” Their model assists postgraduate students in transitioning from descriptive to analytical and evaluative interactions with texts. Research indicates that employing structured questioning markedly enhances students' capacity to interpret, evaluate, and integrate information (Zhao & Zhu, 2021). Additionally, the integration of literary texts into critical reading pedagogy has been demonstrated to enhance empathy and perspective-taking, as emphasised by Lazar (1993) and Adler & Van Doren (1972). Literature presents students with intricate moral and emotional dilemmas, necessitating interpretative reading that integrates analysis and appreciation. This aligns with Barrett's advanced levels of understanding and integrates smoothly with the models of Bloom and Freire, indicating that literary reading is an optimal method for cultivating critical literacy in higher education.

Research methodology. This research was structured as a qualitative reflective case study examining the development of a single learner in critical reading. The participant is the author, a graduate student in philology and an inexperienced literature instructor, henceforth referred to as “the presenter.” The study is an autoethnographic reflection or self-study because the presenter examines her own learning process. In this case, the researcher and the subject are the same person. This design was selected to encapsulate the intricate, individualised progression of understanding that may be challenging to discern externally. By examining her own reading habits and how they evolved over time, the presenter was able to demonstrate how her perception and practice of reading changed.

Gathering Data. The study's data were collected from various reflective and practical activities conducted by the presenter over an extended duration (approximately one academic semester). The main places where the data came from were:

Reflective Journals: The presenter wrote weekly journals during the semester about her assumptions on reading academic texts and literary works. In these entries, she wrote down her first thoughts, any questions that came up, and any changes in how she read the texts. The journals also recorded her assumptions and metacognitive reflections (for instance, identifying when she was being uncritical as opposed to genuinely engaging with a text).

Literature Engagement: The speaker purposefully interacted with academic literature on critical reading and pedagogy as part of her professional development. Critical readings included Wallace and Wray's (2011) *Critical Reading and Writing for Postgraduates*, Paulo Freire's writings on literacy (especially his thoughts on reading the word and the world), and materials on Bloom's taxonomy related to reading and critical thinking. She wrote down what she read and often used ideas from them in her own reading. These notes showed how her theoretical knowledge changed the way she understood things.

Analysis of Data. The analysis was conducted qualitatively and interpretatively. Initially, all journal entries, notes, and teaching artefacts were organised in chronological order to create a timeline of the presenter's experiences. The researcher conducted a

thematic analysis, coding the data for recurring themes or significant changes about critical reading. Some of the main themes that came up were: the first idea of reading, the moment of critical awareness, the effect of scholarly frameworks, the broadening of the socio-cultural context, the addition of critical thinking skills, and changes in how teachers teach. These themes were roughly in line with the different stages of the presenter's journey. After coding, the researcher compiled the information into a story that illustrates how the presenter's understanding has evolved. For each phase, illustrative examples from the data were selected, such as a quote from a journal entry that showed a new understanding or an event in the classroom that changed how someone saw things. The narrative was subsequently validated against the theoretical frameworks examined by the presenter. At this point, the researcher asked, "How do the changes that were seen fit with or not fit with the ideas in Wallace & Wray's, Freire's, and Bloom's works?" This step ensured that the results would be discussed in connection with existing research on critical reading. To increase credibility, the presenter used triangulation of data sources by comparing personal reflections to actual teaching practice outcomes and literature. Whenever the presenter said that her thinking had changed, she looked for proof in her actions (the teaching strategies she used) or in how she explained her ideas in the final presentation. Furthermore, as this is a self-study, an aspect of self-reflexivity was preserved: the presenter was cognisant of her dual role and critically evaluated how her own biases or aspirations (e.g., the desire to improve as an educator) could affect her reporting of the process. The analysis included notes on these kinds of self-reflective observations to give them more meaning. The analysis produced a reconstructed process narrative that explains how the presenter's understanding of critical reading changed over time. The Results section includes this narrative, along with a timeline figure and a comparative table that show important insights and changes.

Results and discussions. A timeline that shows the presenter's path to becoming a proficient critical reader, with important events from their first exposure to critical reading ideas to their actual use of those ideas. In the beginning, the focus is on basic understanding and summarising. In the later stages, questioning strategies, contextual awareness, and higher-order thinking are added. The timeline shows that developing a critical reading approach is a gradual process that happens in steps.

First Steps: Reading Passively and Making Assumptions. At the start of the study, the presenter's way of reading mainly was traditional and transactional. She said that she read academic articles and literature in the same way that most students do: to understand the content, remember essential points, and summarise the author's ideas. In her first reflective journal entry (Week 1), she wrote, "I read the article carefully and highlighted important facts, but I'm not sure how to be critical of it." Does it mean looking for mistakes in the text?" This comment shows a common mistake: thinking that "critical reading" means finding mistakes or criticising the text. At this point, the presenter was more interested in comprehension—getting information and understanding the text as it was written—than in evaluation or interpretation. She mostly paid attention to what was said and not how or why it was said. She thought of the reader as a passive receiver of information, responsible for learning from the text but not yet engaging with it. After a few weeks of talking to her peers and mentors, the presenter realised that something was wrong with her approach. A pivotal moment transpired when a faculty mentor enquired during a seminar, "What questions did you pose regarding the text?" The presenter realised that she had only asked a few questions to clarify jargon. This made me realise early on that critical engagement means questioning the text, not just understanding it. She wrote in her journal (Week 3): "I need to start reading with questions in mind—why the author takes this stance, what evidence supports it, what's missing or assumed." This was the first step towards her changing from a passive to an active reading stance. The

presenter began to try out adding short questions or comments to her readings, like "How does this evidence support the claim?" or "Does the author take into account other points of view?" This practice, which started tentative, led to a more critical way of thinking. It is easy to see the difference between the presenter's first reading style and her new critical reading style. The presenter recognised the necessity of interrogating texts and sought tangible strategies to accomplish this. At this point, she really got into Wallace and Wray's (2011) framework for critical reading. Wallace and Wray give readers a systematic way to question academic texts. This includes identifying the main claims made by the authors, evaluating the evidence provided, examining the logical flow of the arguments, and considering the implications of the conclusions. The presenter read parts of *Critical Reading and Writing for Postgraduates* and learnt how to ask questions while reading. She learnt to ask questions like, "What is the writer's purpose?" What are the assumptions that support the argument? How strong is the evidence, and why? Her journal from Week 5 shows that she was much more engaged in the reading process when she used these questions as a checklist: "I stopped at each section of the paper to ask myself what the author was trying to do and whether I was convinced." This made me read more slowly, but I started to see how the argument was put together.

The presenter's summaries and critiques of articles immediately demonstrated how well Wallace & Wray's strategies worked. She started writing commentaries that included evaluative statements (for example, "The author's conclusion relies heavily on one study, which may not be generalisable; a broader evidence base would strengthen the argument.") instead of just summarising what the article said. This shows a move towards what Wallace & Wray call evaluative reading, which is the main idea behind critical reading researchgate.net. The presenter said a big personal milestone by Week 7: "I can't read uncritically now." "I automatically look for the argument's structure and test its strength against what I know." This shows that critical questioning had become a habit, indicating that structured critical reading practices had become second nature to them. The presenter's confidence also grew during this phase. At first, she didn't want to criticise published authors because she was worried, like many students, "Who am I to question an expert?" But as she worked with Wallace & Wray's framework, she learnt that critical reading isn't about being rude to authors; it's about having an academic conversation. She often found both strong and weak points in an article by breaking it down into its parts, which she could then explain. In her last presentation, she had a slide with the title "Reading as Dialogue." On it, she told the audience that reading critically is like having a conversation with the author in your head, where you agree, disagree, and ask for clarification. This point of view came directly from the structured approach she learnt. It shows that she has grown in her understanding of how reading is an interactive activity. As the presenter became adept at assessing texts based on their intrinsic qualities, an additional dimension of comprehension emerged through engagement with Paulo Freire's concepts of critical literacy. Freire posited that reading encompasses not merely the words on the page but also the comprehension of the context that generates those words. Around Week 8, in the middle of the project, the presenter read what Freire and Donaldo Macedo had to say about reading the word and the world. She learnt a lot from this experience. She wrote in a reflective entry, "I realised I've been focussing on arguments and evidence, but not as much on the context." Freire's idea of reading the world made me consider the social and historical background of each text, including who wrote it, when, where, and for what audience or purpose.

In practical terms, this meant that the presenter began considering elements outside the text itself as part of critical reading. When she read a book or a scholarly article, for example, she would ask, "What was the author's background or bias?" What was the social and political situation at the time this was written? How could the setting be affecting the

content or the point of view? She also used this point of view in her teaching. One day in class, while discussing a book with her students, she encouraged them to consider how the author's life and the time period in which the book was written might have influenced the story. She said that this made the discussion deeper, with students linking the text to problems in the real world. Freire's ideas transformed the presenter's understanding of critical reading from a method to evaluate texts into a means to become aware of social issues. It added a critical literacy aspect: the idea that reading can be an act of resistance or empowerment, depending on how one interprets and questions texts in their real-world context. During the presentation at the end of the study, the speaker discussed this idea and referenced Freire's saying that "reading the world always comes before reading the word." They also discussed how critical readers consistently connect what they read to larger ideas and power structures. In her talk, she gave an example: when reading a news article critically, you should think about the political bias of the media outlet and the bigger conversation that article is a part of. This demonstrates how her ability to read critically has grown to include an awareness of context and ideology, aligning with Freirean critical pedagogy.

Another step in the presenter's journey was when she consciously connected her reading habits to the development of her cognitive skills, based on Bloom's taxonomy. Bloom's taxonomy wasn't made just for reading, but the presenter found it helpful for assessing her level of engagement with a text. In Week 10, she planned a workshop for her students on how to read better. She made a list of activities for each of the six cognitive levels: remember, understand, apply, analyse, evaluate, and create. This exercise made her think about what reading levels she was using. She realised that her first approach mostly stayed at the remembering and understanding levels, like when she remembered facts or explained ideas. It was clear that her new strategies, such as examining how arguments are structured or assessing whether conclusions are true, worked at the analysing and evaluating levels of Bloom's taxonomy. In addition, she was working at the creating level by generating new ideas in response to the reading, such as ways to improve authors' arguments or different ways to read a text. This realisation was vital because it gave the presenter a meta-cognitive insight: she understood why her reading was more intellectually stimulating and challenging than before—she was using higher-order thinking skills. Bloom's taxonomy helped her find the words to talk about this change. In a journal entry from Week 11, she said, "I used to think of reading as a way to get information (knowledge gathering). I also see it as a way to work on my critical thinking skills, like comparing ideas, criticising arguments, and even coming up with my own point of view. When I read critically, I'm using my brain differently. She even said that critical reading helped her writing; as she read more critically, she got better at making her own arguments and guessing what questions readers would have in her papers. The last class presentation demonstrated how Bloom's framework was applied in this context. One of the slides showed a simplified version of Bloom's pyramid with the top levels highlighted. The speaker told the audience that critical reading mostly happens at the top levels of cognitive activity, which are analyse, evaluate, and create. She used Bloom's work to argue that education shouldn't just be about memorising things, which resonated with her own journey. The speaker demonstrated a more developed understanding by clearly connecting critical reading as a separate skill to a larger process of critical thinking and learning. This part of the journey helped her not only practise critical reading but also think about and explain what it means in terms of teaching. In the last part of the journey (Weeks 12–13, when she was getting ready for the presentation), the presenter fully incorporated her new understanding of critical reading into both her identity as a reader and her teaching methods. This was demonstrated by the fact that her actions aligned with what she claimed to believe. She had many chances to use critical reading skills in her

own work, like when she had to review literature for a term paper critically. She found herself naturally using the techniques and points of view she had learnt, such as questioning frameworks from Wallace & Wray, being aware of the context from Freire, and checking her own cognitive level from Bloom. One of her professors said that her literature review was "insightful and critically thorough," indicating that her academic work was improving. This outside validation showed that her progress was paying off. As a teaching assistant, the presenter taught her literature students a short module on how to read critically. She used a list of essential questions to help them read an article, got them talking about the author's background and purpose, and even had them work in groups to look at the text's arguments. She saw that after these sessions, the students were more involved in discussions and asked more questions about the readings. One student wrote in a course feedback form that they "learnt how to interact with readings, not just memorise them." This was similar to how the presenter had changed. This practical application in teaching had two effects: it helped the presenter improve their skills (teaching something often makes you better at it) and it showed that critical reading strategies can be taught and learnt by others.

In conclusion, the findings of this reflective case study illustrate a distinct advancement: transitioning from passive reading to active inquiry, from a singular text focus to contextually informed interpretation, and from lower-order to higher-order cognitive engagement. Both reflective practice (ongoing self-evaluation and journaling) and practical engagement (using strategies in real academic and teaching tasks) helped this progress. The principal milestones and transitions included an initial awareness of the necessity for inquiry, the implementation of organised critical reading methodologies, the expansion of focus to encompass socio-cultural critique, and the assimilation of critical reading into one's cognitive competencies. In the Discussion, we revisit these findings and connect this one case to the broader context of research on critical reading and learning development.

This study provides educators in literature and other disciplines with a range of methods to develop critical readers. The presenter's dual role as both learner and teacher enabled her to implement her acquired knowledge in an instructional setting, and the favourable feedback from her students indicates a broader applicability. The strategies employed, such as guided questioning, contextual discussions, and critical analysis exercises, could be incorporated into literature curricula to facilitate students' progression towards critical reading. Also, the emotional part of the journey—gaining the confidence to question texts—reminds us that teachers should create a classroom environment where questioning authors is seen as usual and encouraged, not a sign of disrespect or misunderstanding. Getting over the "authority barrier" (the feeling of who am I to question this author) is a key idea in becoming a critical reader. Early on, the presenter was fortunate to receive mentorship and reassurance, which can be very important in this case. It is important to note that this study concentrated on a singular individual's experience, thereby constraining the generalisability of the results. The exact order in which the influences occurred (for example, the presenter read Wallace & Wray first, then Freire, and then applied Bloom) is unique. Another learner might have these in a different order or in a different way. The presenter's intrinsic motivation and the academic environment, characterised by supportive mentors and teaching opportunities, likely significantly influenced her development. So, the stages that were found (from understanding to questioning to putting things in context to higher-order thinking) are probably the same for everyone who is learning to read critically. However, the speed and reasons for different learners may be different. Subsequent research may investigate various cases or implement controlled interventions to determine the broader applicability of the observed patterns. Even though it only looked at one case, the study provides a thorough proof of

concept that can help with practice and more research.

Conclusion and recommendations. This study addresses the research question regarding how a learner cultivates an understanding of critical reading through reflective and practical engagement. This study found that the learner's understanding grew through repeated cycles of practice based on theory and reflection. Interacting with scholarly frameworks equipped the learner with the tools and terminology necessary for critical reading. Practical application in both reading and teaching reinforced these competencies, and continuous reflection enabled the learner to internalise and express the evolution of her understanding. The combination of these factors led to a skilled critical reader who understands that reading is an active, evaluative, and context-sensitive process. This case shows that a learner can change not only how they read, but also how they think and learn in general, with the proper support and effort. They can become, in Freire's sense, not just a reader of texts, but a reader of the world.

References

1. Adler, Mortimer J., and Charles Van Doren. *How to Read a Book: The Classic Guide to Intelligent Reading*. New York: Simon & Schuster, 1972. – 426 p.
2. Anderson, Lorin W., and David R. Krathwohl (Eds.). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York: Longman, 2001. – 352 p.
3. Barrett, Thomas C. "Taxonomy of Reading Comprehension." In P. David Pearson (Ed.), *Handbook of Reading Research*, pp. 49–70. New York: Longman, 1976.
4. Bloom, Benjamin S. *Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain*. New York: David McKay, 1956. – 207 p.
5. Brookfield, Stephen D. *Becoming a Critically Reflective Teacher*. 2nd ed. San Francisco: Jossey-Bass, 2017. – 304 p.
6. Fairclough, Norman. *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. 2nd ed. London: Routledge, 2010. – 608 p.
7. Freire, Paulo. "The Importance of the Act of Reading." (Translated by L. Slover.) *Journal of Education*, Vol. 165, No. 1, 1983, pp. 5–11.
8. Freire, Paulo, and Donaldo Macedo. *Literacy: Reading the Word and the World*. South Hadley, Massachusetts: Bergin & Garvey, 1987. – 183 p.
9. Lazar, Gillian. *Literature and Language Teaching: A Guide for Teachers and Trainers*. Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – 285 p.
10. Paul, Richard, and Linda Elder. *The Mini Guide to Critical Thinking Concepts and Tools*. 7th ed. Dillon Beach, California: Foundation for Critical Thinking, 2014. – 24 p.
11. Wallace, Mike, and Alison Wray. *Critical Reading and Writing for Postgraduates*. Thousand Oaks, California: Sage Publications, 2011. – 264 p.
12. Zhao, Yanchao, and Qian Zhu. "Developing Critical Reading Ability in EFL Contexts: A Systematic Review." *Journal of Research in Reading*, Vol. 44, No. 4, 2021, pp. 667–687. <https://doi.org/10.1111/1467-9817.12393>

CHALLENGES AND OPPORTUNITIES OF TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES (ESP) IN UZBEKISTAN

Mahliyo Akhmedovna Bakhronova

TIAME National Research University, a PhD Student

m_bakhronova@tiame.uz

ORCID 0009-0002-5217-6115

UDK 372.800.4

Abstract. This research investigates the challenges and opportunities in teaching English for Specific Purposes (ESP) in Uzbekistan, which is undergoing educational reforms to modernize its higher education system. Key obstacles include inadequate teacher training, a lack of authentic materials, rigid curricula, and limited industry collaboration. Conversely, there are emerging opportunities such as increased government support, student enthusiasm, international

partnerships, and digital resource integration. The study suggests that a structured ESP framework can help bridge the gap between education and employment, contributing to a competency-based approach that aligns with national development goals and enhances graduates' readiness for global communication and professional success.

Keywords: English for Specific Purposes (ESP), language policy, teacher training, curriculum reform, educational innovation.

O'ZBEKISTONDA INGLIZ TILINI ANIQ MAQSADLAR UCHUN O'QITISHNING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI


Annotatsiya. Ushbu maqola oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha ta'lim islohotlarini olib borayotgan O'zbekistonda ingliz tilini aniq maqsadlar uchun (ESP) o'qitish muammolari va imkoniyatlarini o'rganadi. Asosiy to'siqlarga o'qituvchilarning yetarli darajada o'qitilmasligi, o'quv dasturlari va haqiqiy materiallarning yetishmasligi, cheklangan sanoat hamkorligi kiradi. Aksincha, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning kuchayishi, talabalarning ishtiyoqi, xalqaro hamkorlik va raqamli resurslarni birlashtirish kabi imkoniyatlar mavjud. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tuzilgan ESP doirasi ta'lim va bandlik o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi, bu milliy rivojlanish maqsadlariga mos keladigan va bitiruvchilarning global aloqa va kasbiy muvaffaqiyatga tayyorligini oshiradigan malakaga asoslangan yondashuvga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: muayyan maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), til siyosati, o'qituvchilar malakasini oshirish, o'quv dasturini isloh qilish, ta'lim innovatsiyasi

Introduction. The text discusses issues in English for Specific Purposes (ESP) education in Uzbekistan, highlighting the inadequacy of teacher training and the lack of relevant teaching materials tailored to industry needs. It points out the rigid national curriculum as a barrier to adapting coursework to the job market. There is insufficient collaboration between academic institutions and industries, leading to a disconnect in skill development. However, the study notes positive developments, such as increasing government support for English education and rising student motivation linked to career advancement. Opportunities for international partnerships and the integration of digital resources are also identified as ways to enhance ESP programs. The study concludes that a well-structured ESP framework can better align education with employment needs and improve graduates' global communication skills.

The text highlights the increasing significance of English for Specific Purposes (ESP) in Uzbekistan's higher education, driven by globalization and the need for career-readiness. ESP focuses on teaching the necessary communication skills for various fields such as engineering, hydrology, medicine, and business. Despite government reforms in language education, systemic and pedagogical challenges impede the successful implementation of ESP programs. The study aims to explore these challenges and the potential opportunities for ESP teaching in the context of ongoing educational reforms in Uzbekistan.

Key Characteristics of English for Specific Purposes (ESP)




The educational reforms in Uzbekistan aim to modernize the higher education system and align it with international standards, particularly in English for Specific Purposes (ESP). However, significant barriers hinder effective ESP implementation. Key issues include inadequate teacher training in ESP methodologies and a lack of authentic,

industry-relevant teaching materials. The rigid national curriculum limits flexibility in course design, making it challenging for educators to adapt to job market demands. Additionally, insufficient collaboration between academic institutions and industries results in a mismatch between classroom skills and workforce requirements.

Methodology. ESP focuses on tailored language instruction that is learner-centered, purpose-driven, and discipline-specific. It emphasizes the practical application of language skills necessary for students' specific fields, ensuring they are equipped for immediate academic and professional tasks. Despite the challenges, opportunities for advancing ESP in Uzbekistan are emerging, such as increased government support for language education and heightened student motivation linked to career advancement. International partnerships and the integration of digital resources also present avenues for enriching ESP programs.

A well-structured ESP framework is essential for bridging the gap between education and employment. This framework should be culturally and contextually relevant, aligning educational practices with national development goals to enhance graduates' global communication skills and professional readiness. The relevance of ESP is growing in Uzbekistan as the country strives to cultivate graduates capable of engaging in global professional communities, ensuring their competitiveness in the international job market.

The scope of English for Specific Purposes (ESP) encompasses two primary branches, each catering to distinct needs and contexts of language learners:



English for Academic Purposes (EAP): This branch is dedicated to equipping students with the specific language skills necessary for success in academic environments. It addresses various components of educational studies, including but not limited to academic writing, where learners gain proficiency in structuring essays, crafting research papers, and adhering to citation and formatting standards. Furthermore, EAP includes training in lecture comprehension, focusing on developing the listening skills needed to understand spoken academic discourse, as well as strategies for effective note-taking. Additionally, seminar discussions are an essential part of EAP, where students engage in critical thinking and argumentation, facilitating their ability to participate actively in academic discourse.

English for Occupational Purposes (EOP): This branch emphasizes the language and communication skills required within specific professions. Each field has its unique jargon, conventions, and communicative demands. For example, Legal English prepares learners for the language used in legal contexts, including contract writing, case analysis, and courtroom communication. Medical English focuses on the terminology and interactions relevant to healthcare settings, enabling professionals to communicate effectively with patients, colleagues, and medical literature. Similarly, English for Hospitality equips individuals in the tourism industry with the necessary language skills to engage with clients, manage customer service interactions, and navigate the nuances of the hospitality business.

Overall, English for Specific Purposes (ESP) is a targeted approach within English language education that seeks to meet the diverse linguistic, communicative, and contextual requirements of learners operating in various specialized academic or


professional domains. In contrast to General English, which covers a wide range of language skills applicable in everyday contexts, ESP is oriented toward practical language use within specific areas such as engineering, medicine, law, business, or environmental science, ensuring that learners can perform effectively and confidently in their chosen fields.

Discussion. Hutchinson and Waters (1987) define English for Specific Purposes (ESP) as a targeted approach to language teaching, where all decisions regarding the content, teaching methodologies, and learning objectives are firmly rooted in the specific reasons that learners have for acquiring the language. This definition underscores the importance of conducting a thorough needs analysis, which systematically identifies the particular requirements and goals of learners about how they intend to use the language in real-world contexts. By focusing on the unique contexts in which learners will operate, ESP ensures that the language content is not only relevant but also practical and applicable to the learners' professional or academic endeavours. Consequently, both the teaching strategies and materials utilized are tailored to effectively address these identified needs, enhancing the overall effectiveness of the learning experience and ensuring that it is aligned with the learners' aspirations and circumstances.

It explores the challenges and opportunities associated with teaching English for Specific Purposes (ESP) in Uzbekistan, a country experiencing significant educational reforms aimed at aligning its higher education system with global standards. The research identifies several key barriers, including insufficient teacher training in ESP methodology, a lack of authentic teaching materials, rigid national curricula, and limited collaboration between academia and industry. Despite these challenges, the study also emphasizes emerging opportunities, such as increased government support for English language education, growing student motivation, international partnerships, and the integration of digital resources into ESP teaching. By analyzing both systemic issues and innovative practices, the study argues that a well-structured ESP framework can serve as a crucial link between education and employment in Uzbekistan.

The findings contribute to the development of a context-specific, competency-based ESP approach that aligns with national development goals and enhances graduates' readiness for global communication and professional success. ESP refers to teaching English tailored to the specific linguistic and communicative needs of learners in particular academic, occupational, or professional domains.

Key Challenges in Teaching ESP in Uzbekistan



Insufficient Teacher Training -- A significant number of English teachers often do not receive adequate training in instruction that is specific to subject-related language skills, particularly in fields such as hydrology, engineering, and other technical disciplines. This gap in training can hinder their ability to effectively teach students the specialized vocabulary and language structures that are essential for success in these areas of study.

Lack of Authentic Materials -- Textbooks and teaching resources frequently suffer

from being outdated or overly generic, failing to address the evolving needs of specific academic fields. Many of these materials lack current research and contemporary practices, which can hinder effective learning and understanding. Moreover, they often present information in a one-size-fits-all manner, overlooking the unique challenges and advancements pertinent to specialized disciplines. This can result in students not receiving the targeted knowledge and skills they require to excel in their respective areas of study.


Curriculum Inflexibility -- National curricula often lack the flexibility necessary for the adaptation of English for Specific Purposes (ESP) programs or the development of localized content that meets the unique needs of specific groups or industries. This rigidity can hinder educators from tailoring their teaching materials and methodologies to better resonate with the particular context, culture, and professional requirements of their students. As a result, learners may not receive the most relevant and applicable training that would enhance their communication skills in specialized fields.

Low Student Proficiency -- A significant number of students enter university with only basic proficiency in general English, which poses considerable challenges when it comes to understanding and effectively engaging with technical English for Specific Purposes (ESP). This limited foundation can hinder their ability to grasp complex concepts, participate in discussions, and complete assignments that require specialized vocabulary and advanced communication skills. As a result, students may struggle to keep up with their coursework and fully benefit from their academic experience in fields that demand a strong command of technical language and terminology.

Limited Industry Input -- The insufficient collaboration between academic institutions and professional sectors significantly limits the relevance and effectiveness of English for Specific Purposes (ESP) courses. When educational programs fail to align with industry needs and trends, the curriculum often falls short of preparing students with the specific skills and knowledge required in their future workplaces. As a result, graduates may find themselves ill-equipped to meet the demands of their professions, which diminishes the overall value of their education. Establishing strong partnerships between universities and industries could facilitate the creation of tailored ESP courses that align more closely with real-world applications, ensuring that students are adequately prepared for the challenges they will face in their careers.

Assessment Gaps -- Standardized testing frequently falls short of addressing the unique communicative requirements found within various professional fields. This misalignment can hinder the assessment of essential skills that are vital for success in specific jobs or industries. For instance, the language and communication patterns used in business, healthcare, or technical professions often differ significantly from the general language conventions assessed in standard tests. As a result, individuals may excel in standardized assessments without necessarily possessing the nuanced communication abilities critical for their respective roles, ultimately impacting their effectiveness in real-world professional environments.

Opportunities for Advancing ESP in Uzbekistan



Educational Reform and Modernization -- Uzbekistan's government has placed a significant emphasis on enhancing English language education as a crucial component of its broader educational reform agenda. This initiative is designed to ensure that students are well-prepared for a globalized economy and can engage effectively on an international level. By prioritizing the development of English language skills, the government aims to improve communication capabilities among its citizens and increase their competitiveness in the global job market. In addition to language education, there is a strong focus on adopting competency-based approaches within higher education institutions. This educational model emphasizes the acquisition of specific skills and knowledge that are directly applicable to the workplace, rather than merely relying on traditional rote memorization. By implementing competency-based education, Uzbekistan seeks to create a more relevant and responsive educational system that aligns with the needs of both students and the labor market. This dual focus on English proficiency and competency-based learning represents a commitment to modernizing the educational framework and ensuring that it meets contemporary demands.

Digital and Online Resources -- The growing availability of Massive Open Online Courses (MOOCs), open-access English for Specific Purposes (ESP) materials, and virtual simulations significantly enhances the effectiveness and adaptability of ESP delivery. These digital resources provide learners with diverse opportunities to engage with specialized content at their own pace, promoting a more personalized educational experience. MOOCs offer structured learning paths in various fields, while open-access ESP content allows for a wide range of topics and skills to be explored without financial barriers. Additionally, virtual simulations create immersive environments where learners can practice real-world applications of their specific language skills, further enriching their learning journey. This blend of resources supports a more dynamic and interactive approach to ESP, catering to the varied needs of learners in an increasingly digital world.

International Collaboration -- Collaborating with international universities and non-governmental organizations (NGOs) enhances our initiatives by offering comprehensive training programs, financial support, and access to specialized resources and materials that are essential for our development. These partnerships not only facilitate knowledge exchange but also create opportunities for capacity building, allowing us to tap into cutting-edge research and innovative practices from around the world. Additionally, the funding received through these collaborations helps to sustain our projects and expand our reach, ensuring that we can effectively address various challenges within our community.

ESP in National Strategy -- In recent years, national policies have increasingly emphasized the importance of aligning academic programs with the demands of the labor market, particularly in the fields of Science, Technology, Engineering, and Mathematics (STEM). These initiatives aim to equip students with the skills and knowledge that employers highly value, ensuring that graduates are not only well-prepared for the workforce but also capable of contributing to economic growth and innovation. By fostering partnerships between educational institutions and industry stakeholders, policymakers are working to create curricula that reflect current job requirements and emerging trends, thus enhancing the overall relevance of higher education.

Rising Student Motivation -- Students are increasingly recognizing the significant role that proficiency in English plays in enhancing their employability and facilitating their academic progression. This growing awareness is driven by the globalization of the job market, where English is often considered the universal language of business. As a result, many students are prioritizing the development of their English language skills to improve their competitiveness in the workforce and to access higher education opportunities better. This understanding has led to a greater emphasis on English language

courses and resources during their studies, as they seek to align their skills with the demands of potential employers and academic institutions.

Professional Development Initiatives -- In-service training programs and workshops, which are sponsored by various ministries and international organizations, are playing a crucial role in helping educators adjust to the specific needs of English for Specific Purposes (ESP). These initiatives provide comprehensive resources and targeted professional development opportunities, equipping educators with the necessary skills and knowledge to effectively teach ESP courses. The training covers various aspects, including curriculum development, instructional strategies, and assessment methods tailored to meet the diverse requirements of learners in specialized fields. By facilitating collaboration among educators, these programs foster a supportive environment where teachers can share best practices and innovative approaches to enhance their teaching effectiveness in ESP contexts.

Conclusion. The Ministry of Higher and Secondary Specialized Education in Uzbekistan is implementing reforms to enhance English proficiency and employability by integrating English for Specific Purposes (ESP) into university programs. However, challenges such as rigid national curricula, outdated materials, and limited collaboration between universities and industries impede the development of effective ESP instruction. Many students enter university lacking the necessary general English proficiency, which hinders their ability to engage with complex content in specialized fields like hydrology, engineering, and medicine.

Despite these challenges, there is growing recognition of the importance of ESP, with increasing student awareness of its role in academic and professional advancement. Opportunities are arising through online resources, international partnerships, and programs supported by organizations like the British Council and Erasmus+, which offer teacher training and access to best practices.

The future of ESP in Uzbekistan appears promising due to ongoing educational reforms, but it requires addressing issues such as teacher training, curricular flexibility, and material relevance. By fostering collaboration between educational institutions and industry and embracing technological innovations, Uzbekistan has the potential to develop a more effective ESP framework that aligns with national development goals and global standards. Overall, while obstacles remain, the evolving educational landscape presents a significant opportunity to transform English instruction in Relevant fields.

Reference

1. Bakhronova M.A. *Enhancing ESP Students' Professional Competence in teaching English*. Eurasian Journal of Academic Research. April, 2025. Volume 5, Issue 4. 69-73
2. Basturkmen, H. *Developing courses in English for specific purposes*. Palgrave Macmillan. (2010). pp 189
3. Belcher, D. English for specific purposes: Teaching to perceived needs and imagined futures in worlds of work, study, and everyday life. (2006). *TESOL Quarterly*, 40(1), 133–156. <https://doi.org/10.2307/40264514>
4. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. *Developments in English for specific purposes: A multi-disciplinary approach*. Cambridge University Press. (1998). Pp 301
5. Flowerdew, L. Needs analysis and curriculum development in ESP. In B. Paltridge & S. Starfield (Eds.), *The handbook of English for specific purposes*. (1998). pp. 325–346. Wiley-Blackwell.
6. Hyland, K. *English for academic purposes: An advanced resource book*. Routledge. (2006). pp 336
7. CHALLENGES FOR TEACHERS OF ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES IN HIGHER EDUCATION. pp 129-140. <http://paper.researchbib.com/view/paper/67689>

8. Ministry of Higher and Secondary Specialized Education. *National strategy for development of higher education system until 2030*. Tashkent: Government of the Republic of Uzbekistan. (2020).
9. Rahmanov, S. Challenges in implementing ESP courses in Uzbek universities. *Uzbek Journal of Language Education and Linguistics*. 3(2). (2021). 45–57.
10. Yuldasheva, G. Towards competency-based ESP curriculum design: The case of Uzbekistan. *International Journal of English Language and Literature Studies*. (2022). 11(1), 88–98. <https://doi.org/10.18488/journal.23.2022.111.88.98>
11. British Council Uzbekistan. *ESP in Uzbekistan: Challenges and strategic recommendations*. (2022). <https://uz.britishcouncil.org/programmes/education/ESP> UNESCO. *Education policy review: Uzbekistan*. (2021). <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000375900>

SHAXS IRODAVIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Suyunov Odiljon Orif o'g'li

Qarshi davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport kafedrası o'qituvchisi

odiljonsuyunov174@gmail.com

ORCID 0009-0003-6559-2924

UDK 371.1.152.32 (021)

Annotatsiya. ushbu maqolada globallashuv davrida bo'lajak o'qituvchilarining irodaviy sifatlarini rivojlantirish pedagogik muammo ekanligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada bugungi davr yoshlarida axborotlarning salbiy ta'siri natijasida mustaqillik, tirishqoqlik, o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'zini boshqarish, sabr, chidamlilik, dadillik kabi sifatning yetarli darajada rivojlanmayotganligi haqida ham atroflicha fikr yuritilgan. Maqolada psixolog va pedagog olimlarning irodaviy sifatlar va ularning shaxs ijtimoiy hayotidagi o'rni va ahamiyati haqidagi fikr va qarashlari tahlili keltirib o'tilgan. Muallifning ta'kidlashicha, shaxs o'z faoliyati jarayonida irodaviy harakatlarni amalga oshirar ekan, bunda uning faoliyatida quyidagilar namoyon bo'ladi: o'z oldiga maqsad qo'yish va unga intilish; maqsadga erishish yo'llarini izlab topish; imkoniyatlarni mustahkamlab borish; maqbul yo'lni tanlay olish; fikr va g'oyalarni qabul qilish; qarorni amalga oshirish.

Kalit so'zlar: глобализация, информация, самостоятельность, тягостность, уверенность, собственное управление, терпение, выносливость, добротность.

DEVELOPMENT OF PERSONAL STAMINA QUALITIES AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract. This article highlights the pedagogical problem of developing the volitional qualities of future teachers in the era of globalization. The article also examines in detail the insufficient development of such qualities in modern youth as independence, persistence, self-confidence, self-control, patience, endurance, courage as a result of the negative impact of information. The article analyzes the views and opinions of psychologists and educational scientists about volitional qualities, their role and significance in the social life of an individual. The author notes that when a person performs volitional actions in the process of his activity, the following are manifested in his activity: setting a goal and striving for it; finding ways to achieve the goal; strengthening opportunities; the ability to choose the best path; acceptance of thoughts and ideas; implementation of the decision made.

Keywords: globalization, information, independence, persistence, self-confidence, self-control, patience, fortitude, courage.

Kirish. Globalizatsiya jarayonlarining shiddatli rivoji shaxs ma'naviyatining turli jihatiga o'z ta'sirini o'tkazishi bilan birga, uning axloqiy fazilatlari, jumladan, irodaviy sifatlarining susayishi, ijtimoiy qadriyatlar tizimining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, yoshlarning axborotlarga beriluvchanligi va tobeligi natijasida ham o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi, mustaqilligi, tashabbuskorligi, chidamliligi pasayib bormoqda. Oxirgi yillarda ushbu muammo butun dunyo ahlini tashvishga solayotgan va yechimini

ko'tayotgan dolzarb muammolaridan biri sifatida tilga olinib, jahon ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, buyuk bobokalonlarimiz ta'kidlaganlaridek, jaholatni faqatgina ma'rifat bilan yengish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyundagi "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida yoshlar tarbiyasini otabobolarmizdan qolgan omonat deb tilga oladilar: "Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas", – degan edi [1;21-b.].

Darhaqiqat, Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, yoshlar tarbiyasi kechiktirib bo'lmaydigan va har qachongidan ko'ra dolzarb muammodir. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyatda yoshlarning irodasini chiniqtirish, qiyinchiliklar oldida esankirab qolmaslik va o'z fikrini dadil himoya qilish, sabrli va matonatli bo'lish, tashabbuskorlikka o'rgatish pedagogik jarayon oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Fan-texnika va axborot texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi sababli insoniyat uchun imkoniyatlar ko'lamı yanada kengaydi. Ammo bu imkoniyatlardan samarali foydalanish o'rniga ulardan shunchaki vaqtni o'tkazish, virtual olamda maqsadsiz sayr qilish, o'z-o'zini ovuntirish, shov-shuvlardan xabardor bo'lish, virtual do'st izlash kabi besamar ishlarga qimmatli vaqtlarini sarflayotgan yoshlar ko'p uchramoqda. Afsuski, bu salbiy holat yoshlarda irodasizlik, sabrsizlik, qo'rqqoqlik kabi illatlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Psixolog olimlardan M.G. Davletshin, S.M. To'ychievalar irodaning psixologik xususiyatlarini ochib berar ekanlar, uni shaxs tomonidan amalga oshiriladigan ongli xatti-harakat ekanligini va u faoliyat bilan bog'liq holda rivojlanib borishini tushuntirib beradilar: "Iroda – bu qiyinchiliklarini yengish, qo'yilgan maqsadlarga erishishiga yo'naltirilgan, oldindan o'ylangan, ongli xatti-harakatni amalga oshirilishidagi harakatda namoyon bo'ladigan inson faolligidir. Irodaviy jarayonlar xatti-harakat, faoliyat bilan bog'liqdir" [2; 149].

S.L. Rubinshteyn fikricha, irodaning belgisi kuch sarf qilish asosida shaxsning qaror qabul qilishi va shu qarorni tatbiq etishidir [7; 211]. Darhaqiqat, iroda shaxsdan ma'lum darajada kuch va harakatni amalga oshirishni va o'z qarorini tatbiq etishni talab etadi.

Y.P. Ilinning yondashuvida irodaviy sifatlarining paydo bo'lishi haqida so'z yuritiladi: "Irodaviy qarorlar asosan raqobat va turli xil qiziqishlar asosida rivojlanadi. Iroda – irodaviy harakatni amalga oshirmasdan vujudga kelmaydi" [4; 280]. Shuningdek, Ilin irodaning asosiy psixologik vazifasi sifatida shaxsda biron bir faoliyatga nisbatan motivatsiyani kuchaytirishni va harakatlarni ongli ravishda tartibga solishdir.

L.C. Vigotskiy irodani o'z-o'zini cheklash asosida hosil bo'ladigan ongli xatti-harakat, deb tushuntiradi: " ... iroda quyidagilarni nazarda tutadi: o'z-o'zini cheklash, yanada mazmunli va muhim maqsadlarga ongli ravishda harakat qilish, ushbu vaziyatda yuzaga keladigan xoxish va istaklarni bostirish qobiliyatidir" [3; 536].

R.S Nemov irodani shaxsning ongli xatti-harakati deb tushuntiradi, ya'ni: "...iroda insonning ongli ravishda o'z oldiga tobora murakkab vazifalarni qo'yishi va uzoq vaqt davomida maqsad sari ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishidir" [6; 686]. Darhaqiqat, iroda shaxsning xatti-harakati va amaliy foliyatida birdaniga namoyon bo'lmaydi. Balki uning belgilari sekin-asta shaxs faoliyatida shakllanib boradi. Bu borada Nemovning iroda haqidagi fikr-mulohazasi o'rinli hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

– Integrativ yondashuv va turli faoliyatlar asosida bo'lajak o'qituvchilarining emotsional irodaviy sifatlarini rivojlantirish muammosiga doir yondashuvlar, g'oyalar va

qarashlarni tahlil qilish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarining emotsional irodaviy sifatlarni rivojlantirish modeli va uning tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish;
- shaxs emotsional irodaviy sifatlarni rivojlantirish nazariyasiga tayangan holda, jarayon tamoyillari, shakl va usullarini takomillashtirish;
- bo‘lajak o‘qituvchilarining emotsional irodaviy sifatlarni rivojlantirishga doir metodikani tajriba-sinov ishlari davomida sinovdan o‘tkazish va uning samaradorligini oshirishga doir ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Natijalar va muhokama. Iroda – shaxsning psixik holati bo‘lib, tashqi yoki ichki to‘siqlarni yengish bilan bog‘liq harakatlarni bajarish jarayonidir. Shuningdek, iroda shaxsning o‘z faoliyati va psixik jarayonlarini o‘zi boshqarishda namoyon bo‘ladigan alohida qobiliyatidir.

Shaxsning irodaviy fazilatlari faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi va har bir faoliyat turida shaxsning irodaviy sifatlarga ega bo‘lishi talab etiladi. Bunda shaxs o‘z faoliyati jarayonida irodaviy harakatlarni amalga oshirar ekan, o‘z xohishi va istaklariga qarshi tura oladi. Va natijada faoliyatning qaysi turi bo‘lishidan qat’i nazar shaxs oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadi.

Shaxs o‘z faoliyati jarayonida irodaviy harakatlarni amalga oshirar ekan, bunda uning faoliyatida quyidagilar namoyon bo‘ladi:

- o‘z oldiga maqsad qo‘yish va unga intilish;
- maqsadga erishish yo‘llarini izlab topish;
- imkoniyatlarni mustahkamlab borish;
- maqbul yo‘lni tanlay olish;
- fikr va g‘oyalarni qabul qilish;
- qarorni amalga oshirish.

Shaxsning irodaviy sifatlariga quyidagilar kiradi: *o‘z-o‘zini boshqarish, dadillik, qat’iyatlilik, chidamlilik, mustaqillik, sabrlilik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik, matonatilik va intizomlilik.*

Quyida ushbu sifatlarga batafsil to‘xtalib o‘tamiz:

O‘z-o‘zini boshqarish – shaxsning o‘z xatti-harakatlari, faoliyati, nutqi va boshqa faoliyat turlarini maqsad asosida boshqarishi, o‘z oliga qat’iy maqsad qo‘yishi va intilishi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishidir. Shaxs o‘z-o‘zini boshqarish jarayonida hayotiy vaziyatlarni o‘zi yechishga, o‘z taqdirini o‘zi belgilashga, o‘z oldiga yangi maqsadlar qo‘yishga intiladi.

Shaxs o‘zini o‘zi boshqarish jarayonida o‘zining ichki va tashqi imkoniyatlarini mustaqil ravishda tartibga soladi, bu uning harakatlari, his-tuyg‘ulari, fikrlari va xatti-harakatlarini boshqarishni, shuningdek, atrof-muhitga faol moslashishni o‘z ichiga oladi. Bir so‘z bilan aytganda, shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi uning irodasi bilan chambarchas bog‘liq.

Dadillik – shaxsning jismoniy va ruhiy o‘ziga ishonishi asosidagi xatti-harakati, fikr-mulohazalari, qo‘rqmasligi va qo‘rquvni yengish qobiliyatidir. Dadil kishi o‘zidagi qo‘rquvni yenga oladi, ular o‘z maqsadiga erishish uchun o‘zida kuch topa oladilar. Ijtimoiy munosabatlar, xavf-xatar oldida qat’iyatlilik, qo‘rquvga qarshi turish va aniq maqsad uchun asosli tavakkal qilish qobiliyati.

Shunday qilib, dadillik shaxsning ichki qo‘rquvni yengishi va maqsadga erishish uchun tavakkal qilish qobiliyati, shuningdek, qiyin vaziyatlarda jasorat ko‘rsatishga tayyorligidir. Dadillik hayotning turli sohalarida shaxsdan mustaqil fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishni talab etadi. Bunday shaxslar hatto stressli vaziyatlarda ham tez va ishonchli qaror qabul qila oladilar va qaror qabul qilishda javobgarlikni o‘z zimmlariga oladilar. Ularning bu qobiliyati boshqalarda unga bo‘lgan ishonchni yuksaltiradi. Dadillik shaxsdan o‘z-o‘zini boshqarish, vahimaga berilmaslik, his-tuyg‘ularga berilmaslikni talab

etadi.

Chidamlilik – shaxsning ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarning tugashini sabr-toqat bilan kutishi, ularga chidam bilan munosabatda bo‘lish. Chidamlilik shaxsning ma’naviy-ruhiy holati, turli sharoitlarga sabr bilan moslasha olishidir. Sabrli shaxslar har qanday jamoada o‘z qadr-qimmatiga va obru-e’tiborga loyiq bo‘ladi, ular ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o‘tadilar. Bunday insonlar og‘riqqa, ob-havoning noqulay sharoitiga moslashadilar. Chidamlilik insonning individual salohiyati, ehtiyojlari asosida vujudga keladi. Shunday qilib, chidamlilik shaxsning sabr-bardoshi, matonati va tashqi ta’sirlarga nisbatan o‘zgarmas fazilati, xatti-harakatidir.

Shaxsdagi ruhiy chidamlilik hissiyotlarni jilovlay olish, boshqalarni diqqat bilan tinglash, psixologik yuklamalarga bardoshli bo‘lishni anglatdi. [[https:// psixiatr.uz / stressga _ chidamlilik /](https://psixiatr.uz/stressga_chidamlilik/)]. Bunday insonlarni ijtimoiy hayotimizda juda ko‘p uchratamiz va ularni boshqalar munosabatida o‘z yondashuviga ega ekanligini ko‘ramiz.

Sabrlilik – shaxs irodaviy fazilatlarining asosi hisoblanadi. Sabr so‘zi tilimizga arabcha so‘zdan kirib kelgan, u achchiq, chidam, bardosh degan ma’nolarni anglatadi. Sabr shaxsning ruhiy va intellektual yetukligidan dalolat beradi. Bunday shaxslar ijtimoiy hayotda xotirjam, qanoatli, aql bilan ish tutadigan kishilar hisoblanadi.

O‘z-o‘zini anglash – shaxsning o‘ziga xos aqliy va jismoniy xususiyatlaridan biri bo‘lib, u shaxsning tashqi dunyo va o‘zi haqida bilimga egaligi, o‘zi haqidagi tasavvurlari yig‘indisi hisoblanadi.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi natijasida har bir inson o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil eta oladi, kishilar bilan faol munosabatga kirishadi, ijtimoiy faol bo‘lishga intiladi. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, insonlar butun hayoti davomida “men kimman” va “men qanday insonman” degan savollarga javob izlaydilar. Bu uning o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilishidan dalolat beradi.

Shaxs o‘z-o‘zini anglash jarayonida o‘z xarakteri, kuchli va zaif tomonlari, qadriyatlar tizimi, istaklari, odatlari va boshqalarni anglay boshlaydi.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi bir necha darajalarda namoyon bo‘ladi:

1. Biologik nuqtayi nazardan o‘z-o‘zini anglash. Bu o‘zini biologik tabiiy organizm sifatida idrok etishdir.

2. Shaxsning o‘z-o‘zini ijtimoiy mavjudot sifatida anglashi. Bunga shaxsning jamiyat normalari, xulq-atvor me’yorlari va jamoaga moslashuvchanligi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatga kirishuvchanligi va boshqalar kiradi.

3. Shaxsning individual va shaxsiy fazilatlarini. Bu darajada shaxsning xarakteri, fazilatlarini, qobiliyati, qiziqishi, irodasi, intilishlari, qadriyatlarini kabilarni anglashi kiradi.

Xulosa. Shunday qilib, inson o‘z o‘zini anglashi, boshqarishi, sabrliligi, tirishqoqligi, dadilligi, maqsad sari intilishi jarayonida o‘zining shaxsiy fazilatlarini takomillashtirib boradi. Shuningdek, shaxsda irodaviy fazilatlarining yetarli darajada rivojlanmasligi uning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchining pasayishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini namoyon etishda shaxsiy ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida zamonaviy ta’lim tizimi oldiga alohida vazifalarni yuklamoqda. Zero, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun ham mustaqil, irodali yoshlar zarur ekanligini aslo unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz .– T.: O‘zbekiston, 2017, 488 b.

2. Davletshin M.G., To‘ychieva S.M. Umumiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti. –Toshkent, 2013.149 b

3. Выготский Л. С. Педагогическая психология/ Под пед. В.В. Давыдова. – М.: Педагогика-Пресс, 1996. – 536 с.

4. Илин Е. П. Психология воли. – СПб.: Питер, 2001. – 280 с.

5. Мещерякова Б.Г., Зинченко В.П. Большой психологический словарь. Под ред. Немов Р. С. Психология. – М.: Владос, 2001. – 686 с.
7. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии в 2 т. – СПб: Питер, 2001. – Т. 2. – Воля – С. 211
8. Turdimurodov D.Y. Possibilities of physical education means in the formation of volitional qualities in schoolchildren. Journal of innovations in pedagogy and psychology. Vol. 4, Issue 7, 2021, pp. Vol. 4, Issue 7, 2021, pp.74-80
9. Ботирова Ф. Шахнинг иродавий сифатлари ва уларни таркиб топтиришни таъхислаш. – Урганч, 2009, – Б.129
10. Цилов В.Р. Об условиях влияющих на становление характера. // Вопросы психологии. 2001. №5, С-128-135

MUHANDISLIK KADRLARINI TAYYORLASHDA SANOAT VA TA'LIM HAMKORLIGIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

M.A. Tuxtabayev

Namangan davlat texnika universiteti
Logistika kafedrası mudiri PhD, dotsent

mirzoxidt_2011@mail.ru

ORCID 0000-0002-7677-0250

UDK 37.072:378.1

Annotatsiya. Sanoat va ta'lim hamkorligi malakali mutaxassislarni yetishtirish uchun akademik o'quv dasturlarini sanoat talablariga moslashtirish orqali muhandislik kadrlarini tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola hukumat tomonidan boshqariladigan siyosatlar, integratsiyalashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, raqamli platformalar va mintaqaviy klasterlar kabi mexanizmlarga e'tibor qaratib, ushbu hamkorlikni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlarini o'rganadi. Muvaffaqiyatli modellardan olingan amaliy tadqiqotlar, jumladan, Janubiy Koreyaning sanoat va universitet hamkorligi ushbu strategiyalarning innovatsiyalar va ishchi kuchining tayyorgarligini oshirishdagi ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu tashabbuslar amaliy mashg'ulotlar, qo'shma tadqiqotlar va umrbod ta'limga urg'u berish orqali malakalarning mos kelmasligi, texnologik taraqqiyot va globalashuv muammolarini hal qiladi. Maqola akademiya va sanoat uchun foydali bo'lgan kengaytiriladigan va moslashuvchan hamkorlik asoslarining muhimligini ta'kidlash bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Sanoat-ta'lim hamkorligi, muhandislik tayyorlash, innovatsiyalar, integratsiyalashgan o'quv dasturlari, raqamli platformalar.

INNOVATIVE APPROACHES TO INDUSTRY-EDUCATION COLLABORATION IN ENGINEERING TRAINING

Abstract. Industry-education collaboration plays a critical role in engineering training by aligning academic curricula with industry requirements to produce skilled professionals. This article explores innovative approaches to fostering this collaboration, focusing on mechanisms such as government-led policies, integrated curriculum development, digital platforms, and regional clusters. Case studies from successful models, including South Korea's industry-university collaboration, demonstrate the impact of these strategies on innovation and workforce readiness. These initiatives address skills mismatches, technological advancement, and globalization by emphasizing practical training, collaborative research, and lifelong learning. The article concludes by emphasizing the importance of scalable and flexible collaborative frameworks that benefit both academia and industry.

Keywords: Industry-education collaboration, engineering training, innovation, integrated curricula, digital platforms.

Kirish. Tez rivojlanayotgan jahon iqtisodiyotida muhandislik ta'limi talabalarni zamonaviy sanoat talablariga mos keladigan ko'nikmalar bilan jihozlash muammosiga duch kelmoqda. Ko'pincha nazariy bilimlar bilan cheklangan an'anaviy akademik yondashuv bitiruvchilarni haqiqiy dunyo muammolariga yetarli darajada tayyorlay olmaydi. Sanoat va ta'lim sohasida hamkorlikdagi sa'y-harakatlar orqali akademik va

ishchi kuchi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishni taklif qiladi [1]. Sanoat va ta'lim sohasi hamkorligidagi innovatsion yondashuvlar muhandislik kadrlarini tayyorlashni kuchaytirish, bitiruvchilarning sohaning o'zgaruvchan talablariga javob berishga puxta tayyorgarlik ko'rishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik nazariy bilimlar va amaliy qo'llash o'rtasidagi tafovutni yo'qotadi, zamonaviy texnologiyalar va amaliyotlarda mohir ishchi kuchini tarbiyalaydi [2-4]. Ushbu maqola ushbu hamkorlikni mustahkamlovchi innovatsion mexanizmlarni ko'rib chiqadi va muhandislik ta'limini sanoat ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlaydi.

Materiallar va metodlar. Sanoat-ta'lim hamkorligida innovatsion yondashuvlar. Sanoat-ta'lim hamkorligida (STH) innovatsion yondashuvlarning ahamiyati juda katta, chunki an'anaviy usullar zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob bera olmaydi. Innovatsiyalar STH samaradorligini oshiradi, raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va iqtisodiy o'sishga turtki beradi [5].

O'quv dasturlarini tezkor yangilash va moslashtirish uchun agil metodologiyalaridan foydalanish, sanoatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab dasturlarni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish va yangilash, talabalar o'zlarining ehtiyojlari va martaba rejaları asosida o'quv dasturlarini shaxsiylashtirish imkoniyatini beradigan modulli yondashuv, tor va amaliy ko'nikmalarni o'rgatishga qaratilgan qisqa muddatli kurslar va treninglar – bu talabalarga tezkor ravishda yangi ko'nikmalarni egallash va ish bozoriga tezroq kirish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi. Birinchi navbatda Loyihaviy ta'lim. Real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalar ustida ish olib borish. Bu talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi va innovatsion fikrlashni rag'batlantiradi [6-9]. Simulyatsiya va virtual haqiqat ta'lim jarayonida simulyatsiya va VR texnologiyalaridan foydalanish. Bu xavfsiz va samarali muhitda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Masofaviy va aralash ta'lim zamonaviy texnologiyalar yordamida masofadan turib yoki aralash formatda o'qitish. Bu geografik cheklovlarni bartaraf etadi va o'qish imkoniyatlarini kengaytiradi [10]. Gamifikatsiya o'yinlashtirish orqali ta'lim jarayonini qiziqarli va samaraliroq qilish, talabalarni o'qishga rag'batlantirish va motivatsiyasini oshirish – ushbu innovatsion yondashuvlar STH samaradorligini oshiradi, talabalarni ish bozoriga tayyorlaydi, sanoatni yangi texnologiyalar bilan ta'minlaydi va umuman, iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi. Muvaffaqiyat kaliti – doimiy ravishda yangiliklarni izlash, moslashuvchanlik va hamkorlikdagi mustahkam aloqalardir [11].

Natijalar va muhokama. *Hukumat boshchiligidagi siyosat va asoslar.* Hukumatlar sanoat va ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Janubiy Koreyaning sanoat va universitet hamkorligi to'g'risidagi qonuni kabi siyosatlar hamkorlikni institutsionalizatsiya qiladi, qo'shma tashabbuslarni huquqiy va moliyaviy rag'batlantiradi. Ushbu ramkalar innovatsiyalar, iste'dodlarni rivojlantirish va texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlovchi ekotizimni yaratadi. Chuqur maktab va korxona hamkorligi ishlab chiqarish va ta'limning integratsiyalashuviga yordam beradi, amaliy yo'naltirilgan iste'dodlarni birgalikda tayyorlashga olib keladi. Ushbu yondashuv ta'lim natijalarini bozor talablariga moslashtiradi va bitiruvchilar ish beruvchilar talab qiladigan ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlaydi [12].

Integratsiyalashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish. Muhandislik bo'yicha o'quv dasturlari tobora ko'proq ilmiy muassasalar va sanoat manfaatdor tomonlari tomonidan birgalikda ishlab chiqilmoqda. Bu yondashuv talabalarning nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tajribaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Misollar qatoriga qo'yilgan loyihalar, sanoat amaliyotlari va joriy sanoat muammolariga moslashtirilgan muammoli o'quv modullari kiradi. Texnik institutlar hamkorlik va innovatsiyalarni ta'kidlaydigan sanoatga yo'naltirilgan o'qitish modellarini qabul qilmoqdalar. Hamkorlik mexanizmlari va

innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish orqali ushbu modellar o'quvchilarning amaliy qo'llash ko'nikmalarini oshiradi va akademiya va sanoat o'rtasidagi ijobiy o'zaro aloqalarni rivojlantiradi [13].

Sanoat-ta'lim integratsiyasi. Muhandislik iqtidorlarini tayyorlashning yangi usullarini ishlab chiqish universitet-sanoat hamkorligi mexanizmlarini optimallashtirish va innovatsiya qilishga qaratilgan. Ushbu strategiya yangi muhandislik kontekstida innovatsiyalar va iqtidorlarni tayyorlashni optimallashtirishni rag'batlantirish, yaqinroq va samaraliroq hamkorlik modellarini yaratishga qaratilgan [14].

Hamkorlik uchun raqamli platformalar. Raqamli platformalar akademiya va sanoat o'rtasida aloqa va resurslar almashinuvini yaxshilaydi. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar universitet tadqiqot imkoniyatlarini sanoat ehtiyojlariga moslashtiradi, hamkorlikdagi tadqiqot va ishlanma loyihalarini soddalashtiradi. Koreya ta'lim tadqiqotlari axborot xizmati (KERIS) kabi platformalar texnologiya uzluksiz hamkorlikni qanday osonlashtirishi mumkinligiga misoldir. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'lim tizimini joriy etish muhandislar uchun innovatsion treningni rivojlantirishga yordam beradi. Eng yaxshi global tajribalar asosida ishlab chiqilgan ushbu ramkalar zamonaviy muhandislik muammolari uchun muhim bo'lgan ijodiy muammolarni hal qilish va fanlararo o'rganishni rag'batlantiradi [15]. Avtomobil dvigatellarini yig'ish va demontaj qilishni o'rgatish uchun Virtual Reality (VR) tizimlaridan foydalanish chuqur o'rganish tajribasini beradi. Ushbu usul murakkab protseduralarni tushunish va saqlashni kuchaytiradi, an'anaviy amaliy mashg'ulotlarga tejamkor va samarali alternativani taklif qiladi [16].

Mintaqaviy sanoat-ta'lim klasterlari. Janubiy Koreyaning Daedeok Innopolis kabi ixtisoslashtirilgan klasterlari universitetlar, sanoat va tadqiqot institutlarini yagona ekotizim doirasida birlashtiradi. Ushbu klasterlar bilimlarni uzatish, qo'shma tadqiqotlar va texnologiyalarni tijoratlashtirish imkonini berish orqali innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi. "Qo'shaloq oliy reja" kabi tashabbuslar doirasida sanoat va ta'lim o'rtasidagi hamkorlikdagi ta'lim mexanizmlari yangilandi va amaliyotga tatbiq etildi. Bu o'quv va ilmiy-tadqiqot institutlarini, stajirovka o'quv bazalarini va muhandislik texnologiyalari ilmiy-tadqiqot markazlarini birgalikda qurish va boshqarishni, shu orqali hamkorlikda ta'limni rivojlantirishni kuchaytirishni nazarda tutadi [17].

Umrbod ta'lim va malaka oshirish. Texnologik taraqqiyotning tez sur'atlari uzluksiz o'rganishni talab qiladi. Massive Open Online Courses (MOOCs) kabi tashabbuslar mutaxassislarga rivojlanayotgan texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish imkonini beradi. Kompaniyalar va universitetlar o'rtasidagi hamkorlik dasturlari sanoatning muayyan talablariga javob beradigan maxsus kurslarni taqdim etadi.

Ar-ge va muammoga asoslangan ta'lim. Dasturiy ta'minot muhandisligi bo'yicha ta'limda muammoli ta'lim bilan tejamkor tadqiqot va ishlanmalarni uyg'unlashtirish samarali ekanligini isbotladi. Ushbu yondashuv sanoat va akademiya hamkorligini o'z ichiga oladi, bu erda talabalar real dunyo muammolari ustida ishlaydi, tezkor aql va innovatsion echimlarni rivojlantiradi [18].

Ushbu innovatsion yondashuvlar ta'lim dasturlari texnologik taraqqiyot va sanoat ehtiyojlariga javob berishini ta'minlaydigan muhandislik tayyorlashda sanoat va ta'lim hamkorligini mustahkamlash uchun qo'llaniladigan dinamik strategiyalarga misoldir.

Case Study: Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreya Meister maktablari va Sanoat-universitet hamkorlik jamg'armasi (IUCF) kabi tashabbuslar orqali sanoat va ta'lim sohasidagi samarali hamkorlikka misol keltirmoqda. Ushbu dasturlar ko'nikmalarni rivojlantirish, ilmiy hamkorlik va innovatsiyalarga urg'u beradi. Ta'lim natijalarini sanoat maqsadlariga moslashtirish orqali Janubiy Koreya ishchi kuchining tayyorgarligi va milliy raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradigan modelni yaratdi [19].

Qiyinchiliklar va imkoniyatlar. Sanoat va ta'lim sohasidagi hamkorlikning

afzalliklari yaqqol ko'rinib-da, muammolar hamon mavjud. Bularga akademik tadqiqotlar va sanoat ehtiyojlari o'rtasidagi mos kelmaydigan vaqt jadvallari, moliyaviy cheklovlar va o'zgarishlarga qarshilik kiradi. Biroq, innovatsiyalar uchun imkoniyatlar, masalan, sun'iy intellektdan foydalanish va global hamkorlik - bu to'siqlarni engib o'tish yo'llarini taqdim etadi.

Xulosa. Sanoat va ta'lim hamkorligiga innovatsion yondashuvlar muhandislik tayyorlashni modernizatsiya qilish va kadrlar tayyorgarligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Hukumat tashabbuslari, raqamli platformalar va umrbod ta'lim dasturlari kabi strategiyalarni qabul qilish orqali ta'lim muassasalari va sanoatlar o'zaro manfaatli ekotizimni yaratishi mumkin. Janubiy Koreyaning muvaffaqiyati sanoat va ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga intilayotgan boshqa mamlakatlar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi. Texnologik taraqqiyot sanoatni qayta shakllantirishda davom etar ekan, moslashuvchan va moslashuvchan hamkorlik mexanizmlari barqaror rivojlanish uchun juda muhim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yu, Yandong, Jingjie Li, and Yuge Yao. "Research on Industry-Education Integration and Collaborative Innovation from the Perspective of Five-Industry Linkage". *Industrial Engineering and Innovation Management* 7.2 (2024): 97-103.
2. Tukhtabayev, M. A. (2023). Organization and effective management of industry-education cooperation in the training of engineering personnel (The example of South Korean universities). *Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Hayka, issledovaniya i razvitiye*, 3(3), 126-128.
3. Axmadjanovich, T. M. (2024). O'zbekiston uchun Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqqan holda sanoat va ta'lim hamkorligini joriy qilish imkoniyatlari. *Строительство и образование*, 3, 114-118.
4. Tuxtabayev, M. A. (2024). Principles of organizing industry-education cooperation in engineering training: South Korean experience. *Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Hayka, issledovaniya i razvitiye*, 2(6), 106-108.
5. Chen, Jiawei. "Research on Collaborative Education Model from the Perspective of Industry-Education Integration and School-Enterprise Cooperation". *Advances in Educational Technology and Psychology* 6.11 (2022): 106-110.
6. Tukhtabayev, M. A. (2024). Features of organizing a practice base for training engineering personnel in South Korea. *Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Hayka, issledovaniya i razvitiye*, 3(7), 104-106.
7. Tukhtabayev, M. A. (2025). Opportunities for Uzbekistan to introduce industrial and educational cooperation based on the experience of South Korea. *Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Hayka, issledovaniya i razvitiye*, 2(10), 87-91.
8. Tuxtabayev, M. (2025). Janubiy Koreya ta'lim tizimida muhandislik kadrlarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 7-7.
9. Tukhtabayev M.A. (2025). Foreign experience and prospects for its use in developing engineering personnel through industrial and educational cooperation, *Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш*, 3(6), 416-420.
10. Qin Q. et al. The Construction of Collaborative Education Practical Teaching System Based on Emerging Engineering Oriented Towards the Integration of Production-Education //International Conference on Computer Science and Educational Informatization. – Singapore : Springer Nature Singapore, 2023. – C. 401-412.
11. Tuxtabayev M. A. (2024). Sanoat va ta'lim hamkorligini tashkil etish - muhandis kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida, *Образование и инновационные исследования*, 12, 278-281.
12. Lu, Z., Qiu, S. (2023). Collaborative Education Mechanism of In-Depth Integration Between Schools and Enterprises Under the Background of the Construction of EEE – Taking the Major of Data Science and Big Data Technology of Nanning University as an Example. In: Hu, Z., Dychka, I., He, M. (eds) *Advances in Computer Science for Engineering and Education VI*.

ICCSEEA 2023. Lecture Notes on Data Engineering and Communications Technologies, vol 181. Springer

13. Wei Fang. Collaboration and Innovation in Industry-Oriented Engineering-Integrated Teaching Practice at Technical Colleges. *Advances in Vocational and Technical Education* (2024) Clausius Scientific Press, Canada DOI: 10.23977/avte.2024.060128 ISSN 2523-5834 Vol. 6 Num. 1

14. Dan Wu1, Yawen Hu .Construction of New Engineering Talent Training Mode from the Perspective of Innovation Ecology— Optimization and Innovation Path of University and Industry Cooperation Mechanism.

15. Jantassova, D.; Churchill, D.; Shebalina, O.; Akhmetova, D. Capacity Building for Engineering Training and Technology via STEAM Education. *Educ. Sci.* 2022, 12, 737

16. Lan, Gongjin, et al. "A Virtual Reality Training System for Automotive Engines Assembly and Disassembly". *IEEE Transactions on Learning Technologies* (2023).

17. www.researchgate.net/publication/347368046_Innovation_and_Practice_of_the_Cooperative_Education_Mechanism_of_Industry_and_Education_Under_the_Double_High_Plan

18. Romao, Lucas, et al. "Agile Minds, Innovative Solutions, and Industry-Academia Collaboration: Lean R&D Meets Problem-Based Learning in Software Engineering Education". *arXiv preprint arXiv:2407.15982* (2024).

19. Camp, Edward R. A study of university-industry cooperation and collaboration in continuing education programs for electrical and industrial engineers. Teachers College, Columbia University, 1994.

MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA – TIBBIYOTDA MUVAFFAQIYATLI KASBIY MULOQOTNING ASOSI

Muxamedjanova Sitorabegim Djamolitdinovna

Buxoro davlat texnika universiteti

O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası p.f.f.d. (PhD), dotsent

sitoramukhamedjanova@gmail.com

ORCID 0009-0009-0783-5469

УДК 811.111’276.6:378.147:61

Annotatsiya. Globallashuv sharoitida tibbiy ta’lim va amaliyot nafaqat chuqur professional bilimlarni, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini ham talab qiladi. Muvaffaqiyatli professional muloqotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri – bu madaniyatlararo kompetensiya bo‘lib, u shifokorlar va bemorlarga ishonch va o‘zaro tushunish asosida birgalikda ishlash imkonini beradi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, maqolada madaniyatlararo kompetensiyaning nazariy asoslari, uning tibbiy amaliyot va ta’limdagi ahamiyati va akademik harakatchanlikning tibbiyot talabalarida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga ta’sirini o‘rganuvchi tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, ta’limda madaniyatlararo yondashuvdan foydalanish tanqidiy fikrlash, bag‘rikenglik va kasbiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Oqibatda ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli muhitda tibbiy yordam sifati yaxshilanadi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo kompetensiya, kasbiy muloqot, tibbiyot ta’limi, akademik mobillik, lingvopragmatika, tibbiy kommunikatsiya.

INTERCULTURAL COMPETENCE – THE FOUNDATION OF SUCCESSFUL PROFESSIONAL COMMUNICATION IN MEDICINE

Abstract. In the context of globalization, medical education and practice require not only deep professional knowledge but also the ability to communicate effectively with representatives of different cultures. One of the key components of successful professional communication is intercultural competence, which enables doctors and patients to work together on the basis of trust and mutual understanding. In line with this concept, the article examines the theoretical foundations of intercultural competence, its significance in medical practice and education, as well as the results of research devoted to the impact of academic mobility on the development of these skills among medical students. The findings show that the use of an intercultural approach in education contributes to the development of critical thinking, tolerance, and professional adaptability. Ultimately, this leads to an improvement in the quality of healthcare in multinational

and multicultural environments.

Keywords: intercultural competence, professional communication, medical education, academic mobility, linguapragmatics, medical communication.

Kirish. Bemorlar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish keyingi yillarda respublikamiz tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishi tufayli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tibbiy ta'lim nafaqat klinik ko'nikmalar bo'yicha an'anaviy tayyorgarlikni, balki turli madaniy muhitlarda samarali o'zaro ta'sir o'tkaza oladigan mutaxassislarni ham talab qiladi. Shunday qilib, tibbiyotda professional muvaffaqiyatning muhim tarkibiy qismi madaniyatlararo kompetensiyadir. Madaniyatlararo kompetensiya bemor bilan samarali va samimiy muloqot qilish qobiliyatini, shuningdek, turli madaniy va ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyatini o'z ichiga oladi [10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida ham madaniyatlararo tibbiy kompetensiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarori alohida ahamiyatga ega bo'lib, talabalarni xorijiy tillarda so'zlashuvchi, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila oladigan malakali mutaxassislar etib tarbiyalashga qaratilgan. Bundan tashqari, sog'liqni saqlash tizimida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlarda madaniyatlararo omillarni hisobga olgan holda bemorlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash muhimligi ta'kidlangan.

Zamonaviy tibbiyot ko'p tilli va ko'p madaniyatli muhit bo'lib, shifokorlar va bemorlar o'rtasidagi muloqot ko'pincha bir madaniyat chegarasidan tashqariga chiqadi. Madaniy farqlarni hisobga olmasdan, professional muloqot qilish mumkin emas [10]. Tibbiy muhitda muvaffaqiyatli o'zaro ta'sir madaniyatlararo kompetensiyaga bog'liq bo'lib, u madaniy me'yorlar va qadriyatlarni tushunishga qaratilgan bilim, ko'nikma va munosabatlar yig'indisi sifatida belgilanadi [11]. Madaniyatlararo kompetensiyani ko'rsatishning ko'plab usullari mavjud.

MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA DARAJALARI

1-jadval

Daraja	Asosiy komponentlar	Tavsif
Kognitiv (Cognitive)	Madaniy normalar va an'analarni bilish	Turli madaniyatlarning odatlari, an'analari va etiketi haqida tushuncha
	Sog'liq va kasallikni qabul qilishdagi farqlarni anglash	Turli madaniyatlar simptomlar, davolash va profilaktikani qanday talqin qilishini tushunish
	Etnomadaniy xabardorlik	Fikrlash va xulq-atvorning madaniy naqshlarini ajrata olish qobiliyati
Emotsional (Affective/Emotional)	Empatiya	Bemorning madaniy kontekstini inobatga olgan holda unga hamdardlik ko'rsatish qobiliyati
	Hurmat	Bemorning madaniy xususiyatlarini tan olish va qabul qilish
	Bag'rikenglik va ochiqlik	Farqlarni baholamasdan yoki oldindan fikr bildirmasdan qabul qilishga tayyorlik
Xulq-atvoriy (Behavioral)	Kommunikatsion strategiyalarni moslashtirish	Madaniy kontekstga qarab muloqot uslubini o'zgartira olish
	Mos keluvchi verbal va noverbal vositalardan foydalanish	Til, imo-ishora, yuz ifodalari va masofani hisobga olgan holda muloqot qilish
	Bilim va ko'nikmalarni amaliy qo'llash	Bemorning madaniy va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali o'zaro ta'sir ko'rsatish qobiliyati [12].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy tibbiyot kadrlarini tayyorlash konsepsiyalari faol va muammoga asoslangan ta'lim strategiyalarini qamrab oladi. Ushbu yondashuvlar tibbiyot talabalarida turli madaniyatlarga mansub bemorlar bilan amaliy muloqot va refleksiya jarayonida madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish uchun imkon yaratadi [10].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, akademik mobillik va chet eldagi stajirovkalar muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga, madaniy farqlarni anglashga hamda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga asos bo'ladi. [3].

Bundan tashqari, tibbiy ta'limga madaniyatlararo kompetensiyani joriy etish professional muhitni rivojlantirishga, davolash natijalarini yaxshilashga, bemor va shifokor o'rtasidagi ishonchni oshirishga va professional muloqot sifatini yaxshilashga yordam beradi [9].

Pedagogika, tilshunoslik va tibbiyot madaniyatlararo kompetensiyani faol o'rganadi. Bayram [1] madaniyatlararo kompetensiyani samarali muloqot qilish va madaniyatni tanqidiy baholash qobiliyati sifatida belgilaydi. Dirdoff esa [2] buni odamlarga madaniy jihatdan xilma-xil muhitda samarali ishlash imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va malakalarning murakkab majmui deya e'tirof etadi.

Tibbiy ta'limda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining ahamiyati Silverman, Kurts va Draper [10] asarlarida alohida ta'kidlangan bo'lib, ular bemor bilan muloqot qilish qobiliyatini professional bilim kabi muhim deb hisoblaydilar. Tomas [12] esa madaniy farqlarga e'tibor bermaslik pragmatik muvaffaqiyatsizliklar xavfini oshirishini ta'kidlaydi. Spenser-Oatey va Kadar [11] madaniyatlararo muloqotni mojarolarni kamaytirish va tibbiy amaliyotda ishonchni mustahkamlashning asosiy vositasi deb ta'kidlashadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rolli o'yinlar, simulyatsiya va klinik vaziyatlarni modellashtirish madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasidir [8]. Ushbu usullar talabalarga turli madaniyatlarga mansub bemorlar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini mashq qilish va xavfsiz ta'lim muhitida fikr-mulohazalarni olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ingliz tilida tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash dasturlariga lingvopragmatik va madaniyatlararo yondashuvlarni integratsiya qilish nafaqat til ko'nikmalarini, balki kommunikativ ko'nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa akademik va professional mobillik uchun alohida ahamiyat kasb etadi [7].

Zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, madaniyatlararo kompetensiya tayyor holda mavjud bo'lmaydi, balki u amaliyot, o'z-o'zini tahlil qilish va turli madaniyatlarga mansub insonlar bilan o'zaro muloqot tajribasini tanqidiy baholash jarayonida rivojlanadi [5].

Shunday qilib, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tibbiy ta'limda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish bu bilimlar, ko'nikmalar va shaxsiy sifatlarni o'z ichiga olgan ko'p darajali jarayon hisoblanadi. Mazkur ko'p darajali jarayon shifokorlar o'rtasidagi muloqot sifati hamda bemorlar xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish muammosini har tomonlama o'rganishga imkon bergan o'zaro to'ldiruvchi kompleks metodlar qo'llanildi.

Keys tahlil. Keys-tahlilning maqsadi madaniyatlararo kompetentlik konsepsiyasining nazariy asoslarini va uning professional tibbiy kommunikatsiyadagi o'rnini o'rganishdan iborat edi. Natijada mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy ishlari, monografiyalari hamda darsliklari o'rganildi [1]. Ayniqsa, tibbiyot xodimlarini ko'p tilli va ko'p madaniyatli muhitda samarali faoliyat yuritishga o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Keys-tahlil jarayonida madaniyatlararo kompetentlikning asosiy

elementlari aniqlab olindi:

- 1) kognitiv (madaniy me'yorlar va farqlar haqidagi bilimlar);
- 2) affektiv (tolerantlik, empatiya, bemorga hurmat);
- 3) xulqiy (madaniy kontekstga qarab muloqot uslubini moslashtirish qobiliyati) [12].

2. So'rovnoma. O'zbekiston Respublikasining tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan va akademik mobillik dasturlarida ishtirok etgan 120 nafar talaba o'rtasida tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqotning maqsadi empirik ma'lumotlarni olishdan iborat bo'ldi. So'rovnomada yopiq va ochiq savollar qo'llanildi hamda uning asosiy maqsadi quyidagilarni aniqlashdan iborat edi:

- madaniyatlararo xabardorlik;
- bemorlarning turli xulq-atvorlariga moslashish qobiliyati;
- xorijiy amaliyot davomida madaniyatlararo muloqot tajribasi;
- akademik mobillikning kasbiy ko'nikmalarga ta'sirini subyektiv baholash.

Dirdoff [2] tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kompetentlikni baholash modeliga asoslanib so'rovnoma tuzildi. Ushbu model kommunikativ strategiyalar, tolerantlik, empatiya va kognitiv moslashuvchanlik kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Mazkur yondashuv talabalar tajribasini aks ettiruvchi sifat va miqdoriy ma'lumotlarni olishni ta'minladi.

3. Solishtirma tahlil. Ikki guruh talaba o'rtasida solishtirma tahlil o'tkazildi:

A guruhi – akademik mobillik tajribasiga ega talabalar (kamida bir semestr davomida xorijda ta'lim olgan yoki amaliyot o'tganlar);

B guruhi – xorijda o'qish tajribasiga ega bo'lmagan talabalar.

Tahlil natijalari madaniyatlararo kompetensiyaning shakllanganlik darajasida farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Masalan, A guruhi talabalari bemorlar bilan muloqotda empatik strategiyalarni qo'llash va kommunikativ uslubni moslashtirishga ko'proq tayyor ekanliklarini namoyish etdilar. B guruhi talabalari esa, aksincha, madaniy farqlarni tushinishda qiyinchiliklarga duch keldi hamda asosan kasbiy terminologiyaga tayanishga moyil bo'ldi. Ushbu holat xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan ham tasdiqlanadi [11].

Ta'kidlash joizki, keys-tahlil, so'rovnoma va solishtirma tahlil kabi turli metodlarning qo'llanilishi olingan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minladi. Shuningdek, bu yondashuv akademik mobillikning tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida madaniyatlararo kompetensiya rivojlanishidagi o'rnini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijda ta'lim olgan talabalar madaniy farqlarga nisbatan sezgirroq, boshqalar bilan muloqotda yanada moslashuvchan hamda kasbiy aloqalarda tezroq moslasha olish qobiliyatiga ega. Ushbu xulosalar Dirdoffning [2] qarashlarini tasdiqlaydi, u akademik mobillikni madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri sifatida ta'kidlaydi.

Keys-tahlil. Shifokor va bemor o'zaro muloqot qiladigan aniq klinik vaziyatlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, eng ko'p uchraydigan muammolar noto'g'ri tibbiy leksikadan foydalanish, madaniyatga moslashtirilmagan ifodalarni qo'llash va simptomlarni turlicha talqin qilish bilan bog'liqdir. Silverman, Kurtz va Draper [10] klinik muloqotda moslashuvchanlik va bemorning madaniy xususiyatlarini hisobga olish zarurligini alohida ta'kidlagan bo'lib, bu mazkur tadqiqot natijalarini ham tasdiqlaydi.

So'rovnoma. Xalqaro tajribaga ega respondentlarning 73 foizi akademik mobillik dasturlarida ishtirok etish ularga bemorlarning madaniy farqlarini yaxshiroq anglash va ularni tibbiy muloqot jarayonida hisobga olishda yordam berganini tasdiqladilar. Ushbu xulosa Jones va de Witning [6] qarashlariga hamohang bo'lib, ular akademik mobillikni hamdardlikni rivojlantirish hamda kasbiy muloqotda madaniy kontekstni inobatga olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi omil sifatida ta'kidlaydilar.

Solishtirma tahlil. Solishtirma tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, akademik mobillik

tajribasiga ega bo'lmagan talabalar ko'pincha faqat rus tiliga tayangan va bemorlarning madaniy hamda lingvistik xususiyatlariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelganlar. Aksincha, xalqaro tajribaga ega talabalar madaniy sezgirlik darajasi yuqoriligini hamda muqobil kommunikativ usullardan foydalanish qobiliyatini namoyon etganlar. Ushbu natijalar Byramning [1] tezisini tasdiqlaydi, ya'ni madaniyatlararo kompetensiya nafaqat urf-odat va an'analarni bilishni, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, madaniyatlararo kompetensiya tibbiyot sohasida muvaffaqiyatli kasbiy muloqot uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa, madaniyatlararo tayyorgarlikni nafaqat tibbiy ta'limning bakalavriat dasturlariga, balki amaliyotchi shifokorlarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoniga ham integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi [1].

Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish va amaliyotga joriy etishga ko'maklashish uchun bir qator choralarni amalga oshirish mumkin:

1. Agar tibbiyot oliygohlarida madaniyatlararo muloqot bo'yicha maxsus kurslar va modullar joriy etilsa, talabalar sog'liqni saqlash sohasidagi madaniy xilma-xillikni yanada chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar [10].

2. Standartlashtirilgan bemorlar bilan muloqot, keys asosidagi simulyatsiyalar va rolli o'yinlardan foydalanish talabalar uchun real sharoitlarda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini sinab ko'rish va rivojlantirish imkoniyatini beradi [12].

3. Talabalarning xalqaro akademik mobillik dasturlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish zarur, chunki ushbu dasturlar talabalar madaniy sezgirligi va kasbiy faoliyatda moslashuvchanligini sezilarli darajada oshirishi isbotlangan [2].

Shunday qilib, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, akademik mobillik tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Natijada, akademik mobillik talabalarning kasbiy faoliyatida samarali muloqot qilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters. United Kingdom (Bristol), 1997. P. 124.

2. Deardorff, D. K. Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. Journal of Studies in International Education, 10(3). SAGE Publications. United States, 2006. pp. 241-266.

3. Chen, Meng-Lin, et al. A Data-Driven Critical Review of Second Language Acquisition in the Past 30 Years. ResearchGate. Taiwan, 2020. P.320.

4. Fantini, A. E. Assessing intercultural competence: Issues and tools. The SAGE handbook of intercultural competence. SAGE Publications. United States, 2009. pp. 456-476.

5. Hammer, M. R. The intercultural development inventory: A new frontier in assessment and development of intercultural competence. M. Vande Berg, R. M. Paige, & K. H. Lou (Eds.), Student learning abroad: What our students are learning, what they're not, and what we can do about it. Stylus Publishing. United States, 2012. pp. 115-136.

6. Jones, E., & de Wit, H. Globalization of Internationalization: Thematic and Regional Reflections on a Traditional Concept. The International Journal of Higher Education and Democracy, 5(1). AUDEM. Netherlands, 2014. pp. 35-54.

7. Kecskes, I. Intercultural pragmatics. The Routledge handbook of pragmatics. Routledge. United Kingdom, 2014. pp. 539-553.

8. Like, R. C. Educating clinicians about cultural competence and disparities in health and health care. Journal of Continuing Education in the Health Professions, 31(3). United States, 2011. pp. 196-206.

9. Muxamedjanova S.Dj. Повышение межкультурной компетенции на английском языке для специальных целей глобальной интеграции на примере студентов-медиков. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro, 2024. 12/2 -son. bb. 111-114.

10. Silverman, J., Kurtz, S., & Draper, J. Skills for Communicating with Patients. CRC Press. United States, 2013. P. 500.
11. Spencer-Oatey, H., & Kádár, D. Z. Intercultural Communication and Pragmatics. Routledge. New York, 2021. pp. 112-140.
12. Thomas, J. Cross-cultural pragmatic failure. Applied Linguistics, 4(2). Oxford University Press. United Kingdom, 1983. pp. 91-112.

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MEDIATA'LIMDA ULARNING TA'LIMIY HAMDA TARBIYAVIY IMKONIYATLARI

Nekboyev Xurshid Xolyorovich

Qarshi davlat texnika universiteti

Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedras

xnekboyev@gmail.com

ORCID 0009-0004-9347-3188

Xaydarov Tuymurod Zoyirovich

Qarshi davlat texnika universiteti

tabiiy fanlar kafedras

tuymurodxaydarov228@gmail.com

ORCID 0000-0003-2459-9815

UDK 378.091.12:004

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari va mediata'limning ta'lim tizimidagi o'rni, imkoniyatlari va muammolari har tomonlama tahlil qilingan. Maqolada ommaviy axborot vositalarining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari keng yoritilgan bo'lib, ularning ijobiy va salbiy ta'sirlari ko'rsatib berilgan. Jumladan, multimedia vositalari o'quvchilarda axborotni eslab qolish jarayonini yengillashtirishi, mustaqil fikrlashni rivojlantirishi va ijodiy faoliyatni rag'batlantirishi ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada XXI asr ta'limining yangi paradigmasi doirasida mediata'limning roli, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari, o'qituvchi va o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishdagi faol ishtiroki yoritilgan. Maqolada mediata'limning nafaqat maktab va oliy ta'lim muassasalaridagi o'rni, balki o'quvchi-yoshlarning ma'naviy dunyosi, ularning kommunikativ, estetik va intellektual rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, multimedia, masofaviy ta'lim, raqamli transformatsiya, media kutubxona, virtual voqelik, o'quv jarayoni, o'quvchi kompetensiyasi.

Abstract. This article comprehensively analyzes the role, opportunities and problems of modern information technologies and media education in the education system. The article broadly covers the educational and educational opportunities of the media, showing their positive and negative effects. In particular, it is emphasized that multimedia tools facilitate the process of memorizing information in students, develop independent thinking and stimulate creative activity. The article also highlights the role of media education within the new paradigm of 21st century education, the possibilities of using digital educational resources, and the active participation of teachers and students in mastering new knowledge. The article considers not only the role of media education in schools and higher education institutions, but also its impact on the spiritual world of students and young people, their communicative, aesthetic and intellectual development.

Keywords: Information technologies, multimedia, distance learning, digital transformation, media library, virtual reality, learning process, student competence.

Kirish. Zamonaviy medianing ta'lim jarayonidagi o'rni bizning davrimizda juda muhimdir. Albatta, har qanday hodisaning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi yangi ommaviy axborot vositalarining ham ijobiy va salbiy tomonlari bor. Internet resurslaridan foydalanish juda qulay, har qanday ma'lumotni bevosita o'z mobil aloqa operatorimiz, kompyuterimiz va shu kabilardan topishimiz mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi bilan ichki xavfsizlik organlariga aholi ma'lumotlar bazalarini tuzish osonlashdi, ammo shu bilan birga, foydalanuvchilarga taqdim etilgan ma'lumotlarni nazorat qilish imkoniyati kamaydi. OAVning yangi bosqichga o'tishi muqarrar, chunki

zamon bilan hamnafas yurish uchun doimiy ravishda rivojlanish, takomillashish va yangi qoliqlarga moslashish lozim. Hozirda faqat yangi internet manbalarini kutish qoldi, negaki global kompyuterlashtirish jarayoni allaqachon ishga tushirilgan va vaqtlilik bombaga o'xshab to'xtatib bo'lmay darajada rivojlanib kelmoqda. XXI asrda globallashtirish, raqamli transformatsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari nafaqat bilim berishning vositasi, balki shaxsni rivojlantirish, uning ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda ham muhim omilga aylandi. Mediata'lim esa ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalari va raqamli media mahsulotlardan maqsadli foydalanishni nazarda tutadi. [1,2]

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan multimedia texnologiyalari ifodalilik, harakatlilik, hozir bo'lish va birdamlik tuyg'usini yaratish orqali eslab qolish jarayonini yengillashtiradi. Ushbu ta'lim vositalari faqatgina tegishli metodika ishlab chiqilgan taqdiridagina samarali bo'ladi. Bunday metodika o'quvchining individualligini va mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi, uni bevosita ijodiy faoliyatga jalb etish orqali qobiliyatlarini rag'batlantiradigan muammoli, evristik, o'yinli va boshqa samarali ta'lim shakllariga asoslanishi lozim [3]. Shubhasiz, bunday maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan ma'lumotlarni sifatli boshqarish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. XXI asr ta'limining yangi paradigmasi o'quv dasturlari va baholash tizimini isloh qilish, o'qituvchilarni jalb etish va tayyorlashning yangi usullari, rahbarlik salohiyatini oshirish hamda hamkorlik texnologiyalarini joriy etishni o'z ichiga olgan keng qamrovli yo'l xaritasi asosida ta'lim tizimlarini tubdan o'zgartirishni taqozo etadi. Bu o'zgarish mohir o'qituvchilar yordamida amalga oshirilib, insonlarga kontent yaratish, moslashtirish va baham ko'rish imkonini beruvchi texnologiyalar bilan qo'llab-quvvatlanadi. XXI asr ta'limining raqamli davrida media va texnologiyalar o'qituvchiga yangi bilimlarni yangilashga, yangi raqamli vositalar va resurslardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari va texnologiyalar jamiyatimizdagi jadal o'zgarishlarni amalga oshirishning asosiy omillaridan biridir. U ta'limning xarakterini, o'quvchilar va o'qituvchilarning o'quv jarayonidagi rolini o'zgartirishi mumkin [4].

Zamonaviy mediata'limda, ya'ni fakultativ mashg'ulotlar, sinfdan tashqari tadbirlar, darslar va qo'shimcha ta'lim muassasalarida mediaklublar birlashmalari tomonidan video imkoniyatlaridan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Video tasvirlarga xos bo'lgan havaskor video ijodkorligining hissiy tagma'nosi shaxsning dam olish ehtiyojlarini qondirishning samarali vositasidir. Bu tabiiy shakllarning go'zalligini kadr tekisligiga ko'chirishdan estetik zavq olishga yordam beradigan ekran asarlarini yaratish, kuchli ta'sir uyg'otadigan filmlarni idrok etish, shuningdek, assotsiativ-mantiqiy va intuitiv-obrazli ijodiy mashqlar ko'rinishida intellektual rivojlanishga olib kelishi mumkin [4,6]

Bugungi kunda matbuot atrofimizdagi dunyoni tushunish va bolalarning o'zligini anglashning asosiy vositasi bo'lib qolmoqda. Ommaviy axborot vositalarida mediata'lim faoliyati nafaqat oddiy havaskorlik va professional gazeta hamda jurnallar nashrida, balki festivallarda, yosh jurnalistlar maktablarida (shu jumladan xalqarolarda ham) o'z aksini topmoqda. Ommaviy axborot vositalari talabalar hayoti va faoliyati, ma'naviy dunyosining o'ziga xos shakli sifatida tan olingan bo'lib, unda yosh insonning barcha ko'nikmalari uning voqelik haqidagi taassurotlari bilan chambarchas bog'liqdir [7,8].

Jadval 1. XXI asr ta'limidagi asosiy yo'nalishlar va ularning ahamiyati

Yo'nalishlar	Samardorlik darajasi (%)
O'quv dasturlari va baholash tizimini isloh qilish	90%
O'qituvchilarni tayyorlash va ularni qo'llab-quvvatlash	85%
Rahbarlik salohiyatini oshirish	70%
Hamkorlik texnologiyalarini joriy etish	80%
Mediata'lim va raqamli vositalardan foydalanish	95%

Zamonaviy kompyuter texnologiyalari katta qiziqish uyg'otib, mediata'limni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Kompyuter texnologiyasi ijodiy g'oyalarni virtual olamda ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Bugungi kunda kompyuter o'yinlari nafaqat dam olish, balki xotira, reaksiya, aql, mantiq, diqqat, badiiy idrok va tasavvurni o'stirish maqsadida ham yaratilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar tufayli har kim o'zining kompyuter filmlari, ensiklopediyalari, gazeta va jurnallari hamda veb-saytlarini yaratishi mumkin [9, 10].

Natijalar va muhokama: Multimedia vositalari – bu audio, video va bosma ma'lumotlarni qayta ishlash hamda taqdim etish uchun mo'ljallangan vositalar to'plami bo'lib, ular qatoriga ma'lumotlarni qayta ishlash uchun kompyuter vositalari ham kiradi. Multimedia – bu displey ekranlarida audio tasvirlar bilan video ma'lumotlarni aks ettirishni ta'minlaydigan dasturiy va apparat vositalardir. U kompyuter tarmog'i, elektron pochta va boshqa vositalar orqali uzatiladigan ma'lumotlarni kompakt diskka yozish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy maktab o'quvchisi turli yo'nalish va murakkablik darajasidagi o'yinlarni o'ynash, ta'lim dasturlari bilan ishlash va internetga ulanish orqali deyarli har kuni multimedia bilan to'qnashadi. Talabalar va maktab o'quvchilari muhitida multimedia vositalarining ifodalanishi ko'pincha quyidagicha jadvalda keltirilgan.

Jadval 2. Multimedia vositalari va ularning asosiy funksiyalari

№	Yo'nalish / Funksiya	Mazmun va namunalar
1	Axborot manbai	Ilmiy va badiiy adabiyotlar, interaktiv kataloglar, ma'lumotlar bazalari
2	Muloqot vositasi	Elektron pochta, onlayn chatlar, ijtimoiy tarmoqlar, yozishmalar
3	Hordiq chiqarish vositasi	Kompyuter o'yinlari, musiqa tinglash, film va videoroliklar tomoshasi
4	Ta'limning texnik vositalari	Jadvallar, ma'lumotnomalar, elektron xaritalar, interaktiv simulyatorlar
5	Multimedia ommalashuvining sabablari	1) tezkor ma'lumot olish 2) yangilik hissi 3) keng ko'lamli dam olish 4) virtual borliq

Internet va multimedia texnologiyalarining keng ommalashishiga quyidagi sabablardan biri asos bo'lgan:

- 1) har qanday ma'lumotni osongina qo'lga kiritish imkoniyati;
- 2) yangilik his-tuyg'usining mavjudligi;
- 3) keng ko'lamli dam olish imkoniyatlari;
- 4) virtual borliqning hissiy va estetik qonuniyatlar asosida hayotiy sharoitlarga (obyektiv voqelikka) yaqinlashuvi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda axborot hayotning barcha jabhalarida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan, adabiyotlar hajmi shunchalik katta bo'lgani bois kerakli manbani topish ancha vaqt talab qilayotgan bir sharoitda, maktab o'quvchilarining aksariyati kompyuter kataloglariga murojaat qilishni ma'qul ko'rishmoqda. Chunki ular bu yo'l bilan har qanday ma'lumotni tezroq topish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Virtual voqelik, uning asosiy xususiyati sodir bo'layotgan voqealarda yoki ma'lum bir muhitda ishtirok etish hissi va uni boshqarish imkoniyati bo'lib, obyektiv voqelikka yaqinlashtirilgan. U estetik va hissiy zavq olish imkoniyatini beradi, zamonaviy maktab o'quvchisining shaxsini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Kompyuter ta'lim vazifalarini yanada samaraliroq hal qilishga yordam beradigan vosita sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni turli xil ma'lumotlarni olish va ta'lim dasturlarida ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydi.

Kompyuter va internet texnologiyalari bilan bog'liq yangi imkoniyatlar mamlakatimiz ta'lim tizimini rivojlantirish uchun keng istiqbollarni ochmoqda. Internet tarmog'iga ulanish natijasida ko'plab maktablarda media kutubxonalar tashkil etildi. Kutubxonalar, video va fonotekalar, maktab kompyuter va telekommunikatsiya markazlari

imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan media kutubxona o'quvchilar va o'qituvchilarga har qanday axborot manbalariga ulanish imkonini beradi. Media kutubxonadan foydalanuvchilar teledasturlar va videolar almashish, shuningdek, telekommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi, Internet va kompyuter tarmoqlarining ommalashuvi interaktiv televideniye asosida masofaviy ta'limning yagona tarmog'ini tashkil etish imkoniyatini yaratmoqda. Masofaviy ta'lim tizimi foydalanuvchilarning ta'lim ehtiyojlarini qondirish maqsadida ma'lumotlarni uzatish vositalari, axborot resurslari, o'zaro aloqa protokollari, apparat va dasturiy ta'minot hamda tashkiliy-uslubiy yordamdan iborat tizimli va tashkiliy majmuani o'z ichiga oladi. Masofaviy ta'limning muhim xususiyati shundaki, u ta'lim ma'lumotlarini masofadan turib almashish vositalariga asoslangan maxsus axborot-ta'lim muhitidan foydalangan holda aholining keng qatlamlariga keng qamrovli ta'lim xizmatlarini taqdim etadi.

Hozirgi vaqtda ommaviy axborot vositalaridan (televideniye, multimedia dasturlari, video va boshqalar) foydalanishga asoslangan masofaviy ta'limning bir nechta modellari mavjud.

Internetdan faol foydalanish masofaviy ta'limning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarni uzatish vositalarining takomillashuvi va uzatish tezligining oshishi bilan ta'lim jarayonida multimediyali Internetdan foydalanish keng joriy etilmoqda. So'nggi paytlarda Internetda virtual dunyo vositalari va uch o'lchovli obyektlar ommalashdi. Bular oddiy kitob yoki veb-sahifa emas, balki xona, muzey zali, shahar maydoni kabi joylarning takomillashtirilgan elektron modellaridan iborat. Bu yangi texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga xizmat qilmoqda.

Masofaviy ta'lim tizimida an'anaviy darsliklar o'rniga ularning elektron muqobillari qo'llaniladi. Bu darsliklarning afzalliklari qatoriga har qanday ma'lumotga oson kirish imkoniyati va o'quv materiallarining muntazam yangilanib turishi kiradi. Ularda nafaqat turli murakkablikdagi topshiriq va mashqlar, balki turli ma'lumotlarning batafsil tasvirlari ham mavjud. Elektron darsliklar yordamida talabalarining bilimi kompyuter testlari orqali nazorat qilinadi.

Ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish san'at ta'limida yangi istiqbollarni ochadi. Bu ham o'quvchilarning san'atshunoslik bo'yicha bilimlarini kengaytirish, ham odatda tanishishning iloji bo'lmagan yangi san'at asarlari bilan tanishishdir. O'rganishning individual sur'ati, o'quvchini qiziqtirgan ishga qaytish imkoniyati, uni izlash, tomosha qilish, kuzatish faoliyati musiqa va animatsiya bilan birgalikda san'atga bo'lgan qiziqishni chuqurroq rivojlantirishga yordam beradi.

Yangi axborot texnologiyalari ta'lim tizimida, ayniqsa media pedagogikada, keng imkoniyatlar yaratadi. Ular mediata'limning asosiy vazifalariga to'liq mos keladi. Birinchidan, talabalarni mediamatnlarni savodli o'qishga o'rgatish imkoniyatini ta'minlaydi. Kompyuter tarmoqlari yordamida talabalar har qanday mediamatnni erkin o'zlashtirish, ular bilan ishlash, tahlil qilish, taqqoslash va tanqidiy idrok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ikkinchidan, yangi axborot texnologiyalari talabalarining g'oyalarni (amaliy yoki ijodiy) yaratish jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu jarayonda talabalar jurnallar, gazeta maqolalari, sahna asarlari, kitoblar va musiqa asarlarini yaratish orqali ijodiy g'oyalarni rivojlantirishadi, bu esa mediata'lim uchun boy material vazifasini bajaradi.


Uchinchidan, yangi axborot texnologiyalari orqali olingan bilim va ko'nikmalarni integratsiya qilish imkoni paydo bo'ladi. Bu turdagi loyihalar fanlararo yondashuvni talab qiladi va hamkorning milliy madaniyati hamda dunyoni idrok etish xususiyatlari bilan tanishishga yo'naltiriladi.

Jadval 3.

Yangi axborot texnologiyalarining media ta'limdagi vazifalari

№	Vazifa yo'nalishi	Izoh va ahamiyati
1	Mediamatnlarni savodli o'qish	Kompyuter tarmoqlari va texnik ishlanmalar orqali mediamatnlarni tahlil qilish, taqqoslash, tanqidiy tushunish imkoni
2	Ijodiy g'oyalarni rivojlantirish	Jurnal, gazeta, spektakl, kitob, musiqa asarlari yaratish jarayonida faol ishtirok va dalillar asosida baholash ko'nikmasi
3	Bilimlarni integratsiya qilish	Fanlararo loyihalarda bilimlarni chuqur integratsiya qilish, milliy madaniyat va dunyoqarash xususiyatlarini o'rganish

Shu bilan birga, OAV o'z auditoriyasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari katta ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi salohiyatidan tashqari salbiy jihatlariga ham ega. Masalan, ommaviy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalariga haddan tashqari qiziqish jismoniy va ruhiy salomatlikka katta zarar yetkazishi mumkin. Ko'rish qobiliyati, qaddi-qomatning buzilishi, zararli nurlanish, ortiqcha vazn muammolari bu zamonaviy "media avlod" salomatligining to'liq bo'lmagan ro'yxati.



Rasm 1. Yangi axborot texnologiyalari va mediata'lim vazifalari

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Yangi Zelandiyada o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, kuniga 2 soatdan ko'proq televizor ko'radigan bolalar va o'smirlar 26 yoshga kelib semirish va semirish xavfiga, shuningdek, yurak-qon tomir tizimining yomonlashishiga sezilarli darajada moyil bo'ladi. Afsuski, ortiqcha vazn, ko'rish qobiliyatining pasayishi va ommaviy axborot vositalariga haddan tashqari qiziqish bilan bog'liq maktab o'quvchilarining umumiy sog'lig'ining yomonlashuvi muammolari har yili chuqurlashib bormoqda va o'z yechimini kutmoqda.

Xulosa. Zamonaviy axborot texnologiyalari va mediata'lim vositalari bugungi kunda ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular nafaqat bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda, balki yoshlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va dunyoqarashini kengaytirishda ham muhim o'rin tutadi. Multimedia, internet resurslari, video va virtual texnologiyalar o'quv jarayonini yanada jonli, interaktiv hamda qiziqarli qilishi bilan birga, o'quvchilarda mavzuni chuqurroq anglash, eslab qolish va amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Mediata'limning yana bir muhim jihati shundaki, u o'quvchini faqat tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanish olib boruvchi, tahlil qiluvchi va xulosaga keluvchi faol ishtirokchiga aylantiradi. Biroq mediata'lim vositalaridan foydalanishda muayyan xavflar ham mavjud. Shu sababli mediata'lim jarayonida muvozanatni saqlash, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha aniq metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur.

Umumiy xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari va mediata'lim vositalari ta'limning yangi paradigmasini shakllantirmoqda. Ular kelajak avlodni nafaqat bilimli va

malakali, balki ijodkor, tanqidiy fikrlovchi va zamonaviy texnologiyalardan ongli foydalana oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida mediata'lim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, uning afzalliklari va salbiy jihatlarini hisobga olgan holda tizimli yondashuvni yo'lga qo'yish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ермолаева Светлана Юрьевна, Шведова Анастасия Сергеевна. Роль современных медиа в образовательном процессе. - Социально-гуманитарные знания, № 3, 2022. – С.290-296.
2. Бондаренко Е.А. Медиаобразование в современной школе с точки зрения образовательных стандартов // Медиаобразование и медиа компетентность / Под ред. А.В.Федорова, Таганрог: Изд-во Таганрог. гос. пед. ин-та 2009. - С. 10.
3. Психолого-педагогический словарь / Сост. В. А. Мижериков; Ред. П.И. Пидкасистый. Ростов: Феникс, 1998.
4. Dei, Dr. (2024). Role of Media and Technology in the Digital Era of 21st Century Education. international journal of scientific research in engineering and management. 08. 1-5. 10.55041/ijsem29820.
5. Nekboyev X.X. Mediata'limning rivojlanish tarixi va mediasavodxonlikni o'zlashtirish tizimining asosiy jihatlari // O'zMU xabarlari. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali, 2023 -№1/11/1.B. 199-202
6. Nekboyev X.X. Theoretical Foundations Of The Technology Of Media Education "International journal of Advanced Science and Texnology" Vol. 29, No. 07, (2020), pp. 3349-3352
7. Amdam, Synnøve. (2016). Media Education Goes Professional?. Nordicom Review. 38. 10.1515/nor-2016-0019.
8. Yevtushenko, Olena & Kovalova, Tetiana. (2019). Media education for future media professionals: designing and implementing a training programme. Advanced Education. 6. 94-104. 10.20535/2410-8286.128668.
9. Abid Haleem, Mohd Javaid, Mohd Asim Qadri, Rajiv Suman, Understanding the role of digital technologies in education: A review, Sustainable Operations and Computers, Volume 3, 2022, Pages 275-285, <https://doi.org/10.1016/j.susoc.2022.05.004>.
10. Bogacheva, Nataliya & Voiskounsky, Alexander. (2017). Computer games and creativity: the positive aspects and negative trends. Journal of Modern Foreign Psychology. 6. 29-40. 10.17759/jmfp.2017060403.

GLOBALASHUV VA RAQAMLI AXBOROT MUHITIDA YOSHLAR ONGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR HAMDA OTA-ONALARNING IJTIMOIIY- PEDAGOGIK MAS'ULIYATI

Dusyorova Klara Narmo'minovna

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

ORCID 0009-0008-3573-2021

Meyliyeva Muqaddas Muzaffar qizi

Qarshi davlat universiteti Chet tillar fakulteti 2-kurs talabasi.

ORCID 0009-0004-7220-7972

UDK 37.018:316.77

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonida yoshlarning raqamli makonda faol ishtirok etishi, ular ongiga ko'rsatilayotgan axborot ta'siri, shuningdek, ota-onalarning mas'uliyati keng yoritilgan. Internet texnologiyalari orqali tarqalayotgan zararli axborot manbalari, virtual tahdidlar, yoshlar orasida shakllanayotgan axborotga qaramlik holatlari tahlil qilinadi. Ota-onalarning raqamli kompetensiyasini oshirish, ularning farzandlari bilan samarali muloqot qilishi, zamonaviy axborot vositalaridan oqilona foydalanishni o'rgatish muhimligi asoslab beriladi. Ziyonet [1] portali va boshqa ishonchli axborot manbalaridan foydalanishning afzalliklari ko'rsatib o'tiladi. Bolalarni axborot xurujlaridan himoya qilish, axborotni tahlil qilish, undan to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kun tarbiyasining muhim vazifasi

sifatida talqin etiladi. Maqolada yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar chuqur tahlil qilinadi. Axborot muhitida bolalarni yo'naltirish mas'uliyati, eng avvalo, ota-onalarning zimmasidadir.

Kalit so'zlar: Yoshlar tarbiyasi, ma'naviy immunitet, axborot xavfsizligi, internet tahdidlari, raqamli kompetensiya, ota-ona mas'uliyati, global tarmoq, virtual xavf-xatar, Ziyonet portali, kompyuter savodxonligi, milliy qadriyatlar, madaniy gegemonlik, axborot madaniyati, bolalar huquqlari, demokratik jamiyat.

GLOBALIZATION AND THE DIGITAL INFORMATION ENVIRONMENT: FACTORS INFLUENCING YOUTH CONSCIOUSNESS AND THE SOCIO- PEDAGOGICAL RESPONSIBILITY OF PARENTS

Abstract. This article extensively covers the active participation of young people in the digital space in the process of globalization, the impact of information on their minds, as well as the responsibility of parents. The harmful sources of information spread through Internet technologies, virtual threats, and information addiction among young people are analyzed. The importance of increasing parents' digital competence, effective communication with their children, and teaching them to use modern media wisely is substantiated. The advantages of using the Ziyonet[1] platform and other reliable information sources are highlighted. Protecting children from information attacks, developing the skills to analyze information, and draw the right conclusions from it are interpreted as important tasks of today's education. The article deeply analyzes the factors that negatively affect the minds of young people. The responsibility for guiding children in the information environment lies, first of all, with parents.

Keywords: Youth education, spiritual immunity, information security, Internet threats, digital competence, parental responsibility, global network, virtual danger, Ziyonet platform, computer literacy, national values, cultural hegemony, information culture, children's rights, democratic society.

Kirish. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarining XXI asr talablariga to'la javob beradigan har tomonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish borasida keng ko'lamli aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunida [2] yoshlar o'rtasida axloq-odobni buzishga qaratilgan har qanday harakatlar, jumladan, zo'ravonlik, uyatsizlik va shafqatsizlikni targ'ib qilish, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda [3] esa insoniylikka zid, shafqatsizlik va shafqatsizlikni aks ettiruvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlar namoyish etish taqiqlangan. Chunki bular bolalarga zararli ta'sir ko'rsatadi va ularning jinoyat sodir etishiga sabab bo'ladi. 2014-yilda "Bolalarni ularning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun [4] loyihasining qabul qilangani fikrimizning yorqin dalilidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon axborot makonida ishonchli qalqon bo'lib faoliyat yuritayotgan "O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim axborot tarmog'i" "Ziyonet" tashkil etilganiga qariyb 20 yil bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi "Ziyonet" yagona portalini rivojlantirish doirasida o'tgan vaqt ichida "Kutubxona" bo'limida yoshlar uchun iqtisodiyot, fan, madaniyat, san'at va ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid o'zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, ingliz va boshqa tillarda yozilgan 59 ming 868 dan ortiq axborot resurslari jamlandi. Portal 2013-yildan buyon ingliz tilini o'rganuvchilar uchun bepul repetitor sifatida xizmat qilib kelmoqda. Portalda "Rasmiy lug'at" materiallari joylashtirilmoqda. Mobil qurilmalar uchun "YE-darslik" mobil ilovasi ishga tushirildi. Bu talabalarga mobil qurilmalar yordamida elektron darsliklardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Xavfsiz internet doirasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, 2015-yilda O'zbekiston Respublikasi hududida faol domenlar soni 19 mingdan oshdi, uMail.uz

elektron pochta xizmatida ochilgan pochta qutilari soni esa 91,3 mingga yetdi. Hozirgi vaqtda xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanishning umumiy tezligi 12000 Mbit/s dan oshadi. 2014-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-noyabrda PQ-2069-son qarori [5] bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining 2014-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi"ga muvofiq, Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan umumiy qiymati 2280 ming AQSH dollari bo'lgan 9 ta loyiha amalga oshirildi. "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-aprelda PF-4609-son qaroriga [6] muvofiq qabul qilingan.

Qadriyatlar almashinuvi, integratsiyalashuvi, globallasuvi, madaniyatlarning qorishishi va sintezi jarayonlari kechayotgan bugungi kunda dunyoda ma'naviy qadriyatlarning, milliy tarbiyaning o'rni masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar o'z islohotlarida inson ongini dasturlash, axborot ekspansiyasi, madaniy gegemonlik, madaniy imperializm kabi iboralardan ko'proq foydalanmoqda. Yangi madaniy tamoyillarga ko'r-ko'rona ergashish va hukmron madaniy axloqqa bo'ysunish tendensiyasini shakllantirishga alohida e'tibor beradi. Bunday sa'y-harakatlar nafaqat kattalar, balki birinchi navbatda yoshlarning ongi va qalbini zabt etishga qaratilgani achinarli. Farzandlarimizning ma'naviy olamini zabt etish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda, yangi texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Yoshlar ongini zabt etish vositalaridan biri – bu boshqa vositalarga nisbatan yetakchilik qilayotgan global tarmoqdir. Bu yoshlarimiz tarbiyasiga bevosita va bilvosita tahdid soladi. Xavf mahsuli, raqamli tahdidlarning turli shakllari hayotimizning ko'p jabhalarida zararsiz ko'rinadigan tarzda namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'rin egallab, kompyuter savodxonligi ko'rsatkichi ko'pincha insonning yuksak darajasini belgilovchi omillardan biriga aylanib bormoqda. Ota-onalarning oilada, jamiyatda, fuqarolar oldidagi raqamli kompetensiya uchun mas'uliyatini yanada kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Agar o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida yoshlarning sevimli mashg'uloti musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar tomosha qilish bo'lsa, endilikda raqamli axborot bilan muloqot qilish va uni muhokama qilish ularning sevimli mashg'ulotiga aylangan. Global olamdagi axborotlar yosh avlodning oldingi manfaatlarini ularning hayotidan chiqarib yubormoqda. Hozirgi yoshlarning aksariyati o'z qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlari haqida gapirganda, avvalo, virtual maydonlarga sayohat qilish, sport bilan shug'ullanish, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarishni tilga oladi. Bu virtual makonda ularning soni soat sayin ortib bormoqda va ular bu bo'shliqlarda o'zlarining turli ehtiyojlarini qondirishadi. Axborotga tashnalik, bilimga intilish, ular o'zlarining sirlarini baham ko'radigan do'stlarni, ya'ni o'zlarining raqamli dunyosini yaratdilar. Aksariyat hollarda bu holat biz, ota-onalarni farzandlarimiz darsga, uy vazifalariga hozirlik ko'rmoqda, zamonaviy, tez bilimlarni o'z vaqtida o'zlashtiryapti, degan biryoqlama xulosaga kelishimizga olib keladi.

Qaysidir ma'noda bu yaxshi, lekin masalaning boshqa tomoni ham borki, uni chuqurroq ko'rib chiqish kerak. Alohida e'tibor talab qiladigan jihatlardan biri bu global tarmoqdan kelayotgan tahdid – virtual tahdid.

Hozirgi kunda maktab yoshidagi bolalar o'z maktablari yonidagi kafe yoki klublarga borib, internetdan foydalanishlari mumkin. Shuning uchun ular uyda Internetga kirishni xohlashlari tabiiy. Biroq ekspertlarning fikriga ko'ra, o'n yoshgacha bo'lgan bola odatda Internetdan mustaqil foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy, tahliliy fikrlash va shu asosda ma'lumotni ajratish, saralash yoki "filtrlash" qobiliyatiga ega emas.

Biz haqiqiy hayotda yosh bolalarimizni himoya qilishga odatlanganmiz. Biroq ular virtual dunyoda turli xavf-xatarlarga duch kelishi mumkinligidan har doim ham

tashvishlanmaymiz. Har bir havola yoki ijtimoiy tarmoq akkaunti ortida bolalarni turli xavf-xatarlar kutishi mumkin! Bular pornografiya, pedofiliya, diniy harakatlar yoki o'z joniga qasd qilishni o'rgatuvchi guruhlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishiga qaramay, ba'zida odamlar ulardan oqilona foydalanishni to'liq tushunmaydilar. Kompyuter va Internetdan oldingi davrda o'sgan ko'plab ota-onalar va o'qituvchilar, agar bola Internetdan foydalana boshlasa, bu yaxshilikdan ko'ra ko'proq zarar keltiradi, deb hisoblashadi. Ma'lum bo'lishicha, bolani kompyuter yoki Internetdan chalg'itish harakatining asosi aslida boshqa muammo, ya'ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsizligi (xabarsizligi). Avvalo, texnologik savodsizlik masalasiga ularning o'zlari jiddiyoq yondashib, unga barham berishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Axir savodsizlik masalasidan qochib, bolani texnologiyadan ajratib qo'yish to'g'ri emas. Bundan tashqari, yana bir jihatni e'tiborga olish kerak: aynan kattalarning xatti-harakatlariga asoslanib, bolalar o'zlarining kiberdo'stlariga munosabatini shakllantiradilar.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan bunday sharoitda farzandlarimizning "Buni o'qima, buni ko'rma" deb bir yoqlama ta'lim-tarbiya olishi, ularni temir devor bilan o'rab olishi, shubhasiz, zamon talablariga ham, ezgu maqsad va vazifalarimizga ham mos kelmaydi. Biz bu yo'ldan hech qachon og'ishmaymiz". Binobarin, axborot sohasida inson xavfsizligini ta'minlash uchun fuqarolarning axborot madaniyatini oshirish, ya'ni ularda axborotni saralash va undan ongli ravishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Axborotni tanlash va undan unumli va to'g'ri foydalanish inson ongi darajasi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan ota-onalarga "Farzandimni ma'lumot tanlashga o'rgatsam bo'ladimi? Qanday maqsadda, qanday foydalaniladi, qachon ishlatiladi? Bu ma'lumot to'g'rimi?" degan savollarga javob topishda ko'maklashish lozim. Aslida qanday davom etishimiz kerak?

Mashhur Google [7] qidiruv tizimiga "Bolalar uchun saytlar" topshirig'ini bersak, u o'zbek tilida 150 mingdan ortiq, rus tilida 23 milliondan ortiq, ingliz tilida esa 1 milliardga yaqin ilovalar topadi. Ularni qayerda va qanday ishlatish foydalanuvchining o'ziga bog'liq.

Statistikaga ko'ra, ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini Internetdan foydalanganda xavfsiz deb hisoblashadi. Ma'lum bo'lishicha, hozirgi yoshlarning yarmidan ko'pi internet va kompyuter texnologiyalarini ota-onalariga qaraganda yaxshiroq bilishadi. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda internetga ulanishi, ota-onalari kompyuterlariga himoya vositasi bo'lgan "filtrlash" dasturini o'rnatmasligi, farzandlari qaysi saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan oldi. Umuman olganda, ota-onalarning aksariyati, to'g'rirog'i, qariyb 90 foizi o'z farzandlari internetdan faqat uy vazifasini bajarish uchun foydalanishiga ishonishadi. Ular asosan onlayn musiqa tinglaydi, elektron pochtani tekshiradi va qisqasi, vaqt o'tkazadi. Yoshlarning uchdan ikki qismi yangi do'stlar orttirish va kimdir bilan suhbatlashish uchun internetga ulanadi va ularning 15 foizi keyinchalik bu munosabatlarni haqiqiy hayotda davom ettiradi.

Natijalar va muhokama. Albatta, global tarmoqda bolalar xavfsizligi uchun birinchi navbatda ota-onalar javobgardir. Ota-onalarning 92 foizi farzandlariga internetdan foydalanish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berganliklarini bildirgan bo'lsa, 34 foiz bolalar ota-onalari internetdan foydalanishda hech qanday cheklov va me'yorlar o'rnatmaganligini aytishgan. Yevropa Ittifoqining Kids Online loyihasi doirasida onlayn-resurslar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, zo'ravonlik, qo'pollik va shafqatsizlikni targ'ib qilishga qaratilgan ma'lumotlar eng ko'p YouTube (32%), veb-saytlar (29%), ijtimoiy tarmoqlar (13%) va o'yinlarda (10%) bo'lgan. Aniqlanishicha, YouTube videolarining (30%) zo'ravonlik, (27%) pornografiya va (30%) nomaqbul kontentdan ko'proq, ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlarda (48%) noqonuniy xatti-harakatlar

va (30%) nomaqbul kontent, veb-saytlardagi ma'lumotlarda (43%) pornografiya, o'yinlarda (39%) zo'ravonlik va shafqatsizlik sahnalari mavjud.

Internet muammosi chuqurlashib borar ekan, ekstremistik oqim va uyushmalar saytlardan foydalanishga ochiq, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilayotganini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga olib borishi, bu saytlarda ularning ruhiy yoki jismoniy salomatligi uchun xavfli bo'lgan ma'lumotlarni ko'rishiga sabab bo'lishi tabiiy. Bank yoki kredit karta raqamlarini biladigan bolalar onlayn xaridlarda qatnashmoqda va kichik o'yinchoqlardan tortib, eng so'nggi rusumdagi avtomobillargacha hamma narsani sotib olish huquqiga ega. Bu ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi.

Virtual olamda sodir bo'layotgan zo'ravonlik, odobsizlik, o'g'irlik, buzuvchilik ertaga real hayotga ko'chib o'tmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Internet-kafelarda va uy kompyuterlarida saytlarni "tadqiq qilayotgan" bolalarning ota-onalari yaxshilab o'ylab, farzandlarini tarbiyalashga biroz ko'proq vaqt ajratsalar yaxshi bo'lardi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ota-onalarning kompyuter savodxonligini yanada oshirishlari foydali bo'lardi. Bu ularning farzandlarini to'g'ri yo'nalishga yo'naltirishga yordam beradi. Chunki yuqoridagi holatlardan nafaqat ularning o'zlari, balki butun jamiyat aziyat chekmoqda.

Xulosa va tavsiyalar. Internetdan oqilona foydalanish, oq va qorani ajrata bilish, to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhimdir. Shu munosabat bilan, taqiqlash yo'lidan borish kutilgan samarani bermaydi. Chunki biror narsani taqiqlashdan oldin, muqobil sifatida yaxshiroq narsani taklif qilish tavsiya etiladi.

Biz ota-onalar farzandlarimizga beradigan tarbiyada yuqoridagi fikrlar naqadar muhim ekanini tushunishimiz kerak. Chunki komil tarbiya uchun zamonaviy bilimlarni bilish ota-onaning ham burchidir.

Global tarmoqning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sirini kamaytirish va oldini olish maqsadida ota-onalar oldiga raqamli kompetensiya darajasini oshirish masalasi ko'tarilmoqda. Jamiyatdagi barcha fuqarolarning o'zida raqamli tahdidlarga javob bera oladigan ma'naviy immunitetni shakllantirish dolzarb talab hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 2011-yil 13-aprel.O'RQ -280-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi 381-sonli "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-fevraldagi "2011–2015-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona-axborot-resurs xizmatlari sifatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1487-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ 4354-son qarori.
5. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti: Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil etish bo'yicha hujjatlar to'plami. – T.2007.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Sh. Mirziyoyevning 2014-yil 13-sentabrda PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori.
8. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. – Bolalar adabiyoti. Darslik T.: "Sharofat-fayz", 2022.320b.
9. Jamilova B., Safarov F. Ona tili va bolalar adabiyotidan ilmiy atamalar lug'ati. Buxoro, "Durdona", 2021. – 220b.

10. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. - 356 b.
11. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma/ - Buxoro: Durdona, 2019. - 420b.
12. Safarov O. Bolalikning oydin osmoni. - Toshkent, 2009. - 362 b. 29. Sarimsoqov B. Badiylik asoslari va mezonlari. - Toshkent: Fan, 2004. - 128 b.
13. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
14. Avloniy Ablulla. Turkiy guliston yoxud axloq. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. J.2. Toshkent: Ma'naviyat. 1998.
15. Albers P. (2008). Theorizing visual representation in children's literature. Journal of Literacy Research, 40(2), 163-200.

KASBIY TERMINLARNI O'RGATISHDA KO'P TILLI LUG'ATLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Jalilova Hulkar To'rayevna

Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

torayevnaxulkar@gmail.com

ORCID 0009-0001-9713-1482

UDK 378.147:81'246.2

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot kasbiy terminlarni o'rgatishda ko'p tilli lug'atlardan foydalanishning pedagogik samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, lingvodidaktik yondashuvning o'quvchilarda terminologik kompetensiyani shakllantirishdagi o'rini ilmiy asosda yoritadi. Tadqiqotda qiyosiy-lingvistik tahlil, pedagogik eksperiment, kontent tahlili va statistik qayta ishlash metodlari qo'llanildi. Olingan natijalar ko'p tilli lug'atlardan foydalanish o'quvchilarda semantik farqlash, kontekstual qo'llash, ekvivalent tanlash va tarjima aniqligi kabi ko'nikmalarni sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Eksperimental guruh natijalarining nazorat guruhiga nisbatan yuqoriligi ko'p tilli materiallarning kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi omil sifatida ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot yakunida ko'p tilli resurslarni kasbiy ta'lim dasturlariga integratsiya qilish, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar yaratish va terminologik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ko'p tilli lug'atlar, kasbiy terminologiya, terminologik kompetensiya, qiyosiy tilshunoslik, pedagogik eksperiment, tarjima aniqligi, lingvodidaktika.

PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF USING MULTILINGUAL DICTIONARIES IN TEACHING PROFESSIONAL TERMINOLOGY

Abstract. This study investigates the pedagogical effectiveness of using multilingual dictionaries in teaching professional terminology and highlights the role of the linguodidactic approach in developing students' terminological competence. The research employs comparative linguistic analysis, a pedagogical experiment, content analysis, and statistical processing methods. The findings demonstrate that the use of multilingual dictionaries significantly enhances students' skills in semantic differentiation, contextual application, equivalent selection, and translation accuracy. The superior performance of the experimental group compared to the control group confirms that multilingual materials function as a cognitive activator within the learning process. The study concludes with recommendations to integrate multilingual resources into professional education curricula, develop methodological guides for instructors, and implement innovative technologies aimed at strengthening terminological competence.

Keywords: multilingual dictionaries, professional terminology, terminological competence, comparative linguistics, pedagogical experiment, translation accuracy, linguodidactics.

Kirish. Kasbiy terminlarni o'rgatish masalasi zamonaviy pedagogika fanining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ta'lim oluvchining nafaqat sohasiy lug'at boyligini kengaytiradi, balki uning konseptual fikrlash doirasini shakllantirishda ham hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Mutaxassislik fanlari tilining o'ziga xos xususiyati shundaki, undagi terminlar oddiy leksik birliklarga nisbatan qat'iyroq semantik chegaraga, aniq funksional yuklamaga va tizimli kategoriyalash talabiga ega. Shu sababli kasbiy terminologiyani o'zlashtirish maxsus didaktik yondashuv, qiyosiy tahlil va ko'p kanalli axborot manbalaridan foydalanishni talab qiladi. Ayniqsa, globallashtirish, mehnat bozori dinamikasi va ko'p tilli kommunikatsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida terminlarni

bir nechta til kontekstida o'rgatishning ahamiyati yanada ortmoqda. Ko'p tilli lug'atlar ushbu jarayonda samarali metodik vosita bo'lib, talabalarga terminlarning o'zbek, rus va ingliz tillaridagi semantik nozikliklarini solishtirish, ma'no differensiasiyasini anglash va tarjima jarayonidagi mumkin bo'lgan xatolarni bartaraf etish imkonini beradi. Bu yondashuv talabalarda amaliy fikrlash, fanlararo bog'lanishlarni ko'ra olish, kasbiy matnlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda kasbiy tilni ongli ravishda egallash jarayonini tezlashtiradi. Pedagogika va tilshunoslik kesishgan nuqtada ko'p tillilik nafaqat atamalarini yod olishni, balki ularning konseptual mohiyatini anglashni ham ta'minlaydi. Shu jihatdan O'zbekiston terminologiya maktabining yetakchi tadqiqotchilaridan biri A.Madvalievning quyidagi fikri ayni mavzuga bog'liq ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi: "Har qanday termin bir tildan ikkinchisiga o'tayotganda nafaqat shaklini, balki uning ortida turgan ilmiy mazmunni ham to'g'ri ko'chira olish zarur, aks holda ilmiy tafakkur izchilligi buziladi"[1.18]. Ushbu mulohaza ko'p tilli lug'atlardan foydalanishning kognitiv va pedagogik ahamiyatini yanada yoritadi. Zero, talaba terminlarni bir nechta til qiyosida o'rganganida ularning mazmuniy chegaralarini aniq tasavvur qiladi, sohaning konseptual tizimini yaxlit qabul qiladi va kasbiy muloqot uchun zarur bo'lgan lingvistik tayyorgarlikka ega bo'ladi. Natijada ta'lim jarayoni sifat jihatdan yuksaladi, talabalarining kasbiy kompetensiyasi esa global standartlarga mos shakllanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kasbiy terminlarni o'rgatish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslik, psixolingvistika va pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan alohida tadqiqot yo'nalishiga aylandi. Zamonaviy terminologiya nazariyasi vakillari – E.Vuster, J.Cabre, V.Leichik kabi olimlar terminlarni konseptual bilimlar tizimini ifodalovchi, qat'iy semantik chegaraga ega bo'lgan maxsus lingvistik birlik sifatida talqin qiladilar. Bu yondashuv keyinchalik pedagogik tadqiqotlarda ham o'z ifodasini topdi, chunki kasbiy terminlarning o'zlashtirilishi faqat til materialini emas, balki sohaga oid kognitiv modellarni anglashni ham talab qiladi. Pedagogika metodologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (N.Galskova, R.Ellis, H.Holec) ko'p tilli o'qitish modeli talabalarda qiyosiy fikrlashni, semantik farqlash ko'nikmalarini va kasbiy muloqot kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil sifatida qayd etiladi.

O'zbek terminologiya maktabi olimlari A.Madvaliev, T.Qudratov, Sh.Yusupovlar esa kasbiy terminlarning ko'p tilli ekvivalentlarda o'rganilishini ilmiy tafakkur izchilligini ta'minlovchi omil sifatida baholaydilar. Amaliy tadqiqotlar ham ko'p tilli lug'atlarning o'quv jarayonidagi o'rnini yaqqol tasdiqlaydi. H.T. Jalilova tomonidan tayyorlangan "Britancha–amerikacha qurilish terminlariga oid lug'at"da uchraydigan lift/elevator, tarmac/asphalt, plaster/stucco, building site/construction site kabi juftliklar kasbiy terminlarning geografik, uslubiy va funksional variantlilikini ko'rsatadi va talabalarda qiyosiy semantika asosida fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish uchun muhim didaktik material vazifasini bajaradi. H.T. Jalilova tomonidan tayyorlangan yana bir "Arxitektura va qurilish sohasiga oid ko'p tilli lug'at"dagi arch, abutment, beam, cladding, foundation kabi konseptual birliklar esa uch til (o'zbek-rus-ingliz) kesimida berilgan bo'lib, terminning strukturaviy va funksional mohiyatini talabalarga yanada aniqroq yetkazishga yordam beradi. Bu esa kasbiy terminologiyani o'rgatishda ko'p tilli manbalar nafaqat qo'shimcha vosita, balki asosiy o'quv resursi sifatida ishlatilishi zarurligini ko'rsatadi.

Pedagogik adabiyotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'p tilli lug'atlardan foydalanish kasbiy til kompetensiyasining barcha tarkibiy qismlariga – semantik aniqlik, sohaviy fikrlash, kontekstual idrok, tarjima madaniyati va muloqot kompetensiyasiga – bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari ko'p tilli manbalarni qiyosiy tahlil, modul o'qitish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kognitiv-integrativ metodlar orqali qo'llashni samarali deb baholaydi. Natijada kasbiy terminlarni o'zlashtirish jarayoni faqat yodlash amaliyotidan chiqib, yuqori darajadagi intellektual faoliyat – tahlil, solishtirish, konseptual modellashirish va amaliy qo'llash darajasiga ko'tariladi.


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari kasbiy terminologiyani o'rgatish jarayonining lingvistik, pedagogik va psixologik xususiyatlarini kompleks tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ko'p tilli lug'atlardan foydalanishning ta'limiy samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot konstruksiyasida zamonaviy

lingvodidaktikaning kompetensiyaga asoslangan yondashuvi, kognitiv psixologiya tamoyillari, qiyosiy-tilshunoslik metodlari hamda terminologik tahlil usullari uyg'unlashtirilgan. Shuningdek, kasbiy ta'limda ko'p tilli materiallarni qo'llashning nazariy asoslari E.Vuster, M.Cabre, A.Madvaliev, N.Galskova kabi tadqiqotchilarning metodik qarashlari bilan tutashtirilgan.

Natijalar va muhokama. Tadqiqotning asosiy maqsadi – kasbiy terminlarni o'rgatishda ko'p tilli lug'atlardan foydalanishning pedagogik samaradorligini aniqlash va ushbu yondashuvning talabalarda terminologik kompetensiyani shakllantirishga ko'rsatadigan ta'sirini baholashdan iborat bo'ldi. Eksperimental ishlar kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilari ishtirokida olib borildi va ikki parallel guruh – an'anaviy metod asosida o'qitilgan nazorat guruhi hamda ko'p tilli lug'atlarga tayangan holda o'qitilgan eksperimental guruh – o'rtasidagi farqlarni tahlil qilishga yo'naltirildi. Tadqiqot bosqichlari old-test, formativ ta'lim jarayoni, post-test va o'quvchilarning subyektiv baholarini o'rganishdan iborat bo'ldi. Quyida ushbu jarayon natijalari batafsil muhokama qilinadi.

Eksperimental va nazorat guruhlarida o'rtasidagi taqqoslama o'quvchilarning kasbiy terminlarni o'zlashtirish darajasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Old-test bosqichida ikki guruhning ko'rsatkichlari deyarli bir xil bo'lib, terminlarni semantik aniqlikda tushunish, ekvivalent tanlash va kontekstda qo'llash bo'yicha farq 4–6% atrofida edi. Formativ ta'lim bosqichida eksperimental guruh ko'p tilli lug'atlar bilan ishlash, terminlarning ingliz, rus va o'zbek tillaridagi semantik farqlarini qiyosiy tahlil qilish, funktsional ekvivalentlardan foydalanish hamda tarjima aniqligini oshirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda qatnashdi. Post-test natijalari ushbu guruhning terminologik kompetensiya indeksi o'rtacha 23,4% ga oshganini ko'rsatdi, nazorat guruhida esa o'sish 8,1% dan oshmadi. Bu ko'rsatkich ko'p tilli lug'atlar bilan ishlash terminlarni o'zlashtirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi.

Old-test and Post-test Comparison Based on Updated Research



1-rasm

Old-test: eksperimental = 50 ball, nazorat = 48 ball

Post-test: eksperimental = +23,4% o'sish, nazorat = +8,1% o'sish

Ko'p tilli lug'atlar asosida o'qitilgan talabalar, ayniqsa, semantik farqlash, tarkibiy tahlil va ma'no ko'chishi hodisalarini ancha aniq idrok eta boshladi. Masalan, plaster, stucco, render kabi qurilish atamalarining ingliz tilidagi semantik chegaralari haqidagi bilim eksperimental guruhda mustahkamroq shakllandi; o'zbekcha variantini tanlashda ular yanada aniqroq qaror qabul qila oldilar. Bu jarayon M.T.Cabre ta'kidlagan "Terminologik kompetensiya uch darajali bilim majmuasiga – konseptual, lingvistik va kommunikativ bilimlarga tayanadi" [2.55] degan ilmiy xulosaga mos keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'p tilli lug'atlar yordamida ishlash o'quvchilarda semantik aniqlikni oshiradi. Bu ayniqsa arch, abutment, beam, cladding kabi konstruksion terminlar misolida yaqqol namoyon bo'ldi. Eksperimental guruh o'quvchilari ushbu terminlarning uch til kesimidagi semantik farqlarini ko'ra oldilar, ularning funktsional qo'llanishini to'g'ri izohlab bera oldilar. Mazkur jarayon E.Vusterning "Terminlar tizimli kategoriyalar asosida shakllanadi va ular o'rtasidagi munosabatlar ilmiy tafakkur izchilligini belgilaydi" [3.34] degan fikrini amalda tasdiqlaydi. Shuningdek,

o'quvchilarning yozma ishlaridagi semantik xatoliklar ikki barobardan ko'proq kamaydi. Masalan, old-testda har bir o'quvchiga to'g'ri keladigan o'rtacha xato soni 6,2 bo'lgan bo'lsa, post-testda ushbu ko'rsatkich 2,7 ta xatogacha pasaydi. Tadqiqot natijalarining yana bir muhim jihati – tarjima kompetensiyasining sezilarli darajada o'sishidir. Eksperimental guruh o'quvchilarida kontekst asosida ekvivalent tanlash, terminning funksional vazifasini aniqlash va o'zbekcha mos tarjimani tanlash bo'yicha ko'nikmalar ancha rivojlandi. Bu holat R.Ellisning "Tilni o'rganishda ijtimoiy va kognitiv mexanizmlar birgalikda ishlar ekan, ko'p kanalli ta'lim resurslari o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi"[4.112] degan ilmiy xulosasiga to'liq mos keladi. O'quvchilar beam – nurlama, column – ustun, foundation – poydevor kabi asosiy konstruktiv terminlarni kontekstga mos holda to'g'ri tarjima qilishni o'rgandilar. Ko'p tilli lug'atlardan foydalanish o'quvchilarning konseptual fikrlashida ham ijobiy o'zgarishlar yuzaga keltirdi. Qiyosiy tahlilga asoslangan mashg'ulotlar ularni terminlarning struktura-komponent tuzilishini tahlil qilishga o'rgatdi. Masalan, expansion joint, bearing wall, reinforced concrete kabi atamalar bo'yicha eksperimental guruh o'quvchilari nazorat guruhiga nisbatan aniqroq ilmiy-ta'riflar bera oldilar va ularning semantik tarkibini modellashtirishga muvaffaq bo'ldilar. Bu natija N.Galskova tomonidan ilgari surilgan "Tilni o'zlashtirish jarayoni faqat leksik materialni eslab qolish emas, balki kontseptual bilimlar tizimini mustahkamlash jarayonidir"[5.67] degan tamoyilni qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchilarning subyektiv fikrlari ham ko'p tilli lug'atlar asosidagi yondashuv samaradorligini tasdiqladi. Anketalashtirish natijalariga ko'ra, eksperimental guruhning 82% o'quvchilari ko'p tilli resurslar terminlarni o'rganishni osonlashtirganini bildirgan; 74% o'quvchilar ushbu yondashuv tarjima jarayonida xatoliklarning kamayishiga yordam berganini qayd etgan; 69% o'quvchi esa ko'p tilli terminologiya bilan ishlash kasbiy matnlarni o'qish bo'yicha o'z ishonchini oshirganini ta'kidlagan. O'quvchilarning aksariyati ko'p tilli lug'atlar ularni lingvokognitiv jarayonlarga faolroq jalb qilganini, terminlarning aniq ta'rifini mustahkam o'zlashtirishga yordam berganini bildirgan. O'qituvchilar fikriga ko'ra, ko'p tilli lug'atlardan foydalanish o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirgan, savol-javoblar va tahliliy munozaralar soni ortgan, talabalar mustaqil fikrlashga ko'proq moyil bo'lgan. Bu yondashuv A.Madvaliev ta'kidlagan "Terminlarning mazmuniy aniqligi ilmiy muloqotning asosiy tayanchidir"[1.18] degan fikrning o'quv jarayonida amaliy tasdig'idir. Tadqiqotning umumiy natijalari ko'p tilli lug'atlardan foydalanish pedagogik jarayonda terminologik kompetensiyani shakllantirishning yuqori samarador metodik vositasi ekanini ko'rsatadi. Bu yondashuv o'quvchilarda nafaqat semantik bilimlarni, balki tahlil qilish, qiyoslash, tarjima qilish, konseptual fikrlash va kasbiy muloqotga kirishish kabi murakkab kompetensiyalarni shakllantiradi. Shuningdek, ko'p tilli lug'atlar yordamida olingan bilimlar o'quvchining kasbiy tayyorgarligi va texnik matnlarni idrok etish darajasini oshiradi. Natijada ta'lim jarayoni zamonaviy lingvodidaktik tamoyillarga mos ravishda integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan va mazmuniy chuqurlikka ega bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Kasbiy terminlarni o'rgatishda ko'p tilli lug'atlardan foydalanishning pedagogik samaradorligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari ushbu yondashuvning ta'lim jarayonida muhim o'rin tutishini tasdiqladi. Eksperimental va nazorat guruhlarida o'rtasida olingan ko'rsatkichlar, ayniqsa post-test bosqichidagi sezilarli farqlar ko'p tilli lug'atlar terminlarni semantik jihatdan to'g'ri anglash, ekvivalent tanlash aniqligi va kontekstual qo'llash malakasini rivojlantirishda samarali vosita ekanini ko'rsatdi. O'quvchilarda semantik farqlash, tarjima aniqligi va konseptual tafakkur kabi kompetensiyalarning oshishi ushbu uslubning lingvokognitiv jarayonlarni faollashtirish xususiyatini namoyon qildi. Ko'p tilli lug'atlardan foydalanish o'quvchilarning kasbiy matnlarni idrok etish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning muloqotga kirishish, tahliliy fikrlash va sohaviy kontseptlarni to'g'ri talqin qilish qobiliyatini mustahkamladi. Tadqiqot davomida o'qituvchilar va o'quvchilar fikrlari ham ushbu metodikaning yuqori samaradorligini qo'llab-quvvatladi, bu esa ko'p tilli resurslardan foydalanishning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib, birinchidan, kasbiy ta'lim dasturlarida ko'p tilli terminologik materiallardan sistematik foydalanishni ta'lim standartlariga integratsiya qilish zarur. Ikkinchidan, o'qituvchilar uchun ko'p tilli lug'atlardan foydalanish metodikasi bo'yicha amaliy seminarlar va treninglar tashkil

etilishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, o'quv jarayonida qiyosiy-analitik topshiriqlar ulushini oshirish, terminlarning funksional qo'llanishini amaliy misollar orqali mustahkamlash tavsiya etiladi. To'rtinchidan, o'quvchilar uchun elektron ko'p tilli lug'atlar, terminologik platformalar va interaktiv resurslardan foydalanishni kengaytirish lozim. Beshinchidan, kelgusida kasbiy terminlarni o'rgatish jarayonida kognitiv yondashuvni mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – p.248
2. Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Bonn: Romanistischer Verlag, 1979. – S.239
3. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – p.704
4. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. – Москва: АРКТИ, 2015. – с.256
5. Madvaliev A. Terminologiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2012. – B.180
6. Cabré M.T. La terminología: representación y comunicación. – Barcelona: Universitat Pompeu Fabra, 1999. – p.305
7. Crystal D.A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Oxford: Blackwell Publishing, 2008. – p.560
8. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London–New York: Routledge, 2011. – p.332
9. Temurshoyev B. O'zbek terminologiyasining shakllanishi va rivoji. – Toshkent: Universitet, 2018. – B.212
10. Qodirov E. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2015. – B.180

JINOYAT VA JINOYATCHILIK: MAZMUN VA MOHIYATI, TALHIL VA TALQIN**Safarov Nurbek Abdivaliyevich**

Qarshi davlat universiteti Falsafa va sotsiologiya

kafedrası katta o'qituvchisi

Falsafa doktori (PhD)

safarovnurbek78@gmail.com

ORCID 0000-0013-4352-3456

UDK 101:050.082.4(10:12-7)

Annotatsiya. Maqolada jinoyat tushunchasi, mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili keltirilgan. Jinoyat belgilari uni boshqa huquqbuzarliklardan ajratib turuvchi, ijtimoiy va huquqiy mohiyatini belgilab beruvchi muhim mezonlar hisoblanadi. Jinoyat, avvalo, jamiyat uchun ijtimoiy xavfli holat bo'lib, u mavjud tartib, tinchlik va adolatga tahdid soladi, muayyan darajada zarar yetkazadi yoki zarar yetkazish xavfini tug'diradi. Jinoyatning yana bir muhim belgisi uning qonun nuqtayi nazaridan taqiqlanganligidir. Boshqacha aytganda, faqat tegishli qonun me'yorlarida qayd etilgan ijtimoiy jihatdan xavfli qilmishgina jinoyat hisoblanadi. Insonning aybdorligi ham jinoyatning muhim belgilaridan biri sanaladi. Har qanday jinoyat faqat aybdor shaxs tomonidan sodir etiladi.

Jinoyat mavjud huquqiy me'yorlarga zidligi, davlat, jamiyat va inson manfaatlari, xavfsizligi, daxlsizligiga zarar yetkazishi bilan xarakterlanishi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Jinoyat, qilmish, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, axloqiy me'yorlar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy xavf, ayb, jazo, huquqiy hodisa, hukm.

CRIME AND CRIMINALISM: CONTENT AND ESSENCE, ANALYSIS AND INTERPRETATION

Abstract. The article presents the concept of crime, its content and its socio-philosophical analysis. Signs of a crime are important criteria that distinguish it from other offenses, determine its social and legal nature. Crime is, first of all, a socially dangerous state for society that threatens existing order, peace and Justice, causing some degree of harm or risking harm. Another important sign of a crime is that it is prohibited from the point of view of the law. In other words, only a socially dangerous act recorded in the norms of the relevant law is considered a crime. The guilt of a person is also considered one of the important signs of a crime. Any crime is committed only by the guilty person.

It has been analyzed that the crime is characterized by contradiction with existing legal norms, harm to the state, society and human interests, safety, ignorance.

Keywords: Crime, act, crime, offense, moral standards, socialization, social risk, guilt, punishment, legal phenomenon, judgment.

Kirish. Bugungi kunda ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etilayotgan ilmiy manbalarda ham jinoyatchilik – mamlakatda muayyan davr mobaynida sodir etilgan barcha jinoyatlarni ifodalovchi, ijtimoiy jihatdan va tarixan o'zgarib boruvchi hodisa sifatida ta'riflanadi[1;117]. Ta'rifdan ko'rinadiki, birinchidan, jinoyatchilik jamiyatda sodir qilingan barcha jinoyatlarning yig'indisidan tarkib topadi. Ikkinchidan, jinoyatchilik o'zgaruvchan va mazmunan hamda tarkiban dinamik xarakterga ega bo'lgan hodisadir. Uchinchidan, jinoyatchilik avvalo huquqiy hodisa sifatida tavsiflanadi. To'rtinchidan, jinoyatchilik jamiyatning buguni va kelajagi uchun katta xavf-xatar tug'diruvchi, ko'plab muammolarni vujudga keltiruvchi ijtimoiy hodisadir[1;117].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada jinoyat va jinoyatchilik tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili keltirilgan. Tadqiqotda analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Jinoyatchilik tabiiy emas, ijtimoiy hodisadir. Binobarin, insoniyat tarixida uning paydo bo'lishi sabablari ijtimoiy omillar, xususan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, inson ongi va faoliyatidagi evrilishlar, jamiyatdagi

qadriyatlarning shakllanishi bilan bevosita bog'liq. Jinoyatchilikning tarixiy ildizlari ibtidoiy jamoa tuzumi davriga borib taqaladi. To'g'ri, bu davrda davlat, qonun va huquqni muhofaza qilish tizimi halicha mavjud emas edi. Kishilar turmushi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosan urf-odatlar, an'analar va turfa kelishuvlar asosida boshqarilardi. Jamoaning har bir a'zosi umummanfaatlarga bo'ysungan holda yashar, jamoada qabul qilingan me'yorlar esa turmushning odatiy tartibini belgilardi. Shu bois bu davrda ana shu me'yorlarning buzilishi jinoyat deb baholanardi [2;122]. Jinoyatchilikning dastlabki shakllari birinchi navbatda moddiy ehtiyojlarni mavjud me'yorlarni buzgan holda qondirish bilan bog'liq bo'lgan. Dehqonchilik va ovchilik bilan kun ko'radigan jamoalarda oziq-ovqat va resurslar uchun raqobat tabiiy hol edi. Bu raqobat ayrim hollarda jamoa a'zolari o'rtasida tortishuv va nizolarni keltirib chiqarardi. Bunday sharoitda umumjamoaviy mulk deya e'tirof etilgan ne'matlarning o'zboshimchalik bilan egallab olinishi, o'zlashtirilishi, boshqalarning inon-ixtiyoriga zid ravishda tasarruf qilinishi jamoa me'yorlarining buzilishi, ya'ni jinoyat sifatida qabul qilinardi.

Ibtidoiy jamoada ijtimoiy maqom va yetakchilik uchun kurash ham jinoyatchilikning ilk sabablaridan biri bo'lgan. Yetakchilikka intilish, obro' uchun raqobat, qasos va shaxsiy himoya tuyg'ulari ba'zan zo'ravonlik va mojarolarga olib kelgan. Ayniqsa, guruhlararo to'qnashuvlar – yer, ov joyi yoki ayollar uchun bo'lgan bahslar jamoa ichidagi tartibni buzgan va bu holatlar keyinchalik jinoyat sifatida qabul qilingan. Shuningdek, jinoyatchilikning ilk ildizlari oilaviy va jinsiy munosabatlar sohasida ham kuzatilgan. Ibtidoiy jamoalarda nikoh munosabatlari muayyan urf-odatlar asosida muvofiqlashtirilgani tufayli ularning buzilishi jinoyat sanalgan.

Ibtidoiy jamoa sharoitida sodir etilgan jinoyatlar uchun rasmiy jazo tizimi mavjud emas edi. Shu bois jazo tariqasida stixiyali ravishda shakllantirilgan mexanizmlar qo'llanilgan. Ularning eng keng tarqalgan usullardan biri jinoyatchini jamoadan chetlatish bilan bog'liq bo'lib, bu inson uchun eng og'ir jazo hisoblanardi. Ayrim vziyalarda moddiy zararni qoplash, qon haqi to'lash amaliyoti ham ishlatilgan [3;122]. Vaqt o'tishi bilan mulkchilik munosabatlarining mustahkamlanishi, ijtimoiy tabaqalarning paydo bo'lishi, davlat institutlarining shakllanishi natijasida bu urf-odatlar huquqiy normalarga aylandi.

O'rta asrlarda kishilik jamiyatida feodal munosabatlar qaror topdi. Asosiy iqtisodiy resurslar, ayniqsa, ularning eng muhimlaridan biri bo'lmish yer yirik mulkdorlar qo'lida jamlanib qoldi. Buning oqibatida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik keskin kuchaydi. Ana shu ijtimoiy hodisa jinoyatchilik tabiatini ham, unga bo'lgan munosabatni ham o'zgartirdi [3;122]. O'rta asrlarda yer boylik va hokimiyat manbai bo'lgani bois uning atrofidagi munosabatlar jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biri bo'lib qoldi. Hatto qo'zg'olonlar, o'zgalar mulkiga zarar yetkazish, hokimiyat vakillariga qarshilik ko'rsatish kabi yirik jinoyatlar ham ana shu sababdan turtki oldi. Mazkur voqealar aslida ijtimoiy norozilik ifodasi bo'lsa-da, davlat va mulkdorlar tomonidan jinoyat deb baholandi [3;122]. Bundan ko'rinadiki, o'rta asrlarda Sharqda ham, G'arbda ham "jinoyatchilik" tushunchasi birinchi navbatda iqtisodiy va maishiy maqsadlardan kelib chiqqan holda talqin qilinadigan bo'ldi.

Ma'lumki, o'rta asrlarda kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy sohalariga dinning ta'siri nihoyatda katta edi. Din iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishning, davlat va hokimiyat xarakterini belgilashning, ijtimoiy hayotni tashkil qilishning, inson xulq-atvorini nazorat qilishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilardi. Shu boisdan aslida huquqiy mazmunga ega bo'lgan "jinoyat" tushunchasi diniy kategoriya bo'lmish "gunoh" tushunchasidan ajratilmagan holda talqin etildi. Aynan shu sababga ko'ra Sharqda islom, G'arbda xristian dini me'yorlariga qarshi chiqish, uning aqidalarini inkor etish, diniy marosimlarga xilof ish tutish jinoyat sifatida baholandi[3;122]. Shu sababga ko'ra, masalan, G'arbda inkvizitsiya davrida ko'plab hurfikirli kishilar, ijod ahli jinoyatchi sifatida e'tirof etildi hamda jazoga tortildi. O'rta

asrlardagi feodal munosabatlar ustuvor bo'lgan kishilik jamiyatida axloqiy qadriyatlar ham diniy me'yorlarga tayangani tufayli ularga zid bo'lgan xatti-harakatlar jinoyat sifatida baholandi. Jumladan, zino, insofsizlik, diyonatsizlik kabi harakatlar ham jinoyat sanaldi. Binobarin, o'rta asrlarda "jinoyatchilik" tushunchasi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va diniy-mafkuraviy nuqtayi nazardan ham talqin qilina boshlandi.

O'rta asrlarda ayrim jinoyat turlari o'ta paradoksal tarzda talqin qilindi. Masalan, bu davrda jamiyat turmush tarzida zo'ravonlik va kuch ishlatish hollari bot-bot uchrab turardi. Biroq ularning muayyan qismi qonuniy xatti-harakatlar deya talqin qilinsa, boshqa qismi jinoyat sifatida tavsiflanardi. Aytaylik, zamona zo'rlari tomonidan hokimiyatni egallash yoxud uni saqlab qolish maqsadida amalga oshirilgan har qanday zo'ravonlik qonuniy hisoblanardi. Ammo shu zo'ravonlikka qarshi qilingan har qanday harakat – isyon, norozilik, o'zini himoya qilishga urinish jinoyat sifatida baholanardi. Bunday paradoksal talqin davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonchsizlikni kuchaytirib borardi[3;122].

Yangi zamonda kishilik jamiyatida o'zgacha xarakterdagi ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi jinoyatchilikning iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy asoslarini o'zgartirdi. Bu davrda mulk va ijtimoiy boylikning salmoqli ulushi tor davralar qo'lida ja'm bo'lganicha qolaverdi. Aholining katta qismi iqtisodiy qiyinchiliklar girdobida umrguzaronlik qildi. Turmush darajasining pastligi, ishsizlik, kambag'allik, yo'qsillik, ijtimoiy-maishiy ahvolni yaxshilash imkoniyatlarining cheklanganligi ayrim shaxslarni o'z ijtimoiy ahvolini boshqalarniki bilan taqqoslashga, ushbu qiyos ayanchli xulosalarga olib kelgani bois o'z ehtiyojlarini qondirishning noqonuniy yo'llarini izlashga undadi. Ilmiy manbalarda bunday ruhiy holat "relyativ deprivatsiya" (o'z hayotini boshqalarniki bilan taqqoslash natijasida o'zini haqsiz kamsitilgandek, imkoniyatlardan mahrum etilgandek his etish, oqibatda huquqbuzarlikka moyillik tuyish) nomini oldi[4;100-137].

Yangi zamonda kishilik jamiyatining yana bir muhim xususiyati qadriyatlar tizimining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi. Aynan shu davrdan boshlab shaxsiy muvaffaqiyat, moddiy boylik, ijtimoiy nufuz mutlaq qadriyatlar sifatida qabul qilina boshlandi. Biroq masalaning nozik jihati shundaki, o'sha davrning ijtimoiy voqeligi hammaga ham ushbu qadriyatlarga osonlikcha erishish imkoniyatlarini taqdim qilolmas edi. Natijada jamiyatning ayrim a'zolarida, amerikalik olim R. Merton ta'biri bilan aytganda, "maqsad va vositalar o'rtasida ziddiyat" yuzaga keldi [5;245-250]. Shaxsiy muvaffaqiyatga, moddiy boylikka, ijtimoiy nufuzga erishishni maqsad qilgan, ammo bu maqsadga yetishishning qonuniy vositalariga ega bo'lmagan ayrim shaxslar o'z niyatlari yo'lida jinoyatga qo'l urishni odat qildilar. Bu intilishlar jinoyatchilik tabiatini ham, uning tarkibini ham o'zgartirdi[6;26-27].

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib jinoyatchilik tarkibi, miqyosi va ko'lamida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu pallada dunyoda kechgan iqtisodiy jarayonlar jinoyatchilikning o'sishi, uning yangi ko'rinishlarining paydo bo'lishi va faoliyat sohalarining kengayishiga olib keldi. Globallashuv jarayonlari, ko'plab milliy iqtisodiyotlarda bozor mexanizmlarining tatbiq qilinishi, mehnat bozoridagi keskin o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirdi. Natijada aholining ayrim toifalari moddiy qiyinchiliklar girdobida qoldilar. Bu esa ko'plab jamiyatlar miqyosida jinoyatchilikning ko'payishi, uning yangi shakllarda namoyon bo'lishiga zamin yaratdi. XXI asr boshlarida raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining jadal rivoji esa jinoyatchilikning yangi yo'nalishi – kiberjinoyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Internet orqali moliyaviy firibgarliklar, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, virtual valyutalar orqali noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirish hollari kengaydi. Bu holat nafaqat iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlikka, balki shaxsiy va davlat ma'lumotlari muhofazasiga ham tahdid sola boshladi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyoda sodir bo'lgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar ham jinoyatchilikning o'sishi, shakllanishi va yangi turlarining paydo bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Avvalo, jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasi, qadriyatlar tizimi va oila institutidagi o'zgarishlar jinoyatchilik miqyosi va xarakteriga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatdi. XX asr oxirida globalallashuv sharofati bilan jamiyatlar o'rtasidagi madaniy almashinuv jarayonlari jadallashdi. To'g'ri, bu holat milliy madaniyatlar erkinligi va ochiqqligini ta'minladi. Biroq boshqa tomondan, begona madaniy obrazlar, xulq-atvor modellari va faoliyat tamoyillari, vayronkor va individualistik g'oyalarning yoshlar ongidan joy olishiga sabab bo'ldi. Mazkur g'oyalar esa yigit va qizlarning ayrim vakillarida ma'naviy qashshoqlik elementlarini hosil qildi, ma'naviy-mafkuraviy immunitetiga putur yetkazdi hamda jinoyatchilikka moyillik hollarini yuzaga keltirdi.

Ko'rinib turibdiki, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida jinoyatchilik hodisasi turfa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy omillar ta'sirida muttasil murakkablasha bordi hamda bugunga kelib miqyosi va ko'lami keng, o'ta murakkab tarkibga ega ijtimoiy hodisaga aylandi. Zamonaviy ilmiy-falsafiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlarda u aynan ana shunday hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jinoyatchilik quyidagi turlarga tasniflanadi: a) shaxsga qarshi jinoyatlar; b) tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar; v) iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar; g) ekologiya sohasidagi jinoyatlar; d) hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar; ye) jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar; j) harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar[7].

Zamonaviy jamiyatlarda jinoyatchilik hodisasining ildiz otganligi darajasi yuqoridagi jinoyat turlari miqdoriga qarab aniqlanadi. Mutaxassis va ekspertlar o'zlarining mavzuga bag'ishlangan monografiyalari hamda maqolalarida, turli huquqiy masalalar yuzasidan tayyorlagan tahliliy materiallarida bu borada quyidagi mezonlarga tayanish zarurligini uqdiradilar:

- 1) jamiyatda sodir etilgan jinoyatlarning turlar bo'yicha ulushi;
- 2) jamiyatda sodir etilgan jinoyatlarning toifalar (ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir) bo'yicha nisbati;
- 3) jamiyatda sodir etilgan jinoyatlarning hududlar (shahar va tumanlar) bo'yicha nisbati;
- 4) jamiyatda sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy sohalar bo'yicha nisbati;
- 5) jamiyatda sodir etilgan jinoyatlarning yil mavsumlari bo'yicha nisbati;
- 6) qasddan va ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyatlar nisbati;
- 7) muayyan manfaat yo'lida va zo'ravonlik bilan sodir etilgan jinoyatlar ulushi;
- 8) vaziyat taqozosi bilan sodir etilgan jinoyatlar, retsidiv jinoyatlar, uyushgan guruh bilan sodir etilgan jinoyatlar, qurolli jinoyatlar ulushi;
- 9) fosh etilgan va fosh etilmagan jinoyatlarning nisbati;
- 10) jinoyat sodir etgan erkaklar, ayollar, voyaga yetmaganlar, muqaddam sudlanganlar, ishsizlarning umumiy jinoyatchilar soniga nisbatan foizi;
- 11) spirtli ichimliklar va narkotik moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etgan kishilar soni;
- 12) jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan, ozodlikdan mahrum qilingan yoki boshqa turdagi jazolarga hukm etilgan shaxslar ulushi[8;158-164].

Tilga olingan mezonlar, ya'ni jinoyatchilikning tuzilishi, uning turlari, ijtimoiy va hududiy taqsimlanishi, sodir etilish sabablari hamda aybdor shaxslarning ijtimoiy tarkibi haqidagi ma'lumotlar jamiyatda jinoyatchilik hodisasining qay darajada ildiz otganini aniqlash imkonini beradi. Ammo bu mezonlar faqat jinoiy faoliyat ko'lamini emas, balki jamiyatning ijtimoiy sog'lomligini, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy holatini ham ifodalaydi [9;94-103]. Shu ma'noda, jinoyatchilikni jamiyatning "ichki salomatligini

ko'rsatuvchi ko'zgu" sifatida baholash mumkin.

Jamiyatda jinoyatchilikning kamayib borayotgani, uning muayyan turlarining yo'qalayotgani davlat boshqaruvi tizimi samaradorligi oshayotganidan, mavjud iqtisodiy imkoniyatlar teng taqsimlanayotganidan, kishilar huquqiy madaniyati yuksalayotganidan, jamiyatda ma'naviy-axloqiy me'yorlar mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Agar jamiyatda jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lsa, bu holat nafaqat huquqiy nazoratning zaifligini, balki iqtisodiy adolatning buzilganini, ijtimoiy tengsizlikning kuchayganini va ma'naviy qadriyatlar tizimining zaiflashganini ko'rsatadi [10;151-156]. Masalan, ishsizlikning o'sishi, aholi turmush darajasi pastligi yoki korrupsiyaning kengayishi jinoyatchilikning o'sishiga turtki bo'ladi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasidagi muvozanat buzilganidan dalolat beradi. Shu nuqtayi nazardan fikrlaganda, jinoyatchilik statistikasi faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun emas, balki falsafiy, sotsiologik va siyosiy tahlillar uchun ham muhim ko'rsatkichdir. Mazkur tahlillar orqali jamiyatning qaysi sohalarida muammolar to'planib qolayotganini, qanday masalalar jamoatchilik e'tirozlariga sabab bo'layotganini, qaysi ijtimoiy guruhlarining manfaatlari to'laqonli qondirilmayotganini, qanday chora-tadbirlarga ehtiyoj pishib yetilganini aniqlash mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar: Xullas, jamiyatda o'rnatilgan huquqiy me'yorlarni buzish yoki ularga rioya qilmaslik natijasida sodir etilgan, davlat va jamiyat manfaatlariga, shaxs huquq va erkinliklariga zarar yetkazuvchi huquqbuzarlik shakli jinoyat, sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig'indisi esa jinoyatchilik sifatida tavsiflanadi. Jinoyatchilik ijtimoiy jihatdan va tarixan shakllanuvchi hodisa bo'lib, ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy omillar ta'sirida mazmunan va tarkiban o'zgaradi. Ushbu omillar maqbul tus olgani sayin jinoyatchilikning barcha turlari kamayib, zaiflashgani sayin esa ko'payib boradi. Jinoyatchilik darajasi nafaqat jinoiy faoliyat ko'lamini, balki jamiyatning ijtimoiy sog'lomligini, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy holatini ifodalovchi mezon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Моисеев Н.Д., Шерхов Р.Р. Понятие преступности и ее криминологические характеристики.// Аграрное и земельное право, 2023, №8. - 117 с.
2. Антонян Ю.М. Преступность в первобытном обществе.// Вестник РГГУ. Серия "Экономика. Управление. Право", 2019, №3. – 122 с.
3. Гуцин Э.Н. Тёмный человек мрачного тысячелетия: образ преступника европейского Средневековья.// НОМОТНЕТІКА: Філософія. Соціологія. Право, 2015, Vol. 34, №20. – 134 с.
4. Ryan J.W. Samuel A. Stouffer and The American Soldier.//Journal of Historical Biography,2010,№7.- 100-137-с.
5. Мертон Р. Социальная структура и аномия./ Социальная теория и социальная структура.- М.:Хранитель, 2006.- С. 245-250.
6. Звизжова О.Ю. Эволюция преступности на различных этапах развития общества: Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд.юрид н.- М.: Всероссийский НИИ МВД РФ, 2013.- С.26-27.
7. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. // lex.uz/docs/111453.
8. Клишков В.Б., Пасынков В.В., Стебенева Е.В. Преступность и ее основные характеристики на современном этапе.// Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России, 2015, №4.- 158-164-с.
9. Фомин С.А. Криминологические характеристики преступности и основные показатели характеристик преступности, ее отдельных групп и видов на современном этапе.// Вестник Сибирского юридического института МВД России, 2018, №1.- С.94-103.
10. Репецкая А.Л. Современное состояние, структура и тенденции российской преступности.// Вестник Омского университета. Серия "Право", 2018, №1.- С.151-156.

**DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI INTEGRATSIYASINING BARQAROR
TARAQQIYOTDAGI KONSEPTUAL O'RNI VA AMALIY SAMARADORLIGI****Nurmurod Abduyusupovich Djurayev**

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

djurayev@gmail.com

ORCID 0009-0008-0496-7928

UDK 351.07

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat va jamiyat boshqaruvi integratsiyasining barqaror taraqqiyotdagi konseptual o'rni hamda uning siyosiy-amaliy samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy governance nazariyalari, xususan, good governance, network governance va collaborative governance modellari asosida davlat institutlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston misolida boshqaruv islohotlari jarayonida jamoatchilik ishtiroki, mahalla instituti, ochiq budget, raqamli platformalar va jamoatchilik kengashlarining roli baholanadi. Tadqiqot natijalari integratsiyalashgan boshqaruv modeli davlat xizmatlari sifatini oshirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi faolligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish indikatorlarini mustahkamlashini ko'rsatadi. Shuningdek, institutsional muvofiqlashuv, hududiy nomutanosiblik va raqamli tengsizlik kabi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: davlat va jamiyat boshqaruvi, integratsiya, barqaror taraqqiyot, fuqarolik jamiyati, raqamli boshqaruv.

**THE CONCEPTUAL ROLE AND PRACTICAL EFFECTIVENESS OF
STATE AND SOCIETY GOVERNANCE INTEGRATION IN
SUSTAINABLE DEVELOPMENT**

Abstract. This article examines the conceptual role of state-society governance integration in ensuring sustainable development and analyzes its political and practical effectiveness from a scientific perspective. Based on contemporary governance theories, including good governance, network governance, and collaborative governance models, the study highlights the significance of interaction mechanisms between state institutions and civil society. Using the case of Uzbekistan, the article assesses the role of public participation, the mahalla institution, open budget initiatives, digital platforms, and public councils within ongoing governance reforms. The findings demonstrate that an integrated governance model strengthens sustainable development indicators by improving the quality of public services, enhancing transparency and accountability, and increasing citizens' participation in political processes. In addition, the study identifies challenges such as insufficient institutional coordination, regional disparities, and digital inequality, and proposes scholarly and practical recommendations to address these issues.

Keywords: state and society governance, integration, sustainable development, civil society, digital governance.

Kirish. Davlat va jamiyat boshqaruvi integratsiyasi zamonaviy siyosiy boshqaruvning markaziy konseptlaridan biri sifatida barqaror taraqqiyotning institutsional poydevorini tashkil etadi. Ijtimoiy tizimlar murakkablashib borayotgan hozirgi sharoitda davlatning biryozlama boshqaruv modeli o'z samaradorligini kamaytirayotgan bo'lib, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat sektor va jamoaviy ishtirokning kuchayishi natijasida boshqaruvning inklyuziv, ko'p subyektlili va o'zaro hamkorlikka asoslangan shakllari ustuvorlik kasb etmoqda. Jahon miqyosida "yaxshi boshqaruv" (good governance) modeli sifatida shakllangan tamoyillar siyosiy tizimning demokratik legitimligini kuchaytirish, qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligi hamda davlat tuzilmalarining javobgarligini ta'minlashda jamiyat bilan uyg'un hamkorlikni zarur shart sifatida ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ham davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayonlari fuqarolik jamiyati institutlari faolligini oshirish, mahalla, jamoatchilik kengashlari, ochiq budget tizimi, raqamli ishtirok platformalari orqali davlat-jamiyat o'zaro aloqalarini institutsional jihatdan mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayon siyosiy tizimning barqarorligi va strategik rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omilga aylanmoqda. Ayni paytda integratsiya jarayonlarining nazariy asoslarini chuqur o'rganish davlat boshqaruvi samaradorligini baholash, siyosiy qarorlarning ijtimoiy rezonansini aniqlash, aholining ishtirok darajasini o'lchash va boshqaruvni optimallashtirishga doir konseptual takliflar ishlab chiqishda alohida ahamiyat kasb etadi. BMT Taraqqiyot Dasturining ta'kidiga ko'ra, "Barqaror rivojlanishga erishish uchun

davlat institutlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining tizimli ravishda integratsiyalashuvi talab etiladi"[1], degan fikr davlat-jamiat boshqaruvi integratsiyasining global nazariy talqinlarini yoritishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois mazkur tadqiqot integratsiyaning kontseptual o'rni, siyosiy amaliyotdagi samaradorligi va uni takomillashtirish imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishni maqsad qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlat va jamiyat boshqaruvi integratsiyasiga oid ilmiy adabiyotlar global miqyosda *Governance nazariyasi* shakllangan XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab sezilarli darajada kengaydi. Mazkur yo'nalishda J.Rosenau, G.Peters, J.Pierre, R.Rhodes kabi nazariyotchilar boshqaruvning davlat markazlashgan modelidan ko'p subyektli, gorizonta va tarmoqlashgan boshqaruv tizimiga o'tishini ilmiy asoslab, jamiyat institutlarining boshqaruvdagi rolini kontseptual jihatdan ta'rifladi. Ularning tadqiqotlarida davlatning funksional yuklamasini samarali taqsimlash, nodavlat sektorni qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash kabi omillar integratsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'riladi. Keyingi bosqichda good governance modeli yuzaga kelib, BMT, Jahon banki, OECD kabi xalqaro institutlar tomonidan shaffoflik, hisobdorlik, ishtirokchilik, qonun ustuvorligi va samaradorlik kabi tamoyillar davlat-jamiat munosabatlarining kontseptual asosi sifatida e'tirof etildi. Xususan, R.Rhodes tomonidan ilgari surilgan "network governance" konsepsiyasi davlat, biznes va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi institutsional hamkorlikning tarmoqlashgan mexanizmlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, integratsiya jarayonlarini o'rganishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyati faoliyatini institutsional jihatdan mustahkamlash, jamoatchilik nazorati, mahalla tizimi, davlat xizmatlarining shaffofligi kabi yo'nalishlar ko'proq yoritilgan bo'lsa-da, integratsiya jarayonlarini kompleks siyosiy-falsafiy va institutsional tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar nisbatan kam. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi *Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi* olimlari tomonidan davlat boshqaruvi transformatsiyasi, ochiq ma'lumotlar siyosati va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar asosiy manba sifatida baholanishi mumkin. Shuningdek, xalqaro tajribani o'rgangan holda, UNDP, UNDESA, OECD va World Bank tomonidan chop etilgan governance bo'yicha strategik hisobotlar integratsiyaning barqaror taraqqiyotga ta'sirini holistik nuqtayi nazardan izohlab beradi. UNDESA o'z hisobotlarida "Barqaror rivojlanish davlat institutlarining funksional moslashuvchanligi va fuqarolik jamiyati ishtirokining tizimli integratsiyasini talab qiladi" deya ta'kidlaydi[2]. Ushbu xulosa integratsiya jarayonining kontseptual o'rnini aniqlashda metodologik asos sifatida qabul qilinadi. Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat va jamiyat boshqaruvi integratsiyasi siyosiy barqarorlik, demokratik legitimlik va barqaror taraqqiyot indikatorlarini mustahkamlovchi strategik mexanizm sifatida ilmiy-nazariy e'tibor talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini davlat va jamiyat boshqaruvi integratsiyasini siyosiy tizimning murakkab, ko'p qatlamli va o'zaro bog'liq jarayoni sifatida tahlil qilishga yo'naltirilgan kompleks yondashuvlar tizimi tashkil etadi. Integratsiyaning barqaror taraqqiyotdagi kontseptual o'rnini aniqlash, uni institutsional va funksional jihatdan baholash uchun tizimli tahlil (system analysis) yondashuvi qo'llandi. Mazkur yondashuv orqali davlat boshqaruvi institutlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, nodavlat sektor va jamoatchilik subyektlari o'rtasidagi vertikal va gorizonta o'zaro aloqalar yaxlit siyosiy mexanizm sifatida ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, komparativ tahlil usuli orqali O'zbekiston tajribasi xalqaro governance modellari, xususan, good governance, network governance va collaborative governance konsepsiyalari bilan taqqoslanib, integratsiya jarayonlarining o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Institutsional yondashuv esa davlat-jamiat aloqalarini normativ-huquqiy asoslar, tashkiliy tuzilma, funksional vakolatlar, ishtirok mexanizmlari va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining institutsional mantig'i orqali tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot ma'lumotlar bazasi sifatida BMT, OECD, UNDESA, World Bank tomonidan chop etilgan governance bo'yicha hisobotlar, O'zbekiston Respublikasining strategik rivojlanish konsepsiyalari, normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, davlat

boshqaruvi islohotlariga oid milliy va xalqaro ilmiy maqolalar foydalanildi. Empirik ma'lumotlarni baholashda indikatorlarga asoslangan tahlil yondashuvi qo'llanib, ochiqlik, hisobdorlik, ishtirokchilik, raqamli boshqaruv, jamoatchilik nazorati, xizmatlar sifati kabi ko'rsatkichlar davlat-jamiyat integratsiyasi samaradorligining mezonlari sifatida qaraldi. Shuningdek, siyosiy jarayonlarning dinamikasini aniqlash maqsadida kontent-tahlil usuli qo'llanib, rasmiy statistik ma'lumotlar, davlat dasturlari, hukumat hisobotlari va jamoatchilik fikri monitoringi materiallari o'rganildi.

Tadqiqotning metodologik asoslarini aniqlashda siyosiy boshqaruvning ko'p subyekтли modelini ilmiy jihatdan asoslagan olimlarning konseptual qarashlariga tayangan holda, integratsiya jarayonlarini tarmoq, kooperativ va inklyuziv boshqaruv paradigmalari doirasida izohlashga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, J.Pierre va B.Peters ta'kidlaganidek, "Zamonaviy boshqaruvning samaradorligi davlat institutlarining jamiyat aktorlari bilan tizimli hamkorlik o'rnatish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir"[3]. Ushbu metodologik yondashuv integratsiyaning siyosiy jarayon sifatidagi murakkabligini, shuningdek barqaror taraqqiyotga ta'sirini ilmiy asosda o'rganish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat va jamiyat boshqaruvi integratsiyasi zamonaviy siyosiy tizimlarda barqaror taraqqiyotning eng muhim institutsional mexanizmlaridan biriga aylanmoqda. O'zbekistonda olib borilayotgan boshqaruv islohotlari, xususan, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, ochiq ma'lumotlar siyosatining kengayishi, jamoatchilik kengashlarining faoliyati va mahalla institutining transformatsiyasi davlat-jamiyat munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlangan birinchi muhim natija shundan iboratki, integratsiyalashgan boshqaruv modeli davlat institutlari va fuqarolik jamiyati o'rtasida o'zaro ishonchning ortishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon siyosiy tizimning legitimligini mustahkamlash, qarorlar qabul qilish jarayonini jamoatchilik ehtiyojlariga moslashtirish va raqamli ishtirok mexanizmlarini kuchaytirish orqali barqaror rivojlanish indikatorlarining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. UNDESA tomonidan ham ta'kidlanganidek: "Barqaror rivojlanish davlat boshqaruvi tizimining ochiqligi va fuqarolik jamiyati bilan institutsional darajadagi hamkorlikning izchil kengayishi orqali ta'minlanadi"[4]. Tadqiqot doirasida integratsiya samaradorligini belgilovchi omillar sifatida uchta asosiy yo'nalish ajratildi: ishtirokchilikning kuchayishi, davlat xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishi va institutsional javobgarlikning ortishi. Bu uch yo'nalishning har biri O'zbekistonning siyosiy tizimi kontekstida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, davlat-jamiyat o'zaro ta'sirining chuqurlashuviga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ishtirokchilikning kengayishi natijalariga ko'ra, oxirgi yillarda fuqarolarning siyosiy jarayonlarga bevosita jalb qilinishi, xususan jamoatchilik eshituvi, ochiq muhokama, onlayn-petitsiya va hududiy rivojlanish dasturlarining jamoatchilik nazorati ostida amalga oshirilishi jarayonlari sezilarli darajada kuchaydi. Bu holat mahalliy darajadagi boshqaruvda ham sezildi: mahalla institutining qayta ko'rib chiqilishi uni oddiy ijtimoiy tuzilma emas, balki mahalliy darajadagi kooperativ boshqaruv subyekti sifatida shakllantirdi. BMT Taraqqiyot Dasturi ekspertlari qayd etganidek, "Ishtirokchilikning kengayishi davlat siyosatining sifatini yaxshilashda strategik omil bo'lib, fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayoniga kiritgan hissasi barqaror boshqaruvning asosiy tayanchlaridan biridir"[5]. Raqamli boshqaruv natijalari ham integratsiyaning samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar sirasiga kiradi. Elektron hukumat tizimi va ochiq ma'lumotlar platformalarining rivojlanishi davlat xizmatlarining tezkorligi, shaffofligi va fuqarolar uchun qulayligini oshirdi. "Ochiq budjet" portalida aholining minglab takliflari asosida mahalliy loyihalar shakllantirilishi, "E-petition" tizimi orqali fuqarolar tashabbuslari davlat qarorlariga bevosita ta'sir qilishi, "My.gov" va boshqa elektron xizmatlarning keng quloch yoyishi boshqaruvda samaradorlik va hisobdorlikning oshishiga olib keldi. Siyosatshunoslik nazariyasi nuqtayi nazaridan bunday raqamli ishtirok instrumentlari davlatning transformatsiyalashuv jarayonida tarmoq boshqaruvi (network governance) modeliga yaqinlashayotganini ko'rsatadi. R.Rhodes ta'kidlaganidek, "Zamonaviy boshqaruv davlat, biznes va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi tarmoqlashgan o'zaro ta'sirlarga asoslanadi; bu tarmoqlar samaradorlikni oshirishda davlatning yakka hukmronligini emas, balki hamkorlikning ustuvorligini ko'rsatadi"[6]. O'zbekiston misolida bunday tarmoqlashgan hamkorlik

ayniqsa iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarning amalga oshirilishida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, kambag'allikni qisqartirish, hududlarni kompleks rivojlantirish, mahalliy infratuzilmalarni yaxshilash bo'yicha tashabbuslarda davlat, biznes hamjamiyatlari, jamoatchilik kengashlari va fuqarolarning bevosita ishtiroki bitta yagona integratsion siyosiy mexanizm sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot natijalarida qayd etilgan muhim jihatlardan yana biri – davlat boshqaruvi samaradorligi va fuqarolik ishonchi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikdir. Jamoatchilik fikri monitoringi materiallari shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatlarining shaffoflashuvi va fuqarolarni qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish aholining siyosiy tizimga bo'lgan ishonchini oshirmoqda. Siyosatshunos olim M.Bukenning fikriga ko'ra, "Davlat institutlariga nisbatan ishonchning oshishi ularning ochiqqligi, hisobdorligi va jamiyat bilan muloqot madaniyatiga ega bo'lishiga bog'liq bo'lib, bu jarayon fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikning izchil kengayishiga tayanadi"[7]. Ayni paytda integratsiya jarayonida mavjud cheklovlar ham qayd etildi. Birinchi cheklov – institutsional muvofiqlashuvning ayrim hollarda sust kechishi. Davlat va jamiyat institutlari o'rtasida hamkorlik mexanizmlari yaratilgan bo'lsa-da, ularning bir xil samaradorlikda ishlashi uchun tashkiliy-texnik imkoniyatlar, malaka, resurs va vakolatlar o'rtasidagi nomutanosiblik hali ham mavjud. Ikkinchi cheklov – jamoatchilik ishtirokining hududlar kesimida teng taqsimlanmaganligi. Ba'zi hududlarda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi yuqori bo'lsa-da, boshqa hududlarda ishtirok mexanizmlari sustroq kechmoqda. Uchinchi cheklov – raqamli tengsizlik muammosidir; aholining barcha qatlamlari elektron boshqaruv imkoniyatlaridan bir xil darajada foydalana olmayapti. Shunga qaramay, tadqiqot umumiy xulosasi shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan boshqaruv modeli siyosiy tizimning barqarorligini mustahkamlovchi eng samarali mexanizmlardan biridir. Xalqaro ekspert Geert Bouckaert ta'kidlaganidek, "Davlat boshqaruvi va jamiyat institutlari o'rtasidagi uyg'unlik siyosiy tizimning barqarorligi, moslashuvchanligi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarining muvaffaqiyatini belgilaydi"[8]. Tadqiqot natijalari O'zbekiston misolida bu fikrning amaliy tasdig'ini ko'rsatdi. Integratsiya bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar mamlakatni barqaror rivojlanish maqsadlariga yaqinlashtirib, davlat boshqaruvining yangi institutsional bosqichga o'tishini ta'minlamoqda. Mazkur natijalar siyosiy tizimning modernizatsiya jarayonini chuqurroq tushunish, davlat–jamiyat hamkorligini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirish va barqaror rivojlanish yo'nalishida strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar ilgari suriladi: birinchidan, davlat va jamiyat boshqaruvi integratsiyasi siyosiy tizimning legitimligi va barqarorligini ta'minlovchi strategik omil bo'lib, u qarorlar qabul qilish jarayonining ochiqqligi va fuqarolar ishtirokining kengayishi orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi; ikkinchidan, integratsiyalashgan boshqaruv modeli davlat institutlarining funksional moslashuvchanligini kuchaytirib, ijtimoiy muammolarga tezkor va manzilli javob berish imkonini yaratadi; uchinchidan, raqamli boshqaruv va ochiq ma'lumotlar siyosati davlat–jamiyat aloqalarini institutsional jihatdan mustahkamlab, hisobdorlik va shaffoflikni yangi bosqichga olib chiqadi; to'rtinchidan, jamoatchilik ishtirokining kuchayishi fuqarolarning siyosiy faolligi va davlatga bo'lgan ishonchini oshirib, barqaror taraqqiyot uchun zarur ijtimoiy kapitalni shakllantiradi; beshinchidan, O'zbekiston tajribasi integratsiyalashgan boshqaruv modeli milliy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, davlat va jamiyat institutlari o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi yagona institutsional platformani yaratish va uning vakolatlarini normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash zarur; ikkinchidan, jamoatchilik kengashlari va mahalla institutlarining real qarorlar qabul qilishdagi rolini kuchaytirish orqali ishtirokchilik mexanizmlarini amaliy mazmun bilan boyitish lozim; uchinchidan, raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini hududlar va ijtimoiy qatlamlar kesimida tenglashtirish maqsadida raqamli savodxonlik dasturlarini kengaytirish talab etiladi; to'rtinchidan, davlat xizmatlari samaradorligini baholashda fuqarolik jamiyati va mustaqil ekspertlarning ishtirokini institutsional darajada joriy etish muhim; beshinchidan, integratsiya jarayonlarini muntazam monitoring qilish va

ilmiy tahlil asosida baholovchi milliy indikatorlar tizimini ishlab chiqish barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNDP. Governance for Sustainable Development Report. – New York: United Nations Development Programme, 2018. – 12 p.
2. UN DESA. World Public Sector Report. – New York: United Nations, Department of Economic and Social Affairs, 2019. – 27 p.
3. Pierre J., Peters B.G. Governance, Politics, and the State. – London: Macmillan Press Ltd., 2000. – 12 p.
4. UN DESA. World Public Sector Report. – New York: United Nations, Department of Economic and Social Affairs, 2019. – 44 p.
5. UNDP. Governance for Sustainable Development Report. – New York: United Nations Development Programme, 2018. – 17 p.
6. Rhodes R.A. W. Understanding Governance: Policy Networks, Governance, Reflexivity and Accountability. – Buckingham: Open University Press, 1997. – 53 p.
7. Buken M. Public Trust and Good Governance. – New York: Routledge, 2016. – 29 p.
8. Bouckaert G., Halligan J. Managing Performance: International Comparisons. – London: Routledge, 2008. – 71 p.
9. To'xtashev A. Davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 118-bet.
10. Saidov A.X. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat. – Toshkent: Adolat, 2017. – 73-bet.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING AFG'ONISTONDAGI FAOLIYATI: TASHKILIY-HUQUQIY VA SIYOSIY JIHATLARI

Aziz Ro'zikulov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, mustaqil izlanuvchi

aziz_ruzikulov77@gmail.com

ORCID 0009-0005-2809-1594

UDK 355.4(2)7

Annotatsiya. Ushbu maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Afg'onistonga nisbatan tutgan pozitsiyasi, faoliyati va ushbu mamlakatda tinchlik hamda barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirib kelayotgan ulkan sa'y-harakatlari va ularning ahamiyati, bu borada qabul qilingan bir qator muhim rezolyutsiyalarni tahlil qilish orqali atroflicha yoritib berilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyodagi eng universal va nufuzli xalqaro tashkilot sifatidagi o'zni hamda roli oshib borayotgan zamonaviy bosqichda, mazkur tashkilot va uning tarkibiy tuzilmalari tomonidan butun jahonda tinchlik hamda barqarorlikni ta'minlash, har bir davlat va mamlakatning taraqqiyotga erishishi yo'lidagi sa'y-harakatlarini ro'yobga chiqarish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bir necha yillardan beri urush va mojarolar davom etayotgan Afg'oniston misolida ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining keng ko'lamli faoliyati yorqin namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tarkibiy tuzilmalari tomonidan Afg'onistonfa olib borilayotgan ishlar, xususan, ushbu mamlakatda tinchlik hamda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xavfsizlik Kengashi, Bosh Assambleya, BMT Nizomi, rezolyutsiya, Afg'oniston, tinchlik va barqarorlik, BMTning Afg'onistonga ko'maklashish Missiyasi, tashkiliy-huquqiy va siyosiy jihatlar.

UNITED NATIONS FUNCTION IN AFGHANISTAN: ORGANIZATIONAL, LEGAL, AND POLITICAL ASPECTS

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the United Nations position in Afghanistan, its activities and significant efforts to ensure peace and stability in the country, as well as their significance, through an analysis of a number of important resolutions adopted on the issue. In the modern era, when the place and role of the United Nations as the most universal and influential international organization in the world are growing, this organization and its structural divisions systematically work to ensure peace and stability throughout the world, implement the efforts of each state and country to achieve development and provide them with comprehensive

support. The example of Afghanistan, where wars and conflicts have been going on for several years, also clearly demonstrates the scale of the United Nations activities. This article analyzes the work carried out by the United Nations and its structural divisions in Afghanistan, in particular, the efforts aimed at ensuring peace and stability in this country.

Keywords: United Nations, Security Council, General Assembly, UN Charter, resolution, Afghanistan, peace and stability, UN Assistance Mission in Afghanistan – UNAMA, organizational, legal and political aspects.

Kirish. Xalqaro tashkilotlarning keyingi paytda Afg'onistondagi faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, 2001-yilda xalqaro hamjamiyat tomonidan ushbu mamlakatda boshlangan aksilterror operatsiyasidan so'ng xalqaro tuzilmalar faoliyatida ham birmuncha jonlanish ko'zga tashlana boshlaganligi namoyon bo'ladi.

Dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Birlashgan Millatlar Tashkiloti har bir davrda, har qanday vaziyatda va har qanday hukumat boshqaruvi davomida ham Afg'onistondagi voqea, jarayonlarga e'tiborli bo'lib kelgan. Ayniqsa, 2001-yildan so'ng BMTning Afg'onistonga bo'lgan e'tibori bir necha barobarga oshdi, desak ham, mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu davrdan boshlab Afg'oniston masalasi BMT Xavfsizlik Kengashi, Bosh Assambleya hamda bir qator quyi tuzilmalar va qo'mitalar, shuningdek, ishchi guruhlar doirasida turli sohalar, keng formatda va chuqur tahlilga asoslangan holda muhokama qilina boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. BMTning Afg'oniston bo'yicha faoliyat yuritishining huquqiy asoslari, manbalari sifatida avvalo BMT Nizomi [1] hamda ushbu mamlakatdagi vaziyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va xalqaro jihatlar aks ettirilgan normativ-huquqiy, siyosiy hujjatlar, dokladlar qatorida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari [2];

BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari [3];

BMT Bosh kotibining ma'ruza (hisobot)lari [4];

BMT Bosh kotibi maxsus vakili/missiya rahbarining qisqa ma'ruza (brifing)lari [5].

2001-yil oxirlaridan boshlab BMTning bir qator tuzilmalari Afg'onistonda o'z faoliyatlarini boshladilar. Bundan maqsad tezroq afg'on zaminini qayta tiklash, uni jahon hamjamiyatiga integratsiya qilish va bir necha yillik urush natijasida og'ir ahvolda yashab kelayotgan afg'on xalqining turmush tarzini o'nglash edi. Bu borada fikr bildirar ekan, dastlab BMTning insonparvarlik yordami yetkazish yo'nalishida, so'ngra esa BMTning Xalqaro Krizis Guruhi (International Crisis Group) bilan aloqalar bo'yicha direktori lavozimida xizmat qilgan professor Simon Chesterman 2001-yilning so'nggi oylaridan boshlab hali Afg'onistonda davlat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilmasdanoq BMT tuzilmalari Afg'onistonda keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirishga kirishib ketganliklarini qayd etib o'tgan edi. "Ushbu davrda BMTning turli agentliklari Afg'onistonda sohalar bo'yicha o'ziga xos "vazirliklar" rolini bajargan edilar", – deya fikrida davom etgan edi S.Chesterman [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Afg'oniston bo'yicha faoliyatini o'rganish va tadqiq etishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan. Ushbu metodologiya asosida mavzuga oid ma'lumotlar chuqur tahlil qilinib, ularning mamlakat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi va adolat tamoyillarini shakllantirishdagi o'rni oydinlashtirildi.

Natijalar va muhokama. BMTning Afg'oniston bo'yicha faoliyati shu qadar serqirradi, uni yaxshiroq anglash uchun BMT tuzilmalari darajasida tadqiq etish va o'rganishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz hamda yuqoridagi kabi Xavfsizlik Kengashi, Bosh Assambleya, shuningdek, Bosh kotib va missiya rahbari darajasida

tahlil etishni, BMTning yuqori darajadagi mazkur tuzilmalari hamda yuqori darajadagi rasmiylari va mas'ullarining tadqiqot mavzusiga doir faoliyatini kengroq yoritishni lozim topdik.

BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari. Afg'onistondagi vaziyatga doir eng muhim hujjatlar bo'lib, 2001-yildan to hozirgi vaqt (2025-yil)gacha jami 46 ta rezolyutsiya qabul qilingan [7]. Ularda Afg'oniston va uning atrofidagi vaziyatga oid muhim masalalar yuzasidan Xavfsizlik Kengashining doimiy (5 nafar) hamda vaqtinchalik (10 nafar) a'zolarining umumiy qarashlari va pozitsiyalari o'z aksini topgan.

2001-yil sentabr voqealaridan keyin bevosita Afg'oniston masalasiga bag'ishlangan dastlabki rezolyutsiya sifatida BMT Xavfsizlik Kengashining 2001-yil 14-noyabrda bir ovozdan qabul qilingan 1378-rezolyutsiyasini ko'rsatib o'tish mumkin va unda Afg'onistondagi vaziyat bo'yicha ilgari qabul qilingan barcha rezolyutsiyalari, shu jumladan, 1267 (1999), 1333 (2000) va 1363 (2001) rezolyutsiyalari bandlari tasdiqlandi, shuningdek, Xavfsizlik Kengashi Afg'onistonning BMTda muhim rol o'ynashi lozimligini ilgari surib, ushbu mamlakatda yangi hukumat tuzilishiga olib keladigan o'tish davri boshqaruvi zarurligini qayd etgan edi [8].

Mazkur rezolyutsiyada Xavfsizlik Kengashi Afg'onistondagi, xususan, Kobuldagi vaziyatning jiddiyligini tan olib, 1368 (2001) va 1373 (2001) rezolyutsiyalariga muvofiq terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatladi. U "Tolibon" harakatini Afg'onistondan "Al-Qoida" xalqaro terrorchilik tashkiloti va uning yetakchisi Usoma bin Lodin hamda ular bilan aloqador boshqa ekstremistik, terroristik guruhlar uchun tayanch va xavfsiz boshpana sifatida foydalanishga ruxsat bergani, shuningdek, xalqaro huquqni buzgani uchun qoraladi.

Rezolyutsiya afg'on xalqining barcha qatlamlari to'liq vakillik qiladigan, inson huquqlari va xalqaro majburiyatlarni hurmat qiladigan hamda insonparvarlik yordami yetkazilishiga ko'maklashuvchi hukumat shakllanishiga olib keladigan yangi va o'tish davri ma'muriyatini barpo etish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatladi. Ushbu hujjatda Afg'onistondagi barcha kuchlarni repressiyalardan tiyilishga, inson huquqlari va xalqaro gumanitar huquqni hurmat qilishga chaqiriq joy olgan edi [8].

1378-rezolyutsiyada Xavfsizlik Kengashi BMTning Afg'onistondagi o'tish davri ma'muriyatini o'rnatishdagi markaziy roli tasdiqlangan bo'lib, unda BMTga a'zo davlatlarni Afg'onistonda o'tish davri ma'muriyati va hukumatini o'rnatish, insonparvarlik yordami hamda mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy qayta qurish va reabilitatsiya qilish bo'yicha uzoq muddatli yordam ko'rsatishni qo'llab-quvvatlashga chaqirdi [8].

Shuni ta'kidlash joizki, Xavfsizlik Kengashining 1378-rezolyutsiyasi zamonaviy bosqichda BMTning Afg'oniston bo'yicha yangilangan pozitsiyasini aks ettiruvchi, ushbu tashkilotning Afg'onistonda yangidan kirib kelishi va keng qamrovli faoliyatini yo'lga qo'yilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tashkiliy, huquqiy, siyosiy hujjat bo'lgan edi.

Haqiqatdan ham, BMT tuzilmalari 2001-yildan keyingi Afg'oniston sharoitida aksilterror operatsiyasi boshlangan, davlat va hukumat boshqaruv tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilmagan, aholining insonparvarlik yordamiga muhtojligi darajasi keskin o'sgan bir sharoitda ulkan sa'y-harakatlarni amalga oshirganliklarini ta'kidlash lozim.

BMT Xavfsizlik Kengashining 2001-yil 6-dekabrda qabul qilingan 1383-rezolyutsiyasi Afg'onistonda doimiy faoliyat yurituvchi hukumat tuzilmalari tashkil etilguniga qadar amalda bo'ladigan boshqaruv mexanizmlari bo'yicha Bonn Kelishuvlari [9] natijalariga bag'ishlangan bo'lib, unda BMT shafeligida o'sha yilning 27 noyabr – 4 dekabr kunlari Bonn shahrida afg'on yetakchilarining to'rtta delegatsiyalari ishtirokida Afg'onistonning kelajakdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy

hamda xavfsizlik masalalari muhokama qilingan edi.

Shu bilan birga, BMT Xavfsizlik Kengashining 2001-yil 20- dekabrda 1386-rezolyutsiyasi Xavfsizlikka ko'maklashuvchi xalqaro kuchlar (ingliz tilidagi manbalarda "International Security Assistance Force" – ISAF)ga Kobul va uning atrofidagi hududlarda xavfsizlikni ta'minlashda Afg'oniston Muvaqqat ma'muriyatiga yordam berish hamda BMT xodimlari xavfsiz muhitda faoliyat yuritish olishlarini ta'minlashda ko'mak berish huquqini taqdim etgan edi [10].

BMTning so'nggi davrda, xususan, XXI asrda Afg'onistondagi faoliyatiga e'tibor qaratish ekanmiz, ushbu nufuzli tashkilot afg'on masalasiga jiddiy e'tibor bergan holda, uning serqirra jihatlari va ko'plab omillar bilan bog'liqligini inobatga olib, Afg'oniston bo'yicha alohida missiya tashkil etishni maqsadga muvofiq, deb topdi. Bu borada tegishli tartibda Xavfsizlik Kengashining 2002-yil 28-martida 1401-sonli rezolyutsiyasi [11] ham qabul qilindi. Mazkur rezolyutsiya orqali Birlashgan Millatlar Tashkilotining Afg'onistonga ko'maklashish Missiyasi (ingliz tilidagi manbalarda "United Nations Assistance Mission in Afghanistan" – UNAMA) tashkil etildi va quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- Afg'onistonda faoliyat yuritayotgan BMTga tegishli barcha tuzilmalarni bitta yagona missiyaga birlashtirish;

- Bonn Kelishuvlari amalga oshirilishini monitoring qilish va unga ko'maklashish;

- Afg'oniston hududida inson huquqlari, qonuniylik va gender tengligi ta'minlanishiga doir funksiyalarni bajarish;

- ijobiy harakatlar va xizmatlar orqali mamlakat miqyosida milliy yarashuv hamda kelishuvga erishish;

- BMTning Afg'onistonga insonparvarlik yordami ko'rsatish, iqtisodiyotni ko'tarish va mamlakatni qayta tiklashga ko'maklashish [12].

Mazkur Missiyaning tashkil etilishi, uning ahamiyati haqida fikr bildirar ekan, o'zbekistonlik taniqli afg'onshunos olim s.f.n., dotsent Sh.Akmalov BMTning Afg'onistonga ko'maklashish Missiyasi mamlakatda 1993-yildan beri faoliyat yuritib kelgan boshqa bir missiya – BMTning Afg'oniston bo'yicha maxsus Missiyasini o'rnida tashkil etilganligi va o'ziga xos tarzda estafetani qabul qilib olganligini ta'kidlab o'tadi hamda keyingi missiyaning vazifa va funksiyalari birmuncha kengligiga ham e'tibor qaratadi [13].

BMTning Afg'onistonga ko'maklashish Missiyasi haqida gap ketganda ta'kidlash joizki, haqiqatdan ham mazkur missiya xalqaro hamjamiyatning Afg'onistondagi tamsilchisi, BMTning mazkur mamlakatga oid barcha yo'nalishlardagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muhim missiyaga aylana oldi. Shu sababli bo'lsa kerak, o'tgan davrlar mobaynida BMT Bosh kotibining Afg'oniston bo'yicha tayinlanib kelingan maxsus vakili lavozimiga mazkur missiya o'z faoliyatini boshlaganidan so'ng zaruriyat ham sezilmay qoldi va hozirga qadar maxsus vakil tayinlanmasdan kelinmoqda. Chunki Bosh kotibning Afg'oniston bo'yicha maxsus vakilida ham kamida 20-30 nafar atrofidagi xodimdan iborat o'z ishchi guruhi bo'lishi, ularni faoliyatini ta'minlash va eng asosiysi, maxsus vakil hamda missiya aksariyat hollarda bir-birining ishini qayta takrorlashi mumkin edi.

Toliblar Afg'onistonda hokimiyatni qayta egallaganidan so'ng yana xalqaro darajada Bosh kotibning Afg'oniston bo'yicha maxsus vakilini tayinlash va u o'z faoliyatini yuritishi lozimligi xususida fikrlar faol tarzda bildirilayotgan bo'lsa-da, ushbu masala haligacha ochiq qolmoqda. Hatto ayni paytda "Tolibon" hukumati ham BMTning Afg'onistonga ko'maklashish Missiyasi faoliyatidan qoniqish hosil qilib, ushbu missiya ularga ma'qul ekanligi va toliblarning xalqaro hamjamiyat hamda BMT bilan bo'ladigan munosabatlarida muhim rol o'ynayotganligini qayta-qayta ta'kidlab

kelmoqdalar va shu boisdan Bosh kotibning Afg'oniston bo'yicha maxsus vakilini tayinlash zaruriyati yo'qligini ham ilgari surayotganliklarini qayd etib o'tish lozim.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda BMT Afg'onistondagi har bir voqea-hodisa va jarayonlarga e'tiborli bo'lib kelayotgan eng obro'li, ta'sirli va o'z so'ziga ega xalqaro tashkilot bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, BMTning 2001-yildan keyingi davrda bu boradagi faoliyati diqqatga sazovordir.

O'tgan davr mobaynida Afg'oniston masalasi BMTda keng qamrovli tarzda muhokama qilib kelinmoqda. Xususan, Xavfsizlik Kengashi, Bosh Assambleya hamda bir qator quyi tuzilmalar, qo'mitalar va komissiyalar faoliyatida Afg'oniston yetakchi mavzuga aylandi. Ushbu muhokamalar (jumladan, BMT Bosh kotibining ma'ruza (hisobot)lari, BMT Bosh kotibi maxsus vakili/missiya rahbarining qisqa ma'ruza (brifing)lari) natijasida bir qator muhim hujjatlar (BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari) ham qabul qilindi va ular tashkilotning Afg'onistonga nisbatan tutgan mavqeyini, serqirra faoliyatini yaqqol namoyon etadi.

"Tolibon" harakati hokimiyatga qayta kelganidan so'ng BMTning Afg'onistondagi faoliyati asosan gumanitar inqirozning oldini olish va insonparvarlik yordamini mamlakatga yetkazilishiga bosh-qosh bo'lish, inson huquqlari (shu jumladan, xotin-qizlar huquqlari) ta'minlanishiga erishish, Afg'onistonning xalqaro hamjamiyat bilan aloqalari saqlanib qolishiga ko'maklashish hamda mamlakatda tinchlik-osoyishtalik, xavfsizlik va barqarorlikning ta'minlanishida "Tolibon" hukumati bilan hamkorlik qilish va qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lib kelmoqda.

O'z navbatida "Tolibon" hukumati ham BMT bilan aloqalardan manfaatdorligini, ushbu tashkilot bir qator tuzilmalarining Afg'onistondagi faoliyatidan roziligini ma'lum qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations Charter (full text). 1945. <https://www.un.org/en/about-us/un-charter/full-text>
2. UN Security Council Resolutions on Afghanistan. <https://unama.unmissions.org/un-security-council-resolutions>
3. UN General Assembly Resolutions on Afghanistan. <https://unama.unmissions.org/un-general-assembly-resolutions>
4. Reports of the UN Secretary-General on the situation in Afghanistan and its implications for international peace and security. <https://unama.unmissions.org/reports-un-secretary-general>
5. The Special Representative to the Secretary-General for Afghanistan and Head of the United Nations Assistance Mission in Afghanistan (UNAMA) briefs the Security Council about the situation in Afghanistan. <https://unama.unmissions.org/srsg-briefings-security-council-1>
6. Chesterman, S. You, The People. The United Nations, Transitional Administration, and State-Building. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 296 p.
7. UN Security Council Resolutions on Afghanistan. <https://unama.unmissions.org/un-security-council-resolutions>
8. Resolution 1378 (2001). Adopted by the Security Council at its 4415th meeting, on 14 November 2001. The United Nations Security Council. S/RES/1378 (2001). [https://docs.un.org/en/S/RES/1378\(2001\)](https://docs.un.org/en/S/RES/1378(2001))
9. Resolution 1383 (2001). Adopted by the Security Council at its 4434th meeting, on 6 December 2001. The United Nations Security Council. S/RES/1383 (2001). [https://docs.un.org/en/S/RES/1383\(2001\)](https://docs.un.org/en/S/RES/1383(2001))
10. Resolution 1386 (2001). Adopted by the Security Council at its 4443th meeting, on 20 December 2001. The United Nations Security Council. S/RES/1386 (2001). [https://docs.un.org/en/S/RES/1386\(2001\)](https://docs.un.org/en/S/RES/1386(2001))
11. Resolution 1401 (2002). Adopted by the Security Council at its 4501th meeting, on 28 March 2002. The United Nations Security Council. S/RES/1401 (2002).

[https://docs.un.org/en/S/RES/1401\(2002\)](https://docs.un.org/en/S/RES/1401(2002))

12. The situation in Afghanistan and its implications for international peace and security / Report of the Secretary-General to General Assembly and Security Council. A/74/753–S/2020/210. – New York: UN, 17 March 2020. – P. 2. [https:// documents.un.org /doc/ undoc/ gen/ n20/062/25/ pdf /n2006225. pdf](https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n20/062/25/pdf/n2006225.pdf)

13. Акмалов Ш.И. Рол ООН в афганском урегулировании: проблемы и перспективы // Каспийский регион: политика, экономика, культура. №2, 2012. – С. 111-120. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-oon-v-afganskom-uregulirovanii-problemy-i-perspektivy>

QarDU XABARLARI

Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Qarshi davlat universiteti kichik bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 180003, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17.

Indeks: 4071

Terishga 2025-yil 26.12.da berildi.

Bosishga 2025-yil 27.12. da ruxsat etildi.

2025-yil 29.12.da bosildi.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84, 1/8.

Times New Roman garniturası. Nashriyot hisob tabog'i 22,35.

Buyurtma raqami: № 35.

Adadi 50 nusxa. Erkin narxda.